“VODIYNOMA”
(Tarixiy meros)

Ilmiy, ijtimoiy-tarixiy va ommabop jurnal
2026-yil №2 (43)

Muassis: “Meros” xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya jamoat fondi

Hamkorlarimiz: Z.M. Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti va Andijon davlat pedagogika instituti

Bosh muharrir:
Rustambek Shamsutdinov

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Baxtiyor Rasulov – t.f.d., professor

Tahrir hay’ati:
Abdullajon Rasulov – t.f.d., professor
Alisher Kudiyarov – t.f.n., dotsent
Bahodirjon Rahmonov – f.f.d., professor
Baxtiyorjon Akbaraliyev – t.f.d., professor
Iqbol Mirzo – O‘zbekiston xalq shoiri
Mavludaxon Rahmonova – t.f.n., dotsent
Mambet Qoykeldiyev – t.f.d., akademik
Mirsodiq Is’hoqov – t.f.d., professor
Ne’matjon Mamasoliyev – t.f.d., akademik
Farhodjon Nabiyev – f.f.d., professor
Soyibjon Hoshimov – t.f.d., professor
Shuhrat Rizayev – f.f.n., dotsent

Mas’ul kotib:
Sharofiddin Xoshimjonov – t.f.f.d

Texnik muharrir:
Nigoraxon Akbarova

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2018-yil 5-iyunda №0975 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Nashr indeksi: 170112

Nashr uchun mas’ul: R.T.Shamsutdinov

Tahririyat manzili: 170100, Andijon shahri Universitet ko‘chasi 129-uy.

Telefon: (99890) 253-26-32
Faks: (99874) 223-83-52.
Pochta: vodiynoma@mail.ru

Bosishga ruxsat etildi: 20.02.2026-y.
Qog‘oz bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$ Bosma tabog‘i: 13,5
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi. Adadi: 500 dona.

Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № 83

Chop etilgan maqolalarda bildirilgan fikr-mulohazalar tahririyat nuqtayi nazariga mos kelmasligi mumkin. Keltirilgan fakt va raqamlarning aniq va xolisligi uchun muallif javobgar hisoblanadi.

Muqova dizayni va original maket “Akademnashr NMM” MChJ tomonidan tayyorlangan.

“Akademnashr NMM”MChJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahri Chilonzor tumani So‘galli ota ko‘chasi 5-uy.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2017-yil 29-martdagi 239/5-sonli qarori bilan “Tarix” fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

ILMGA SADOQAT TIMSOLI
Hayitov Shodmon Ahmadovich
Turkiston taraqqiyparvarlarining ma’naviy merosi – milliy o‘zlikni anglash tamal toshi 2
“KATTA TERROR” DAVRIDA QATAG‘ON QILINGAN JADIDLAR
Rustambek Shamsutdinov
Qattol tuzumning navbatdagi qurbonlari va ularning fojiasi 4
Umid Bekmuhammad
Bekjon Rahmon: Xorazmlik jadid ma’rifatparvari 15
Rustambek Shamsutdinov, Nigoraxon Akbarova
Jumaboy Xusanboyev 20
Nigoraxon Akbarova
Nizomiddin Xo‘jayev 24
Rustambek Shamsutdinov
Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja 33
Rustambek Shamsutdinov, Nigoraxon Akbarova
Kazbekov Temurbek 37
Rustambek Shamsutdinov, Nigoraxon Akbarova
Abubakirov Karim Sodiqovich 41
Rustambek Shamsutdinov, Nigoraxon Akbarova
Alimov Komiljon 43
Rustambek Shamsutdinov
Avazjonov Muhammadjon 48
Rustambek Shamsutdinov
1937–1938-yillardagi “Katta qirg‘in”da qatag‘on qilingan o‘zbek ayollari 51
MILLAT FIDOYILARI
Rustambek Shamsutdinov, Baxtiyor Alimov
Kapitan Shukurov Xolmat: Namunali harbiy xizmatdan qatag‘on fojiasigacha 56
Rustambek Shamsutdinov, Jasurbek Iminov
Dadajon Egamberdiyev 58
Rustambek Shamsutdinov, Nigoraxon Akbarova
Qatag‘on qurboni Tursunov Fattoh (fojia tafsiloti hujjat va materiallarda) 61
TANQID VA TAQRIZ
Oybek Komilov
O‘zbek tarixshunosligidagi yangi monografik tadqiqot 68
Azamat Qorjovov
“O‘zbekiston tarixi” – qadimdan bugungacha bo‘lgan buyuk epos 71
Umid Bekmuhammad
Davr manzarasi va taqdirlar aks ettirilgan asar 74
ILMIY HAYOT
Hoshimov Soibjon
“Vodiynoma” – tarix va inson qalbi o‘rtasidagi muloqotdir 77
XALQARO HAMKORLIK UFQLARI
Soibjon Hoshimov
Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Tojikiston olimlarining “Globallashuv sharoitida Farg‘ona vodiysining tarixiy, falsafiy, tilshunoslik va etnomadaniy xususiyatlarining dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 82
Mahkamov Azizbek
Xorijga qilingan ilmiy safar taassurotlaridan 86
Bahodir Rahmonov
O‘zbek-qirg‘iz do‘stligi sahnada: O‘shda “Nodira” spektakli premyerasi bo‘lib o‘tdi 91
TA’LIM VA ILM FIDOYILARI
Qalandarov Dilmurod Madaminovich
Akademik Ne’matjon Mamasoliyevning ilmiy faoliyatidan kichik bir lavha 95
DAVR VA SHAXS
Nurali Qobul
Jannat to‘ri-yu jahannam tubi yoxud Reygandan Rashidov-u Niksondan Nazarboyev-u Klintondan Kunayevgacha 97
Ergashboy Jumaboyev
Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi: tarix, ibrat va ma’naviy uyg‘onish 110

TURKISTON TARAQQIYPARVARLARINING MA’NAVIY MEROSI – MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDAGI TAMAL TOSHI

Hayitov Shodmon Ahmadovich,
Buxoro davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori



XIX asrning oxiri – XX asrning dastlabki o‘n yilliklarida Turkiston mintaqasida “Mustaqillik!”, “Tinchlik!”, “Ozodlik!” shiorlari bilan maydonga chiqqan millat ziyolilari va taraqqiyparvarlari o‘z qarashlari, ilg‘or g‘oyalari va amaliy faoliyatlari bilan xalqni uyg‘otishga, savodli, ma’rifatli qilishga, huquq va erkinlikka, ijtimoiy tenglikka, dunyo mamlakatlari bilan bir qatorda yashashga da’vat etdilar. Ular milliy o‘zlikni anglash, ajdodlarimiz kim bo‘lgani-yu o‘tmishda qanday qudratli davlatlar barpo etilgani, ularning jo‘shqin qoni tomirlarida oqa boshlaganligi haqida xalq va millat orasida tashviqot va targ‘ibot ishlari olib bordilar. Taraqqiyparvarlarning ijtimoiy tarkibi xilma-xil bo‘lib, ular orasida millatparvar ziyolilar, ilg‘or fikrli savdogarlar yetakchilik qilardi. Yangi O‘zbekiston sharoitida jadid bobolarimiz va taraqqiyparvarlik harakati tarixini o‘rganish hamda millat va istiqlol fidoyilarining ibratli hayotini bugungi yosh avlodga singdirish borasida xayrli ishlar qilinmoqda. Tadqiqotchilar va olimlar tomonidan Turkiston tarixining murakkab, tilsimli, hamon oq dog‘lar bo‘lib kelayotgan sahifalarini ochishda xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Turkiston taraqqiyparvarlari merosi: tarixiy tajriba va milliy o‘zlik” ham ana shunday an’anaviy anjumanlardan biri hisoblanib, jadidchilik harakatining muhim markazlaridan biri bo‘lgan Buxoroyi sharifda – Buxoro davlat pedagogika institutida so‘nggi uch yildan buyon o‘tkazib kelinmoqda. Ushbu xalqaro ilmiy anjuman har yili buxorolik taniqli tarixchi olim, benazir inson va noyob nutq egasi, jamoatchi hamda Buxoro jadidchilik, taraqqiyparvarlik harakati tarixi bilimdoni va targ‘ibotchisi, tarix fanlari doktori, professor Sulaymon Inoyatovich Inoyatov tavallud topgan 12-mart sanasida bo‘lib o‘tadi. Mazkur xalqaro ilmiy anjumanning asoschisi va birinchi yalpi majlis ma’ruzachisi professor S.I.Inoyatovning o‘zlari bo‘lgan edilar. Ustoz Buxoro taraqqiyparvarlik va jadidchilik harakatining taniqli vakillari Fayzulla Xo‘jayev, Po‘latxo‘ja Qosimxo‘jayev, Latifxo‘ja, Ubaydullaxo‘ja, Usmonxo‘ja, Atoulloh Xo‘jalarining to‘g‘ridan to‘g‘ri avlodi bo‘lib, umrining keyingi davrini shu insonlar tarixini o‘rganishga baxsh etdi. Yuqori minbarlar-



Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, professor Bahodir Ma’murov

da, turli toifadagi ilmiy anjumanlarda S.I.Inoyatov ilmiy xulosalar bilan to‘yintirilgan, tarix fanida hamon ilmiy muomalaga kiritilmagan shirali, ravon, tushunarli tildagi ma’ruzalari bilan tinglovchilar mehri va hurmatini qozona oldi. U jadidchilik harakati tarixi haqidagi nutqlari bilan minglab insonlarning qalbiga kirib bordi.

Ustozni yod etishdan boshlangan “Turkiston taraqqiyparvarlari merosi: tarixiy tajriba va milliy o‘zlik” mavzusidagi 2026-yil 12-martda uchinchi bor o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjuman yalpi majlisda rejalashtirilgan tabrik so‘zlari va 12 ta ma’ruzadan so‘ng 222 ta maqola va tezislar talqini orqali davom etdi.



Buxoro davlat pedagogika instituti bosh binosida Turkiya, Rossiya, Ukraina, AQSh, shuningdek, Markaziy Osiyoning bir qator davlatlaridan, respublikaning turli viloyatlari oliygohlaridan anjumanga tashrif buyurgan olimlar, professor S.I.Inoyatovning qavm-qarindoshlari to‘planishdi. Avvalo, 2021-yildan (BDPI tashkil etilgan yili) buyon Buxoro davlat pedagogika instituti yutuqlarini aks ettiruvchi ko‘rgazma hamda S.I.Inoyatov fotoko‘rgazmasi, kitoblari namoyishi bilan tanishdilar. Yalpi majlisda xorijlik olimlardan professorlar Izham Haqimiy, Temur Xo‘ja Usmon Xo‘ja o‘g‘li, Shodmon Husenovich Vohidovlar ma’ruzalari bilan chiqish qildilar. Ayniqsa, S.I.Inoyatovning kiyevlik (Ukraina) do‘sti, professor Aleksandr Alekseyevich Beznosyukning “Сулаймон Иноятов – мировая веха истории”, domlaning 54 yillik qadrdoni, andijonlik professor R.T.Shamsutdinovning “S.I.Inoyatov Tojikistonda” kabi ma’ruzalari faollar zalidagi 500 nafardan ortiq anjuman ishtirokchilarining ko‘zini yoshga to‘ldirdi.

Ma’ruzalar va tavsiya etilgan maqolalar tahlil etilar ekan, anjuman qatnashchilari ichida nafaqat tarix va etnografiya sohasi mutaxassislari, balki pedagog, psixolog, sotsiolog, siyosatshunos, faylasuf, hatto aniq fanlar mutaxassislari ham borligi ayon bo‘ldi. Buxorolik tadqiqotchilar jadidlarning pedagogik qarashlari, maktabchilik faoliyati, savodsizlikni tugatishdagi xizmatlari, oilaga munosabati, hukumatni boshqarish sohasidagi g‘oyalari, falsafiy tafakkuri, diniy va dunyoviy ilm olishda ta’limga munosabatlari kabi ko‘pdan-ko‘p masalalar haqida ilmiy bahs va munozaralar yuritdilar.

Anjuman so‘ngida istiqbolda jadidchilik va taraqqiyparvarlik harakati tarixiga oid bir qator ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Jumladan:

– Turkiston jadidchilik harakatida ayollar ishtiroki masalalarini atroflicha o‘rganish;

– Turkiston taraqqiyparvarlari qarashlarida jadidlar bilan hamfikrlilik va amaliy faoliyat uyg‘unligi haqida ilmiy izlanishlar olib borish;

– Jadid oydinlarimizning pedagogik qarashlari xususida olib borilgan tadqiqotlar ustida ishlashni kengaytirish;

– Professor S.I.Inoyatov ma’naviy merosini yanada chuqur va atroflicha o‘rganish;

– Buxoro amirligidagi jadidlar soni haqida fikr bildirilganida ularning 3 mingga yaqinligi qayd etiladi. Jadidlarni nomma-nom aniqlash, ular haqida maqola, ocherk, jiddiy tadqiqotlar yaratish vazifasi ham kelajak zimmasida;

– BXSR hukumati tomonidan Germaniya, Turkiya, Fransiyaga 1922–1923-yillarda o‘qish uchun yuborilgan 56 nafar o‘quvchi va talabalarning asosiy qismi yurtiga qaytib kelgan. Ularning taqdirlari ham to‘la o‘rganilmagan. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarini kuchaytirish va h.k;

Yuqoridagi ilmiy vazifalarni bajarish bilan bog‘liq tavsiyalar anjumanning samarali va ahamiyatli bo‘lganidan dalolat beradi.

Xullas, “Turkiston taraqqiyparvarlari merosi: tarixiy tajriba va milliy o‘zlik” mavzusidagi xalqaro anjuman yoshlarni milliy mentalitet va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni vatanparvar bo‘lishlarida ajdodlar merosini o‘rganishga intilishga da’vat etgani shak-shubhasizdir.

QATTOL TUZUMNING
NAVBATDAGI QURBONLARI VA ULARNING FOJIASI

Rustambek Shamsutdinov,
tarix fanlari doktori, professor

SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi "Uchlik"ning 1937-yil 30-iyuldagi yig'ilishida qabul qilingan topshiriqqa muvofiq, O'zbekiston SSR Tashqi ishlar xalq komissarligida 1937-yil 13-noyabrdan 28-noyabrgacha bo'lgan qisqa vaqtda o'zbekistonliklardan 1610 mahbus ustidan jinoyat ishi ko'rilgan. Ularning tarkibi 811 "quloq", 207 ishchi va xizmatchi, 138 ruhoniy, mashg'uloti aniq bo'lmagan 240 kishidan iborat bo'lgan.

1937-yil dekabrida esa O'zbekiston bo'yicha 5441 kishi qatag'on qilinib, ulardan 1489 kishi otuvga, 3952 kishi 8–10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga surgun qilingan.

1937-yil 21-noyabrdagi "Uchlik" yig'ilishining 37-sonli bayonnomasida 242 ish bo'yicha 373 mahbus ustidan hukm chiqarilgan, shundan 28 nafari otuvga, 2 nafari afv etilishiga, qolganlari 8–10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan. Bu qatag'on qurbonlaridan 4 nafari – Og'aliqov Yunusjon, Erkin Nosir, Juvonmardiyev Abdullajon, Og'aliqov Ne'matjon haqida ma'lumot keltiramiz.[1]

Og'aliqov Yunusjon – 1884-yili Qo'qon shahrida savdogar oilasida tug'ilgan, xizmatchi, "Milliy ittihod" aksilinqilobiy tashkilotining sobiq a'zosi, aksilinqilobiy faoliyati uchun 1926-yili 7 yil qamoq jazosiga hukm etilgan, qamoqqa olish davrida do'kon mudiri bo'lib ishlagan.

Surgundan qaytib kelib milliy aksilinqilobiy tashkilot a'zolari bilan aloqani tiklagan, doimiy ravishda aksilinqilobiy millatchilik targ'iboti olib borgan, Sovet hokimiyati, partiya va hukumat olib borayotgan tadbirlariga qarshi ig'vogarlik, mish-mishlarni tarqatganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan, mol-mulki musodara qilingan.

Erkin Nosir – 1900-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan, "Botir gapchilar" aksilinqilobiy tashkilotning faol ishtirokchisi, 1930-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Hibsga olingan paytda kolxozchi. Qamoqdan qaytib kelib aksilinqilobchi, millatchilar bilan avvalgi aloqani tiklagan. Partiya va hukumatning sha'niga turli xil ig'vogarliklarni tarqatishda ayblanib 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Juvonmardiyev Abdullajon – 1892-yil Qo'qon shahrida savdogar oilasida tug'ilgan, "Milliy ittihod" aksilinqilobiy, millatchi tashkilotning a'zosi, hibsga olingan paytda Himoyachilar kollegiyasi a'zosi bo'lgan. "Botir gapchilar" aksilinqilobiy tashkiloti a'zolari bilan aloqada bo'lganlikda, aksilinqilobiy millatchilik ruhidagi suhbatlar olib borganlikda, Sovet hokimiyatiga qarshi tuhmatomuz fikrlar bildirganlikda, ya'ni O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda ayblanib, 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Og'aliqov Ne'matjon – 1877-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan, o'zbek, "Milliy ittihod" milliy aksilinqilobiy tashkilotining sobiq a'zosi, sobiq savdogar, hibsga olingan paytda "Intrud" artelida ishchi bo'lib ishlagan. Tanishlari orasida aksilinqilobiy tuhmatomuz targ'ibot olib borganlikda, partiya siyosatiga nisbatan norozilik bildirganlikda, ya'ni O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda ayblanib, 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan.

1937-yil 4-dekabrda O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo'lim Trigulov raisligida Ashurali Zohiriyning

[1] Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 3. Жертвы Большого террора из Узбекистана 1937 год, ноябрь. Главная редакция издательско-полиграфической акционерной компании "SHARQ". Тошкент, 2007, стр 362-363.


Ashurali Zohiriy
(1885–1937)

7876-sonli ayblov bo‘yicha ishi ko‘rib chiqilgan.

Zohiriy Ashurali – 1885-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan, o‘zbek, badavlat dehqon oilasidan, 1930-yilda aksilinqilobiy millatchi “Botir gapchilar” tashkilotini tuzishda faol qatnashganligi, aksilinqilobiy millatchi “Milliy ittihod” tashkilotiga aloqadorligi uchun 10 yilga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan. Qamoqqa olingan vaqtida pedagog bo‘lgan. A.Zohiriy bosmachilik harakatini tashkil etishda ishtirok etganlikda, 1937-yilda atrofiga 19 nafar faol, aksilinqilobchi, millatchi unsurlarni to‘plab, aksilinqilobiy guruh tuzishga uringanlikda ayblanib hibsga olingan.

Ashurali Zohiriyni otib tashlashga, unga tegishli bo‘lgan mol-mulkni esa musodara qilishga qaror qilingan.[2]


G‘ozi Yunusov
1889–1937

Yunusov G‘ozi – 1889-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan, o‘zbek, 1918–1923-yillarda Turkiston Kommunistik partiyasi a’zosi bo‘lgan, aksilinqilobiy millatchilik aybi qo‘yilib partiyadan chiqarilgan. Qora mehnatkash (ishchi) tabaqasidan, sovet apparatidan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Hibsga olingan vaqtda muayyan mashg‘ulotga ega bo‘lmagan. Yunusov G‘ozi o‘z atrofiga aksilinqilobiy millatchilarni to‘plaganlikda, ular orasida Sovet hokimiyatiga qarshi tuhmatomuz fikrlarni tarqatganlikda ayblanib, 10 yilga mehnat tuzatuv lagerlariga hukm qilingan, muddati 1937-yil 6-avgustdan hisoblangan.

Yaqinda O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmatlari arxividan Ashurali Zohiriy, Og‘aliqov Yunusjon hoji, Erkin Nosir, Juvonmardiyev Abdullajon va Og‘aliqov Ne’matjonlar haqida jadidchilikka oid hujjatlarni qo‘lga kiritdik. Tarixiy ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan bu ma’lumotlarni Siz muhtaram jurnalxonlarga havola etishni lozim bildik.

Ashurali Zohiriy inqilobgacha jadidlar tashkilotining faol ishtirokchisi bo‘lgan, inqilobdan keyin dastlabki kunlardanoq Sovet hokimiyatiga qarshi mustaqillik uchun kurash olib borgan, O‘rta Osiyoda birinchi bor milliy demokratik davlat – Qo‘qon muxtoriyati hukumati rahbarlaridan. A.Zohiriy 1917-yildan 1930-yilgacha “Fain-Turkiston”, “Milliy ittihod”, “Sho‘roi Islom”, “Turon”, “Hurriyat”, “G‘ayrat”, “Botir gapchilar” aksilinqilobiy, milliy tashkilotlarining faol a’zosi. Uning qo‘l ostida aksilinqilobiy, millatchilik ruhida tarbiyalanganlar qatorida Abdulla Karimov va Nazir To‘raqulovlar ham bor edi.

1929-yilda A.Zohiriy “Botir gapchilar” aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti rahbari sifatida Qo‘qon okrugi byurosiga ta’sir ko‘rsatish, rahbarlik lavozimlariga milliy kadrlarni joylashtirish maqsadida okrug kotibi Maksumovni (O‘zbekshyolkada ishlagan) va Abdulla Karimovni tashkilotga jalb etish masalasini ko‘targan. Abdulla Karimovni jalb qilishni A.Zohiriy majlisda shaxsan o‘z zimmasiga olganini bildirgan. U 1930-yili aksilinqilobiy millatchilik faoliyati uchun 10 yilga badarg‘a qilingan.

1934-yili qamoqdan qaytib kelgan A.Zohiriy Toshkentda jadidchilik bilan bog‘liq avvalgi aloqalarini tiklagan. U Abdulhamid Cho‘lpon, G‘ozi Yunusov, “Guliston” jurnali tahririyati kotibi Sodiqov bilan 1936-yilda Qo‘qon shahrida surgundan qaytib kelgan “Botir gapchilar” ishi bo‘yicha birga sudlangan shaxslarni birlashtirgan. Agentura materiallariga ko‘ra, A.Zohiriy Sulton G‘aliyev va dashnoqlar aksilinqilobchi, millatchi tashkilotlari bilan yaqin aloqada bo‘lgan. 1937-yili A.Zohiriy Qo‘qon shahrida Sulton G‘aliyevchilarning faol a’zolaridan Ashimbekov (RayZO xodimi) bilan uchrashib, ular bilan aksilinqilobiy millatchilik mazmunida suhbatlar olib borgan. A.Zohiriy avvalgidek aksilinqilobiy millatchilik pozitsiyasida mustahkam turgan va Sovet hokimiyatining murosasiz dushmani bo‘lib qolgan.

Inqilobgacha bo‘lgan davrda Og‘aliqov Yunusjon hoji Arabistonga borgan. Inqilob yillarida va undan keyin Y.Og‘aliqov “Sho‘roi Islom”, “Milliy ittihod” kabi aksilinqilobiy tashkilotlariga a’zo bo‘lgan, turli aksilinqilobiy guruhlar va Qo‘qon muxtor

[2] Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 4. Жертвы большого террора из Узбекистана 1937 год, декабрь. Ташкент главная редакция издательского-полиграфической акционерной компании “SHARQ”, 2008, стр 165-166.

hukumatida faol ishtirok qilgan. U aksilinqilobiy faoliyati uchun 1926-yili 7 yilga Sibirga badarg‘a qilingan. 1932-yili badarg‘adan qaytgach Qo‘qon shahriga kelib, avvalgi aksilinqilobiy millatchilikdagi aloqalarini tiklagan. 1934-yilda badarg‘adan qaytgan aksilinqilobiy tashkilot rahbari Ashurali Zohiriy va boshqalar, shuningdek, Toshkent shahrida yashagan Abdulhamid Cho‘lpon, G‘ozi Yunusov va “Guliston” tahririyati kotibi Sodiqov bilan yaqin aloqalarni qayta tiklagan.

Y.Og‘aliqov avvalgidek eski aksilinqilobiy millatchilik nuqtayi nazarida bo‘lgan, Sovet hokimiyatining murosasiz dushmani hisoblangan va Zohiriy, Erkin, Amonovlar bilan muloqotlarida muntazam ravishda aksilinqilobiy millatchilik mazmunida suhbatlar olib borgan.

Erkin Nosir 1920-yildan boshlab Ashurali Zohiriy bilan yaqin aloqada bo‘lib, uning ta’siri ostida aksilinqilobiy millatchilik tashkilotlarga qo‘shilgan. “Yangi Farg‘ona” gazetasi tahririyatida faoliyat ko‘rsatayotgan vaqtda Ashurali Zohiriy boshchiligidagi aksilinqilobiy guruh a’zosi bo‘lgan va guruh yig‘inlarida aksilinqilobiy, milliy mazmundagi suhbatlarda faol ishtirok etgan.

1929-yilda Ashurali Zohiriy boshchiligidagi “Botir gapchilar” aksilinqilobiy, milliy tashkilotiga a’zo bo‘lgan va bu tashkilotning filiallariga yangi a’zolarni jalb etishda faol ish olib borgan. U tomonidan tashkilotga 4 nafar shaxs jalb etilgan, jumladan, Farg‘ona shahridan Parpiboyev tashkilotning Farg‘ona filiali rahbari bo‘lgan. 1930-yili Erkin Nosir “Botir gapchilar” tashkilotining faol a’zosi sifatida 10 yilga badarg‘a qilingan. 1936-yilda Qo‘qon shahriga qaytib kelgach, A.Zohiriy, Y.Og‘aliqov va boshqa badarg‘adan qaytganlar bilan avvalgi milliylik aloqalarini tiklagan.

Erkin Nosir avvalgidek milliychilik nuqtayi nazarida qat’iy turgan va Sovet hokimiyatiga nisbatan murosasizligini bildirib turgan. Erkin Nosir hech qayerda ishlamagan va Sovet hokimiyatida ishlashni istamagan.

Juvonmardiyev Abdullajon shaxsiy do‘koniga ega bo‘lib, 1920-yilgacha gilam savdosi bilan shug‘ullangan, uylangan, 3 nafar farzandi bor, himoyachilar guruhi a’zosi bo‘lib ishlagan, badarg‘a qilinmagan, fosh etilmagan, aksilinqilobiy millatchilik aybi qo‘yilib yashiringan.

Juvonmardiyev Abdullajon “Ittihodi Islom” aksilinqilobiy, milliy tashkiloti a’zosi bo‘lgan, Qo‘qon shahridagi Ashurali Zohiriy va boshqa taniqli aksilinqilobiy, milliy arboblarning eng yaqin do‘stlaridan biri hisoblangan. Yillar davomida Ashurali Zohiriy, Miroqilov, Ziyoyev, Saydaliyevlar boshchiligidagi “Yangi Farg‘ona” gazetasi tahririyatida aksilinqilobiy milliylik guruhi a’zosi bo‘lgan. Saydaliyev, Miroqilov va Zohiriy uylarida o‘tkazilgan aksilinqilobiy milliy yig‘ilishlarida faol ishtirok etgan. Saydaliyev, Miroqilovlar “Botir gapchilar” aksilinqilobiy milliy tashkiloti faoliyati avj olgan davrda yig‘ilishlarda ishtirok etmagan, ammo Ashurali Zohiriy bilan yaqin aloqada bo‘lganlar. A. Zohiriy badarg‘adan qaytgach yana yaqin munosabatda bo‘lgan, tez-tez yakkama-yakka holda uchrashib, yaqin tanishlari bilan yashirin holda maxfiy suhbatlar olib borishgan.

Shunday holatlar bo‘lganki, A.Zohiriy va A.Juvonmardiyev suhbatlashayotganda uchinchi shaxs kelib qolsa, A. Juvonmardiyev mavzuni tugallamasdan boshqa mavzuga o‘tib ketgan va suhbat uzilib, ular gapni chalkashtirib yuborishgan. A.Juvonmardiyev A.Zohiriyning uyiga kelib, suhbatlar davomida o‘zini ashaddiy aksilinqilobiy millatchi sifatida ko‘rsatgan. U sud ishlarida quloqlarni himoya qilish orqali aksilinqilobiy millatchilik faoliyatini amalga oshirgan, turli bahonalar bilan ularni ozod qilishga erishgan. Xususan, L.M.Kaganovich nomli rayonda 29 nafar quloqni ozod qilishga muvaffaq bo‘lgan. A.Zohiriy A.Juvonmardiyevning bunday faoliyatini ma’qullagan.

Qamoqqa olingunga qadar terrorchi Alimxo‘jayev va Nishon Rizayev bilan yaqin aloqada bo‘lgan.

Og‘aliqov Ne’matjon Qo‘qon shahar kasalxonasida ishchi bo‘lib ishlagan, kelib chiqishi ruhoniylardan, ilgari Qo‘qon muxtor hukumatida faol ishtirok etgan, 15 yil davomida diniy faoliyat bilan shug‘ullangan, “Milliy ittihod”ning faol a’zolaridan biri bo‘lgan.

1937-yil 15-16-yanvar kunlari O‘zbekiston davlat nashriyoti do‘koniga aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti ishtirokchisi Yunusjon hoji Og‘aliqov rahbarlik qilgan. Shu vaqtda eski, butunlay vayron bo‘lgan madrasa buzilayotgan edi. Y.Og‘aliqov esa o‘zbek tarixiy qadriyatlarining yo‘q qilinishiga norozi bo‘lib shunday degan: “Qaranglar, hamma-

sini buzishyapti. Men O‘zkomstar vakolatlisi Mirza-Xayrulla Nosirovdan madrasadagi eski yozuvlarni ehtiyotkorlik bilan yechib olishini so‘ragan edim va bu ish uchun o‘z cho‘ntagimdan to‘lashni va’da qilgandim. Shunga qaramasdan, Mirza-Xayrulla bu masalaga e’tibor bermagan. So‘zining oxirida Y.Og‘aliqov shunday degan: “Endi Qo‘qonda birorta ham tarixiy bino qolmadi”.

Madrasa uch tomonidan buzilgani va uni saqlab qolish xavfli ekani aytilganda Y.Og‘aliqov: “Baribir ta’mirlash kerak edi”, deb javob bergan. Y.Og‘aliqov Sovet hokimiyati tarixiy binolarni buzib, barcha o‘zbeklarga xos narsalarni yo‘q qilayotganiga norozilik bildirgan.

1937-yil 26-iyulda soat taxminan kunduzgi 1 da Kosiblar nomli ko‘chada tikuv fabrikasi yonida turgan NKVDning agenti Ashurali Zohiriy bilan uchrashgan. Maxfiy xodimning “Qayerga ketyapsiz?” degan savoliga A.Zohiriy shunday javob qilgan: “Y.Og‘aliqovnikiga ketyapman, u kasal. Men 16-iyul kuni uning oldida bo‘lgan edim, uni tez yordam mashinasi bilan kasalxonaga olib ketishgan”, deb javob bergan. A.Zohiriy va maxfiy xodim Y.Og‘aliqovning uyiga borishganda u uyda bo‘lmagan, ularni uning xotini kutib olgan va Zohiriyga murojaat qilib: “Nega uzoq vaqtdan beri kelmadingiz? Do‘stingiz kasal, siz esa kirmaysiz”, degan. Taxminan 15 daqiqa o‘tirishgach Y.Og‘aliqov kelgan.

Maxfiyning Y.Og‘aliqovga bergan “Siz qayerda edingiz?” degan savoliga u shunday javob berdi: “Bir oylik ta’til davomida Toshkentda bo‘ldim, O‘zbekiston davlat nashriyoti ishlagan, ko‘zga ko‘ringan millatchi G‘ozi Yunusovnikida yashadim. Uning uyida men ko‘pincha millatparvar shoir Cho‘lpon bilan uchrashib turardim”.

Y.Og‘aliqov Cho‘lpon haqida u yomon yashayapti, moddiy jihatdan ta’minlanmagan, deb afsus bildirdi. Cho‘lpon ilgari Qo‘qon shahrida Og‘aliqov va Ashurali Zohiriy bilan birga ishlagan, ular do‘st hisoblangan.

Ashurali Zohiriy Abdulhamid Cho‘lpon haqida savol bermagan, jim turgan. Keyin Y.Og‘aliqov hukumat non narxini 20 foizga oshirganini, bu esa shov-shuvsiz amalga oshirilganini, ammo birozdan keyin narxlar taxminan 8 foizga tushirilib, atrofida katta tashviqot qilinishini aytgan. A.Zohiriy bu suhbatda ishtirok etmagan.

Y.Og‘aliqov o‘z ko‘rsatmasida O‘zSSR Xalq komissarlar Soveti raisi F. Xo‘jayev yana Toshkentga qaytib kelib, avvalgi lavozimi vazifasiga tayinlanganini bildirgan. Uning so‘zlariga ko‘ra, o‘sha yerdagi barcha ishtirokchilar F.Xo‘jayevning sog‘lig‘i uchun qadah ko‘tarib, ichishgan. Ashurali Zohiriy bu suhbatda ham ishtirok etmagan.

Shundan so‘ng Ashurali Zohiriy maktabga borishi kerakligini aytgan va maxfiy xodim bilan birga Y.Og‘aliqov uyidan chiqib, eski shahardagi bozor tomon yo‘l olishgan. Maxfiy xodimning “Qayerga ketyapsiz?” degan savoliga A.Zohiriy: “Bu yerda biroz ishim bor”, deb javob berib, ajralib ketgan.

1937-yil 27-iyul kuni soat 13 da maxfiy xodim Ashurali Zohiriyning uyiga kirib kelganida hovlida uning ayoli kutib olgan. Maxfiy xodim: “Yoqub Omonov uydami?” deb so‘raganida ayol hayron bo‘lib, nima deb javob berishni bilmay qolgan. Bu gapni eshitgan Ashurali Zohiriy: “Kiring”, degan. Maxfiy xodim uyga kirganda u yerda Ashurali Zohiriy, Og‘aliqov Yunusxo‘ja va Yoqub Omonov choy ichib o‘tirgan bo‘lishgan va maxfiy xodimni ham taklif qilishgan.


Tojixon Shodiyeva

Maxfiy xodim uyga kirgunga qadar ular o‘rtasida qandaydir suhbat bo‘lgani sezilgan, ammo maxfiy xodim kirishi bilan suhbat to‘xtatilgan va ular bir-birlariga qarab olishgan. Choy paytida maxfiy xodim tarixiy adabiyot haqida gap ochgan. Shunda Ashurali Zohiriy unga “Mashhur xotinlar” nomli tarixiy kitob bo‘lganini aytgan. Y.Og‘aliqov “Hozir bizda ham buyuk ayollar bor”, deb Tojixon Shodiyeva[3] – Molotov tuman qo‘mitasi kotibasi, Halima Nosirova – SSSR xalq artisti va Qimmatxon – qo‘qonlik, deb kulgan.

Shundan keyin Y.Og‘aliqov Farg‘ona vodiysiga yaqin orada professor Bulat Soliyev boshchiligida ekspeditsiya kelishi haqida gap boshlagan. Bulat Soliyev avval Turkiston muxtoriyati hukumatining gazeta muharriri bo‘lgan, taniqli milliy arbob bo‘-

[3] SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil oktyabrida Toshkentdagi yig‘ilishida Tojixon Shodiyeva 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Hozirda reabilitatsiya qilingan. Qarang: Рустамбек Шамсутдинов. Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари.... 262–263-betlar.

lib, Y.Og‘aliqov va Ashurali Zohiriyning do‘sti hisoblangan. Ekspeditsiya Farg‘ona vodiysiga kelayotgani haqida Y.Og‘aliqovning o‘zi Bulat Soliyev bilan Toshkent shahrida uchrashgan vaqtda bilib olgan.

1925-yili maxfiy xodim “Yangi Farg‘ona” gazetasi tahririyatiga ishga kirgan, u yerda o‘sha vaqtda Ashurali Zohiriy, Erkin Nosir va Lutfulla Olimiylar xizmat qilar edi. 1926-yil oxiriga kelib maxfiy xodim yuqorida ko‘rsatilgan shaxslar bilan o‘sha vaqtda aksilinqilobiy millatchilik guruhiga birlashgan holda yaqin aloqalar o‘rnatgan va ularning ishonchini qozongan. Tahririyatda ishlash davomida A.Zohiriy, Erkin Nosir va Lutfulla Olimiylar muntazam ravishda to‘planib, aksilinqilobiy millatchilik mazmunida suhbatlar olib borishgan.

A.Zohiriy, Erkin Nosir va Lutfullo Olimiy bilan yaqin munosabat o‘rnatgan maxfiy xodim turli idoralarda ishlagan va millatchilik faoliyatini olib borgan, ularning tanishlari davrasiga ham kirgan. Bu shaxslar qatoriga quyidagilar kiradi: Saydalin Said Sulton – o‘sha vaqtda viloyat moliya bo‘limi mudiri bo‘lgan, aksilinqilobiy millatchilik faoliyati uchun Tojikistonda hibsga olingan va hozirda lagerlarda jazo o‘tamoqda.

Ziyoyev Nozir – tahririyat mudiri bo‘lgan, 1936-yilda vafot etgan. Miroqilov Mirzohid – partiya viloyat qo‘mitasining tashviqot va targ‘ibot bo‘limi mudiri bo‘lgan, vafot etgan.Mulla Ahmad – sobiq savdogar, Qo‘qonda yashagan.

Maxfiy xodimning ta’kidlashicha, jadidlar 1927–1928-yillarda ko‘proq Said Sulton Saydalin, Mirzohid Miroqilovlar uylarida yig‘ilishar edi. Shunda Ashurali Zohiriy, Erkin Nosir, Lutfulla Olimiy va boshqalar bilan bo‘lgan suhbatlardagi asosiy mavzu aksilinqilobiy millatchilik ruhida olib borilgan. VKP(b) Markaziy Qo‘mitasi tomonidan olib borilayotgan milliy siyosat masalasi keng muhokama qilinardi. Yig‘ilish ahli VKP(b) MQning olib borayotgan mustamlakachilik siyosati va uning amaliyotidan kutilgan asosiy maqsad milliy aholini har jihatdan kamsitish, milliy arboblar faoliyatini tanqid ostiga olish orqali ular o‘rtasiga rahna solish, bir-birlariga qarshi qo‘yish, shovinistik amaliyotlar o‘tkazish, o‘zbeklashtirishni tag-tomiri bilan barbod qilish, shu mustamlakachilikni yashirish uchun turli niqoblarni qo‘llashga harakat qilinayotganini keskin tanqid qilish va bu borada amaliy tadbirlar o‘tkazish haqida o‘zaro fikr almashishardi.

Jadidlarning fikricha, partiya, sovet va kasaba uyushmalari idoralariga ko‘rsatma uchungina “o‘zbek shlyapasi” qo‘yilayotgani, asosiy boshqaruv apparati esa aksariyat ruslardan iborat bo‘lib, haqiqiy boshqaruv apparatiga mahalliy milliy kadrlarni yaqinlashtirmaslik yo‘lini olib borishlari belgilab berilgan edi. Yer-suv islohoti ham faqat ruslar manfaati uchun amalga oshirilishi uchun kurashganlar. Islohotdan tortib olingan yer va suv faqat ruslarga berilmog‘i kerak degan fikr ilgari surilgan. Misol sifatida Andijon okrugi tarkibidagi Marhamat rayonini ruslashtirish, bu yerdagi o‘zbek, tojik, uyg‘ur aholisini ko‘chirib yuborish, yer va suv inshootlarini mahalliy aholidan olib qo‘yib, ruslarga berish uchun kurash olib borilgan.

A.Zohiriy, Erkin Nosir, Lutfulla Olimiy, Mirzohid Miroqilov va boshqalar barcha lavozimlarga o‘zbeklarni ko‘proq ilgari surish kerakligini, shu orqali ruslarni siqib chiqarish mumkinligini ta’kidlashgan. Qishloq xo‘jaligida ishlayotgan ruslarni ko‘chirish va ularning yerlarini o‘zbeklarga berish kerak deb hisoblashgan.

Shuningdek, ular o‘rtasida O‘zbekistondan xomashyo olib chiqish va mamlakatga tovarlar olib kirish masalalari bo‘yicha ham tez-tez suhbatlar bo‘lib turgan. Bu masalada A.Zohiriy, Erkin Nosir, Lutfulla Olimiy va boshqalar O‘zbekistondan qimmatbaho xomashyo olib chiqilayotgani, ammo O‘zbekistonga keraksiz va qiymatsiz narsalar olib kirilayotganini ta’kidlashgan.

Bir kuni Lutfulla Olimiy ta’tildan qaytib, Namangan texnikumi o‘quvchilaridan biri bilan birga safar qilganini aytib, o‘quvchi stansiyalarning birida Olimiy O‘zbekistonga kelayotgan tovar poyezdlari yog‘och olib kelmoqda, boshqa bir stansiyada esa O‘zbekistondan chiqib ketayotgan mol ortilgan poyezdni ko‘rsatib, norozilik bilan shunday degan: “**O‘zbekistondan Rossiyaga barcha qimmatbaho narsalar olib ketilyapti, O‘zbekistonga esa quruq yog‘och olib kelinyapti**”.

Lutfulla Olimiy buni hayajon bilan so‘zlab bergan va o‘quvchining to‘g‘ri tushunganidan mamnun bo‘lgan.

Lutfulla Olimiyning gaplaridan kelib chiqib, A. Zohiriy, Erkin Nosirlar yosh avlod baynalmilal ruhda tarbiyalanayotgan bo‘lsa-da, amaldagi vaziyatni ko‘rib, sovet siyosati milliy boyish va farovonlikka emas, aksincha, boshqa natijaga olib kelmoqda, degan xulosaga kelishgan.

Bu aksilinqilobchi millatchilik guruhi, ayniqsa, Ashurali Zohiriy, o‘sha vaqtdagi Farg‘ona viloyatining rahbar xodimlari – Abdulla Karimov, Bo‘taboy Dadaboyev, Shomansur Alixo‘jayev, Akbar O‘rozaliyev, hozirda Toshkent shahrida O‘zbek ipakchilikda ishlayotgan Maksumovlar orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan.

1929-yil noyabr oyida Erkin Nosir, Abdulla Qahhor, Karimjon Ortiqboyevlar to‘planib yig‘ilish o‘tkazishgan. Yig‘ilish kengashga aylantirilib, unda “Botir gapchilar” nomli aksilinqilobiy, millatchi tashkilotini tuzishga qaror qilingan.

Ikkinchi yig‘ilish Ortiqboyev yoki Qahhorov uyida bo‘lib o‘tgan, unda birinchi yig‘ilish ishtirokchilaridan tashqari Ashurali Zohiriy va o‘sha vaqtda okrug xalq maorifi bo‘limi mudiri bo‘lgan Umarxo‘ja Homidov ham qatnashgan.

Yig‘ilishda yangi a’zolarni jalb qilish masalasi muhokama qilingan. Umar Homidov chiqish qilib barcha qarorlarni bayonnoma qilib yozishni taklif etgan va bu qabul qilingan, kotiblik vazifasi Abdulla Qahhorga yuklatilgan.

Shundan so‘ng Ashurali Zohiriy so‘zga chiqib, barcha ishtirokchilarni juda ehtiyotkor bo‘lish, odamlarga ishonmaslik to‘g‘risida ogohlantirgan va ishonchsiz bo‘lgan 10 nafargacha shaxsni sanab o‘tgan. Yangi a’zolarni qabul qilishda esa avval ularni yig‘ilishda muhokama qilish, keyin qaror qabul qilishni taklif etgan.

Ashurali Zohiriy yig‘ilish muhokamasiga Xalq komissarlari soveti sobiq raisi Abdulla Karimov, O‘zKompartiya Markaziy Komiteti kotibi Akmal Ikromov va okrug partiya komiteti kotibi Maksumovlarni nomzod qilib ko‘rsatish masalasini qo‘ygan.

Bu shaxslarni jalb qilish vazifasiga ko‘ra Ashurali Zohiriy Abdulla Karimovni (u Zohiriy bilan qo‘shni bo‘lib yashagan va otasi vafotidan so‘ng 12 yoshidan Zohiriy tarbiyasida bo‘lgan), Lutfulla Olimiy esa oblast partiya komiteti byurosi a’zosi sifatida Maksumov va Akmal Ikromovni jalb qilishi kerak bo‘lgan. Chunki ular bilan yaqin munosabatda bo‘lib, Akmal Ikromov bilan 1919–1920-yillarda Namanganda birga o‘qituvchilik qilgan.

Yig‘ilish yakunida Ashurali Zohiriy shunday degan: “Okrug partiya komiteti byurosida kamida 3 nafar a’zoyimiz bo‘lishi kerak, faqat shundagina tashkilot barcha idoralarga o‘z odamlarini joylashtirish imkoniga ega bo‘ladi va byuroga ta’sir ko‘rsata olishi mumkin”.

Tashkilot yig‘ilishlari har haftada o‘tkazilib turgan. Uchinchi yig‘ilish Ortiqboyev uyida bo‘lib o‘tgan, yig‘ilishda Umarxo‘ja Homidov, Ashurali Zohiriy qatnashmagani bois yig‘ilish faol o‘tmagan.

To‘rtinchi yig‘ilish Umarxo‘ja Homidov uyida bo‘lib o‘tgan. Unda avvalgi ishtirokchilardan tashqari yangi jalb qilinganlar Ermatov Nuritdin (Bag‘dodda ishlaydi, uyi Qo‘qonda) va Xusainov Muhitdinlar qatnashgan. Bu nomzodlar Ko‘katov tomonidan jalb qilingan.

Keyingi yig‘ilishlarda jalb qilingan nomzodlardan K.Soliyev, M.Rahimov (ularni Zohiriy jalb qilgan) va Farg‘onadan Parpiboyev (uni Erkin Nosir jalb qilgan) muhokama qilingan. Yangi jalb qilinganlarni sinovdan o‘tkazish maqsadida Ashurali Zohiriy suhbat olib borgan.

Parpiboyev bilan esa Omonov va Erkin Nosir suhbatlashgan. Erkinga Farg‘onada aksilinqilobiy, millatchi guruh tashkil etish vazifasi topshirilgan. Parpiboyev bu taklifni qabul qilib, Farg‘onaga bormasdanoq Abdulla Xolmatov va boshqalarni nomzod sifatida taklif qilgan, ammo ko‘pchiligi rad etilgan.

So‘nggi yig‘ilish 1930-yil 30-yanvarda Ermatov Nuritdinning uyida bo‘lib o‘tgan va aynan shu yerda “Botir gapchilar” aksilinqilobiy, millatchi tashkilot a’zolari hibsga olingan. Ashurali Zohiriy bu tashkilotning g‘oyaviy rahbari va tashkilotchisi bo‘lgan. “Botir gapchilar” tashkiloti tugatilgunga qadar A.Zohiriy 1936-yilda badarg‘adan qaytgandan keyin ham uning uyida yashab yurgan paytida ham Muhammadiyev Suhtor ishtirokida Abdulla Karimov haqida shunday gaplar aytilgan: “Inqilobgacha Ashurali Zohiriy jadid bo‘lgan. O‘sha vaqtda adabiyot tarqatish bilan shug‘ullan-



Nazir To‘raqulov (1892–1937)

gan “G‘ayrat” jamiyati mavjud bo‘lgan. A.Zohiriy bu jamiyat a’zosi bo‘lib, do‘kon boshqargan. Bu jamiyatga Nazir To‘raqulovning otasi ham a’zo bo‘lgan va u A.Zohiriy bilan do‘st bo‘lgan, o‘g‘li Nazir To‘raqulovni A.Zohiriy tarbiyasiga bergan. To‘raqulov Nazirning otasi Karimov Abdullani ham Zohiriy turgan joyga olib kelgan va uning huzurida shunday degan: “**Siz doimo Zohiriy bo‘lgan joyda bo‘lishingiz, uni va uning yaqinlarini muntazam borib ko‘rishingiz lozim**”.

Shundan keyin Karimov Abdulla[4] doimo Ashurali Zohiriy oldiga borib turgan va uning tarbiyasini olgan. A.Zohiriyning gaplari va shaxsiy kuzatishlaridan ma’lumki, Abdulla Karimov oblast partiya komiteti kotibi bo‘lib ishlagan paytida ham A.Zohiriy bilan yaqin aloqada bo‘lib, uning uyiga tez-tez kelib turgan.

Kunlarning birida A.Zohiriy uyda yo‘q payti uning xonadoniga Abdulla Karimov kelgan, u o‘sha vaqtda oblast partiya komiteti kotibi edi va A.Zohiriy uchun rus tilidagi gazetalar to‘plamini olib kelgan. Shu asosda A.Zohiriy Abdulla Karimovga nisbatan otalik huquqiga ega bo‘lgani uchun “Botir gapchilar” aksilinqilobiy millatchi tashkiloti yig‘ilishiga uni a’zo sifatida jalb qilish haqida ishonch bilan bayonot bergan.

A.Zohiriy bilan Abdulla Karimov o‘rtasida tashkilotga kirish masalasida suhbat bo‘lganmi-yo‘qmi bu aniq emas, ammo A.Karimov aksilinqilobiy millatchilar orasida bo‘lgani ma’lum.

...Ashurali Zohiriy o‘zining qator chiqishlarida dehqon-kolxozchilar hayoti haqida so‘z yuritib, kolxoz qurilishi boshlanganidan keyinoq qishloq aholisi orasida buzuqchilik, nafrat va turli guruhbozliklar kuchaygani, odamlar bir-birini “quloq” deb ayblash holatlari paydo bo‘lganini aytgan. Bunga misol sifatida Kaganovich tumani Chilki-Jida qishlog‘ida uning qarindoshi Botirali haqida gapirgan. Botirali 1934-yil boshlarida kolxoz kotibi bo‘lib ishlagan va unga qarshi yolg‘on materiallar asosida “quloq” degan ayb qo‘yilib, kolxoz mablag‘larini o‘zlashtirgan, degan bahona bilan badarg‘a qilingan. Uning ayoli esa kolxoz rahbarlari tomonidan bir “faol” shaxsga turmushga berilgan, u esa Botiraliga qarshi yolg‘on guvohlik bergan. Zohiriyning aytishicha, bunday holatlar barcha kolxozlarda uchragan.

Ashurali Zohiriyning aksilinqilobiy targ‘iboti ishchilar orasida ham samarali bo‘lgan. Bu o‘rinda taxminan 1919-yillarda u bosmaxona ishchisi Ubaydulla Maxsum Qodirovni “Milliy ittihod” tashkilotiga jalb qilgan. 1921-yillarda bu tashkilot tormor qilingan va bir qator shaxslar hibsga olingan. Shundan keyin ham A.Zohiriy o‘z qarashlaridan qaytmay, 8 yil davomida odamlarni jalb qilish va tarbiyalash bilan shug‘ullangan.

Ashurali Zohiriy 1929-yili o‘zining ishonchli shogirdlari – Yoqub Omonov, Erkin Nosir va boshqalar bilan birgalikda “Botir gapchilar” (“Jasur gapiruvchilar”) tashkilotini tuzgan. Bu tashkilotga ko‘plab yoshlarni – Turg‘un Parpiyev, Muydin Husainov, Nuritdin Ermatov va boshqalarni jalb qilgan.

1937-yil 30-yanvar kuni soat 7 larda maxfiy xodim Ashurali Zohiriy uyiga borgan. Darvozani taqillatganda avval bir kishi chiqib, kutib turishini aytgan, keyin Zohiriyning o‘zi chiqib, uni uyga taklif qilgan. Uyda A.Zohiriydan tashqari Yoqub Omonov (sobiq badarg‘a qilingan) va Mulla Ahmad Domulla, Zaynutdin Obidov ham bor edi. Maxfiy xodimning tashrifi ularni biroz bezovta qilgani sezilgan. Yoqub Omonov qo‘lida kichik daftarcha bo‘lib, unga qadimiy qo‘shiqlarni yozib borayotgandi, Mulla Ahmad esa unga aytib turgan.

Keyin suhbat eski adabiyot haqida davom etgan. Ashurali Zohiriy yozuvchi Fitrat (“Furqat”)ning qadimiy she’rlarini o‘qib, uni maqtagan va “Guliston” jurnaliga Fitrat haqida maqola yozishga ruxsat berilganini, hozir shu mavzuda material to‘playotganini aytgan.

Ko‘rinib turibdiki, Ashurali Zohiriy o‘zining milliy g‘oyalarini adabiyot orqali amalga oshirish niyatida bo‘lgan. Uning so‘zlaridan ma’lum bo‘lishicha, u doim sobiq millatchi Yoqub Omonov bilan aloqada bo‘lib turgan.

1937-yil 15-iyul kuni A.Zohiriy uyiga Muhammadiyev kelib, shahar xalq maorifi bo‘limiga yangi mudir tayinlangani haqida xabar bergan. Biroz vaqtdan keyin Y.Omonov ham kelgan. Suhbat da-

[4] 1937-yil iyulidan O‘zSSR Xalq komissarlari soveti raisi bo‘lib ishlagan. O‘zbekiston hukumati boshlig‘i A. Karimov 1937-yil 5-sentyabrda qamoqqa olingan va 1938-yil 27-aprelda otib yuborilgan. Vafotidan so‘ng oqlangan. Qarang: Рустамбек Шамсутдинов. Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари... 268-270-betlar

vomida Yoqub Omonov Abdulla Soliyevdan eshitganini aytgan, uning so‘zlariga ko‘ra, Soliyevga Umar Ahmadjonov xabar bergan: “Shu kunlarda Toshkentda Karimov va yana mingga yaqin odam hibsga olingan. Bu xabarga Zohiriy ham, Muhammadiyev ham hech qanday munosabat bildirmagan. Ko‘p o‘tmay Muhammadiyev ketgan”.

A.Zohiriy gazeta o‘qib o‘tirib, paxta narxi haqida gapirib, Y.Omonovga shunday degan: “Tanlab olingan paxtaning 1 kilogrammi 1 so‘m 25 tiyin qilib belgilangan, bu bir pud 20 so‘m turadi degani. 20 so‘mga esa bir puddan biroz ko‘proq bug‘doy sotib olish mumkin. Ilgari paxtaning bir pudi 4 pud bug‘doyga teng bo‘lgan. 1920-yildan keyin paxtachilik rivojlantirila boshlanganda ham Sovet hokimiyati paxtaga shunday narx qo‘ygan ediki, bir pud paxtaga 3 pud bug‘doy sotib olish mumkin edi. Hozir esa davlat paxta narxini o‘zi belgilab, shu bilan birga hech qanday sababsiz non va bug‘doy narxini oshirib, dehqonlarni aldayotganini aytgan”.

1936-yil sentyabrida maxfiy xodim ish topish maqsadida Toshkent shahriga borgan. Yo‘lga chiqish kuni Ashurali Zohiriy maxsus xodimga “Gulliston” jurnali tahririyati kotibi Sanjar Sodiqov nomiga paket bergan va og‘zaki ravishda undan jurnal uchun qaysi mavzularda maqolalar yozish mumkinligini so‘rashni topshirgan.

Toshkentda Zohiriy maxsus xodimga G‘ozi Yunusovning uyida to‘xtashni tavsiya qilgan va arab tilida yozilgan ikkita patefon plastinkasini berib, ularni shoir Cho‘lpon Abdulhamid Sulaymonovga yetkazishni so‘ragan.

A.Zohiriy maxsus xodimga yana shunday degan: “Agar Abdulhamid Cho‘lpon suhbat davomida o‘zining “Kecha va kunduz” asari haqida so‘rasa, unga ayting – Zohiriy uni to‘liq o‘qimagan, fors tiliga qilingan tarjima noto‘g‘ri bo‘lgan”.

Shuningdek, A.Zohiriy agar G‘ozi Yunusov 1935-yilda unga qoldirilgan ikki kitobni sotmagan bo‘lsa, ularni qaytarib olishni ham so‘ragan.

Ashurali Zohiriy madrasada ta’lim olgan va keyin Qo‘qon rus-tuzem maktabida o‘qishni boshlagan. O‘sha yerda ish haqi olib (taxminan 1905-yillarda) otasidan mustaqil ravishda yashay boshlagan. Madrasadagi hujrasini sotib, hozirgi uyini sotib olgan (avvaliga 1/8 qismini). Vaqt o‘tishi bilan 1920-yilgacha bo‘laklab sotib olib, Stalin ko‘chasi 193-uydagi hovli va uyni kengaytirgan, uch marta qo‘shimcha qurilish qilgan.

Uning otasi Zohirboy Oyim qishlog‘ida yirik boy – “quloq” bo‘lib, bog‘i va bir necha tanob yerlari bo‘lgan. Zohirboy (inqilobdan oldin vafot etgan) vafotidan keyin barcha mol-mulk va yer ishlarini Ashuralining akasi Xo‘ja Muhammad boshqargan. Zohiriy esa shaharda alohida uyida yashab, doim yoshlardan yollangan xizmatchilarni ishlatgan. Ularning vazifasi – Zohiriy yo‘qligida uyni qo‘riqlash, xonadonni tozalash, ovqat tayyorlash va boshqa uy ishlarini bajarishdan iborat bo‘lgan. Bu vaqtda uning xotini Oyim qishlog‘ida akasining oilasi bilan birga yashagan.

A.Zohiriy bilan uning akasi o‘rtasida yer va mulkni bo‘lish 1922-yilda amalga oshirilgan. Ashuralining akasi meros bo‘linganidan oldin ham, keyin ham doim bir yoki ikki nafar batrak saqlab kelgan.

Inqilobdan bir necha yil oldin Ashuralining otasi Zohirboy bir yahudiy savdogarga tegishli yerni ijaraga olgan, inqilobdan keyin bu yer asta-sekin ularning mulkiga aylangan va keyinchalik bo‘lingan. Bo‘linganidan keyin Ashurali Zohiriy batrak yollab, mol sotib olish uchun yuborgan, o‘zi esa ho‘kizlar, sigirlar, ot, aroba sotib olgan, chorvani boqish uchun o‘smir yollagan va uy ishlari uchun xizmatchi saqlagan.

Yillar davomida unga Oyim qishlog‘ida yashayotgan batrak Umarqul xizmat qilgan. Sobiq moy zavodi direktori Otaboyev ham bir yil davomida A. Zohiriyda batrak bo‘lib ishlagan.

1930-yilda hibsga olinguniga qadar A.Zohiriy katta “quloq” sifatida tavsiflangan: u uch nafar yollanma ishchiga ega bo‘lgan va Kaganovich tumani Qoshg‘ar qishlog‘ida sholi ekish uchun yerga ega bo‘lib, u yerlarni 1920-yildan keyin qismlab 2-3 barobar kengaytirib sotib olgan. U chorikorlar (ulushdor dehqonlar) orqali yerdan daromad olgan, shu bilan birga o‘zi shaharda xizmatchi sifatida ishlab, 5-6 kishilik oilasini ta’minlashga yetarli maosh olgan.

Ashurali Zohiriy inqilobgacha “G‘ayrat” tashkiloti a’zosi bo‘lgan, inqilobdan keyin esa bolsheviklarga qarshi “Tamim maorif” deb atalgan tashkilot tuzilgan va Zohiriy ham unda ishtirok etgan. U Turkiston muxtoriyatida faol qatnashgan. Ashurali

Zohiriy “Sadoyi Farg‘ona” va “Turk-So‘z” kabi gazetalari muharriri bo‘lgan. Bu gazetalarda bolshevizmga qarshi va burjuaziyani qo‘llab-quvvatlovchi maqolalar chop etilgan. A.Zohiriy tahririyatlarda ishlab, bolshevizmga qarshi faoliyat yuritgan.

1936-yil 23-iyun kuni maxsus xodim Ashurali Zohiriy uyida bo‘lgan (u “Botir gapchilar” aksilinqilobiy, millatchilik tashkilotining sobiq rahbari bo‘lib, 1934-yilda Belomor Boltiq lageridagi badarg‘adan qaytgan), u yerda Sa’dulla Tojiyev ham bo‘lgan (“agrar ish-dumi” bo‘yicha asosiy figurant). Konstitutsiya loyihasi haqida fikr almashish jarayonida S.Tojiyev shunday degan: “So‘z erkinligi, matbuot erkinligi, uy-joy daxlsizligi va mehnat qilish huquqi haqidagi moddalar deyarli Kerenskiy Konstitutsiyasidagi kabi bo‘lib, amalda bu erkinliklar faqat qog‘ozda qolmoqda. Agar kimdir ochiqcha, hatto uyezd rahbariyati haqida tanqidiy fikr bildirsa, albatta, uzoq yillarga jamiyatdan ajratiladi”.

SSSR tarkibidan har bir respublika erkin chiqib ketishi mumkinligi haqidagi modda muhokama qilingan. Bunda Sa’dulla Tojiyev “bu moddaga hech kim ishonmaydi va xorijda bu mavzuda ochiqchasiga kulishadi” degan.

Ashurali Zohiriy Sa’dulla Tojiyevning bu xulosalaridan qoniqqan va uni qo‘llab-quvvatlagan.

1936-yil 10-oktyabrda maxsus xodim Y.Og‘aliqov bilan uchrashganda u shunday fikr bildirdiki, hozir trotskizm va trotskiychilar haqida gaplashish juda ehtiyotkorlik bilan olib borilishi kerak, chunki bunday suhbatlarga Sovet hokimiyati juda qattiq munosabatda bo‘ladi. Misol tariqasida Og‘aliqov temiryo‘l ishchilar fakultetining o‘qituvchisi Mahmudov Abrorni keltirdi va uning Trotskiyni hamda otib tashlangan trotskiychilarni himoya qilgani uchun komsomol safidan chiqarilgani va ishdan bo‘shatilganini ta’kidladi.

Shuningdek, Y.Og‘aliqov o‘tgan yili Kavkazga ekskursiyaga borganini va bu vaqtda Rizo Qora Sharli uyida bir necha kun mehmon bo‘lganini ma’lum qilgan.

6-noyabrda maxsus xodim Og‘aliqov Yunusjon bilan uchrashgan. Og‘aliqov suhbatda ertaga namoyishda qatnashishini bildirgan so‘nggi va 7-noyabr kuni u maxsus kiyinib chiqqan:

9-noyabr kuni maxsus xodim Qo‘qonda yana Og‘aliqov Yunusjon bilan uchrashgan. Bu paytda otliq kolxozchilar Toshkentga yo‘l olgan marsh-kolonnasi o‘tgan. Og‘aliqov ularni kuzatib shunday degan: “Agar o‘zbek xalqining shunday tashkilot kuchlari xonlik davrida bo‘lganida, ruslar hech qachon xonlikni zabt eta olmagan bo‘lar va xonlar hali ham hukmron bo‘lar edi”.

Y.Og‘aliqovning kayfiyatidan o‘tmishdagi xonlik davriga nisbatan sog‘inish, qumsash tuyg‘ulari sezildi.

Otliqlar ortidan ularni kutib olgan namoyishchilar yurardi. O‘tib borayotgan yahudiy Pedagogika texnikumi talabalari safini ko‘rib Og‘aliqov shunday degan: “Mana, yahudiylar ketyapti, qo‘shiq aytishyapti va bayroq ko‘tarib borishyapti, ammo ularning qalbida sovet g‘oyasi yo‘q, ular faqat qanday qilib ko‘proq pul topishni o‘ylashadi”.

Og‘aliqov Yunusjon hoji va Og‘aliqov Ne’matjonlar Qo‘qonda yashaydi. Ikkisi ham ilgari milliy aksilinqilobiy **“**Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Yunusjon hoji Eski shahar qismidagi O‘zbekiston davlat nashriyotiga qarashli kitob do‘konida mudirlik qiladi, ukasi Ne’matjon esa shahar kasalxonasida qorovul bo‘lib ishlaydi.

Yunusjon hoji Og‘aliqov – Inqilobga qadar Arabistonda haj qilgan va Istanbulga borgan, qaytgach Qo‘qonda tayyor kiyim do‘koni ochgan, Fevral inqilobi davrida “Sho‘roi Islom” va shahar Dumasi a’zosi, milliy aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkiloti va uning filiali “Botir gapchilar” a’zosi, 1932-yili qo‘lga olingan, 1935-yili qamoqdan qaytib O‘zbekiston davlat nashriyoti tizimida ishlagan, Ashurali Zohiriy bilan yaqin aloqada bo‘lib, siyosiy fikrlarini ochiq aytishda ehtiyotkor bo‘lgan, yahudiylarga nisbatan salbiy qarashda bo‘lgan, gazetalarni diqqat bilan kuzatib borgan.

Og‘aliqovlarning otasi yirik qo‘y savdogari bo‘lgan.

Ne’matjon Og‘aliqov – aksilinqilobiy jadidchi “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi, o‘zbek, 56 yoshda, ijtimoiy kelib chiqishi savdogar, madrasani o‘qib bitirgan, yer islohoti davrida bog‘ va yeri musodara etilgan, Sovet hukumatiga qarshi norozilik bildirgan. Avvalda “Sho‘roi Islom” va “G‘ayrat” tashkilotlarida qatnashgan, keyinroq Turkiston muxtoriyatining milliy, aksilinqilobiy harakatida ishtirok etgan va hukumat a’zosi bo‘lgan, o‘ta dindor inson, Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan

hibsga olingan, 3 oy qamoqda o‘tirgan. Avvalgi faoliyati tufayli yetib bormaslik uchun shahar shifoxonasida hofiz bo‘lib ishlagan, nogironligi tufayli ishdan bo‘shagan.

1937-yil 31-yanvar kuni maxsus xodim Og‘aliqov Yunusjon bilan uning savdo do‘konida uchrashgan.

Og‘aliqov Yunusjonning Soliyev Mirza Abdulla bilan aloqasi bo‘lgan. Mirza Abdulla 1930-yili “Yangi Farg‘ona” gazetasi muharririyatida harf teruvchi bo‘lib ishlagan, Molotov rayonida O‘zbekiston davlat nashriyoti do‘konining rahbari sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

Og‘aliqov Yunusjon va Soliyev Mirza Abdulla orasidagi suhbatda Og‘aliqov: “Kolxozchilar hayotidan norozilar, Sovet hukumati ularni aldaydi, kolxozlarda non yo‘q, ammo aroq ko‘p”, deb aytgan.

Og‘aliqov Yunusjon shunday hodisani aytib bergan: “Bir kuni do‘konimga kolxozchi kirdi, garchi u do‘kon kitob do‘koni ekanini ko‘rgan bo‘lsa-da, oq aroq so‘radi. Men unga aroq borligini aytib, bir butilka gummiarabikini berdim, u 3 rubl 70 tiyin to‘ladi va ketdi”.

Shu yerda hozir bo‘lgan domulla Ashurali Zohiriy va boshqalar kuldi: “Qarang, bizning kolxozchini qanchalik oson aldash mumkin. Sovet hukumati uni qanday qilib boqishini bilsin”.

Yunusjon Og‘aliqov maxsus xodimga shunday degan: “1937-yil 21-iyul kuni ertalab qamoqqa olish kuni bozorga chiqdim, gap tarqaldiki, ular guruch sotadi. Ertalab soat 5 dan 9 gacha hech narsa yo‘q edi va, ma’lum bo‘ldiki, guruch bo‘lmaydi. Uyga qaytar vaqtda bir do‘kon oldida navbatni ko‘rdim. So‘rab bildimki, ular moy bermoqchi. Moy navbatida turdim, aka-ukam va o‘g‘lim ham. Tushgacha turib bir litr moy oldim. Navbatda ko‘p odam bor edi va ular qiyinchilikka tushib hayratda edi, men ham qattiq qo‘rqdim. Qanday qilib Sovet hukumati miqdori shuncha ko‘p ozuqaga muhtoj odamlarni boshqaryapti? Nega xalq g‘azablanmaydi? Bu fikrlarim eng yomon imkoniyatlarga borib yetdi: tartibsizlik, beqarorlik, ochlik va dahshatli oqibatlar. Agar urush yoki katta beqarorlik boshlansa, bu holat mening qo‘rquvimni yanada kuchaytiradi. Ammo shunday bo‘lsa ham, hozirgi kunda bir butilka moyni olish uchun bir kun mehnat qilish kerak bo‘lsa-da, bu juda yaxshi va kelajakda yanada yaxshi bo‘lishi mumkin, davlatdagi tartibsizlikdan yaxshiroq. Shuning uchun hozirgi mavjud qiyinchiliklarni fojiali holat deb hisoblayman va aholi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanishi va farovonligi yaxshi bo‘lishiga umid qilaman”.

1937-yil 10-iyulda A.Zohiriyning xonadoniga avval Ne’matjon Og‘aliqov, so‘ngra Yoqub Omonov kelgan

Yoqub Omonov Ne’matjon Og‘aliqovdan: “Nega sizni shuncha vaqt ko‘rishmadi?” deb so‘raganida u: “Men bemor edim”, deb javob qilgan.

Shundan keyin N.Og‘aliqov 13-iyul kuni o‘z chiqishidan so‘ng Toshkentdan qator qamoqqa olishlar amalga oshirilgani, professor Abdurauf Fitrat va shoir Abdulhamid Cho‘lpon qamalgani, shuningdek, “Guliston” jurnali muharrirligida ishlagan Sodiqov ishdan olinganini aytdi.

Bu haqda N.Og‘aliqovga Toshkentdan kelgan milliy harakatchi Fotima Ziyoyeva ma’lum qilgan. Uning so‘zlariga ko‘ra, Toshkentdan chiqar ekan, bu xabarni uning iltimosi bilan G‘ozi Yunusovga yetkazishini so‘rashgan.

Suhbatda N.Og‘aliqov milliy harakatchilarning qo‘lga olinishi yuqori rahbarlar tomonidan shakllangan g‘azab sifatida baholangan va bu holat milliy harakatchilarga qarshi munosabat sifatida ta’riflangan.

Shu bilan birga N.Og‘aliqov shunday anekdotni aytib bergan: boyarlar urushayotgan ekan, milliy kamchiliklar esa chublari o‘zlaricha chir-chir qilib sinchlab ketadi.

Maxsus xodim savoli: “Siz hali ham o‘zingizni milliy harakatchi deb hisoblaysizmi? Va nima uchun sizga ehtiyotkorlik kerak, boshqalar nima uchun sizdan ehtiyot bo‘lishga harakat qiladi?”

Og‘aliqov javob berdi: “1930-yildan beri hammasini unutdim va tashlab qo‘ydim, ammo men milliylikda ayblanganimni bilishadi, shuning uchun ehtiyotkorlik qilishadi”.

Shuningdek, N.Og‘aliqov o‘z ishsizligi haqida gapirib shunday dedi: “Men barchaga huquq beruvchi ochiq qonunni qidirmayman, chunki unga rioya qilinmaydi. Balki boshqa qonun bordir, uning ostida milliy harakatchilarga qiynoq ko‘rsatiladi va shu qonunga men ham kirib qoldim. Rahbarning so‘zlari qonundir, unga to‘la qonun deb qaralmaydi”.

Suhbatning davomida N.Og‘aliqov shunday dedi: “Zohiriy Mulla Ahmad (familiya ma’lum

emas) va Ahmadjon Hakimov bilan muloqotda ehtiyotkor bo‘lishi kerak. Ilgari bu shaxslar milliy harakatchi guruhlariga kirgan”. Og‘aliqov Nabijon sovetlarga qarshi kayfiyatda bo‘lib, tizimli ravishda sovetlarga qarshi qaratilgan suhbatlar olib borgan.

Joriy yilning aprel oyida Og‘aliqov ko‘chada Omonov bilan uchrashib, o‘z hayotidagi qiyinchiliklardan norozi ekanligini bildirgan, har kuni non uchun navbatda turishga to‘g‘ri keladi, degan. Shahar soveti oldida A.Zohiriy bilan uchrashgan. A.Zohiriyning “Qayerga ketayotibsiz?” degan savoliga N.Og‘aliqov javoban “Non olishga” deb, eski qo‘shiqlardan iqtibos keltirib, “Har bir kishi o‘z ko‘zyoshlarini sevgilisi oldida oqizsin”, unga qo‘shimcha qilib, “Har bir kishi o‘z ko‘zyoshlarini non oldida oqizsin”, deb aytgan.

1937-yil 14-iyul kuni Yoqub Omonov uyiga qaytdi. A.Zohiriy uyda o‘tirgan edi va Y.Omonovga savol bilan yuzlandi: “Xo‘sh, ko‘chada nima gaplar?” Bunga A.Zohiriy: “Nahotki ko‘chada jarchilar hamma xalq dushmanlarini ursin va kaltaklasin deb jar solishmayotgan bo‘lsa?” deb javob qaytardi. Shundan so‘ng A.Zohiriy “xalq dushmanlari” degan iboraga to‘xtalib, bu termin to‘g‘ri kelmasligini aytdi. “Har qanday siyosiy oqim xalqning farovon va oson yashashini istaydi. Va endi faqat jarchining o‘sha “xalq dushmanlari” deb atalmish kishilarni kaltaklashga chaqirib qichqirishi qoldi, xolos”, dedi. “Ha, – dedi A.Zohiriy, – hech kimda halovat bo‘lmagan mana shu asrda tug‘ilish va yashash peshonamizga yozilgan ekan. Qaysidir bir ahmoq matbuotda chiqish qilib, og‘ziga kelgan gaplarni gapirib tursa, yana nima ham deyish mumkin”.

Shundan so‘ng A.Zohiriy Ne’matjon Og‘aliqov (Yunusjon Og‘aliqovning akasi, A.Zohiriy 1937-yil 12-iyulda ularnikida bo‘lgan edi) bilan qilgan suhbatini eslab shunday dedi: “Mana, Ne’matjon suhbatda... juda qiynalib yashayotganini aytyapti. U, Ne’matjon, hayratlangan holda imom Buxoriyni eslaydi: u kishi o‘z davrida juda aqlli, deyarli avliyosifat odam bo‘la turib, o‘z joniga qasd qilishga qaror qilgan, lekin o‘z joniga qasd qilmagan ekan. Men nega bunday odam o‘z joniga qasd qilish haqida o‘ylaganiga hayron qolaman. Ko‘rinishidan odamlar va hayot shu darajada siqib qo‘yar ekanki, hatto o‘z joniga qasd qilish haqida o‘ylashga ham majbur bo‘larkansan, deydi Ne’matjon”.

Abdullajon Juvonmardiyevning kayfiyati millatchilik ruhida edi. 1937-yilning iyunida A.Juvonmardiyev A.Zohiriyning uyida bo‘lganida Kaganovich tumanidagi 24 kishi ayblanayotgan bir quloqlik ishi bo‘yicha Oliy sud orqali uni qanday to‘xtatishga erishganini zavq bilan gapirib bergan. A.Juvonmardiyev bu ishni shunday tavsiflagan: “Ish bo‘yicha 24 nafar quloq jalb qilingan edi, ulardan 12 nafari qochib ketgan, sud ishni ko‘rib chiqib, 12 kishini qamoq jazosiga hukm qildi. Shundan so‘ng, hukm qilingan quloqlarning iltimosiga ko‘ra, Juvonmardiyev hukmni olib Toshkent shahriga jo‘nab ketdi va Oliy sudda jalb qilingan 24 kishidan 12 nafari noto‘g‘ri hukm qilinganini isbotladi, shu asosda Oliy sud hukmni bekor qilib, 12 nafar mahkum quloqni ozod etdi. Bu bilan Juvonmardiyev quloqlarni himoya qilishda ifodalangan o‘zining sovetlarga qarshi faoliyatini alohida namoyon qilgan.

A.Zohiriy A.Juvonmardiyevning aksilinqilobiy faoliyatiga qoyil qolgan va bu haqda keyinchalik o‘zining ayoliga hamda jiyanining eri Sotiboldi Hasanovga so‘zlab bergan. Hasanov ilgari quloq bo‘lgan, quloq sifatida hibsga olingan, biroq A.Juvonmardiyevning ko‘magi bilan ozod qilingan edi. Bu qayd etilgan hujjat va materiallar O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi aksilinqilobiy bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari, Davlat xavfsizligi katta leytenanti Vakulenko, 4-bo‘lim boshlig‘i Davlat xavfsizligi katta leytenanti Fukinlar tomonidan imzolagan.

BEKJON RAHMON:
XORAZMLIK JADID MA’RIFATPARVARI

Umid Bekmuhammad,
Xorazm Ma’mun akademiyasi katta ilmiy xodimi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori



Bekjon Rahmon
(1887–1929)

O‘zbek jadid adabiyotidagi Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon kabi siymolarning safdoshi, shuningdek, o‘z davrida Xorazmdan birinchi bo‘lib Istanbulda tahsil olgan, 1920-yil kuzidagi Bokuda o‘tkazilgan Sharq xalqlari va 1926-yilda yana Bokuda o‘tkazilgan turkologiya qurultoyida ma’ruza bilan qatnashgan jadid ziyolisining nomi tarixiy manbalarda Bekjon Rahmon tarzida keltiriladi. Bekjon Rahmon serqirra faoliyat sohibi bo‘lib, jadid maktabi o‘qituvchisi, jurnalist, muzeyshunos, san’atshunos, folklorshunos, publitsist, diplomat, jamoat va davlat arbobi sifatida tarixda qoldi.

Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida Bekjon Rahmon hamda Muhammad Yusuf Devonzodalarning asaridan g‘oyat ta’sirlanganini yozgan va ushbu kitobning musiqashunoslikda tutgan o‘rniga nihoyatda yuksak baho bergan edi. Haqiqatan ham, 1925-yilda Moskvada nashr etilgan “Xorazm musiqiy tarixchasi” kitobi musiqa nazariyasi va tarixiga doir eng e’tiborli manba bo‘lgani bois B.Belyayev hamda G.Former kabi rus va xorij musiqashunoslari ham Bekjon Rahmon va Devonzodalarning asariga murojaat qilishgan.

Ana shunday dovruqli asar bitgan mualliflardan biri Devonzodaning Chokar taxallusi bilan ijod qilgan mohir sozanda, xonanda bo‘lganligi ham ma’lum. Xo‘sh, Bekjon Rahmon-chi? Afsuski, bu shaxsning hayoti hanuz to‘la o‘rganilmay kelmoqda. Aslida Bekjon Rahmon Xorazm jadidlarining yetakchilaridan biri, madaniyat va ma’rifat arboblaridan edi. Shuningdek, Xorazm xalq respublikasi davrida nozir (vazir) vazifasida faoliyat ko‘rsatgan davlat arbobi va Buxoro respublikasida elchi vazifasida ishlagan diplomat ham bo‘lgan.

Bekjon 1887-yilda Xiva shahrida tug‘ilgan edi. Ilmli, ma’rifatli bo‘lganidan xalq o‘rtasida va shu davrga oid ayrim hujjatlar, maqolalarda Mulla Bekjon, Bekjon afandi degan nom bilan qayd etiladi.

Otasi Rahmonbergan bosh vazir Islomxo‘janing ish boshqaruvchisi bo‘lgan. Rahmonbergan aynan Xiva shahrida Islomxo‘ja tomonidan barpo etilgan jadid maktabi, minora, madrasa, pochta-telegraf binosi, shifoxona qurilishlariga boshchilik qilgan.

Ana shunday taraqqiyparvar Rahmonbergan o‘g‘lining iqtidorini, izlanuvchanligini sezganidan uni Xivadagi Islomxo‘janing jadid maktabiga o‘qishga beradi. Maktabni tugatgach esa Olloqulixon madrasasida ham tahsil oladi. Otasi Rahmonbergan singari Islomxo‘ja ham Bekjonning iqtidorini anglab, uni qo‘llab-quvvatlaydi va 1909-yilda Istanbulga o‘qishga yuborishga boshchilik qiladi.

Xorazmdan borgan Bekjonni Fitrat va boshqa buxoroliklar Istanbulda kutib olishadi va natijada ular bilan 1909–1913-yillarda universitetda tahsil oladi. Fitrat va Bekjonning og‘a-ini, do‘stligi, maslakdoshligi o‘sha Istanbuldalik paytidan boshlangan edi.

G‘ozi Olim Yunusov 1937-yil 25-apreldagi so‘roqda quyidagilarni aytgan: “...1909–1913-yillarda Istanbul pedagogika institutida, so‘ngra bir yil Qohiradagi Al-Azhar madrasasida o‘qidim. 1914-yil jahon urushi boshlanib qolgani tufayli Germaniyada tahsil olish niyatim amalga oshmay qoldi va Toshkentga qaytdim. Men 1909-yil Istanbulga kelganimda u yerda Buxorodan Fitrat, Mukamiddin-

beklar, Buxoro qushbegisining qarindoshi Mazhar Burhonov, Ahmadjon Maxzumlar, Xorazmdan Bekjon Rahmonov, Toshkentdan Shohid Eson Musayev, Xolid Saidlar mendan avval Turkiyaga borgan ekanlar. U yerda “Turon nashri maorif jamiyati”ni ochib, unga Fitrat, Mazhar Burhonov, Abdulaziz Kuljaviylar boshchilik qilardilar” (Bahrom Irzayev “O‘zbek yoshlari va xorijiy ta’lim”, “Akademnashr” nashriyoti, Toshkent: 2018-yil, 41-bet).

Ana shu faktga, ya’ni tilshunos, jadid ma’rifatparvari G‘ozi Olim Yunusovning fikrlariga tayanadigan bo‘lsak, Bekjon Rahmon ham 1909-yildan Fitratlar bilan birga Istanbulda tahsil ola boshlagan.

Bu davrda Usmoniylar saltanatida Ismoil Gaspralining “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori ostidagi “Yosh turklar” harakati jamiyatda keng faoliyat ko‘rsatardi. Xivadagi madrasani bitirib, Istanbulda o‘qiyotgan Bekjon shu harakat ta’siri bilan jadidchilik g‘oyalariga berildi. Natijada Istanbuldan jadid ziyolisi bo‘lib qaytgan Bekjon Rahmon Xorazmda ham keng yoyilgan, ammo ta’qibga uchray boshlagan “Yosh xivaliklar” harakati safiga qo‘shildi. Xiva madrasalarida mudarrislik faoliyati bilan shug‘ullanadi. Aynan Usmoniylar davlati, xususan, Istanbuldagi o‘qish jarayoni, dunyo siyosatidagi jarayonlarni teran kuzatgan Bekjonni jadidlar safidagi o‘rnini yanada mustahkamladi.

Munavvar qori Abdurashidxonovning “Xotiralari”ni nashrga tayyorlagan va so‘zboshi yozgan Sirojiddin Ahmadning tahlillariga ko‘ra, “1917-yil mayda Kavkazdan Muhammadamin Afandizoda va boshqalarning dastlab Andijon, so‘ngra Toshkentga kelishi, “Turon” jamiyati zaminida “Turk adam markaziyat” firqasining tashkil topishi, “Ittihodi Islom”ning “Ittihodi taraqqiy”ga, keyin “Milliy ittihod” tashkilotiga aylanishi o‘lkaning siyosiy-ijtimoiy hayotini to‘lqinlantirib yubordi” (Munavvar qori Abdurashixonov “Men Sendaman...” Asarlar. Sirojiddin Ahmadning “Millatpanoh” nomli so‘zboshisi. “Info Capital Books” nashriyoti, Toshkent: 2023-yil, 56-bet).

Sirojiddin Ahmadning o‘rganishlariga ko‘ra, “Turk adamiyat markazi” Turkiston, Buxoro va Xorazmda ham tashkil etilgan. Samarqandda Behbudiy rais, Akobir maxsum Shomansurov, qozi Haydarbek Abusaidov, eshon Murodxon A’loxo‘jayev, Shoqobil Kamolov rahbariyatga saylangan. Afandizoda Xivaga boradi. Xorazm tashkilotining raisi etib Bekjon saylanadi” (yuqoridagi asar, o‘sha nashr, 58-bet).

Shu tariqa Bekjon Rahmon 1913–1920-yillarda Xiva madrasasida mudarris, jadid maktabida o‘qituvchilik qilish bilan birga vohada kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning faollaridan bo‘ldi.

1920-yil fevralida xonlik tugatilgach esa respublika hukumati tarkibida faoliyat ko‘rsatdi. Shuningdek, keng xalq ommasini savodxon, ziyoli qilish maqsadida jadidlarning orzusi bo‘lgan gazeta tashkil etish tashabbuskori bo‘ldi. Natijada o‘zi 1920-yil 8-martdan vohada birinchi bo‘lib matbuot nashri – “Inqilob quyoshi” gazetasi mas’ul muharriri sifatida 1921-yilgacha faoliyat ko‘rsatadi. Shuningdek, 1920–1924 -yillarda vohada nashr etilgan “Qizil Xorazm”, “Maorif”, “Xorazm xabarlari”, “Yordam”, “Yoshlar ovozi”, “Ishchilar tovushi”, “Qopqon” singari gazetalarni ham tashkil etishga bosh-qosh bo‘ldi. Ushbu nashrlarda Faqiriy, Komil Devoniy, Mutrib, Rog‘ib singari shoirlarning she’r-u g‘azallarini chop ettiribgina qolmay, ularni tahlil etgan holda, adabiyotshunos sifatida adabiy tahliliy maqolalar ham yozgan.

Bekjon Rahmon, shuningdek, 1920-yil 26-aprelda hozirgi Ichan qal’a muzey qo‘riqxonasiga asos solgan va uning birinchi direktori ham edi. 1920-yil 27–30-apreldagi Xorazm xalq respublikasining 1-qurultoyda esa xalq madaniyati va maorifi noziri vazifasiga kirishgan hamda respublika hududlarida o‘zbek, turkman tillarida ta’lim beriladigan zamonaviy maktablar tashkil etilishiga boshchilik qilgandi.

Xalq maorifi noziri bo‘lib ishlagan paytida Bekjon Rahmon vohada yangi maktablar tashkil qilish, uzoq ovullardagi bolalarni maktabga jalb etish, ta’lim maskanlarini o‘qituvchilar bilan ta’minlash uchun jonkuyarlik qilgan jadid ziyolisi vazifasini bajardi.

Shuningdek, Bobooxun Salimov bilan hammuallifikda maktablar uchun “O‘qish kitobi”, “Alifbe” darsliklarini yozib nashr ettirgandi. Darslikka mumtoz va o‘z davridagi sharq hamda xorazmlik shoirlarning didaktik asarlarini ham kiritadi. Shuningdek, Bekjon Rahmon XXR rahbarlari orasida eng salohiyatli va milliy davlat qurish tashabbuskori bo‘lgani uchun ham Zaki Validiy kabi Shafqi Bekto‘ra, Fitrat, Cho‘lpon, Fayzulla Xo‘jayevlar bilan ham do‘st-u maslakdosh edi.

Bekjon Rahmon respublika rahbarlari ichidagi xorijda tahsil olgan yagona shaxs bo‘lganligidan, qolaversa, siyratidagi nozik diplomatligi, keng dunyoqarashi bois Xorazm respublikasi nomidan Boku, Buxoroga yuborilgan delegatsiyalarga ham rahbarlik qilgan.

Ma’lumki, qurultoy (turkiy-mo‘g‘ulcha “xurultay”) so‘zi kengash, majlis, syezd ma’nosida bo‘lib, turkiy xalqlar va mo‘g‘ul xalqida qadimdan mavjud bo‘lgan turli harbiy kengashlar hamda majlislarning umumiy nomi. Xiva xonligi tugatilgandan keyingi respublika davrida ham qurultoylar o‘tkazilgan va unda Xorazmning taraqqiyparvar jadidlari tashabbuskorlik qilishgan, faol bo‘lishgan. Qurultoyda davlatchilikka oid muhim siyosiy va iqtisodiy muhim masalalar ko‘rib chiqilgan va qarorlar qabul qilingan. Jumladan, 1920-yil sentyabrida Xorazm delegatsiyasiga bosh bo‘lib Boku shahrida o‘tkazilgan Sharq xalqlari qurultoyida ishtirok etgan va nutq so‘zlagandi. O‘shanda Boku shahrida o‘ttizdan ortiq musulmon davlatlari vakillari ishtirok etgan sharq xalqlari qurultoyida Bekjon Rahmonning qatnashishi shartligini aynan, ozarbayjonlik Samadog‘a Ag‘amali Xorazm respublikasi rahbariyatiga ta’kidlagandi.

Negaki, ular ikkisi Istanbulda tanishishgandi. Bu paytda Samadog‘a Ag‘amali ham Ozarbayjon respublikasining rahbarlaridan biri, Bekjon Rahmonning maslakdoshi edi.

Ma’lumki, Boku qurultoyida Bekjon Rahmondan tashqari o‘z davrining mashhur shaxslaridan Cho‘lpon, Zaki Validiy, Anvar Poshsho hamda Munavvar qori, G‘ozi Olim Yunusov, Mirmuhsin Shermuhammedov, Sobirjon Rahimiy singari ko‘plab turkistonlik jadidlar ishtirok etishgan va ular keyinchalik ham millat kelajagi yo‘lida hamkorlik qilishgandi.

Ushbu qurultoyda Bekjon Rahmon jadid shoir Cho‘lpon bilan tanishgan va bir umrga u bilan do‘st bo‘lib qolgandi.

XX asr boshlarida Turkiston, Buxoro va Xorazmdagi ijtimoiy, ma’naviy, ta’limga oid jarayonlarning faollaridan, jadid pedagogi Mo‘minjon Muhammadjonov “Turmush urinishlari” nomli memuarida Buxoro orqali Xorazmga kelish tafsilotini quyidagicha tasvirlagan: “Biz to‘qqiz kishi 1920-yil 16-sentyabrda Kogondan jo‘nab, o‘sha kuni kech Chorjo‘y –Amudaryo qirg‘og‘iga yetdik. O‘sha yili sentyabr oyida Bokuda bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlari qurultoyidan qaytib kelayotgan vakillardan Kogonda bizga Xorazm jumhuriyatining a’zosi Bekjon degan kishi ham qo‘shilib Xivaga jo‘nadi...

...1-oktyabrda o‘n bir kun deganda Xonqo shahri to‘g‘risiga yetib kelib, omon-eson yuklarni qirg‘oqqa tushirdik... Ertasi Xivaga yetib bordik. 3-oktyabrda Xivadagi o‘z vakolatxonamizga borib uchrashdik va uning boshlig‘iga hujjatlarimizni ko‘rsatdik. ...To‘rt kishi muallimlik qilishni xohladik. Boshqalar respublikaning turli ishlariga tayinlandilar. Bizlar maorif nazoratiga bordik. Xorazm respublikasida ministrlar nozir nomi bilan yuritilar ekan... Maorif nozirligida Xiva maktablari inspektori qilib tayinlandim va kurslarda katta yoshdagi kishilarni o‘qitishimga ruxsat berildi.

Xivada o‘sha vaqtda maorif ishlari endigina rivojlanib kelmoqda edi. Maorif nazorati har-har joyda muallimlar tayyorlov kursi ochib juda yaxshi ish qilibdi. Katta yosh mullavachalar va ba’zi mudarrislarning, yangi muallim bo‘lmoq niyatida shu kurslarga qatnab yosh-yosh yigitchalardan yangi dunyo ilmlarini o‘qiyotganliklarini ko‘rib juda suyunib ketdik...” (M.Muhammadjonov “Turmush urinishlari”, G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent: 1969-yil, 152-154-betlar).

Buxorodan Xorazmga birga kelgan va Mo‘minjon Muhammadjonov Bekjon deya faqat isminigina qayd etgan shaxs Bokudan kelayotgan Bekjon Rahmon edi. Aynan u Mo‘minjon Muhammadjonov ta’riflab o‘tgan maorif noziri, ya’ni ministr vazifasida faoliyat ko‘rsatardi.

Shu kabi Boshqirdiston hukumati raisining birinchi rahbari va tarixchi olim, publitsist Zaki Validiy bilan ham do‘st tutingan va sovetlar ta’qib qilgach, Validiy 1920-yil yozidan dekabrigacha yashirincha uning Xivadagi uyida, madrasadagi hujrasasida yashagandi. Zaki Validiy o‘zining “Xotiralar”ida Buxoroga ketgungacha bo‘lgan davr Xorazmda yashaganida Bekjon Rahmonning madrasasidagi hujrasida istiqomat qilgani, uning madaniyat va maorif yo‘lida qilgan xizmatlarini e’tirof qilgan: “Mulla Bekjon Xivada zamonaviy madaniyatni rivojlantirish uchun katta fidoyilik ko‘rsatdi. Agar Rusiya xalaqit bermaganida, ular yosh Xiva hukumatiga katta xizmat qilgan bo‘lur edilar. Mao-

rif vakili bo‘lgan mulla Bekjon Istanbulda o‘qib kelgan bir yigit. Hukumat ishlaridan bo‘sh vaqtlarida madrasadagi hujrasiga kelar, o‘z qo‘li bilan palov pishirar, o‘sha vaqt uzoq suhbatlashar edik. U bir qancha asarlar yozdi”.

Ayni paytda, Bekjon Rahmon 1920-yil 13-noyabrda Buxoro va Xorazm respublikalari o‘rtasida tuzilgan do‘stona hamda iqtisodiy, madaniy aloqalarga doir shartnoma tuzishga ham rahbarlik qilgan diplomat edi.

Ana shunday serqirra shaxs Xorazmda ta’lim, demakki, vatan istiqbolini o‘ylaganidan 1921-yil Xivada Xalq universiteti ochilishining tashabbuskori va birinchi rektori ham bo‘lgandi. Afsuski, bir yildan so‘ng ushbu universitet RSFSRning Xorazmdagi shovinist rahbarlari tomonidan tugatib yuboriladi. Biroq Bekjon Rahmon bu singari tazyiqlardan cho‘chimay, istiqbol uchun sa’y-harakati, faoliyatini davom etdiraverdi.

Garchi shovinistlar unga tazyiq o‘tkazsalar-da, xorijda tahsil olganidan, qolaversa, milliy kayfiyatdagi respublika rahbarlari qo‘llab quvvatlashi bilan u mas’ul vazifalarga yana tayinlanadi. 1921-yil 23-mayda Xorazm Markaziy ijroiya qo‘mitasi ish boshqaruvchisi vazifasidagi faoliyatini boshlagan. Biroq Bekjon Rahmon 1923-yil 27-noyabrda RSFSRning Xorazmdagi shovinist vakillari va Qizil Armiya tomonidan “Yosh xivaliklar” partiyasi a’zolari qatorida “Xorazm xalqining dushmani” deya qamoqqa olinadi va dastlab o‘limga, keyin esa 10 yilga qamoqqa hukm qilinadi.

Xorazm xalq respublikasining birinchi rahbari Polvonniyoz hoji Yusupov o‘z xotiralarida bu haqda: “Maxfiy qolmasinkim, 1923-yil fevral oyinda sobiq Russiya vakili tovarish Bikdan qochib yurg‘on Abdulla hoji Xo‘ja birodarimiz Xivaga kelib, o‘zini hukumatg‘a taslim qildi. Hukumat qabul qildi. Russiyaning komil huquqli vakili tovarish Gorodeskiyni ko‘rib oshno bo‘lib qoldi. Hukumat Abdulla Xo‘janing ishlarini sudga berdi. Sud birodar Xo‘jayevga ruxsat berib Xo‘jayliga qaytarib yubordi. Bir necha kundin so‘ng birodar Xo‘jayevni oldirib, hech nimarsa so‘ramasdan qo‘liga oq xat berdi. Ham javob berdi, qayda borsangiz ixtiyoringiz turur, deb. Birodar Abdulla Xo‘ja o‘z vataniga qaytib ketdi.

Yana ma’lum bo‘lsinkim, birodar Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li ushbu vaqtgacha mahbus erdi. Bir kun tovarish Gorodeskiy partiyaning majlisinda mulla Bekjonni hibsdin chiqarmoqni taklif kirgizgan. Onda birodar Ahmad Mahmudov qarshi chiqib so‘ylagan. Ham e’lon qilgan:

– Mulla Bekjon birlan Bokuga Sharq syezdiga vakil bo‘lib borg‘on erdim. Mulla Bekjon (o‘shanda) Risqulovlar birlan birga bo‘lib Anvar poshsho birlan ittifoq qildilar. Albatta shunday xoin kishilarni hibsdin xalos bo‘lg‘oni munosib ermas turur, – degan.

Ham bir og‘izdin qaror qilg‘onlar Mulla Bekjonni hamisha hibs qilib saqlamoqg‘a. Tovarish Gorodeskiy so‘z olib aytg‘on:

– Mulla Bekchon tovarish Risqulovlar birlan ahd-paymon qilib ish qilg‘on bo‘lsa, hozir birodar Risqulovni Toshkantda nozirlar sho‘rosiga rais qilib qo‘ydilar. Birodar mulla Bekjonni ham hibsdin xalos qilib nozirlar sho‘rosiga rais qilib qo‘ymoq kerak, – degan va yana aytgan:

– Man o‘zim partiyniy bo‘lg‘on sifatim birlan sizlarning ushbu qilg‘on qarorlaringizni man tanimasman – deb chiqib ketgan.

Ham ertaga hukumatga aytib, Mulla Bekjonni hibsdin bo‘shatg‘on” (Polvonniyoz hoji Yusupov “Yosh xivaliklar tarixi”, “Xorazm” nashriyoti, Urganch: 1999-yil, 68-bet).

Shundan keyingi davrda Bekjon Rahmon siyosatdan chekinib, ijodiy faoliyatini davom ettiradi va 1923-yilda 580 ta Xorazmning xalq maqollarini to‘plab “Otalar so‘zi” nomi bilan nashr ettiradi. Mazkur to‘plamda “Ertaga osh qolsa – davlat, ish qolsa – mehnat”, “Davlat – og‘zi birchilik”, ”Rohat – mehnatning orqasida”, “Tek turgan to‘q yurar”, “Bir kun tuz yegan yerga qirq kun salom”, “Ota-ona taxt etar, baxt eta bilmas”, “O‘tni kovlasang o‘char, qo‘shnini kovlasang ko‘char”, “O‘g‘ri boyimas, yolg‘onchi yolchimas”, “Onasini ko‘r, qizini ol, qirog‘ini ko‘r, bo‘zini ol” singari tarbiyaviy, pand-nasihat ruhidagi maqollar, hikmatli so‘zlar mavjud.

1925-yilda esa Muhammad Yusuf Devonzoda bilan hammualliflikda “Xorazm musiqiy tarixchasi” kitobini Moskva shahrida nashr qildiradi. Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida Bekjon Rahmon hamda Muhammad Yusuf Devonzodalarning asaridan g‘oyat ta’sirlanganini yozgan va ushbu kitobning musiqashunoslikda tutgan o‘rniga g‘oyat yuksak baho bergan edi. Mazkur asar

musiqa nazariyasi va tarixiga doir eng e’tiborli manba bo‘lgani bois B. Belyayev hamda G. Former kabi rus va xorij musiqashunoslari ham Bekjon Rahmon, Devonzodalarning asariga murojaat qilishgan edi.

Shu yili Bekjon Rahmon yana ijodni davom ettirib, “Xilvati so‘fiho” asarini ham yozib boshlaydi.

Ma’lumki, 1924-yil kuzida O‘rta Osiyo hududida milliy chegaralanish o‘tkaziladi va Turkiston, Xorazm va Buxoro respublikalari tugatiladi. Natijada Xorazm respublikasi okrug darajasidagi ma’muriy hududga aylantiriladi. Xorazm okrugida ta’lim sohasini muvofiqlashtirish, yangi maktablar ochish borasida tashkilotga asos solinadi. Shu tarzda Bekjon Rahmon 1925-1926-yillarda Xorazm okrug xalq maorifi boshqarmasi boshlig‘i sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

O‘sha vaqtda O‘zbekiston xalq komissarlari sovetining raisi bo‘lib ishlayotgan Fayzulla Xo‘jayevning taklifiga ko‘ra, 1926-yildan Samarqandda tashkil etilgan Fan qo‘mitasida faoliyatini davom ettiradi.

Shu davrdagi “Alanga”, “Yer yuzi” jurnallarida adabiyotshunoslik, tilshunoslikka oid maqolalarini chop ettirib, respublikaning old ziyolilaridan biri sifatida taniladi. Shu boisdan ham uni 1926-yilning 26-fevral – 5-mart kunlari Boku shahrida o‘tkazilgan Birinchi Turkologiya qurultoyida qatnashish uchun O‘zbekiston delegatsiyasi tarkibiga kiritishadi.

“Ushbu qurultoyda V.V. Bartold, S.Y. Malov, A.A. Miller, S.F. Oldenburg, R.R. Poppe, A.N. Samoylovich, K. Yudaxin, V.B. Tomashevskiy kabi rus, M.F. Ko‘pruluzoda (turk), Paul Vittek (nemis), Bakir Cho‘ponzoda (qrim tatar), A. Boytursun (qozoq) singari dunyodagi mashhur 131 nafar olim qatnashgan. O‘zbekistondan esa Ashurali Zohiriy, Elbek, Rahim Inog‘omov, G‘ozi Olim Yunusov, Nazir To‘raqulov, Shokirjon Rahimiy, I. Sadriy, A. Abdujabborovlar qatorida Bekjon Rahmon ham bor edi” (Xolid Said, “Yangi alifbo yo‘llarinda. Eski xotira va tuyg‘ularim” (Memuar), “Ilm va tahsil”, Boku: 2023).

Qurultoyda turkiy xalqlar adabiyoti va tilshunoslikka oid 38 ta ma’ruza o‘qilgan va muhokama qilingandi. Muhokamada so‘zga chiqqanlar orasida Bekjon Rahmon ham bor bo‘lib, aynan ana shu qurultoyda Navoiyning 500 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uning ijodini dunyoda ommalashtirish, targ‘ib qilish masalalari ko‘rib chiqilgandi. Shu tarzda nafaqat O‘zbekiston miqyosidagi madaniy, adabiy tadbirlarda, balki dunyoda bo‘lib o‘tayotgan yetuk olimlar ishtirokidagi anjumanlarda ham faol qatnashayotgan Bekjon Rahmon respublikamizning eng faol ziyolisi sifatida tanilgan.

Bekjon Rahmon 1926-yilda O‘zbekiston SSR xalq komissarlari kengashi raisi Fayzulla Xo‘jayevning taklifi bilan Samarqandga kelib, 1929-yilgacha respublika maorif komissarligining “Maorif”, “Alanga” jurnallarida va “Yangi alifbo” qo‘mitasida faoliyat ko‘rsatadi hamda “O‘zbekistonda lotinchilik harakati”, “Yangi alifbe harfi sirasi to‘g‘risida”, “Bag‘don shevasi” singari tilshunoslik, adabiyotshunoslik va san’atshunoslikka oid maqolalar, “Salom” she’rini 1929-yilda yozib chop etdiradi.

Afsuski, Bekjon Rahmondek serqirra shaxs 1929-yilda Amudaryodagi kema Xorazmga kelayotganida bir guruh kishilar tomonidan kaltaklab ketiladi. Jadidchilik harakati va jadid namoyandalari faoliyatini tadqiq qilgan san’atshunoslik fanlari nomzodi Sirojiddin Ahmadning tadqiqotlariga ko‘ra, “Bekjon 1932-yilda Toshkentga kelib faoliyatini davom ettiradi va G‘ozi Olim Yunusovning uyida yashagan” (“Qizil mustamlaka: e’lon qilinmagan urush. Katta qirg‘in qomusi (1929–1950). “Info Capital Books” nashriyoti, Toshkent: 2022).

Afsuski, Fitrat, G‘ozi Olim Yunusovlar bilan birga Istanbul universitetida tahsil olgan, shuningdek, “Yosh xivaliklar” partiyasining faollaridan, Xorazm xalq respublikasi davrida nozir vazifasida faoliyat ko‘rsatgan, Ichan qal’a muzey qo‘riqxonasining direktori, Xorazmdagi birinchi matbuot nashri – “Inqilob quyoshi”ning bosh muharriri, bir qancha darsliklar, ijodiy asarlar muallifi Bekjon Rahmon hayotining so‘nggi davri haqida ma’lumotlar to‘liq emas.


Biroq Xorazm va so‘ngra O‘zbekiston miqyosidagi madaniy, adabiy tadbirlarda, shuningdek, Bokuda 1920-yilgi Sharq xalqlari qurultoyi, 1926-yildagi Turkologiya qurultoyida ishtirok etgan Bekjon Rahmondek jadid namoyandasining qisqa davr ichida qilgan xizmatlari tarixning yorqin sahifalaridan bo‘lib qoldi.

Bekjon Rahmonning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy faoliyatini tadqiq qilish bugungi istiqlol davri tadqiqotchilari oldidagi dolzarb vazifalardan bo‘lib qolmoqda.

JUMABOY XUSANBOYEV

(1902–1938)

Rustambek Shamsutdinov, tarix fanlari doktori, professor
Nigoraxon Akbarova, Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimasi



Xusanboyev Jumaboy

2012-yili “Sharq” nashriyotida bosilib chiqqan “Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари *(Биринчи китоб)*” kitobimizning 42-sahifasida 1938-yil 8-oktyabrda Toshkentda otilgan 40 nafar yurtdoshimiz nomlari jadvalda keltirilgan. Otilganlar ro‘yxati 31-si Judamaboy Xusanboyev bo‘lgan.

1958-yil 22-mayda SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasi general mayor Lixachov raisligida yustitsiya polkovnigi Bosh prokurorning Qo‘qon shahar ijroiya komiteti sobiq raisi Xusanboyev Juma (1902-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan, 1929-yildan VKP(b) a’zosi, 1937-yil 22-oktyabrda hibsga olingan) 1938-yil 28-oktyabrda SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasining 58, 59, 64 va 67-moddalari bilan ayblanib, molmulki musodara etilib, o‘zini otuvga hukm qilish to‘g‘risidagi qaror bekor qilinib, ishi to‘xtatilishiga qaror qilingan. J.Xusanboyev 1935-yildan sovetlarga qarshi millatchilik tashkilotining faol ishtirokchisi sifatida Qo‘qon shahrida qo‘zg‘olonchilarning kichik uyushgan guruhi qishloq xo‘jaligi sohasida zararkunandachilik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Bosh harbiy prokuror o‘z xulosasida Juma Xusanboyevga nisbatan qo‘llanilgan hukmni bekor qilish, chunki qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkazilishida yangi holat yuzaga kelib, Xusanboyev aybdor emasligi, sudga asossiz tortilganligi ma’lum qilingan edi. Ish materiallari tekshirilganida harbiy prokuratura va SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasining chiqargan hukmi asossizligi aniqlangan. SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasining 1938-yil 8-oktyabrdagi Jumaboy Xusanboyevga nisbatan qo‘llanilgan hukm va jinoyat ishlari tarkibi assosizligi uchun ishni to‘xtatishga qaror qilingan.

O‘zbekiston SSR Farg‘ona oblasti Qo‘qon shahri Diagonal ko‘chasi, 6-uy 27-kvartirada yashovchi nafaqaxo‘r Xusanboyeva Marhamat 1961-yilning 18-dekabrida O‘zbekiston Kommunistik partiyasi markaziy komiteti birinchi kotibi Sh.R. Rashidovga yozgan arizasida shunday deyilgan: “Men Sizga qalbimdagi dard bilan murojaat qilib, erim Xusanboyev Jumaning hibsga olinishi paytida musodara qilingan mol-mulkni menga qaytarish masalasida yordam berishingizni so‘rayman. Turmush o‘rtog‘im 1937-yil 22-oktyabrgacha Qo‘qon shahar ijroiya qo‘mitasining raisi bo‘lib xizmat qilgan.

Men 5 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan 4 nafar bola bilan qoldim va shu yillar davomida tahqir va ta’qiblarga chidab yashadim. Nihoyat haqiqat qaror topdi: SSSR Oliy sudi Harbiy Kollegiyasining 1958-yil 5-iyundagi №4n 2450/58 sonli xatiga asosan erim oqlandi, partiya yo‘nalishi bo‘yicha ham vafotidan keyin reabilitatsiya qilindi.

Menga 40 rubl miqdorida pensiya tayinlandi, holbuki erim Mehnat Qizil Bayrog‘i ordeni bilan taqdirlangan edi. Ammo mol-mulk haligacha qaytarilmadi. Men gilamlar va boshqa narsalarni talab qilmayman, faqat hibs paytida olib ketilgan narsalarni qaytarishlarini talab qilaman: 1. O‘zbekiston SSR Markaziy ijroiya komiteti a’zosi nishoni; 2. Kichik kalibrli “Montekris” miltig‘i – 1 dona;

3. Yozuv stoli – 1 dona; 4. Bufet – 1 dona; 5. Shifoner – 1 dona; 6. Vena stullari – 6 dona.

Shuning uchun bu masalani hal qilishda yordam berishingizni so‘rayman. 18.II.61. Samimiy salomlar bilan Xusanboyeva Marhamat. Mening manzilim – Farg‘ona oblasti Qo‘qon shahri Diagonal ko‘chasi, 6-uy, 27-xonadon”.

Oradan 2 kun o‘tib, 1961-yil 21-fevralda Farg‘ona oblasti Qo‘qon shahri Diagonal ko‘chasi 6-uy 27-kvartirada yashovchi nafaqaxo‘r Marhamat Xusanboyeva KPSS Markaziy Komiteti birinchi kotibi Nikita Sergeyevich Xrushchevga ariza bilan murojaat qilgan, uni aynan keltiramiz:

“Ariza

Men Sizga, Nikita Sergeyevich, to‘rt nafar bolani tarbiyalab katta qilgan ona, inqilobgacha savodsiz bo‘lgan o‘zbek ayoli nomidan, 1937-yilda hibsga olingan Qo‘qon shahar ijroiya qo‘mitasining sobiq raisi bo‘lgan erimning rafiqasi sifatida murojaat qilaman. 1958-yil 22-iyulda SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasining hukmi qayta ko‘rib chiqildi va erim yangi ochilgan holatlar hamda jinoyat tarkibi mavjud emasligi sababli vafotidan keyin oqlandi.

Partiya va uning Markaziy Qo‘mitasining dono siyosati tufayli men, oddiy o‘zbek ayoli, erkin nafas oldim. Ta’qiblar va tahqirlar tugadi. Menga III guruh nogironi sifatida erim uchun 40 rubl miqdorida shaxsiy pensiya tayinlandi. Butun qalbimdan katta rahmat!

Biroq menda kichik bir iltimos bor: shu vaqtgacha O‘zSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Farg‘ona viloyati bo‘yicha Davlat xavfsizligi komiteti boshqarmasi tomonidan erim hibsga olingan paytda musodara qilingan mol-mulkni qaytarish masalasi hal qilinmagan edi. Musodara qilingan mol-mulk quyidagilardan iborat: 1. O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti a’zosi nishoni; 2. Kichik kalibrli “Montekris” miltig‘i – 1 dona; 3. Yozuv stoli – 1 dona; 4. Bufet – 1 dona; 5. Shifoner – 1 dona; 6. Vena stullari – 6 dona.

Bu boylik bo‘lmasa-da, ammo keksa ayol uchun eridan qolgan yodgorlik edi. Yordam berishingizni so‘rayman. Millionlab oddiy insonlar haqidagi tinmay g‘amxo‘rligingiz uchun Sizga butun qalbim bilan minnatdorlik bildiraman. Marhamat Xusanboyeva, 21-fevral 1961-yil”.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizligi Farg‘ona oblasti boshlig‘i o‘rtoq A.N.Quvshinovga 712004, Farg‘ona shahri Chkalov ko‘chasi 1-uy.

Sizga murojaat qilib, otam **Xusanboyev Juma**, 1902-yilda tug‘ilgan, 1937-yil 22-oktyabrda hibsga olingan va repressiya qilingan shaxs bo‘yicha uning reabilitatsiya qilinganligi haqida ma’lumotnoma olishda menga yordam berishingizni so‘rayman. U hibsga olinishidan oldin Qo‘qon shahar ijroiya qo‘mitasi raisi lavozimida ishlagan.

Onamning viloyat sobezi va partiya viloyat qo‘mitasi bilan olib borgan yozishmalari nusxalarida SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining 1958-yil 5-iyundagi №4 2450/58 raqamli reabilitatsiya haqidagi ma’lumotnomasi hamda SSSR Vazirlar Kengashining 1958-yil 8-sentyabrdagi №1655 qarori tilga olingan. Bundan tashqari, reabilitatsiya haqida **“Begunoh repressiya qilinganlar oqlanmoqda”** nomli maqola 1989-yil 28-yanvardagi “Kommuna” gazetasining №20 (18643) sonida chop etilgan bo‘lib, u O‘zbekiston KP Farg‘ona viloyat qo‘mitasi arxivi mudiri **I. Suxovoy** tomonidan yozilgan.

Sizdan juda iltimos qilib, reabilitatsiya haqida ma’lumotnoma olishda yordam berishingizni, shuningdek, repressiya qilingan shaxsning oila a’zolari uchun mavjud imtiyozlar haqida ma’lumot berishingizni so‘rayman. Agar imkoni bo‘lsa, qo‘yilgan ayblov sabablari, vafot etgan sanasi va dafn etilgan joyi haqida ham xabar berishingizni iltimos qilaman. Bu ma’lumotlar uning farzandlari va nabiralari uchun, uning xotirasini munosib yod etish maqsadida juda muhim.

Sizga hurmat bilan, qatag‘on qilingan shaxsning o‘g‘li Xusanboyev Kim Jumaboyevich, 1932-yilda tug‘ilgan. Mening manzilim: 713024, Farg‘ona oblasti, Qo‘qon shahri O‘zbekiston 40 yilligi ko‘chasi 6-uy 27-kvartira.

O‘zSSR Davlat xavfsizligi komiteti kotibiyati 1992-yil 12-dekabrda Qo‘qon shahri O‘zbekistonning 40 yilligi ko‘chasi, 6-uy 27-kvartirada istiqomat qilayotgan K.J.Xusanboyevga yo‘llagan xatida shunday yozilgan: “Sizning otangizning taqdiri haqidagi arizangiz biz tomonimizdan diqqat bilan ko‘rib chiqildi. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, **Xusanboyev Juma**, 1902-yilda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan, Qo‘qon shahri Sovet ko‘chasi 62-uy, 2-korpus, 4-xonadonda yashagan, Qo‘qon rayon ijroiya

qo‘mitasi raisi bo‘lib ishlagan, 1937-yil 22-oktyabrda yashash joyida hibsga olingan.

Xusanboyev Juma 1935-yildan boshlab aksilinqilobiy-millatchi tashkilot a’zosi bo‘lganligi va uning Qo‘qon bo‘limi rahbarlaridan biri hisoblanganlikda ayblangan. Shuningdek, qo‘zg‘olonchilik maqsadlarida qurol-yarog‘ va otlar tayyorlagani, aksilinqilobiy tashkilotga yangi a’zolarni jalb qilgani, qo‘zg‘olonchilik yacheykalarini tuzgani va qishloq xo‘jaligida zararli faoliyat yuritgani aybi qo‘yilgan.

1938-yil 8-oktyabrda SSSR Oliy Sudining Sayyor Sessiyasi tomonidan Xusanboyev Juma O‘zbekiston SSR Jinoyat Kodeksining 58- (qurolli qo‘zg‘olon), 63- (iqtisodiy aksilinqilobiy), 64- (terrorchilik akt) va 67-moddalari (aksilinqilobiy tashkilotda ishtirok etgan) bo‘yicha otuvga hukm qilingan.

Hukm 1938-yil 8-oktyabrda Toshkent shahrida ijro etilgan. Afsuski, arxiv tergov ishida Xusanboyev Jumaning dafn etilgan joyi haqida ma’lumot mavjud emas.

1958-yil 22-may kuni SSSR Oliy Sudi tomonidan 1938-yil 8-oktyabrdagi SSSR Oliy Sudining Sayyor sessiyasining Xusanboyev Jumaga nisbatan hukmi bekor qilingan va unga oid ish jinoyat tarkibi mavjud emasligi sababli tugatilgan, ya’ni u reabilitatsiya qilingan.

SSSR Vazirlar Kengashining 1955-yil 8-sentyabrdagi qaroriga asosan, reabilitatsiya qilingan shaxsning oila a’zolariga u hibsga olinganiga qadar egallab turgan lavozimi bo‘yicha reabilitatsiya kunidagi oylik maoshdan kelib chiqib ikki oylik ish haqi miqdorida to‘lov amalga oshirilgan.

Agar reabilitatsiya qilingan shaxs ishlagan korxona yoki muassasa tugatilgan bo‘lsa, to‘lov tegishli vazirlik yoki idora tomonidan, yoki korxonaning huquqiy vorisi tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, arxiv tergov ishida saqlanib qolgan Xusanboyev Jumaning surati tushirilgan kasaba uyushmasi a’zolik bileti ham sizga yuborilmoqda.

Ilova: №10/716 sonli ma’lumotnoma – 1-varaq, Xusanboyev Jumaning kasaba uyushmasi a’zolik bileti №334795. Bo‘lim boshlig‘i (imzo) A.I. Mochinov To‘g‘ri: (imzo)”.

O‘zbekiston SSR Jinoyat Protsessual Kodeksining 175-moddasi tartibida

1938-yil 8-oktyabrda SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasi O‘zbekiston SSR Jinoyat Kodeksining 58, 63, 64 va 67-moddalariga asosan Xusanboyev Jumaning mol-mulki musodara qilinib, o‘zi otuvga hukm qilingan. Xusanboyev Juma – 1902-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan, 1929-yildan VKP(b) a’zosi, mazkur ish munosabati bilan partiyadan o‘chirilgan, hibsga olinguniga qadar Qo‘qon shahar ijroiya qo‘mitasi raisi lavozimida ishlagan edi.

Sud tomonidan Xusanboyev Juma aybdor deb topilib 1935-yildan Qo‘qon shahrida faoliyat yuritgan aksilinqilobiy millatchi tashkilotning faol a’zosi, shu tashkilotning rahbarlaridan Mirzajonov va Boltaboyevlar bilan tashkiliy jihatdan bog‘lanib, ularning topshirig‘i bilan qo‘zg‘olonchi guruhlar tashkil etgan hamda zararkunandachilik faoliyatini olib borgani qayd etilgan.

Juma Xusanboyev o‘ziga qo‘yilgan ayblov va tergovdagi ko‘rsatmalar yolg‘on ekanligini sudda bildirgan, shuningdek, u Mirzajonov, Mamayusupov, Mirsaidov va Nasirovlarning ko‘rsatmalariga asoslanib hibsga olinganini aytgan.

O‘zbekiston SSR Jinoyat protsessual Kodeksining 173-174-moddalari bo‘yicha o‘tkazilgan tergov natijasida Juma Xusanboyev asossiz ravishda sudlangani quyidagi holatlarda namoyon bo‘lgan: Tergovda J.Xusanboyev sovetlarga qarshi tashkilotga Mirzajonov tomonidan jalb qilingani, uning topshirig‘i bilan sovetlarga qarshi tashkilot ishtirokchilaridan Abdullayev, Qosimov, Qo‘chqorov va boshqalar bilan birgalikda zararkunandachilik faoliyatini olib borilganini aytgan. Biroq Mirzajonovga nisbatan arxiv-tergov ishi 1957-yilda jinoyat tarkibi yo‘qligi sababli sud tomonidan tugatilgan, Abdullayev, Qosimov va Qo‘chqorovga oid arxiv-tergov ishlari esa 1938-yilning o‘zidayoq tergov organlari tomonidan tugatilgan. 1957-1958-yillarda so‘roq qilingan Abdullayev, Qosimov va Qo‘chqorov (uchalasi ham KPSS a’zolari) J.Xusanboyevning xulq-atvorida hech qanday shubhali holatni ko‘rmaganliklarini bildirishgan. Boshqalarning ko‘rsatmalari bilan hibsga olingan J.Xusanboyevni birgalikdagi jinoiy faoliyatda ayblagan ko‘rsatmalari ham asossizligi ma’lum bo‘lgan. Hibsga olinganlar orasidan Mirzajonov va Mirsaidov 1957-yilda sud tomonidan to‘liq oqlangan, Mamayusupovga nisbatan ish esa 1958-yilda jinoyat tarkibi yo‘qligi sababli tugatish xulosasi bilan SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasiga yuborilgan. Nosirovning J.Xusanboyev paxta sug‘o-

rish uchun suvni zararli tarzda taqsimlagan degan ko‘rsatmalari ham biron-bir dalil bilan isbotlanmagan.

J.Xusanboyevni zararkunandachilik faoliyatida ayblash ham boshqa ishlar bo‘yicha hibsga olinganlarning asossiz ko‘rsatmalariga asoslanganligi ma’lum bo‘lgan.

So‘roq qilingan guvohlardan Qosimov va Akbarovlar J.Xusanboyev bilan birga ishlagan shaxslar sifatida uni halol, mehnatsevar sovet fuqarosi deb ijobiy tavsiflaganlar. Partiya arxivi ma’lumotlarida J.Xusanboyev 1929-yildan VKP(b) a’zosi bo‘lgani, mazkur ish munosabati bilan partiya safidan o‘chirilgani, uning partiya ishidagi tavsifnomada kommunist sifatida ijobiy baholangani aks etgan. Shuningdek, D.Z.Apressyan va Solovev mazkur ish bo‘yicha tergovni olib borgan sobiq NKVD xodimlari keyinchalik NKVD organlarida sovetlarga qarshi faoliyat va tergov ishlarini soxtalashtirish uchun sudlangani aniqlangan.

Ushbularga asoslanib, O‘zSSR Jinoyat Protsessual Kodeksining 175-moddasiga amal qilinib ish tergov materiallari bilan birga Juma Xusanboyevga nisbatan chiqarilgan hukmni bekor qilish va jinoyat tarkibi yo‘qligi sababli ishni to‘xtatish masalasini hal etish uchun SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasida ko‘rib chiqilishiga rozilik bildiraman.

Harbiy prokuratura bo‘limi harbiy prokurori, adliya podpolkovnigi Lukyanov. 1958-yil 24-aprel. Bosh harbiy prokuror yordamchisi adliya polkovnigi Pavlov. 1958-yil 30-aprel”

1960-yil 22-fevralida O‘zSSR Ministrlar soveti huzuridagi Davlat xavfsizligi komiteti Farg‘ona oblasti bo‘yicha hisob-arxiv guruhi katta tezkor bo‘limi vakili katta leytenant Sokol 1902-yilda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan, millati o‘zbek, SSSR fuqarosi, hibsga olinishi munosabati bilan VKP(b) safidan chiqarilgan, Qo‘qon shahar ijroiya komitetining sobiq raisi Xusanboyev Juma 1938-yil 8-oktyabrda SSSR Oliy Sudi Harbiy kollegiyasi tomonidan otuvga hukm qilingan to‘g‘risidagi materiallarini ko‘rib chiqqan.

1958-yil 22-mayda SSSR Oliy Sudi tomonidan 1938-yil 8-oktyabrdagi Xusanboyev Juma haqidagi hukm bekor qilingan va unga nisbatan jinoyat ishi tarkibi yo‘qligi sababli oqlangan (reabilitatsiya qilingan).

NIZOMIDDIN XO‘JAYEV

(1886–1942)

Nigoraxon Akbarova, AnDU tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimasi



Nizomiddin Xo‘jayev (1886–1942)

“Zo‘ravonlikning oxiri bor, sabr kosasining chegarasi bor. Sizga bu haqida ma’lumot berib, faktlarni keltirib, Sharq, xususan, Turkiston mehnatkash ommasiga nisbatan siyosatni to‘g‘ri olib borishga e’tibor qaratishingizni so‘rayman. Kommunistik salomlar bilan Turkiston o‘lka xalq komissarlar soveti a’zosi va Turkiston muxtor delegatsiyasining vakili N.N. Xo‘jayev”.

Moskva 1920-yil mayida Nizomiddin Xo‘jayevning V.I.Leninga yozgan “Panislomizm haqida” nomli xatidan.[5]

Nizomiddin Xo‘jayevning inqilobiy, davlatchilik, jadidchilik bo‘yicha serqirra faoliyati, milliy arbob sifatidagi xislatlari, adolat va haqiqat uchun olib borgan kurashining ayrim qirralari XX asrning 60–80-yillarida ochib berilgan. Taniqli jadidchi, qatag‘on qurbonlaridan biri Laziz Azizzodaning 1967-yili “Fan” nashriyotida 41 sahifadan iborat **“Inqilob kurashchisi”** risolasida bolshevik, hukumat arbobi, jadidchi Nizomiddin Xo‘jayev faoliyatining ayrim qirralari ochib berilgan. R.T.Shamsutdinovning 1987-yil 7-martda Moskvada SSSR Fanlar akademiyasi tarix instituti ilmiy kengashida himoya qilingan “Становление и развитие Советов в Средней Азии *(1917–1925гг.): проблема общего и особенного*” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida Toshkent eski shahar musulmon deputatlari soveti raisi Nizomiddin Xo‘jayev tomonidan partiya drujinasi tuzilganligi, 1919-yil yanvarida eserlarning isyonini bostirishda qahramonlik namoyish etgani, 1918-yil aprel-mayida Turkiston sovetlari syezdida vakil sifatida qatnashgani, Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti tarkibiga mahalliy millat vakillaridan Safo Jo‘raboyev, Husain Ibrohimov, Haqqul Husanboyev, Sobir Yusupov va boshqalar bilan birga Nizomiddin Xo‘jayev ham saylangani, 1919-yil 4-dekabrda RKP(b) Turkiston o‘lka musulmon byurosi va Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan Nizomiddin Xo‘jayev Farg‘ona oblast revolyutsion komitetining raisi lavozimiga tayinlangani va 1921-yil mart oyiga qadar samarali faoliyat ko‘rsatgani qayd etilgan edi. Bu qatag‘on qurboni, jadidchi Nizomiddin Xo‘jayevning hayoti va faoliyati bo‘yicha mustaqillik yillarida qator maqolalar e’lon qilingan.[6]

[5] Rossiya ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar Davlat arxivi 5-fond, 1-ro‘yxat, 1444-ish, 1–4-varaqalar.

[6] Шамсутдинов Рустамбек Миллий бошқарув учун кураш лавҳаларидан, «Водийнома», 2016 йил 2-сон, 69-78 бетлар; Ж.Иминов, Д.Хомидов, Шарқ халқлари биринчи съезди тарихшунослигига доир, «Водийнома», 2021 йил 1-сон, 38-45 бетлар; Р.Шамсутдинов, Н.Комилов, Туркистон мухторияти озиқ-овқат вазири Обиджон Маҳмудовнинг ҳаётидан кичик бир лавҳа, «Водийнома», 2021 йил 2-сон, 95-101 бетлар; Шамсутдинов Рустамбек, Буюк Чўлпонни тергов қилиш ҳақидаги ҳужжатлар. Чўлпон ва жаҳон, «Водийнома», 2021 йил 3-сон, 2-21 бетлар; Шамсутдинов Рустамбек, Маҳкамов Азизбек, Андижонлик дипломат Абдураҳим Юсуфзода қатағон қурбони, «Водийнома», 2021 йил 4-сон, 38-64 бетлар; Шамсутдинов Равшанбек. Таниқли жадидчи Мажит Қодировнинг фаолияти ҳақида ҳужжатлар ва материаллар, «Водийнома», 2022 йил 1-сон, 96-100 бетлар; Шамсутдинов Рустамбек, Ўктамбек Убайдуллаев, Қатағон қурбони прокурор Шамси Бадриддинов, «Водийнома», 2024 йил 1-сон, 17- бет; Р.Т.Шамсутдинов. Прокурор Бўтабой Дадабоев Қатағон қурбони, «Водийнома», 2024 йил 1-сон, 30 бет; Шамсутдинов Рустамбек, Маҳкамов Азизбек, Акбарова Нигорахон. Андижонлик жадидлар қатағон қурбонлари, «Водийнома», 2024 йил 2-сон, 26 – бет; Шамсутдинов Рустамбек, Шамсутдинов Равшанбек, Акбарова Нигорахон. Жадид, сиёсий арбоб Низомиддин Хўжаев Қатағон қурбони, «Водийнома», 2024 йил 3-сон, 23-40 бетлар; Шамсутдинов Р. Миллат фидойилари: Низомиддин Хўжаев, “Jadid” газетаси, 2024 йил 2 август сони; Шамсутдинов Рустамбек. Тарих: хотира, хулоса ва сабоқлар, «Водийнома», 2024 йил 4-сон, 98 бетлар;

Mazkur axborotimizda sovet mustamlakachiligi davrida qatag‘on etilgan jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Nizomiddin Xo‘jayevning shonli, lekin fojiali hayoti, faoliyati haqida hozirgacha ilmiy iste’molga kiritilmagan, maxfiy arxivlarda saqlanayotgan hujjat va materiallar bilan Siz muhtaram o‘quvchini tanishtirmoqchimiz.

Toshkent shahrida 1935-yil 2-yanvarda o‘tkazilgan tergov bayonnomasini keltiramiz: “Men, O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi (IIXK) Davlat xavfsizligi komiteti boshqarmasi 3-maxsus bo‘limi vakili Gaynetdinov, guvoh sifatida fuqaro Sharafiyev Saxabni so‘roq qildim, u o‘zi haqida quyidagilarni ma’lum qildi:

Sharafiyev Saxab Nazmeyevich – 1906-yili hozirgi Tatar respublikasi, Bonnyuy-Kaybiskiy tumani, Tagisheva qishlog‘ida tug‘ilgan, millati tatar, Fan qo‘mitasi huzuridagi Markaziy Osiyo Tabiat va ishlab chiqaruvchi kuchlar muzeyi direktor o‘rinbosari, 1923-yildan O‘z LKSM a’zosi, SSSR fuqarosi, sudlanmagan, yashash joyi Pillekeskaya maydoni, 32-uy 3-xonadon.

Yolg‘on ko‘rsatma berganlik uchun javobgarlik borligi ogohlantirilgandan so‘ng savollarga quyidagicha javob berdi.

Savol: Hozirda partiyadan chiqarilgan Nizomiddin Xo‘jayevni bilasizmi?

Javob: Nizomiddin Xo‘jayevni 1934-yil may oyidan buyon bilaman. Uni faqat Fan qo‘mitasidagi ishi orqali taniyman. U 1934-yilda partiyani tozalash vaqtida partiyaga qarshi turli aksilinqilobiy harakatlari uchun partiyadan chiqarilgan.

Savol: Nizomiddin Xo‘jayevning partiya va sovetlarga qarshi chiqishlari bo‘yicha sizga qanday holatlar ma’lum?

Javob: Menga Nizomiddin Xo‘jayevning 1934-yil 25-dekabr kuni Fan qo‘mitasida bo‘lib o‘tgan umumiy ochiq partiya yig‘ilishidagi bir chiqishi ma’lum. Bu yig‘ilishda zinovevchi aksilinqilobiy guruh masalasi muhokama qilinganida Nizomiddin Xo‘jayev munozarada ishtirok etib shunday degan: “O‘rtoqlar, shunday gap-so‘zlar va mish-mishlar borki, u yerda ham, bizda ham yuzlab odamlarni otib tashlashyapti, farqi nima o‘zi! Biz bir kishi uchun yuzlab odamlarni o‘ldirdik, u yerda ham terror, bu yerda ham terror, demak, u yerda ham o‘ldirishyapti, bu yerda ham o‘ldirishyapti”.

Shundan so‘ng Nizomiddin Xo‘jayev VKP(b) Markaziy Qo‘mitasining oppozitsiyaga munosabati haqida to‘xtalib: “Hechdan ko‘ra kech bo‘lsa ham yaxshi – Markaziy Qo‘mita antipartiyaviy guruhlarga qarshi kurash boshlayapti”, deb aytgan.

So‘ngra Nizomiddin Xo‘jayev o‘zi va O‘zbekistondagi partiya va sovetlarga qarshi guruhlar haqida gapirib: “Avval O‘zbekistonda trotskiychilar ham Markaziy Qo‘mitaga qarshi chiqqan edi. Bizda O‘zbekistonda ham mahalliy sovet apparatida ko‘plab eski tuzum odamlari o‘tirgan edi, ularga qarshi men kurash olib borganman, xuddi o‘sha Xidiraliyevga qarshi ham kurashganman... mening “sharqiy partiya”ni tuzishdagi xatoim ham partiyaga qarshi xarakterga ega bo‘lgan”, deb aytgan.

Nizomiddin Xo‘jayevdan so‘ng Oxunov Xolmuhammad, Alimov Nuri, Tursunov Ulug‘[7], Hakimov Otajonlar chiqish qilib, Nizomiddin Xo‘jayevning partiya va sovetlarga qarshi xarakterga ega bo‘lgan nutqini qoraladilar.

Bu chiqish yanada batafsil ravishda 1934-yil 25-dekabrdagi Fan qo‘mitasi partiya tashkilotining umumiy partiya yig‘ilishi bayonnomasida qayd etilgan. Shuningdek, mazkur yig‘ilishda qatnashgan partiya a’zolari – Alimov Nuri, Ulug‘ Tursunov, Hakimov Otajon, Oxunov Xolmuhammad, Novikov ham buni tasdiqlashlari mumkin.

Sharafiyev Saxab Nazmeyevich: Mening so‘zlarim to‘g‘ri yozib olindi va menga o‘qib berildi (imzo)”.

Toshkent shahrida 1935-yil 3-yanvarda o‘tkazilgan tergov bayonnomasini keltiramiz: “Men, O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi 3-maxsus bo‘limi vakolatli xodimi Gaynetdinov, guvoh sifatida fuqaro Gumerov Halim G‘alimovichni so‘roq qildim, u o‘zi haqida quyidagilarni bildirdi:

Gumerov Halim G‘alimovich – 1881-yilda O‘rta Volga o‘lkasining Andreyev tumani, Sainevo

Шамсутдинов Рустамбек. Жадидчиликни ўрганиш масаласига доир мулоҳазалар, «Водийнома», 2025 йил 1-сон, 15-27 бетлар; Шамсутдинов Рустамбек, Маҳкамов Азизбек, Акбарова Нигорахон. Юнусов Қудратулла, «Водийнома», 2025 йил 2-сон, 43-бет; Худоёров Мухторжон. Бир йиллик фаолият сарҳисоби, «Водийнома», 2025 йил 3-сон, 18-бет; Шамсутдинов Рустамбек. Маннон Рамзий, «Водийнома», 2025 йил 4-сон, 42-бет; Шамсутдинов Рустамбек, Маҳкамов Азизбек, Содиқ Абдусатторов, «Водийнома», 2025 йил 4-сон, 48-51 бетлар.

[7] Keyinchalik Samarqand davlat universiteti professori, kafedra mudiri lavozimida faoliyat ko‘rsatgan (R.T. Shamsutdinov).

qishlog‘ida tug‘ilgan, millati boshqird, 1922-yildan VKP(b) a’zosi, Toshkent shahridagi hayvonot bog‘i direktori, SSSR fuqarosi, oq armiyada xizmat qilmagan, sudlanmagan, Toshkent shahri Baliqchi ko‘chasi 21-uyda (Hayvonot bog‘i yaqinida) yashaydi.

Gumerov Halim yolg‘on ko‘rsatma berganligi uchun javobgarlikka tortilishi mumkinligi to‘g‘risida ogohlantirildi.

Savol: Siz Fan qo‘mitasi xodimi Nizomiddin Xo‘jayevni taniysizmi va u haqda nimalarni bilasiz?

Javob: Nizomiddin Xo‘jayevni yaxshi taniyman, u bilan Fan qo‘mitasida birga ishlayman va bir partiya tashkilotiga a’zomiz.

Savol: Nizomiddin Xo‘jayevning sizga ma’lum bo‘lgan sovetlarga qarshi chiqishlari haqida aytib bering?

Javob: Nizomiddin Xo‘jayevning sovetlarga qarshi chiqishlari haqida menga hech narsa ma’lum emas.

Savol: 1934-yil 25-dekabrda Fan qo‘mitasida bo‘lib o‘tgan ochiq partiya yig‘ilishida Nizomiddin Xo‘jayevning aytgan fikrlari mazmunini eslaysizmi?

Javob: 1934-yil 25-dekabrda Fan qo‘mitasida ochiq partiya yig‘ilishida zinovevchilarning sovetlarga qarshi bo‘lgan guruhi masalasi bo‘yicha (biz Nikolayev va boshqa terrorchilar ishi bo‘yicha ayblov xulosasini ko‘rib chiqqan edik) bir qator o‘rtoqlar so‘zga chiqishdi, jumladan, Nizomiddin Xo‘jayev ham. Shuni ta’kidlash joizki, Nizomiddin Xo‘jayev partiya tashkiloti kotibi o‘rtoq Ulug‘ Tursunovning taklifidan keyin so‘zga chiqdi, u Nizomiddin Xo‘jayev jim turganini ko‘rib: “Xo‘sh, o‘rtoq Nizomiddin Xo‘jayev zinovevchi muxolifatga qarshi o‘zingizning avvalgi xatolaringiz haqida fikr bildiring”, dedi.

Bu chiqishida Nizomiddin Xo‘jayev shunday degan: “Fashistlar Germaniyasida qo‘llanilayotgan terror bilan Sovet Ittifoqidagi terrorchilarga qarshi qo‘llanilayotgan qatag‘onlar o‘rtasida hech qanday farq yo‘q, u yerda ham o‘ldirishadi, bu yerda ham o‘ldirishadi”, degan gaplar bor.

Nizomiddin buni go‘yo boshqa shaxslar so‘zidan keltirib aytayotgandek aytdi, lekin manbasini ko‘rsatmagan holda yig‘ilishda aytgani sababli menda va yig‘ilishning boshqa ishtirokchilarida Nizomiddin Xo‘jayev o‘z fikrlarini bildirgan, degan xulosa shakllandi. Buni yana shundan ham bilish mumkinki, u bu fikrni qoralamadi.

Savol: Nizomiddin Xo‘jayevning boshqa partiyaga va sovetlarga qarshi chiqishlari sizga ma’lummi?

Javob: N. Xo‘jayevning boshqa partiyaga va sovetlarga qarshi chiqishlari menga ma’lum emas.

Toshkent shahrida 1935-yil 4-yanvarda o‘tkazilgan tergov bayonnomasidan ko‘chirma: “O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi (IIXK) Davlat xavfsizligi komiteti boshqarmasi 3-maxsus bo‘limi vakili men Gaynetdinov guvoh sifatida fuqaro K.I.Trofimovni so‘roq qildim, u o‘zi haqida quyidagilarni ma’lum qildi:

Trofimov Konstantin Ivanovich – 1885-yili Orska shahrida tug‘ilgan, millati rus, 1920-yildan VKP(b) a’zosi (bilet № 0835850), Tabiat muzeyi direktori, SSSR fuqarosi, sudlanmagan, yashash joyi Pochtovaya ko‘chasi 28-uy 3-xonadon.

Yolg‘on ko‘rsatma berganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirilgandan so‘ng savollarga javob berib, quyidagilarni bildirdi:

Savol: Hozirda VKP(b) safidan chiqarilgan Nizomiddin Xo‘jayevni bilasizmi?

Javob: Nizomiddin Xo‘jayevni yaxshi bilaman. Men u bilan bir partiya tashkilotidaman. U partiyani tozalash bo‘yicha boshlang‘ich komissiya qaroriga ko‘ra VKP(b) safidan chiqarilgan.

Savol: 1934-yil 25-dekabrda ochiq partiya yig‘ilishida Nizomiddin Xo‘jayevning nutqi mazmunini eslaysizmi?

Javob: Ha, men yig‘ilishda qatnashganman. Nizomiddin Xo‘jayevning chiqishi menda ham, boshqa yacheyka a’zolarida ham yoqimsiz taassurot qoldirdi. U shunday dedi: “Mana, o‘rtoq Kirovni o‘ldirishdi va allaqachon shunday gap-so‘zlar yuribdi: bir kishi uchun yuzdan ortiq odam yo‘q qilingan, demak, chet elda ham terror, bizda ham terror bor ekan”.

Bu holat haqida gapira turib, N.Xo‘jayev bu gaplarni kim aytganini, qayerda va qachon aytilganini ko‘rsatmadi. Shuningdek, u chet elda terror kimga nisbatan qo‘llanilayotganini va SSSRda o‘rtoq Kirovni o‘ldirganlik uchun kimlar sudlanganini tahlil qilib bermadi. Shu bois uning chiqishi partiya va sovet hukumatining harakatlarini qoralashga o‘xshab qoldi va men buni sovetlarga qarshi chiqish deb hisoblayman.

Faqat yig‘ilish oxirida N.Xo‘jayevning chiqishi keskin tanqid qilinganidan so‘ng u gap-so‘zlarga qarshi

chiqqanini aytdi, lekin buni hech qanday dalil bilan isbotlamadi. Unga hukumat tomonidan qabul qilingan choralarga qanday munosabatdasiz, deb berilgan savolga shunday javob berdi: “Hechdan ko‘ra kech bo‘lsa ham yaxshi – ha, men roziman”.

Savol: N. Xo‘jayevning yana qanday boshqa chiqishlari sizga ma’lum? Uning tomonidan sovetlarga qarshi chiqishlar bo‘lgan holatlarni uchratganmisiz?

Javob: N. Xo‘jayevning sovetlarga qarshi boshqa chiqishlari menga ma’lum emas. K.I. Trofimov: Mening so‘zlarim to‘g‘ri yozib olindi va menga o‘qib berildi”.


Obidjon Mahmudov

1935-yil 31-oktyabr kuni Toshkent shahrida O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 3-maxsus bo‘lim vakili Gaynetdinov guvoh sifatida fuqaro Obidjon Mahmudovni tergov qilgan[8]:

Savol: Toshkent shahrida yashovchi Nizomiddin Xo‘jayevni bilasizmi?

Javob: Nizomiddin Xo‘jayevni men inqilobgacha bo‘lgan davrdanoq bilaman. U Toshkent shahridagi eski taraqqiyparvarlardan hisoblanadi. U inqilobgacha 1910-1911-yillari o‘sha vaqtda faoliyatda bo‘lgan “Turon” nomli o‘zining gazetasini ochiq oshkora chiqargan.

Savol: Ayting-chi, Nizomiddin Xo‘jayevning millatchilik, aksilinqilobiychilik faoliyati haqida nimalar sizga ma’lum? U millatchi, aksilinqilobiy tashkilot bo‘lgan “Milliy ittihod”ga kirganmi, muxtor hukumatda ishtirok etganmi?

Javob: Nizomiddin Xo‘jayev 1917-yil sodir bo‘lgan inqilobdan beri “Milliy ittihod” millatchi, aksilinqilobchi tashkilotda bo‘lgan. Men Qo‘qon muxtor hukumatning a’zosi sifatida Nizomiddin Xo‘jayevni yaxshi bilaman, u 1917-yili “Milliy ittihod” markaziy komitetining vakili sifatida Qo‘qon muxtor hukumati tarkibida bo‘lgan, shu hukumatning qarori bilan bu hukumatning qo‘shinlarini shakllantirishda mutassaddi vakil bo‘lgan. U bu masalada nima qilgani to‘g‘risida ma’lumotga ega emasman, chunki bu menga ma’lum emas. Shundan so‘ng u Toshkentga ketgan. Menga shu narsa ma’lumki, Nizomiddin Xo‘jayev Qo‘qon muxtor hukumati e’lon qilinganidan so‘ng Toshkent shahriga qaytib kelib aldangan va millatchilar ta’siriga tushib qolgan eski shahar aholisi yordami bilan qamoqdan oq gvardiyachilarni ozod qilgan.

Savol: Nizomiddin Xo‘jayevni bosmachilik bilan aloqasi borligi Sizga ma’lummi?

Javob: Uning bosmachilik bilan aloqasi to‘g‘risida menga hech narsa ma’lum emas.

O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi xizmati maxsus bo‘limi boshlig‘i Viketov tomonidan tasdiqlangan qarorda 1935-yil 21-noyabr kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi xizmati maxsus bo‘limining 3-bo‘linmasi vakili Gaynetdinov tomonidan tergov bo‘limi qamoqqa olingan fuqaro Nizomiddin Xo‘jayevga nisbatan 11960-sonli materiallari ko‘rib chiqilib, quyidagilar aniqlandi: **Birinchidan,** Nizomiddin Xo‘jayev ilgari millatchi aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotining faol a’zosi, bu tashkilot Markaziy Qo‘mitasi a’zosi sifatida 1917-yili Qo‘qon muxtoriyati aksilinqilobiy hukumat tarkibiga kirgan hamda bu hukumat qaroriga ko‘ra mazkur hukumatda qo‘shin tuzishga vakil etib tayinlangan; **Ikkinchidan,** Qo‘qon muxtor hukumati a’zosi sifatida 1918-yil boshida Toshkent shahrida sovetlarga qarshi namoyishni tashkil etgan, shu namoyish yordamida Toshkent qamoqxonasidan hibsga olingan oq gvardiyachilar va boshqa aksilinqilobiy kuchlar ozod qilingan; **Uchinchidan**, 1919-yil 19-yanvarga o‘tar kechasi Toshkent shahrida sovetlarga qarshi isyon ko‘targan Konstantin Osipov boshchiligidagi aksilinqilobiy qo‘zg‘olonda faol ishtirok etgan; **To‘rtinchidan,** O‘zining aksilinqilobiy o‘tmishini yashirib, aldash yo‘li bilan VKP(b) saflariga kirgan; keyinchalik ham millatchi ziyolilar orasida aksilinqilobiy faoliyatini davom ettirgan, partiyadan chiqarilgandan so‘ng tanishlari orasida partiya va sovet hukumati amalga oshirayotgan tadbirlarni obro‘sizlantirishga qaratilgan millatchi-aksilinqilobiy targ‘ibot olib borgan; **Beshinchidan,** partiyadan chiqarilgandan keyin O‘zSSR partiya va hukumat rahbarlariga nisbatan keskin norozilik bildirgan;

[8] Obidjon Mahmudov 1959-yilda Koshg‘ar shahrida tug‘ilgan, o‘zbek, partiyasiz, oilali, sudga tortilmagan. Qo‘qon shahri Masjidi Navi mahallasida yashagan, SSSR fuqarosi.

O‘zSSR Jinoyat protsessual kodeksining 40-moddasiga asoslanib, 1886-yil Toshkent shahrida tug‘ilgan, partiya safidan chiqarilgan fuqaro Nizomiddin Xo‘jayev javobgarlikka tortilishiga va unga O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-modda 1-qismi, 67-modda hamda 23 va 4-moddalarida nazarda tutilgan ayblovlar qo‘yilib, ehtiyot chorasi avvalgidek qoldirilishiga, O‘zbekiston Ichki ishlar xalq komissarligining siyosiy mahbuslar uyi qamoqxonasida saqlashga qaror qilingan. (Gaynetdinov) (Matveyev)

Toshkent shahrida 1935-yil 22-noyabrda o‘tkazilgan tergov bayonnomasidan ko‘chirma:

Savol: Fuqaro N.Xo‘jayev O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 66-modda 1-bandi, 67 va 234-bandlari bilan ayblangan jinoyatingizni aytib bering?


Javob: O‘zSSR Jinoyat Kodeksining moddalari bo‘yicha o‘zimni aybdor deb hisoblamayman:

a) men “Milliy ittihod” millatchi aksilinqilobiy tashkilotning a’zosi bo‘lmaganman;

b) Men Qo‘qon muxtor hukumatining a’zosi bo‘lgan emasman, faqat muxtoriyat to‘g‘risidagi syezdning oddiy vakili bo‘lganman;

d) men Osipovning aksilinqilobiy qo‘zg‘olonida ishtirok etganimni qat’iy ravishda inkor etaman, aksincha, men bu aksilinqilobiy qo‘zg‘olonni bostirishda ishtirok etganman;

e) men Kommunistik partiya safiga 1918-yilda aldash yo‘li bilan emas, balki kompartiya yo‘lining to‘g‘riligiga ishongan holda kirganman. Men Qo‘qon muxtoriyati hukumati a’zosi bo‘lmaganim, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi bo‘lmaganim sababli aksilinqilobiy o‘tmishga ega bo‘lishim mumkin emas edi;


Hodi Tillayevich Zaripov (1905–1972)

f) ziyolilar orasida ham, aholining boshqa qatlamlari orasida ham sovetlarga qarshi targ‘iboti olib bormaganman, O‘zSSR partiyasi va hukumati rahbarlariga nisbatan norozilik bildirmaganman.

Men Kommunistik partiya oldida 1920-yilda Zaki Validov bilan birgalikda alohida sharqiy kommunistik partiya tuzish haqidagi murojaatnomani imzolaganimda aybdorman, mazkur hujjat partiyaga qarshi hujjat bo‘lgan.

Mening so‘zlarim to‘g‘ri yozib olindi, yozilgan matn menga o‘qib eshittirildi (imzo).

So‘roq qildi: Maxsus bo‘lim vakolatli vakili Gaynetdinov (imzo).

1935-yil 20-dekabrida tergovchi Gaynetdinov guvoh sifatida Hodi Zaripovni[9] so‘roq qila turib ish bo‘yicha yolg‘on ko‘rsatmalar bermaslikni qat’iyan talab qilgan.

Savol: Siz O‘zkomstarisning sobiq xodimi sifatida Nizomiddin Xo‘jayevni qanday bilishingizni aytib bering?

Javob: Men Nizomiddin Xo‘jayevni sobiq Turkistondagi jadidchilik harakatining taniqli rahbarlaridan biri sifatida taniyman. So‘nggi yillarda uni VKP(b) safidan o‘chirilgunigacha biz u bilan birga O‘zbekiston Fan komiteti jamoasida xizmat qilganmiz. Bundan tashqari, u bilan xizmatim vaqtida bir necha bor uning xonadonida bo‘lganman. N.Xo‘jayev sovetlarga qarshi millatchilik kayfiyatida bo‘lgan. U goh-gohida millatchilik, sovetlarga qarshi fikrlar aytardi, ayniqsa, partiyadan o‘chirilganidan so‘ng bu jihat keng tus olgan edi.

Savol: Siz Nizomiddin Xo‘jayevni sovetlarga qarshi kayfiyatda bo‘lib, unga qarshi fikrlar ilgari surgani to‘g‘risida qanday tasdiqlovchi dalillarga egasiz?

Javob: 1934-yildan boshlab Nizomiddin Xo‘jayev partiyadan chiqarilganidan keyin u bilan bir rayonda yashaganim sababli bir necha bor uchrashdim va suhbatlashdim. N.Xo‘jayev deyarli har doim millatchilik ruhidagi aksilsho‘ro fikrlarni aytardi. Xotiramda quyidagi faktlar saqlanib qolgan:

1. 1934-yilning oxiri yoki 1935-yilning boshida N.Xo‘jayev o‘zining VKP(b)ga qarshi o‘tmishdagi faoliyati haqida gapirib va bu faoliyatni ma’qullab, hozirda muhojiratda bo‘lgan Zaki Validiy va boshqa taniqli milliy arboblar bilan birga VKP (b) dan alohida, “Sharq Kompartiyasi” deb atalmish

[9] Zarifov Hodi Tillayevich o‘zbek folklorshunosligi asoschisi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlarining to‘plovchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori (1965), professor, eski va yangi usuldagi maktablarda boshlang‘ich ta’lim olgan, 1923–1926-yillarida Boku o‘qituvchilar seminariyasida o‘qigan, O‘zbekistondagi maorif va madaniyat muassasalarida xizmat qilgan, Moskvadagi SSSR xalqlari markaziy muzeyida ilmiy xodim, O‘zbekiston Madaniy qurilish ilmiy tadqiqot instituti etnografiya sho‘basi boshlig‘i, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida folklor bo‘limi mudiri, direktor, direktor o‘rinbosari, ensiklopediya bo‘limi boshlig‘i, Navoiy nomidagi adabiyot muzeyining birinchi direktori, Sharq qo‘lyozmalari (Sharqshunoslik) institutining direktor o‘rinbosari, Navoiy ijodini o‘rganish qo‘mitasining ilmiy kotibi vazifalarida samarali faoliyat ko‘rsatgan taniqli filolog olim edi.

tashkilot tuzish talabi bilan chiqqanliklarini so‘zlab bergan edi. Bu fikr ularda RKP (b) go‘yoki Turkiston musulmonlari manfaatlarini himoya qilmayotgani, unda hokimiyatni qo‘lga olib, Sharq xalqlari bilan hisoblashmayotgan ruslar hukmronlik qilayotgani sababli tug‘ilgan. Nizomiddin Xo‘jayev bu haqda gapira turib, Sharq Kompartiyasini tuzish g‘oyasini hozir ham to‘g‘ri deb hisoblashini bildirgan.

2. 1935-yilda N.Xo‘jayev o‘z uyida bo‘lib o‘tgan suhbatlardan birida ayolining ishtirokida mamlakatimizda sotsialistik qurilishning avj olishi va aholi farovonligining o‘sishi haqidagi iddaolar asossiz ekanini menga isbotlashga urindi. Uningcha, ishchi va kolxozchilar aslo to‘qchilikka qarab borayotgani yo‘q, aksincha, qashshoqlikka yuz tutmoqda. N.Xo‘jayev bu fikrini bizda go‘yoki o‘g‘rilik keng ildiz otgani, bu esa aholining ta’minlanmaganligi belgisi ekani bilan asoslamoqchi bo‘ldi. Bundan tashqari, N.Xo‘jayev bizning sotsialistik xo‘jalik tizimimizni yaxlit holda ayblab, bu tizimning o‘zi go‘yoki o‘g‘rilikning rivojlanishini ko‘zda tutadi, deb aytdi.

Savol: Nizomiddin Xo‘jayev partiyadan chiqarilgandan so‘ng O‘zbekiston KP(b) Markaziy Komitet kotibi o‘rtoq Ikromov va partiyaning boshqa rahbarlariga nisbatan adovat ko‘rsatdimi, ularni obro‘sizlantirishga urindimi? Bu borada sizga nimalar ma’lum?

Javob: Partiyadan chiqarilganidan keyin N. Xo‘jayev men bilan suhbatlarida bir necha bor O‘zbekiston KP(b) Markaziy Komiteti kotibi o‘rtoq Ikromov va O‘rta Osiyo tozalash komissiyasi raisi o‘rtoq Petersdan noroziligini bildirgan. U ularning sha’niga haqoratli so‘zlar aytar, ularni o‘zining partiyadan haydalishiga aybdor deb hisoblab, so‘kar edi. Bu suhbatlarda Nizomiddin Xo‘jayev o‘rtoq Akmal Ikromovni obro‘sizlantirishga urinib, go‘yoki o‘rtoq Ikromov o‘tmishda millatchilarning aksilinqilobiy faoliyatida ishtirok etgan, endi esa u (o‘rtoq Ikromov) go‘yoki N.Xo‘jayev kabi haqiqiy inqilobchilarni partiyadan haydamoqda, deb da’vo qilardi. Shuningdek, u O‘rta Osiyo komissiyasi raisi o‘rtoq Petersni ham obro‘sizlantirishga urinib, uni o‘tmishda go‘yoki oq gvardiyachilarni otib tashlashdan qutqarib, ularni himoya qilganlikda ayblardi.

Savol: N.Xo‘jayevning aksilsho‘ro faoliyati haqida yana nimalarni bilasiz?

Javob: Boshqa faktlar menda yo‘q.

Mening so‘zlarimdan to‘g‘ri yozildi, yozilganlar menga o‘qib berildi (imzo). So‘roq qildi: Maxsus bo‘lim vakolatli xodimi Gaynetdinov (imzo).

1935-yil 21-dekabrdagi tergov bayonnomasida NKVD Davlat xavfsizligi boshqarmasi maxsus bo‘limi 3-bo‘lim vakolatli shaxs Gaynetdinov guvoh sifatida Arslon Valiyevni so‘roq qilgan. Valiyev Arslon 1898-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan, millati o‘zbek, xizmatchi, 1926-yildan kompartiya a’zosi, oilali, Toshkent kechki pedagogika instituti o‘qituvchisi, Toshkent shahri 1-may ko‘chasi, 29-uyda ishlaydi, SSSR fuqarosi, sudlanmagan.

Savol: Siz fuqaro Nizomiddin Xo‘jayevni yaxshi bilasizmi?

Javob: Nizomiddin Xo‘jayevni O‘rta Osiyodagi jadidchilik harakatining sobiq taniqli arboblaridan biri sifatida taniyman, inqilob yillarida sovet boshqaruv apparatida mas’ul lavozimlarda ishlagan. Mening u bilan shaxsiy aloqam yo‘q, biror bir masalada u bilan suhbatda bo‘lgan emasman. Shu bois uni siyosiy tomondan ta’riflay olmayman. N.Xo‘jayev aniq millatchilik kayfiyatida bo‘lgani, suhbatlarda sovetlarga qarshi millatchilik fikrlarini aytganligini bilmayman.

Savol: Ayting-chi, Nizomiddin Xo‘jayev millatchilik, sovetlarga qarshi fikrlarining qaysi birlari Sizga ma’lum?

Javob: So‘nggi 2-3 yil davomida Nizomiddin Xo‘jayev bilan bir necha bor gaplashganman, o‘sha vaqtda millatchilik, sovetlarga qarshi fikrlar aytgan.

Bu haqdagi suhbatni endilikda eslash qiyindir, biroq mening xotiramda ulardan ayrimlari saqlanib qolgan: 1). 1935-yilning taxminan aprel yoki may oyida men Buxorodan Toshkentga kelganman, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida bo‘lganman, Markaziy Komitetdan chiqayotganimda Karl Marks ko‘chasining bir chetida fuqaro Nizomiddin Xo‘jayevni uchratganman va men bilan bo‘lgan suhbatda u rus kishilardan kimdir xafa qilganini aytgan. N.Xo‘jayev menga ruslar bu yerda hamma narsani o‘z qo‘liga olganlar va ruslar sha’niga haqoratli so‘zlarni aytgan. 2). 1934-yilning bir kunida, oyi va sanasini bilmayman, O‘zKompartiya Markaziy Komiteti binosida N.Xo‘jayevni uchratib

qolganman, madaniyat targ‘ibot xodimasi Turkestanskayaning xonasida Nizomiddin Xo‘jayev o‘sha vaqtda partiya a’zosi bo‘la turib, partiyaga qarshi, sovetlarga qarshi fikrlar aytgan. U san’at sohasidagi yutuqlarni inkor etgan. Sovet hokimiyati sha’niga burjuacha ayblarni bildirgan. U shunday degan: “Bizlar hamma narsani vayron qildik, hech narsa bunyod etmadik. Esimda N.Xo‘jayev 1933-yili Eski Buxoroga xizmat safari bilan kelgan, sobiq Devonbegi madrasasiga joylashgan. Men bilan bo‘lgan suhbatda qandaydir gravyura ustasini qamoqqa olinishiga achingan, chunki u o‘tmishda Buxoro amiri saroyi qurilishida ishtirok etgan shaxs NKVD tomonidan qamoqqa olinganiga achinish bildirgan.

1933-yilning yozida men N.Xo‘jayev, Isroilov (marksizm-leninizm institutining sobiq talabasi, hozir u qayerdaligini bilmayman), Hasanov (hozir Xorazm okrugi ijroiya qo‘mitasining raisi) poyezdda bir vagonda Buxorodan Toshkentga qaytayotgan edik. Yo‘l davomida vagonda oramizda turli xil oddiy va siyosiy mavzularda suhbatlashishga to‘g‘ri kelgan. Eng ko‘p Nizomiddin Xo‘jayev gapirgan, uning fikrlari esa millatchilik va sovetlarga qarshi xarakteriga ega bo‘lgan.

N. Xo‘jayev sobiq Qo‘qon aksilinqilobiy muxtor hukumati masalasiga to‘xtalib, Qo‘qon muxtor hukumati lenincha milliy siyosat negizida tashkil etilganini isbotlashga uringan edi. U muxtoriyat harakat ishtirokchisi bo‘lgani uchun o‘zini aybdor deb hisoblay olmasligini aytgan. Biroq u bu hukumatning aksilinqilobiy mohiyatini va uning sovet hokimiyatiga qarshi faol kurashini mutlaqo tilga olmagan edi.

Bu suhbatlarning barchasida men N.Xo‘jayevning qarashlari noto‘g‘ri ekani haqida e’tirozlar bildirdim, ammo u bularga e’tibor bermasdan, o‘z fikrida qolavergan.

Mening so‘zlarimdan to‘g‘ri yozib olindi, yozilgani menga o‘qib berildi (imzo) So‘roq qildi: (Gaynetdinov)[10].

“Maxsus bo‘lim boshlig‘i O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissariati Davlat xavfsizligi boshqarmasi Viktorov

Qaror

Toshkent shahri, 1935-yil 31-dekabr

Men, O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi Maxsus bo‘limining 3-bo‘linmasi vakili Gaynetdinov millatchi aksilinqilobiy “Ittihod va taraqqiy” va “Milliy ittihod” tashkilotlarining sobiq yetakchisi Sa’dulla Tursunxo‘jayevning tekshiruvdagi chiqishi mazmuni bilan tanishib, hozirda ayblanayotgan Nizomiddin Xo‘jayevga oid materiallarni ko‘rib chiqib hamda mazkur stenogramma o‘tmishda Nizomiddin Xo‘jayevning Markaziy Osiyodagi millatchi-aksilinqilobiy harakatda faol ishtirok etganini ko‘rsatib, ish uchun muhim ahamiyatga ega ekanini inobatga olib,

Qaror qildim:

Fuqaro Tursunxo‘jayevning nutqi stenogrammasini 3 sahifadan iborat bosma varaqlarda fuqaro Nizomiddin Xo‘jayevga nisbatan yuritilayotgan №11960-sonli tergov ishiga ilova qilinsin.

O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi Maxsus bo‘limi 3-bo‘linmasi vakili Gaynetdinov, Rozi: O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi Maxsus bo‘limi 3-bo‘linmasi boshlig‘i Matveyev”.



Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayev (1891–1038)

Fan qo‘mitasida Nizomiddin Xo‘jayevni tekshirish to‘g‘risidagi stenogrammada O‘rta Osiyoda tanilgan davlat va jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayevning nutqini aynan keltiramiz: “Men, o‘rtoqlar, Turkiston Respublikasining dastlabki davrlarida, keyin esa boshqa markazlarda Markaziy Osiyodagi aksilinqilobiy millatchi tashkilot Markaziy Komitetining a’zosi bo‘lganman. Shu tariqa men aksilinqilobiy millatchi tashkilotning yirik namoyandalaridan biri, millatchilik harakatining yirik yetakchilaridan biri bo‘lganman va, albatta, mahalliy millatchilar, o‘zlarini mahalliy millat himoyachilari deb atagan jamoat arboblari bilan to‘qnash kelishimga to‘g‘ri kelgan. Men o‘rtoq Nizomiddin Xo‘jayevni maktab davridan – rus-tuzem maktabidan bilaman. Men bu maktabni tugallamadim, N. Xo‘jayev esa men ketganimdan ikki oy o‘tib uni tugatgan.

[10] O‘zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizligi xizmati arxivi, 11960-sonli ish, 51-varaq.

Aytishim kerakki, mening Nizomiddin Xo‘jayev bilan hech qanday shaxsiy hisob-kitoblarim bo‘lmagan. Shuning uchun men faqat bilganlarimni aniq aytaman. Shuni ham aytishim kerakki, u kecha men haqimda nima deganini yaxshi bilaman, lekin sizlarga men faqat shu sababli bu yerga chiqib gapiryapman, degan taassurot paydo bo‘lmasin. Unday emas, bir qator sabablarga ko‘ra men tekshiruvga kelmagan edim. Demak, N.Xo‘jayevni men maktab davridan bilaman. 35 yil avval u bilan yaqinroq munosabatda bo‘lgan edim. Rossiyadan savdo ishlarimiz Markaziy Osiyoga ko‘chirilganda men Andijonga keldim va u yerda savdo ishi bilan mashg‘ul bo‘ldim. Shu vaqtda men avval faqat onda-sonda yozishib turgan jadidlar bilan yaqinroq aloqaga kirishdim. Andijonga kelganimdan keyin ular bilan ishlay boshladim. Men bilamanki, N.Xo‘jayev Munavvar qori jadid tashkilotining faol rahbarlaridan biri, eng faol namoyandalaridan biri bo‘lgan.

Jadidlar zimmasiga yuklatilgan eng mas’uliyatli topshiriqlar ko‘pincha Nizomiddin Xo‘jayev orqali amalga oshirilgan. Jadid tashkilotining asosiy bazasini ushbu tashkilotni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan ilg‘or savdogarlar tashkil etgan. Ularning asosiy faoliyati madaniy ishlar, havaskor spektakllar qo‘yishdan iborat bo‘lgan. Lekin aslida mahalliy burjuaziya bu tashkilotni moddiy jihatdan ta’minlab turgan va o‘rtoq N.Xo‘jayev bu tashkilot faoliyati qaysi tomonga yo‘nalganini yaxshi bilardi, uning tarkibida tor doirada fikrlovchi millatchi kishilar ham bo‘lgan edi.

Men jadid tashkilotidagi ishtirok masalasiga o‘taman. Umid qilamanki, Nizomiddin Xo‘jayev 1916-yilgacha jadid tashkilotining tarkibi haqida, bu tashkilotdan bugungi kungacha partiyaga qancha a’zo qabul qilingani, ular qanday o‘rinlarni egallab turgani, qaysi yacheykalarda ishlayotgani, shuningdek, Oktyabr inqilobigacha partiyaga kirmagan partiyasiz burjuaziya vakillari kimlar ekanini aytib beradi. Nizomiddin Xo‘jayev bu odamlar haqida, ular hozir qayerda ekanliklari to‘g‘risida ham gapirsin. N.Xo‘jayev bularning barchasini bilmasligi mumkin emas, chunki u boshqalar bilan aloqada bo‘lgan 40 kishidan iborat rahbar guruhning boshida turgan edi”.

1916-yil qo‘zg‘oloni masalasiga o‘tamiz. N.Xo‘jayev bu qo‘zg‘olondagi ishtirokini qanday tasvirlaganini bilmayman.

Prezidiumdan: Bizga aytdiki, u 1916-yilgi qo‘zg‘olon tashkilotchisi bo‘lgan.

S.Tursunxo‘jayev javoban shunday degan: “Nizomidddin Xo‘jayev jadidlarning faol vakillaridan biri bo‘lgan. Men shaxsan savdo ishlariga ega bo‘lganman va moddiy jihatdan ta’minlangan edim. Men Farg‘onada ishlaganman. Bizda ham mehnatkashlar qo‘zg‘oloni bo‘lib, ular qo‘zg‘olon ko‘tarib, podsho ma’muriyati vakillarini o‘ldira boshladilar. Bugun men rostini aytishim kerak, partiyasiz ziyolilar vakillari bo‘lgan o‘rtoqlarimiz buni tasdiqlashlari mumkin. Jadidlar rahbarligi ostida biz podsho burjuaziyasi qo‘zg‘olonini bartaraf etishga yordam berdik.

Prezidiumdan: Nizomiddin Xo‘jayev qo‘zg‘olonga rahbarlik qilganmi?

Javob: Balki u Toshkentda jadidlar qo‘zg‘olonini tashkil etgan bo‘lishi mumkin.

Nizomidddin Xo‘jayev: Bu noto‘g‘ri.

S.Tursunxo‘jayev: Men shuni aytishim kerakki, men hech qachon hech qanday demagogiya bilan shug‘ullanmaganman va asossiz, bo‘sh gaplarni aytishga harakat qilmaganman. Sabr qilish kerak, Nizomiddin Xo‘jayev, meni tinglang. Men iloji boricha xolis bo‘lishga harakat qilaman. Siz Munavvar qori, Ubaydulla Xo‘jayev va Samarqanddan, Behbudiy, Turkmanistondan bo‘lgan milliy burjuaziyaning boshqa vakillarini yaxshi bilasiz, ularning barchasi sizning shtabingizga to‘planar edi, u yerdan qo‘zg‘olonni qanday bartaraf etish va qishloq hamda shaharlarni qanday bo‘ysundirish kerakligi haqida ko‘rsatmalar, yo‘riqnomalar berilar edi. Tarix shuni ko‘rsatadiki, Munavvar qori boshchiligida, Ubaydulla Xo‘jayev va Sa’dullaning faol rahbarligida, podsho ideologiyasi bilan yaqinlashgan holda jadidlar tashkiloti amalda podsho ma’muriyati vakillariga yordam bergan.


Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev (1878–1937)

Nizomiddin Xo‘jayev siz bu yerda qanday rol o‘ynagansiz? Siz kam ahamiyatga ega bo‘lmagan rol o‘ynagansiz, chunki siz bu tashkilotning yirik yetakchilaridan biri edingiz. Bu tashkilotda biror mas’ul yig‘ilish sizning ishtirokingizsiz o‘tganmi?

Men o‘sha vaqtda Farg‘onada edim, lekin men bilardimki, siz o‘sha paytdagi jamoatdagi mavqeingizga va Ubaydulla Xo‘jayev hamda boshqa yetakchilar, umumiy do‘stlarimiz bilan bo‘lgan munosabatlaringizni hisobga olgan holda, bu tashkilotda yetakchi rollardan birini o‘ynagansiz.

10-ssena

...Nizomiddin Xo‘jayev meni aldamoqchi. Biz siz bilan bir vagonda Farg‘onaga ketganmiz. Men tasodifan jadidlar tashkiloti vakili sifatida siz yo‘lga chiqqan kuni shu vagonga tushib qolganman. Vagonda yana Bashir Xo‘jayev ham bor edi. Siz Farg‘onaga muayyan ko‘rsatma olish uchun – podsho buyrug‘ini bajarish masalasida keyingi taktika qanday bo‘lishi kerakligini bilish uchun ketayotgan edingiz. Bu taktika shunday ediki, keyinchalik general Kuropatkin kelayotgani uchun tinch siyosat yuritish, uni tartibli ravishda kutib olish kerak edi. Bu Nikolayga yordam bergan. Bu taktika orqali biz aksilinqilobiy tashkilotga yordam berdik va siz bilan birga faol aksilinqilobchilar bo‘lganmiz.

Prezidiumdan: Biz N.Xo‘jayevga Farg‘onaga qanday maqsad bilan ketganini so‘raganimizda u ishchilar qo‘zg‘olonini chuqurlashtirish uchun ketganini aytdi.

Prezidiumdan: Harakatni chuqurlashtirish, keyin esa material to‘plash.

S.Tursunxo‘jayev: Bizning ishimiz jadid ziyolilarining faoliyatiga asosdir, aslida esa asosni podsho iqtisodiyotidan qutulib, o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishni istagan ilg‘or boylar yaratgan edi. Biz bu ziyolilarni o‘zimizga jalb etdik, bu bilan general Kuropatkinni tartibli kutib olish va ishchilarni unga topshirish uchun qurol bo‘lib xizmat qilishi kerak edi. Buni inqilobiy harakat deb bo‘ladimi? Yo‘q, biz siz bilan bu yerda kichik bir xiyonatkorona rol o‘ynaganmiz.

Prezidiumdan: Unchalik kichik ham emas.

S.Tursunxo‘jayev: 1916-yilda qo‘zg‘olon bo‘ldi. Sizning faol rolingiz haqida aytdim. Keyin Fevral inqilobi. Siz qilgan ishlarni hozircha chetga qo‘ymoqchiman. Siz jadidlarimizni yaxshi bilasiz, ular general Kuropatkinni tartibli kutib oldilar, shu bilan podsho rejimiga yordam berdilar, bu yerda qanday inqilobiylik bor?

N. Xo‘jayev: To‘g‘ri (kulgi).

S.Tursunxo‘jayev: Endi men 1917-yilga o‘taman. Men yashirin tashkilotning rahbari edim. Bu tashkilotga Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Nizomiddin Xo‘jayev, eser Vadim Afanasevich Chaykin, biz u bilan Farg‘onada gazetalar chiqarar edik. Men sizlarni ogohlantirishim kerakki...

Fevral inqilobidan oldin Vadim Afanasevich Chaykinning eser ekanini ham bilmas edim. Bu V.A.Chaykin, albatta, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Munavvar qori bilan birgalikda, Nizomiddin Xo‘jayev raisligi ostida barchasi bir tashkilotda birlashgan edilar. Bu tashkilot tomonidan 1916-yildagi qo‘zg‘olonini tugatish masalalari ko‘rib chiqilardi. Shunda bu qo‘zg‘olonni yuzaga kelishida yevropalik eserlarning ham ishtiroki borligi aniqlangan edi.

Fevral inqilobidan keyin nimaga ega bo‘ldik? Biz “Turon” tashkilotiga ega bo‘ldik. “Turon” tashkilotining asosiy rahbarlaridan biri Nizomiddin Xo‘jayev edi va u shu tashkilotning ta’sischilaridan biri bo‘lgan.

“Turon” tashkilotidan “Sho‘roi Islom” ajralib chiqqan bo‘lib, b*uning so‘zma-so‘z tarjimasi –musulmonlar sho‘rosi, musulmonlar soveti demakdir. Fevral inqilobidan keyin mahalliy m*usulmon “Sho‘roi Islom” tashkilotlari yuzaga kelgan edi. Uning tarkibiga “Turon” vakillari ham kirgan, jumladan, Nizomiddin Xo‘jayev ham uning a’zolaridan biri bo‘lgan.

Aslida “Sho‘roi Islom” arxaik musulmon amaldorlar tashkiloti bo‘lib, u faqat dindorlar va boylardan iborat bo‘lgan. Uning asosiy ilg‘or “Sho‘roi Islom” tashkiloti bilan hech qanday umumiylikka ega bo‘lmagan. Ular mehnatkash dehqonlar, hunarmandlar nomidan chiqishni da’vo qilmas, balki musulmonlar sho‘rosi sifatida faoliyat yuritganlar.

Nizomiddin Xo‘jayev “Sho‘roi Islom” tashkilotini yaxshi bilgan va u yerda u faol rol o‘ynagan.

Keyin u*lamochilar progressistlar bilan o‘zaro kurashga kirishganlar, mahalliy yevropacha burjuaziya partiyasi – kadetlar paydo bo‘lgan. Shuningdek, kadetlardan ha*m o‘ngroq pozitsiyada turgan ulamochilar kuchaya boshlagan. Ular tashkillanib, “Sho‘roi Islom”ni yo‘q qilishga kirishdilar. Ular “Sho‘roi Islom”ning bazasini o‘z qo‘llariga olib, shu bazaga tayanib inqilobni bostirishni maqsad qilganlar. *Davomi kelgusi sonda*

BOBOXO‘JAYEV ABBOSXO‘JA
(1904–1938)


Rustambek Shamsutdinov, tarix fanlari doktori, professor


Abbosxo‘ja Boboxo‘jayev (1904–1938)

SSSR Oliy Sudining Harbiy Kollegiyasining Toshkent shahrida 1938-yil 8-oktyabrdagi yig‘ilishida 40 nafar o‘zbekistonlik fuqarolar ustidan oliy jazo – *otuv hukmi chiqarilgan. Ulardan 23 nafari mahalliy millat vakillari, qolganlari yevropalik edi. Ulardan biri Abbosxo‘ja Boboxo‘jayev bo‘lgan. Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja 1904-yili Qo‘qon shahrida ishchi oilasid*a tug‘ilgan, o‘zbek, ma’lumoti quyi, 1923–1925-yillari Qo‘qon shahridagi savodsizlikni tugatish maktabida o‘qigan, 1925–1929-yillari Toshkentdagi Lenin nomli O‘rta Osiyo harbiy maktabining artilleriya bo‘limini bitirgan. Uning mehnat faoliyati shaxsiy varaqasida ko‘rsatilgan. 1919–1921-yillari otasi bilan birga etikdo‘z ustaga shogird bo‘lgan, 1921–1922-yillari Qo‘qon shahrida harbiy etikdo‘z ustasi, 1922–1923-yillari Qo‘qondagi Markaz uyushmasida etikdo‘z usta bo‘lib xizmat qilgan, 1924–1925-yillarda mehnatni muhofaza qilish ustaxonasida etikdo‘z bo‘lib ishlagan, 1925-yil oktyabridan 1929-yil avgustigacha Lenin nomidagi O‘rta Osiyo harbiy maktabida o‘qigan, 1929-yil avgustdan 1930-yil fevraligacha Toshkent shahrida qishloq xo‘jaligi ishchilari okrug uyushmasi raisi o‘rinbosari, 1930-yil fevralidan 1930-yil dekabrigacha O‘rta Chirchiq rayon ijroiya komiteti raisi o‘rinbosari, 1931-yil yanvaridan 1932-yil oktyabrigacha Xatirchi rayon partiya komitetining mas’ul kotibi, 1932-yil oktyabridan Piskent rayon partiya komitetining birinchi mas’ul kotibi bo‘lib ishlagan, 1937-yil 13-sentyabrida ishdan olingan. 1937-yil 13-sentyabrida O‘zbekiston Kompartiya Markaziy Komiteti byurosi yig‘ilishi bo‘lib, unda Piskent rayon partiya komiteti sekretari Boboxo‘jayev to‘g‘risidagi masala ko‘riladi. Mazkur masala bo‘yicha Tarasov axborot beradi, Ortiqov, To‘rabekov, Rojeneslar muzokarada qatnashadi. Qabul qilingan qarorda antipartiyaviy ishlari, aksilinqilobiy unsurlar bilan aloqada bo‘lganligi va maishiy buzuqligi uchun Piskent rayon partiya komiteti birinchi sekretarligidan olib tashlanganligi qayd etilgan, uning partiyaviyligi to‘g‘risidagi masalani boshlang‘ich partiya tashkilotiga ko‘rib chiqish yuklatilgan. Shaxsiy varaqada 1932-yili O‘zKompartiya Markaziy Komiteti mablag‘larni safarbar qilish rejasini bajarmagani uchun hayfsan e’lon qilingan. 1934-yil 16-noyabrida Markaziy Komitet paxta dalalarini shudgorlashdagi faoliyatsizligi va paxtani yig‘ishtirib olish va g‘alla yetishtirish vazifalarini o‘zaro muvofiqlashtirolmagani uchun hayfsan e’lon qilingan. Shaxsiy varaqani to‘ldirayotgan davrdagi oilaviy ahvolida ayoli Mohira 22 yoshda, o‘g‘li Po‘latxo‘ja 4 yoshda, o‘g‘li Olimjon 3 yoshda, 72 yoshdagi otasi Bobojon 72 yoshda, onasi Inobatxon 54 yoshda, yashash manzili – Piskent, Lenin ko‘chasi deb ko‘rsatilgani qayd qilingan[11].

1937-yil 15-noyabrda O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissari o‘rinbosari, Davlat xavfsizligi mayori Leonovning Abbosxo‘ja Boboxo‘jayevni hibsga olish to‘g‘risidagi qarorini aynan keltiramiz: “Toshkent shahri, 1937-yil 15-noyabr. O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo‘limi tezkor vakili yordamchisi kapitan Dzenis, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti Piskent rayon qo‘mitasining sobiq kotibi, fuqaro Boboxo‘jayev Abbosxo‘jaga oid materialni ko‘rib chiqdi.

[11] Рустамбек Шамсутдинов. Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (Биринчи китоб). “SHARQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. Тошкент, 2012. 180-181-бетлар.


УзССР
Народный Комиссариат Внутренних Дел
УПРАВЛЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
ОРДЕР № 23/45
16 ноября 1937 г.
Выдан Сотрудник Управления
Государственной Безопасности НКВД УзССР
тов. Сайфбаеву на произ-
водство АРЕСТА И ОБЫСКА Бабаход-
жаева Абдас-ходжа
адрес
Наркомвнудел УзССР
Майор Госбезопасности
Нач. 8-го отдела УГБ НКВД УзССР
Лейтенант Госбезопасности

Mazkur ishda Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja hozirgi vaqtda O‘zbekistonda tugatilgan millatchi aksilinqilobiy tashkilot a’zosi bo‘lib, mazkur tashkilot rahbari, xalq dushmani Fayzulla Xo‘jayev bilan yaqin aloqada bo‘lgan holda, O‘zbekiston Kommunistik partiyasi (bolsheviklar) Piskent rayon qo‘mitasi kotibi lavozimidan foydalanib, Piskent rayonida millatchi aksilinqilobiy ishlarni, shu jumladan, xalq xo‘jaligida zararkunandachilikni boshqargani aniqlandi.

Shuning uchun O‘zSSR Jinoyat protsessual Kodeksining 49 va 51-moddalari bo‘yicha Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja qamoqqa olinib, O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi ichki qamoqxonasiga joylashtirilishiga, O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 60 va 67-moddalari bo‘yicha javobgarlikka tortilishiga qaror qilindi.

O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissariati Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo‘limi operativ vakili yordamchisi kapitan Dzenis.

O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissariati Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo‘limi boshlig‘i yordamchisi, davlat xavfsizligi leytenanti Matveyev.

O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissariati Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo‘limi boshlig‘i, davlat xavfsizligi leytenanti Og‘abekov tomonidan ma’qullandi”.

1937-yil 1-dekabrda davlat xavfsizligi serjanti Krikov tomonidan ayblov qarori tasdiqlangan. Unda 1937-yil 1-dekabrda Toshkent shahrida Davlat xavfsizligi serjanti Krikov 5294-sonli tergov ishini ko‘rib chiqqani, Piskent rayon partiya komitetining sobiq kotibiga Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja aksilinqilobiy, millatchi tashkilot a’zosi bo‘lib aksilinqilobiy tashkilotning rahbarlari Akmal Ikromov va Fayzulla Xo‘jayevlarning yaqini sifatida O‘zbekistonni Sovet Ittifoqidan ajratib olib, uning o‘rniga burjua tuzumini o‘rnatishga harakat qilgani ko‘rsatilgan. Boboxo‘jayev O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 57-moddasi 1-bandi, 63 va 64-moddalari bo‘yicha jinoyatchi hisoblangani e’tiborga olinib, shunday qaror qilingan: “Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja, 1904-yili tug‘ilgan, o‘zbek, SSSR fuqarosi, VKP(b) safidan chiqarilgan, O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 57-moddasi 1-bandi, 63 va 67-moddalari bilan ayblov qo‘yilgan.

1938-yil 7-oktyabrda Boboxo‘jayev Abbosxo‘janing O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 58, 64, 63 va 67-moddalari 5294-sonli tergov ishi bo‘yicha O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarining o‘rinbosari, Davlat xavfsizligi mayori Leonov, SSR Ittifoqi Prokurorining yordamchisi Vavilovlar tomonidan ayblov xulosasi tasdiqlangan. Uni aynan keltiramiz: “O‘zbekistonda fosh etilgan aksilinqilobiy millatchi tashkilot ishi yuzasidan olib borilgan tergov jarayonida Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja ushbu tashkilotning ishtirokchisi bo‘lganligi aniqlandi. U mazkur tashkilotga 1936-yil yanvar oyida tashkilot rahbarlaridan biri, O‘zKP(b) Toshkent shahar qo‘mitasining sobiq kotibi Boltaboyev Sodiqjon tomonidan jalb etilgan.

Bu ma’lumotlar asosida Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja 1937-yil 17-noyabrda hibsga olingan.

Toshkent shahrida millatchi aksilinqilobiy tashkilot markazi mavjudligini bilgan va shu markazning topshiriqlarini bajargan holda Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja O‘zbekistonni SSSR tarkibidan ajratib olish va burjua davlatini tuzishga qaratilgan aksilinqilobiy tashkilot maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida faol aksilinqilobiy ish olib borgan.

Ko‘rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun Boboxo‘jayev aksilinqilobiy tashkilot markazining topshirig‘iga binoan tashkilotga yangi a’zolarni yollash bilan shug‘ullangan. Uning shaxsan o‘zi tomonidan Sattorov Abdurashid (Qorasuv qishloq soveti sobiq raisi), Abdullayev Karim (O‘zKP(b) Piskent rayon qo‘mitasining sobiq instruktori)lar yollangan.

Markaz topshirig‘iga ko‘ra, Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja Piskent rayonida aksilinqilobiy qo‘zg‘olonchi tashkilot tuzgan bo‘lib, Sattorov va Abdullayev orqali aksilinqilobiy qo‘zg‘olonchi tashkilotga yangi a’zolarni jalb qilishni amalga oshirgan.

Qo‘zg‘olonchilik bazasini yaratish jarayonida Boboxo‘jayev aksilinqilobiy tashkilot markazining ko‘rsatmalariga muvofiq quyi partiya, sovet va savdo apparatiga hamda kolxozlarga rahbarlik lavozimlariga quloqlar va aksilinqilobiy dushman unsurlarni joylashtirgan, aksilinqilobiy tashkilot a’zolarining jinoyatlarini yashirgan va ularni sud hamda tergov organlari oldida himoya qilgan, shuningdek, ular olib borayotgan aksilinqilobiy faoliyatni yanada ishonchliroq tarzda niqoblash maqsadida ularni partiya safiga qabul qilgan.

Buzg‘unchilik maqsadida umumiy yer maydonining 3 foizi miqdorida paxtani yashirincha ekishni amalga oshirgan va uni nazoratsiz qoldirgan.

Bundan tashqari, 1936-yilda boshqa ekinlar uchun ajratilgan yerlarda qo‘shimcha ravishda 100 gektar paxta ekishni amalga oshirgan, uni ham qonuniy ravishda konservatsiya qilmagan, shu orqali paxta tayyorlash rejasini ortig‘i bilan bajarganlik uchun mukofot-ustamalar shaklida to‘langan juda katta mablag‘larni davlatdan tortib olgan.

Pillachilik sohasida buzg‘unchilik olib borib, ozuqa bazasini izdan chiqarish maqsadida 2000 dan ortiq tut daraxtini qo‘porib tashlashni tashkil etgan. Shu bilan Piskent rayoni pillachiligiga katta zarar yetkazgan.

Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja unga qo‘yilgan ayblovlarda o‘zini aybdor deb tan olgan.

Bundan tashqari, Boboxo‘jayevga nisbatan ayblov Akmal Ikromov, I.Kuchavolarning ko‘rsatmalari bilan ham fosh etilgan:

Guvohlar: T.Mirzaboyev, Prokopevich, Sherbatov, N.Isayev, K.Ismoilov, K.Halimuhamedov, I.Gubaydullin va K.Abdullayevlar.

1904-yilda O‘zSSRning Qo‘qon shahrida tug‘ilgan, o‘zbek, 1928-yildan O‘zKP(b)ning sobiq a’zosi, mazkur ish munosabati bilan partiyadan chiqarilgan, xizmatchi, hibsga olinguniga qadar O‘zKP(b) Piskent rayon qo‘mitasining kotibi Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja quyidagilarda ayblangan:

a) 1936-yildan boshlab O‘zbekiston hududida faoliyat yuritgan aksilinqilobiy millatchi tashkilotning faol ishtirokchisi ekanligida;

b) O‘zbekistonni SSR Ittifoqidan zo‘rlik bilan ajratib olish va uni burjua-demokratik davlatga aylantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan, aksilinqilobiy tashkilot markazi va uning rahbariyati tarkibi mavjudligini bilganlikda;

d) aksilinqilobiy qo‘zg‘olonchi tashkilot uchun yangi a’zolarni yollaganlikda. Shaxsan o‘zi tomonidan A.Sattorov va K.Abdullayevlar yollangani;

e) markaz topshirig‘iga ko‘ra shaxsan o‘zi va tashkilot a’zolari A.Sattorov hamda K.Abdullayev orqali qo‘zg‘olonchi tashkilot uchun yangi a’zolarni yollashni amalga oshirganlikda;

f) 1936-yildan hibsga olingan kuniga qadar markaz topshirig‘iga ko‘ra qishloq xo‘jaligida buzg‘unchilik olib borib, davlatga katta moddiy zarar yetkazganlikda, aholi orasida sovetlarga qarshi kayfiyat keltirib chiqarganlikda, 1934-yil 1-dekabrdagi qonunni qo‘llagan holda, O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 58, 64, 63 va 67-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda.

Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja 1937-yil 17-noyabrda hibsga olingan va O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining ichki qamoqxonasida saqlanmoqda.

Davlat xavfsizligi serjanti: Kryukov”.

1938-yil 7-oktyabrida SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasining tayyorlov kengashi o‘tkazilgan. Unda Abbosxo‘ja Boboxo‘jayevga nisbatan O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 58, 63, 64 va 67-moddalari bo‘yicha 4 banddan iborat xulosa, ayblov xulosani ma’-

qullash, ishni SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasida ko‘rib chiqish uchun qabul qilish, O‘zbekiston SSR Jinoyat Kodeksining 58, 63, 64 va 67-moddalari bo‘yicha Boboxo‘jayev Abbosxo‘ja ishini sudga topshirish, ish 1934-yil 1-dekabrdagi SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi qaroriga muvofiq ayblov va himoya ishtirokisiz hamda guvohlar chaqirilmaslik, yopiq sud majlisida ko‘rib chiqish, sudga qadar ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlash chorasi o‘z kuchida qoldirilgan.

1938-yil 8-oktyabrda Toshkent shahrida Sovet Itifoqi Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasining yopiq sud majlisida Jinoyat Kodeksining 58, 63, 64 va 67-moddalari bo‘yicha jinoyat sodir etgan Abbosxo‘ja Boboxo‘jayevning ishi ko‘rilgan. Sud qilinuvchi zalda hozir bo‘lgan. Guvohlar chaqirilmagan. Sudlanuvchi sud tarkibiga hech qanday e’tiroz bildirmagan. U o‘zining aybdorligini tan olmagan va taxminiy ko‘rsatma berishdan voz kechgan, sovetlarga qarshi tashkilotda bo‘lmagan va zararkunandachilik bilan shug‘ullanmagan, Boltaboyev uni tashkilotga jalb qilmagan.

A.Ikromov va Kuchaboning fosh etuvchi ko‘rsatmalarini yolg‘on deb hisoblagan. Tojiyev va Usmonovlar bilan o‘tkazilgan yuzlashtirishlarda Boboxo‘jayevning sovetlarga qarshi tashkilotda ishtirok etganligi haqidagi ko‘rsatmalar tasdiqlangan. Sud tergovi yakunlangan. Sudlanuvchi so‘nggi so‘zida o‘zini xalq dushmani deb tan olmagan. Sud kengashib olib, soat 18 dan 55 daqiqa o‘tganda hukm o‘qib eshittirilgan va majlis yopilgan. Shu kuniyoq SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasining sayyor sessiyasining masala yuzasidan hukmi e’lon qilingan. SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1934-yil 4-dekabrdagi qaroriga asoslanib, hukmni zudlik bilan ijro etish buyurilgan. Yig‘ilish raisi Alekseyev tomonidan tasdiqlangan.

Oradan 21 yil o‘tib, 1959-yil 28-mayda SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasi Abbosxo‘ja Boboxo‘jayev ishini qayta ko‘rib chiqqan. Bosh harbiy prokurorning xulosasida 1938-yil 8-oktyabrda Abbosxo‘ja Boboxo‘jayevga nisbatan chiqarilgan hukmni bekor qilish va u haqidagi ish tarkibida jinoyat mavjud emasligi asoslangan. Guvohlar Akmal Ikromov va S.Kuroba, Sodiqjon Boltaboyevlarning ko‘rsatmalari majburan uyushtirilganligi, jinoyat ishida keltirilgan dalillar butunlay asossizligi aniqlangan. Hozirda reabilitatsiya qilingan.

KAZBEKOV TEMURBEK

(1904–1938)

Rustambek Shamsutdinov, tarix fanlari doktori, professor
Nigoraxon Akbarova, Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimasi

SSSR Oliy Sudi Harbiy kollegiyasining 1938-yil 4–16-oktyabr kunlari Toshkentda bo‘lgan sayyor yig‘ilishlarida 507 nafar o‘zbekistonlik taqdiri fojiali yakun topgan. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasi Davlat xavfsizligi katta leytenanti Shishkin, katta leytenant ishchi-dehqon qizil armiyasi bosh harbiy prokurori yordamchisi 1-rangdagi Harbiy yurist Shulsan, O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari, davlat xavfsizligi mayori D.Z.Apressyan ishtirokida o‘tkazilgan. 1938-yil 8-oktyabrda O‘zbekistondagi 40 nafar o‘zbekistonlik otuvga hukm etilgan. Ro‘yxatning yigirma oltinchisi Kazbekov Temurbek bo‘lgan[12].

1904-yili Andijon shahrida tavallud topgan Kazbekov Temurbek 1937-yil 30- iyul kuni O‘zbekiston Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 3-bo‘lim tezkor vakili Mixailyans tomonidan so‘roq qilingan. Bunga Davlat xavfsizligi katta leytenanti Lisitsin rozilik bildirgan.

Temurbek Kazbekov, millati o‘zbek, mato to‘quvchi muhandis, Toshkent to‘qimachilik kombinati o‘quv-ishlab chiqarish direktorining o‘rinbosari, SSSR fuqarosi, partiyasiz, 1922-yildan 1929-yilgacha Germaniyada o‘qigan va shu davrda “Ozod Turkiston” nomli aksilinqilobiy josuslik



Germaniyada o‘qiyotgan talabalar, ular orasida Andijon farzandi Temurbek Kazbekov ham bor.

[12] Рустамбек Шамсутдинов. Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (Биринчи китоб). “SHARQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси. Тошкент – 2012, 41-42-бетлар.

tashkiloti a’zosi sifatida 1929-yili oshkora SSSR to‘g‘risida josuslik ma’lumotlarini yig‘ish va ularni tashkilot orqali Berlinga yuborib turganligi uchun O‘zbekiston SSR Jinoyat protsessual kodeksining 49 va 51-moddalariga asosan uning xonadonida tintuv o‘tkazilgan.

Tergov bayonnomasida Toshkent shahrida 1937-yil 19-fevral kuni O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi xizmati 3-bo‘lim tezkor vakili Gaynitdinov guvoh sifatida Temur Kazbekovni so‘roq qiladi. Bunga muvofiq Kazbekov Temur 1904-yil Andijon shahrida tug‘ilgani, millati o‘zbek, partiyasiz, to‘qimachilik injeneri, uylangan, to‘qimachilik kombinati qoshidagi o‘quv ishlab chiqarish kombinati direktori o‘rinbosari, doimiy yashash joyi Toshkent shahri Frunze rayoni, ITR uyi 7-xonadonda ekanini, 1934-yil 2-sentyabrda Toshkent shahar militsiyasi 10-bo‘limi tomonidan pasport berilgan.

Tergovchi: Qachon va qaysi sharoitda Siz Germaniyaga o‘qish uchun yuborilgansiz, qayerda o‘qigansiz va qachon SSSRga qaytgansiz?

Javob: Men Turkiston Respublikasi xalq maorifi komissarligi tomonidan 1922-yil oxirida 11 kishi bilan birgalikda Germaniyaga o‘qishga yuborilganman. Men Germaniyada 1929-yil may oyigacha turganman, Germaniyadagi to‘qimachilik oliy maktabida tahsil olganman va uni 1929-yili to‘qimachlik injeneri kasbiga ega bo‘lganman. 1929-yil may oyida Eminjon Bagautdinov (shifokor) va ismi esimda yo‘q bir agronom bilan birga qaytib kelganman.

Savol: Germaniyada bo‘lganingizda qaysi jamiyat va tashkilotlarda faoliyat ko‘rsatgansiz?

Javob: 1923-yildan 1924-yilga qadar Germaniyadaligimda “Germaniyadagi turkistonlik talabalar jamiyati”da talaba bo‘lganman, 1925-yildan 1929-yilgacha Germaniyadan qaytgunimcha “Germaniyadagi SSSR talabalari ittifoqi”da bo‘lganman.

Savol: Ayting-chi, Germaniyadagi turkistonlik talabalar jamiyati kim tomonidan boshqarilgan va uning siyosiy mazmundagi ishlari to‘g‘risida sizga nimalar ma’lum?

Javob: 1923-1924-yillarda Germaniyadagi turkistonlik talabalar jamiyati hay’ati tarkibida Ahmad Naim, Berimjonov Gazembek, Abduvahob Murodiy, To‘lagan Mo‘minovlar bo‘lgan.

Bu jamiyat nomiga talabalar jamiyati deb yuritilgan, aslida esa u millatchilik ishlarini olib borgan. Germaniyadagi turkistonlik talabalar jamiyati faoliyatidagi rahbarlik taniqli, mashhur aksilinqilobchi Mustafo Cho‘qayev, Zaki Validiylar tomonidan olib borilgan. Ular tomonidan oshkora millatchilik, aksilinqilobiy targ‘ibot olib borilgan va turkistonlik talabalarni millatchilik ruhida tarbiyalashga katta e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari, 1923-1924-yillarda shu jamiyatning tashabbusi bilan turkistonlik talabalarga Berlin va Turkiyada nashr etilgan vatanparvarlik, millatparvarlik ruhidagi jurnallar nashr etilib turgan.

Ayblanuvchi Kazbekov Temur 1937-yil 5-oktyabrda tergov qilingan.

Savol: Siz millatchi tashkilotning ishtirokchisi sifatida qamoqqa olingansiz, bu tashkilotdagi ishtirokingiz haqida ko‘rsatma bering?

Javob: Men 1922-yildan 1929-yilgacha sovetlarga qarshi “Ozod Turkiston” millatchilik tashkilotiga a’zo bo‘lganman. 1925-yildan Germaniya razvedkachisi bo‘lganman. SSSRga (1929-yil) kelganimdan buyon men e’tiqodli, millatchi josuslik topshiriqlarini bajarganman va germanparast targ‘ibotini olib borganman.

Savol: Qachon va qanday holatda Siz “Ozod Turkiston” tashkilotiga tortilgansiz?

Javob: 1922-yili men tomonimdan Xalq maorifi komissariatiga bergan arizamga muvofiq Turkiston xalq maorifi komissariyatining mas’ul xodimlaridan Sultonbek Xo‘janov (millatchi) va Usmonxon Eshonxo‘jayev (trotskiychi)lar tomonidan Germaniyaga o‘qishga yuborilganman. Berlindagi to‘qimachilik maktabida talaba bo‘lib, 1923-yili “Ozod Turkiston” tashkilotiga faol a’zo sifatida Berimjonov Fozilbek tashkilotiga a’zo bo‘lganman. Tashkilotga tortilgunimga qadar Berimjonov tomonidan menga millatchilik ruhi singdirilgan, buni men keyinchalik qozoq millatchiligining “Alash O‘rda” tashkilotining haqiqiy a’zosi ekanligini tushunganman.

Savol: “Ozod Turkiston” tashkiloti qanday vazifalarni o‘z oldiga qo‘ygan?

Javob: “Ozod Turkiston” tashkiloti O‘rta Osiyo Respublikalarini SSSRdan ajratib olish, O‘rta Osiyo hududida hozirgi Turkiyaga o‘xshash zamonaviy burjua davlatini tashkil etishni amalga oshiradi-


gan milliy kadrlarni yaratish maqsadini qo‘ygan. Uning iqtisodiy rivojlanishi uchun Germaniya kapitali, uning texnikasi va ziyolilardan foydalanish nazarda tutilgan edi.

Savol: “Ozod Turkiston” tashkiloti g‘oyaviy jihatdan kim tomonidan boshqarilgan?

Javob: “Ozod Turkiston” tashkiloti g‘oyaviy rahbari Mustafo Cho‘qayev, Zaki Validiy, Olimjon Idrisiylar bo‘lgan. “Ozod Turkiston” tashkilotining rahbariyati Ahmadjon Idirisov orqali Germaniya razvedka organlari orqali bog‘langan edi.

Savol: “Ozod Turkiston” tashkiloti amalda qanday aksilinqilobiy ish olib borgan?

Javob: “Ozod Turkiston”ning aksilinqilobiy amaliy ishlari “Sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borish bo‘lgan. Shunga muvofiq Mustafo



129

Сов. секретно

СПРАВКА

Приговор о расстреле Казбекова Тимурбека привелен в исполнение в гор. Ташкенте 8" X 1938 г. Акт о приведении приговора в исполнение хранится в особом архиве 1-го спецотдела НКВД СССР том № 10 лист № 533

НАЧ 10 ОТД 1 СПЕЦОТДЕЛА НКВД СССР
Майор (Михалев)

174

ВЫПИСКА ИЗ ПРОТОКОЛА № 35.

заседания комиссии Узбекской ССР по пересмотру дел на лиц, осужденных за контрреволюционные преступления

от „6“ февраля 1956 г.

СЛУШАЛИ	ПОСТАНОВИЛИ
Дело № 329557 по обвинению: АКБАР-АЛИ НИЯЗОВА, 1899 года рождения, уроженца и жителя кишлака Тумар, Шикары-Шариханского с/совета, Сталинского района, Андижанской области, по национальности узбека, беспартийного, неграмотного, до ареста работавшего в колхозе "Большевик". Решением тройки при НКВД УзССР от 10 августа 1937 года осужден по ст.ст. 66 ч.2 и 67 УК УЗССР к 10 годам ИТЛ.	Решение Тройки при НКВД УзССР от 10.VIII-1937 года в отношении АКБАР-АЛИ НИЯЗОВА - ОСТАВИТЬ в силе.

НАЧАЛЬНИК СЕКРЕТАРИАТА РЕСПУБЛИКАНСКОЙ КОМИССИИ УЗБЕКСКОЙ ССР (ПЕТРУШКА)

Cho‘qayev va Zaki Validiylar yoshlarni Sovet hokimiyatiga qarshi ko‘ra olmaslik ruhida tarbiyalash, partiyaga kirish orqali mas’ul sovet xodimlarini tuzumga qarshi kurash yo‘liga olib chiqish ko‘zlangan. Mustafo Cho‘qayev va Zaki Validiy Sovet Ittifoqiga kirib targ‘ibot ishini kuchaytirish orqali millatchilik, diversion va josuslik ishlarini Germaniya foydasiga targ‘ibot qilishni keng yo‘lga qo‘yish zarur deb ko‘rsatgan. Zaki Validiy, Idrisiy va Abduvahob Murodiylar tomonidan chiqarilayotgan “Yangi Turkiston” aksilinqilobiy jurnalini talabalar orasida keng targ‘ib etish vazifasi qo‘yilgan.

1937-yil 28-iyulda Gulsun Ashrafiy-Rahimova[13]ni so‘roq qilish bayonnomasidan ko‘chirma keltiramiz:

Savol: “Ozod Turkiston” tashkilotining qaysi filiallari SSSR hududlarida mavjud?


Javob: Menga ma’lumki, tashkilotning Berlin markazi tomonidan 1923-yildayoq Temurbek Kazbekovga yaqin kishi tashkilotning faol a’zosi Idrisiy turkistonlik talaba sifatida Berlinda keng faoliyat ko‘rsatgan.

1937-yil 20-dekabrda Ahmad Sayfulmalikovni tergov qilish bayonnomasida “Ozod Turkiston” tashkilotining Sizga ma’lum bo‘lgan a’zolari nomlarini keltiring degan savoliga Temurbek Kazbekov turkistonlik talaba, SSSRga qaytib ketib Toshkent shahrida yashamoqda, deb javob bergan.

1937-yil 7-oktyabrda Davlat xavfsizligi katta leytenanti, Davlat xavfsizligi boshqarmasi 3-bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari Lisitsin 1937-yil 5-oktyabr kuni Toshkent shahrida Davlat xavfsizligi leytenanti Gaynetdinov Kazbekov Temur to‘g‘risidagi 585-sonli tergov ishlari materiallari bilan tanishib chiqqan. 1922-yildan 1929-yilgacha Germaniyada o‘qiyotgan, “Ozod Turkiston” nomli sovetlarga qarshi tashkilotning faol a’zosi va sovetlarga qarshi faoliyatda bo‘lgan Kazbekov Temur O‘zbekiston SSR Jinoyat Kodeksining 62 va 67-moddalarida ko‘rsatilgan jinoyatlari asoslanib, jinoiy javobgarlikka tortilgan.

1937-yil 7-dekabrda O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 3-bo‘lim boshlig‘i Oqjigitov ayblanuvchi Kazbekov Temurbek ishini ko‘rib, unga sovetlarga qarshi millatchi tashkilotning rahbarlaridan biri sifatida markazdagi o‘ng va trotskiychilar blokida harakat qilib aksilinqilobiy terrorchilik, josuslik va diversion

[13] Gulsun Ashrafiy-Rahimova SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 9-oktyabrda Toshkentda o‘tkazilgan yig‘ilishida otuvga hukm etilgan, hukm o‘sha kuniyoq ijro etilgan. (Qarang: Рустамбек Шамсутдинов. Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (Биринчи китоб). “SHARQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси. Тошкент – 2012, 43-44-бетлар.)



В Министерство Госбезопасности Узбекистана
от
Рудько Генриетты Тимуровны (до замужества Казбековой), 1931 г. рождения, проживающей по адресу 196158 г. Санкт-Петербург ул. Ленсовета д 62 корп 2 кв 75 т. 812 126-85-96

Уважаемые господа, прошу сообщить мне о судьбе моего отца Казбекова Тимура Хасановича, узбека, 1904-1909 гг. рождения. Об отце сообщить могу очень мало. Мама говорила, что он был осужден как «враг народа» в 1937-1938 гг. в г. Ташкенте. После чего она Торопова Ольга Герасимовна покинула с ним связь.

Военная коллегия Верховного суда Российской Федерации не могла сообщить, что в ее архивных материалах заведено дело на Казбекова Тимурбека, 1904 г. рождения, уроженца г. Андижана Узбекистана, до ареста зам. директора учебно-производственного комбината при Ташкентском текстильном комбинате, который был арестован 2 января 1938 г. и необоснованно осужден Военной коллегией Верховного суда СССР 8 октября 1938 г. к расстрелу якобы за участие в антисоветской террористической организации «Азад Туркестан» и реабилитированным 27 марта 1958 года. Дело в отношении Казбекова Тимурбека прекращено и должно храниться по месту хранения в Министерстве безопасности Узбекистана.

В связи с этим прошу Вас сообщить мне является ли Казбеков Тимурбек моим отцом. Справка мне нужна для представления в ОВИР г. Санкт-Петербурга без чего мне не выдают загранпаспорт.

С уважением

7.93 г.

dushmanlik ishlarini olib borganlik, sovet hokimiyatini qurolli qo‘zg‘olon yo‘li bilan ag‘darish uchun harakat qilganlik aybini qo‘yilgan. Ayblov 1937-yil 21-dekabrda Kazbekov Temurbekka tanishtirilgan.

Oradan 10 oy o‘tib, 1938-yil 7-oktyabrda SSSR prokurori A.Vishinskiy O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissari, Davlat xavfsizligi komiteti D.Z.Apressyanlar tomonidan tasdiqlangan ayblov xulosasida Kazbekov Temurbek O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 57-1, 64, 65 va 67-moddalari bilan ayblangan, 5294-sonli ish ko‘rilgan. Ayblov xulosasida Kazbekov Temurbek 1922-yildan Germaniya razvedkasi tomonidan boshqarilayotgan “Ozod Turkiston” nomli millatchi, josus tashkilotning faol a’zosi, SSSRga qaytib kelib faol josuslik qilgani, O‘zbekiston tekstil sanoati bo‘yicha josuslik ishlarini olib borganlikda, Toshkentdagi tekstil kombinatida millatchilarning diversion-zararkunandalik faoliyatida, Oktyabr inqilobining 20 yilligi oldidan qo‘poruvchilik bilan mashg‘ul bo‘lganlikda ayblanib, oliy jazoga hukm etilgan. 1958-yil 27-martda Kazbekov Temurbek reabilitatsiya qilingan.

Yaqinda arxivdan Kazbekov Temurbek o‘g‘lining 1993-yili iyul oyida O‘zbekiston respublikasi Davlat xavfsizligi xizmati arxiviga yozgan xatining asl nusxasini qo‘lga kiritdik. Uni aynan keltirishni lozim bildik.

Ushbulardan kelib chiqib, endigina 34 yoshni qarshilagan jadidchilik harakatining taniqli vakillaridan biri Kazbekov Temurbekning nomi u tug‘ilib o‘sgan ona yurti Andijonda abadiylashtirilib, hech bo‘lmaganda ko‘chalardan biri uning nomi bilan atalsa, xayrli ish bo‘lar edi.

ABUBAKIROV KARIM SODIQOVICH

(1896–1938)


Rustambek Shamsutdinov, tarix fanlari doktori, professor
Nigoraxon Akbarova, Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimasi

1938-yil 4–15-oktyabr kunlari SSSR Oliy sudi Harbiy Kollegiyasining sayyor sessiyasi Toshkentda o‘tkazilgan. SSSR Oliy sudi Harbiy Kollegiyasi ko‘rib chiqiladigan shaxslar ro‘yxati birinchi kategoriya bo‘yicha 155 kishi, ikkinchi kategoriya bo‘yicha 10 kishi keltirilgan. 1938-yil 28-mart sanasi qo‘yilgan bu ro‘yxatga I.V.Stalin, V.M.Molotov, L.M. Kaganovich, K.E.Voroshilov, A.A.Jdanovlar imzo chekkanlar. Mazkur ro‘yxat hozirda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti arxivida saqlanmoqda.

Toshkent shahrida 396 nafar mahbus otuvga hukm etilgan.

1938-yil 4-oktyabrida 52 nafar yurtdoshlar otuvga hukm etilgan, hukm Davlat xavfsizligi katta leytenanti Shishkin, Rossiya Ichki ishlar xalq komissarligi bosh harbiy prokurori yordamchisi, birinchi maqomdagi harbiy yurist Shulsanlar tomonidan imzolangan. Hukm o‘sha kuni tun kechasida Toshkentdagi maxsus qatlgohda amalga oshirilgam.

Ulardan biri Abubakirov Karim Sodiqovich bo‘lgan[14]. Anketada ko‘rsatilishicha, Karim Sodiqovich Abubakirov 1896-yili 20-iyulda hozirgi Qozog‘istonning Kazalinsk shahrida tug‘ilgan, yashash joyi Toshkent shahri Xoroshinskaya ko‘chasi 19-uy, kasbi xo‘jalik xodimi, 1-Kalinin nomli mashina traktor stansiyasi direktori lavozimida xizmat qilgan, pasportida Norin rayoni, Xaqulobod shahrida yashayotgani yozilgan, ijtimoiy kelib chiqishi hunarmand ishchi, telpak tikuvchi, xizmatchi, inqilobgacha o‘qigan, xususiy tadbirkor, savdo xodimi, inqilobdan keyin turli sovet muassasalarida xizmat qilgan, ma’lumoti oliy, 1913-yildan 1937-yilgacha VKP(b) a’zosi, millati tatar, SSSR fuqarosi, oilasi tarkibida ayoli Asima Izmailovna Abduqah-


УзССР
НАРОДНЫЙ КОМИССАРИАТ
ВНУТРЕННИХ ДЕЛ
...ление Государственной Безопасности
Ордер № 28
...дан „29“ Сентября 1937 г.
...йствителен 1 суток
...трудницу УГБ НКВД УзССР
...м поручается произвести обыск и
...гражданина
...жающ. г. Ташкента
...ем органам Советской Власти и граж-
...ам СССР надлежит оказывать законное
...йствие пред'явителю ордера при
...олнении им возложенных на него по
...ений.
Нач. Райотдела
НКВД УзССР

[14] Рустамбек Шамсутдинов. Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (Биринчи китоб). “SHARQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси. Тошкент – 2012, 31 – 36-бетлар.

horova 31 yoshda, qizi Nuroniya 18 yoshda, onasi Naima Mamatovna Abubakirova, Toshkent shahri, Xoroshinskaya ko‘chasi 3-uyda istiqomat qilgan. 1937-yil 29-sentyabrda Ichki ishlar xalq komissarligi Kalinin rayoni bo‘limi tomonidan hibsga olingan, Toshkent turmasiga tashlangan. O‘zbekiston Ichki ishlar xalq komissarligi Kalinin rayoni bo‘limi boshlig‘i, Davlat xavfsizligi kichik leytenanti Selin tomonidan 1937-yil 29-sentyabrda qabul qilgan ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorda Karim Sodiqovich Abubakirov aksilinqilobiy millatchilikda ayblangan, VKP(b) safidan chiqarilgan, 1-Kalinin rayoni mashina-traktor stansiyasi direktori, aksilinqilobchi, burjua millatchisi, trotskiychi sifatida, xalq dushmanlarini maqtaganlikda O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan ayblanib qamoqqa olingan, Toshkent turmasida saqlangan.

1937-yil 1-oktyabrida Ichki ishlar xalq komissarligi Kalinin rayoni Davlat xavfsizligi xodimi Kulagin tomonidan tergov o‘tkazilgan. Unda K.S.Abubakirov 1896-yili Janubiy Qozog‘iston oblasti Kazalinsk shahrida tug‘ilgani, hozirda yashash joyi Toshkent shahri Xoroshinskaya ko‘chasi 13-uy ekani, millati tatar, SSSR fuqarosi, 1934-yil Norin shahrida pasport olgani, 1-Kalinin mashina-traktor stansiyasi direktori bo‘lgani, ijtimoiy kelib chiqishi – otasi qalpoq tikuvchi hunarmand, 1915-yil vafot etgan, inqilobdan keyin xizmatchi bo‘lib faoliyat ko‘rsatgani, oilasida ayoli Asma Ismoilovna 34 yoshda, qizi Nuraliya 18 yoshda, onasi Nagina 67 yoshda, ma’lumoti tugallanmagan oliy, mutaxassisligi agronom, 1937-yil 27-sentyabrda VKP(b) safidan o‘chirilgani qayd etilgan.

1937-yil 1-oktyabrda so‘roq qilingan. Tergovni Kalinin rayoni Ichki ishlar boshlig‘i, Davlat xavfsizligi kichik leytenanti Selin olib borgan. Abubakirov partiya a’zosi, mas’ul sovet xodimi, bir vaqtning o‘zida “Milliy istiqlol” millatchi, aksilinqilobiy tashkilotining a’zosi sifatida kompartiyani aldab, ikkiyuzlamachilik qilgan, 1932-yildan 1937-yil 29-sentyabrga qadar Kommunistik partiya, sovet hokimiyati va butun xalqqa qarshi aksilinqilobiy qo‘poruvchilik ishlarini olib borganlikda, zararkunandalik ishlari bilan shug‘ullanganlikda, sovetlarga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblangan, O‘zbekiston SSR Jinoyat Kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan ayblanib, 1937-yil 29-sentyabrdagi qaror o‘z kuchida saqlanib qolib, uni Toshkent turmasida saqlab turishga hukm qilingan. Bu haqda ayblanuvchi Karim Abubakirov ogohlantirilgan.

1937-yil 20-noyabrda O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi Kalinin rayoni bo‘limi boshlig‘i, Davlat xavfsizligi kichik leytenanti Selin tergov muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qarorida 1895-yili tug‘ilgan Karim Sodiqovich Abubakirov Kazalinsk shahri fuqarosi, millati tatar, kosib oilasidan, o‘ziga tegishli telpak tikish ustaxonasi va do‘koniga ega bo‘lgan, ilgari eserlar partiyasi safida turgan, keyin esa VKP(b) safiga kirib olgan, qamoqqa olinishidan bir necha kun oldin partiyadan o‘chirilgan va 1-son mashina-traktor stansiyasi direktori lavozimidan bo‘shatilgan, O‘zbekistonda tugatilgan millatchi aksilinqilobiy tashkilot ishtirokchisi va a’zosi sifatida O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-qismi va 67-moddalari bo‘yicha ayblangani qayd etilgan.

ALIMOV KOMILJON

(1903–1938)

Rustambek Shamsutdinov, tarix fanlari doktori, professor
Nigoraxon Akbarova, AnDU tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimasi

Jadidlarning taniqli arboblaridan Munavvar qori Abdurashidxonov hibsdaligida Alimov Komiljon haqida 1930-yil 10-noyabrdagi ko‘rsatmasida: **“Bizdan keyin kelgan o‘z o‘quvchilarini tabiiy ravishda millatchilik ruhida tarbiyalashadi. Eson Afandi: “Har bir millat, agar bu dunyoda mavjud bo‘lishni istasa, o‘zining milliy ruhini saqlab qolishi kerak, aks holda, u yo‘q bo‘lib ketadi”**, deb aytgan. Ayni vaqtda, – deb yozadi Abdurashidxonov, – shuni ham ta’kidlash joizki, o‘quvchilar orasida millatchilikning kuchayishi faqat millatchi o‘qituvchilar faoliyatining natijasi emas. Bunga misol sifatida Alimov Komiljonni (1927-yil) keltirish mumkin. U bizning o‘quvchimiz emas edi va u Okrug qo‘mitasida lavozimidan bo‘shatilganida menga “Voskresenskiylar” (ya’ni ruslar) unga chidamaganini, balki tirik qolgani va u ularning qo‘lida azob chekkanini aytgan”.

“Tarixi Salimiy”si bilan shuhrat topgan Mirzo Salimiy (1850–1930) 1930-yil 16-dekabrdagi tergovda Komiljon Alimov to‘g‘risida shunday yozgan:

“**1924-yil boshida men Ziyo Saidov tomonidan tashkil etilgan GAPga qo‘shildim, uning tarkibiga Komiljon Alimov ham kirgan... GAPda turli xil suhbatlar bo‘lib o‘tgan, millatchilik ruhidagi qo‘shiqlar yangragan va kuylangan, yevropalik ishchilar tanqid va masxara qilingan. Xususan, Komil Alimov yevropalik ishchilarga taqlid qilib, bu sohada turli komediyalarni ijro etgan...**

1919-yil yanvarida Osipov qo‘zg‘oloni bostirilganiga qaramay, millatchi burjua vakillarining asosiy rahbarlari nafaqat omon qolgan, balki Sovet apparatiga ham kirib olishgan va Osipov voqealaridan so‘nggina milliy manfaatlarini himoya qilib chiqqanlar. Ulardan Komiljon Alimov va boshqalar sovet-partiya apparatini egallab olganliklari sababligina saqlanib qolganlar”.

1923-yil oktyabrida Toshkentning Eski shaharida rus tilida yozilgan Komiljon Alimovning tarjimayi holi qandaydir sabablarga ko‘ra 1956-yil 30-mayda O‘zbekiston SSR Ministrlar soveti huzuridagi Davlat xavfsizligi komitetiga, Nurmatov nomiga yo‘llangan xatda ilova qilib ko‘rsatilgan. Unda Komiljon Alimov Andijon shahri 2-dahasi Eski Kapa mahallasida ishchi oilasida tug‘ilgani, bobosi yersiz dehqon, otasi ishchi va sartarosh bo‘lgani, ma’lumotli, qurilish mutaxassisligi bo‘yicha ishchi duradgor bo‘lgani, bunda tog‘asining xizmati katta bo‘lgani qayd etilgan. Alimov Komiljon 1916-1917-yillarda ham ishlab, ham o‘qigan. 1917-yildan boshlab sovet va partiya organlarida, kasaba uyushma tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatgan. U Andijondagi ishchilar uyushmasining raisi, rayon kasaba uyushmasi kotibi, o‘quvchilar uyushmasi raisi, ayni vaqtda uyezd revolyutsion komiteti a’zosi, rayon partiya komiteti raisi lavozimidaligida Andijon shahridagi barcha inqilobiy sohalarda namunali faoliyat ko‘rsatgan. Ayniqsa Muvaqqat hukumat bosh vaziri, Rossiya davlat arbobi A.F. Kerenskiy davrida komissar Levshakov lavozimida bo‘lgan paytda uning targ‘iboti orqali Kerenskiy hukumatiga qarshi, ya’ni “Sho‘roi Islomiya” nomidan tashviqot maqsadida siyosiy mazmundagi varaqalar chiqargan va tarqatgan. Varaqalar esa talabalar uyushmasi nomidan telegraf orqali Moskva va Boku shaharlariga yuborilgan. Varaqalarda muvaqqat hukumat harakatlarining noto‘g‘riligi ko‘rsatilgan talablarni tashkilotlarga birlashishga chaqirilgan. Bunday holatlarga qaramay, ular kasbi ishchilardan iborat guruhni birlashtirib, “Erkin fuqarolar ittifoqi” deb atalgan uyushma tuzgan. Bu uyushma 12 ta kengashni bir-

lashtirgan, Komiljon Alimov uning kotibi va hay’at a’zosi bo‘lgan. Shunday sharoitda “Sho‘roi Islomiya” tashkilotiga qat’iylik, keskinlik bilan murojaat qilib, ular nima uchun yig‘ilishgani haqida so‘ralgan. Shundan keyin ular “Sho‘roi Islomiya” uyushmasidan haydab chiqarilgan. Bu ishda Andijondagi mashhur boylardan – Mirkomil Mirmo‘minboyev va Oxlifbek Hakim Tolixbekovlarning qo‘li bo‘lgani hujjatda aks ettirilgan.

O‘sha paytda Komiljon Alimov Andijonda ishchi deputatlari soveti vakili bo‘lgan, lekin uning familiyasi esga olinmagan. Talabalar kengashi kanselyariya xodimlari idorasiga kelib, ishchi deputatlari soveti ishtirokida barcha kasbiy ishchi tashkilotlari qatnashgan yig‘ilish o‘tkazilgan. Unda Mirkomil Mirmo‘minboyev, Oxlifbek Tolixbekovlarni ishchi deputatlari Soveti yordamida hibsga olishga qaror qilingan. Mirkomil Mirmo‘minboyev Andijonda bolsheviklar tomonidan otib yuborilgan, Oxlifbek Tolixbekov esa Koshg‘ar – Xitoy hududlariga qochib ketgan.

Komiljon Alimov 1918-yil 1-iyundan 1920-yil noyabriga qadar bolsheviklar partiyasi a’zosi, 1919-yildan 1920-yilgacha O‘sh revolyutsion komiteti raisi, uyezd-shahar partiya komitetining mas’ul kotibi, 1921-yil dekabridan Farg‘ona oblast partiya komiteti targ‘ibot bo‘limida, 1922-yil 7-yanvardan esa mudir o‘rinbosari vazifasida, 1922-yil apreligacha Namangan uyezd shahar partiya komiteti mas’ul kotibi, 1922-yil mayidan 3-iyunga qadar O‘sh uyezd shahar partiya komiteti bo‘lim mudiri lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. U 1922-yil 3-iyundan Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti tasarrufida xodimlar rezervida bo‘lgan, oradan bir oy o‘tgach maxsus komissiya orqali Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan Farg‘onada qishloq xo‘jaligini tiklash bo‘yicha vakil sifatida 1923-yil 19-yanvargacha faoliyat ko‘rsatgan. Komiljon Alimov o‘z xohishi bilan Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komitetidan partiyaviy ishlar haqida iltimos qilgan. Markaziy Komitet uni o‘z ixtiyoriga olib, Sirdaryo oblast partiya komiteti talabiga muvofiq uni xizmat safariga yuborgan.

K.Alimov Sirdaryo oblast partiya komiteti targ‘ibot va tashviqot bo‘limi mudiri o‘rinbosari vazifasiga 1-apreldan tayinlangan. Bu lavozimda 1923-yil 15-avgustdan 15-sentyabrgacha vaqtincha bo‘lim mudiri, 15-sentyabrdan oktyabrgacha tashkiliy bo‘lim mudiri, oktyabr oyidan boshlab Turkiston Kompartiyasi 1-rayon partiya komitetining mas’ul kotibi lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. Bundan tashqari, Farg‘ona oblasti partiya komiteti tomonidan tashkil qilingan turli kampaniyalarda rahbar sifatida ishtirok etgan. O‘sh uyezdida partiya a’zolarini tekshirish va tozalash komissiyasiga raislik qilgan. Andijonda ham partiya tashkiloti tozalash ishlarida qatnashgan. Sudlanmagan, partiya sohasida o‘z mutaxassisligi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatgan.

O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi 4-bo‘lim boshlig‘i davlat xavfsizligi leytenanti Og‘abekov 1937-yil 15-avgustda Komiljon Alimovga tegishli bo‘lgan materiallarni qarab chiqib, uni 1903-yili tug‘ilgani, millati o‘zbek, 1920-yildan VKP(b) a’zosi, so‘nggi ish joyi – VKP(b) Markaziy Komiteti huzuridagi Marksizm-leninizm instituti talabasi, “Milliy istiqlol” aksilinqilobiy millatchi tashkilotning a’zosi, VKP(b) Qoraqalpoq oblast partiya komiteti kotibiligi davrida sovet apparatini aksilinqilobiy millatchi unsurlar bilan to‘ldirib yuborganligi, ular esa Qorqalpog‘iston xalq xo‘jaligiga qarshi zararkunandalik ishlarini olib borganlik aybi qo‘yilgan. Shu munosabat bilan Alimov Komiljon O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 67-moddasi bilan ayblanib, O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Siyosiy mahbuslar uyida qamoqda saqlashga qaror qilingan.

Hibsga olish bo‘yicha ma’lumotnomada Alimov Komiljon 1903-yilda tug‘ilgan, o‘zbek, 1920-yildan VKP(b) a’zosi, VKP(b) Markaziy Komiteti huzuridagi Marksizm-leninizm instituti talabasi ekanligi ko‘rsatilgan. “Milliy istiqlol” aksilinqilobiy millatchi tashkilotning faol a’zosi bo‘lib, tashkilot yig‘inlarida ishtirok etgan. VKP(b) Qoraqalpoq oblast partiya komitetining sobiq kotibi sovet apparatini aksilinqilobiy millatchi unsurlar bilan to‘lg‘izganlikda, Qoraqalpog‘iston xalq xo‘jaligiga zararkunandachilik olib borganlikda ayblangan. Yuqorida bayon etilgan ko‘rsatmalar asosida mahbuslardan Ramzi, Botu, Tojiyev, Shoabdurasulov va boshqalar tomonidan tasdiqlagani e’tiborga olinib, Alimov Komiljon hibsga olingan. Qaror O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo‘lim boshlig‘i yordamchisi Davlat xavfsizligi leytenanti Matveyev, shu bo‘limning tezkor vakili

Davlat xavfsizligi kichik leytenanti Miroshnichenkolar tomonidan tasdiqlangan.

O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissari Davlat xavfsizligi mayori D.Z.Apressyan, 4-bo‘lim boshlig‘i leytenanti Matveyevlar tomonidan taqdim etilgan.

Alimov Komiljon millatchilikka asoslangan aksilinqilobiy tashkilotga 1923-yilda qo‘shilgan va shu vaqtdan “Milliy istiqlol” tashkilotining a’zosi, 1925-yildan uning Toshkent filiali tarkibida bo‘lgan.

O‘zbekistonda amalga oshirilgan muhim siyosiy tadbirlar, xususan, partiya va Sovet hokimiyatining siyosatiga qarshi milliy omma orasida norozilik uyg‘otish, sovet tadbirlarini obro‘sizlantirish maqsadida, ruhoniylar ta’siriga qarshi kurash va ayollarni ozod etish masalalarida ommaviy tushuntirish ishlarini ma’muriy usullar bilan almashtirishni qo‘llab-quvvatlagan, bu kampaniyalar bilan bog‘liq tadbirlarni obro‘sizlantirishga harakat qilgan.

Yevropalik xodimlarni mustamlakachilar sifatida targ‘ib qilish orqali ularni obro‘sizlantirgan, aholi ongiga ruslarsiz milliy davlat tuzish g‘oyasini singdirishga harakat qilgan.

O‘z “aybini” tan olmagan Tursunxo‘jayev Muhitdin, Mavlyanbekov Nishonbek, Tojiyev Abdulhay, Abdurashidov Munavvar qori, Salimiy, Ramzi, Botu, Nosirsaidov, Saidxonov va Yakubovlarning ko‘rsatmalari bilan fosh etilgan.

1937-yil 3-oktyabrda Moskva shahri Dzerjinskiy maydonida joylashgan SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi komitetidan O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi 8-bo‘limiga Moskvada hibsga olingan Komiljon Alimov to‘g‘risida xat yuborilgan. Unda qamoqqa olingan Alimov Komiljon Butirsk turmasi ixtiyoriga berilgani, shu bois bu mahbusning ishini ko‘rib chiqish uchun materiallar yuborilgani, qamoqqa olish orderi, tintuv o‘tkazish bayonnomasi, anketasi, yozishmalari 4581-sonli kvitansiya bilan yuborilgan. Xat Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 8-bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari Zubrin, 3-bo‘lim boshlig‘i Davlat xavfsizligi katta leytenanti Mishustinlar nomidan yuborilgan. Shu asosda Alimov Komiljon haqida P-21219-sonli ish rasmiylashtirilgan. Xatdagi voqea 1937-yil 1-oktyabr – 1937-yil 16-oktyabr kunlari sodir etilgani qayd etilgan.

O‘zbekiston Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari Matveyev 1937-yil 1-noyabrda ayblov qarorini tasdiqlagan:

“Ayblanuvchi sifatida javobgarlikka tortish haqida

QAROR

Toshkent shahri. 1937-yil 10-noyabr. Men, O‘zSSR NKVD bo‘limi boshlig‘i – Lenskiy, №5294 ish bo‘yicha tergov materiallarini ko‘rib chiqib, 1903-yilda Andijon shahrida tug‘ilgan, savodli, SSSR fuqarosi, sobiq VKP(b) a’zosi, 1920-yildan partiya a’zosi, hibsga olinishidan oldin Qoraqalpoq Obkomining ikkinchi kotibi bo‘lib ishlagan va so‘nggi vaqtlarda Moskva shahrida tarjimon-redaktorlar kurslarining tinglovchisi bo‘lgan Alimov Komiljonga nisbatan ayblov bo‘yicha quyidagilarni aniqladim: Dastlabki tergov materiallari bilan Alimov Komiljon O‘zSSR hududida fosh qilingan o‘ng-trotskiychi millatchilik aksilinqilobiy tashkilotning faol ishtirokchisi ekanligi aniqlangan. Bu tashkilotning vazifasi O‘zbekistonni Sovet Ittifoqidan ajratib olishni qurolli qo‘zg‘olon yo‘li bilan amalga oshirish, shuningdek, SSSRga qarshi intervensiya davrida chet el davlat yordami bilan harakat qilishdan iborat bo‘lgan.

Mazkur tashkilot SSSRning harbiy qudratini zaiflashtirish maqsadida zarar yetkazish, qo‘poruvchilik, qo‘zg‘olonchilik va josuslik ishlarini tashkil etgan.

Shuningdek, Alimov Komiljon partiya-sovet rahbarlik lavozimlarida ishlab turgan vaqtida ham 1923-yildan boshlab millatchi-trotskiychilar safida bo‘lgan. Aksilinqilobiy tashkilot ko‘rsatmalarini bajarib, u Qoraqalpog‘istonda ham, shuningdek, O‘rta Osiyo tashkilotlarida (Traktorsentr va Yer ishlari xalq komissarligining vakolatli vakili sifatida ishlagan davrida) zarar yetkazish ishlarini amalga oshirgan.

Alimov Komiljon aksilinqilobiy tashkilotning SSSR mudofaa qudratini zaiflashtirishga qaratilgan boshqa turdagi faoliyatlarida ham faol ishtirok etganlikda ayblangan. O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 57-modda 1-bandi – VATANGA XIYONAT, shuningdek, 63 va 67-moddalari bo‘yicha ayb qo‘yilib, jinoiy javobgarlikka tortishga qaror qilingan. Qaror O‘zSSR NKVD bo‘limi boshlig‘i tomonidan 1937-yil 2-noyabrda qabul qilingan.

1937-yil 3-noyabrda O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi va O‘zSSR prokurori o‘rinbosari tomo-

nidan Alimov Komiljon ustidan tergov olib borish muddati uzaytirilgan. Unda 1937-yil 27-oktyabrda Toshkent shahrida o‘ng-trotskiychi, millatchi bloki tomonidan O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 63, 66-moddasi 1-qismi va 67-moddasi bilan ayblanuvchi 26 mahbus ustidan tergov muddatini uzaytirish belgilangan. Ulardan **Alimov Komiljon** – 1903-yili Andijon shahrida tug‘ilgan, o‘zbek, 1936-yilgacha Qoraqalpog‘iston oblasti partiya komiteti kotibi, so‘nggi vaqtlarda Moskvada o‘qigan, millatchi, aksilinqilobiy tashkilotning faol a’zosi, 1937-yil 2-oktyabrda hibsga olingan.

Tergovda aniqlanishicha, ayblanayotgan 26 nafar mahbus O‘zbekistonni SSSR tarkibidan ajratib olish va burjua-millatchilik tuzumini o‘rnatish maqsadini ko‘zlagan aksilinqilobiy o‘ng-trotskiychi blok tashkiloti a’zo bo‘lgan.

Buning uchun partiya va sovet apparatidagi rahbarlik lavozimlarini o‘z qo‘liga olib, xalq xo‘jaligining turli sohalarida, jumladan, mafkuraviy frontda keng ko‘lamli zararkunandalik faoliyatini avj oldirish; tashkilot uchun aksilinqilobiy xodimlarni tayyorlash va yollash; chet el razvedkasi bilan aloqa o‘rnatish hamda sovet hokimiyatiga qarshi birgalikda harakat qilish to‘g‘risida xalq dushmanlari Antipov, Buxarin va boshqalar bilan kelishib, o‘ng-trotskiychi aksilinqilobiy to‘da bilan birlashish kerakligi belgilangan.

“806-sonli ish bo‘yicha tergov muddati 1937-yilning 29-oktyabrida tugasa-da, ammo ish holatlari aksilinqilobiy tashkilotning barcha a’zolarini aniqlash va qatag‘on qilish maqsadida tergovni davom ettirish talab etilgan. Shu sababli O‘zbekiston SSR prokurori orqali SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi oldida 806-sonli ish bo‘yicha tergov muddatini bir oyga, 1937-yilning 29-noyabriga qadar uzaytirish hamda mazkur ish bo‘yicha ayblanuvchilarning barchasini hibsda saqlash to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atilgan.

Iltimosnoma to‘rtinchi marta qo‘zg‘atilgan bo‘lsa-da, Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo‘lim yordamchisi, Davlat xavfsizligi kichik leytenanti Miroshnichenko, shu bo‘lim boshlig‘i yordamchisi, Davlat xavfsizligi leytenanti Matveyev tomonidan taqdim etilgan va bu hujjat Davlat xavfsizligi leytenanti Og‘abekov Tomonidan ma’qullangan.

O‘zSSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 1-bandi (Vatanga xoinlik), 63 va 67-moddalari bilan ayblanuvchi Alimov Komiljonga nisbatan qo‘zg‘atilgan №5294-sonli tergov ishi bo‘yicha ayblov xulosasida shunday deyilgan: “O‘zbekiston SSR hududida faoliyat yuritgan aksilinqilobiy o‘ng-trotskiychi, millatchi tashkiloti ishi bo‘yicha olib borilgan tergov jarayonida Alimov Komiljon tashkilotning a’zosi ekanligi aniqlandi. Shu ma’lumotlarga asoslanib, Alimov Komiljon 1937-yil 1-oktyabrda hibsga olindi”.

Ish bo‘yicha olib borilgan tergovda Alimov Komiljon tashkilotning faol a’zosi bo‘lgani, 1923-yildan kommunistik partiya va Sovet hokimiyatiga qarshi kurash yo‘liga o‘tgani, o‘z faoliyatini hibsga olingunga qadar tanaffuslar bilan davom ettirgani aniqlangan.

O‘zbek aholisining milliy qatlamlari orasida norozilik keltirib chiqarish hamda partiya va hukumat tadbirlarini obro‘sizlantirish maqsadida 1923-yilda Usmonxon Eshonxo‘jayevning milliy-trotskiychi guruhida bo‘lgani holda O‘zbekiston sharoitidagi eng muhim kampaniyalar – dinga qarshi kurash va xotin-qizlarni ozod qilish (paranjini tashlash) bo‘yicha ommaviy-tushuntirish ishlarini ma’muriy buyruqbozlik bilan almashtirib, bu guruh o‘z aksilinqilobiy faoliyatini rahbarlik uchun kurash niqobi ostida yashirib kelgan. Shuningdek, Komiljon Alimov 1925-yilda Akmal Ikromov rahbarligidagi “Milliy istiqlol” aksilinqilobiy millatchilik tashkilotiga qo‘shilgan, Samarqand shahrida A.Ikromovning uyida o‘tkazilgan maxfiy kengashlarda Sovet hokimiyatiga qarshi kurash masalalari muhokamasida ishtirok etgan.

Komiljon Alimov aksilinqilobiy tashkilotning Toshkent filiali a’zosi sifatida aholi ongiga mustaqil davlat qurish g‘oyasini singdirish maqsadida yevropalik xodimlarni obro‘sizlantirib, ularni “mustamlakachilar” sifatida talqin qilgan.

Xullas, 1903-yili Andijonda tug‘ilgan, o‘zbek, ma’lumotli, SSSR fuqarosi, 1920-yildan VKP(b)ning sobiq a’zosi, xizmatchi, hibsga olingunga qadar Qoraqalpog‘iston oblast partiya komiteti ikkinchi kotibi bo‘lib ishlagan Alimov Komiljon: **Birinchidan,** 1923-yilda sovet hokimiyatiga qarshi kurash yo‘liga kirib, o‘zining aksilsho‘roviy faoliyatini hibsga olingan kuniga qadar to‘xtatmaganlikda;

Ikkinchidan, partiya va sovet hokimiyati tadbirlariga qarshi adovat uyg‘otish maqsadida, U.Eshoxo‘jayevning milliy-trotskiychi guruhida faoliyat yuritganlikda, O‘zbekistondagi eng muhim siyosiy kampaniyalar diniy ulamolar ta’siriga qarshi kurash va xotin-qizlarni ozod qilish ishlarini ma’muriy buyruqbozlik bilan almashtirganlikda;

Uchinchidan, aholi ongiga “ruslarsiz millatchilik davlati”ni qurish g‘oyasini singdirish maqsadida yevropalik xodimlarni “mustamlakachilar” sifatida talqin qilib, ularni obro‘sizlantirganlikda;

To‘rtinchidan, hibsga olingan kuniga qadar sovetlarga qarshi o‘ng-trotskiychi tashkiloti a’zosi bo‘lganlikda, ya’ni O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 58- va 64-moddalari (Vatanga xoinlik), 63-67-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda ayblanib, Alimov Komiljon ishi 1934-yil 1-dekabrdagi qonun asosida SSSR Oliy Sudi Harbiy kollegiyasi sudiga topshirilgan

O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi bo‘lim boshlig‘i Lenskiy, O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo‘lim boshlig‘i vazifasini vaqtincha bajaruvchi Matveyevlar tomonidan taqdim etilgan ayblov xulosasi asosida 1938-yil 5-oktyabrda SSSR prokurori A.Vishinskiy tomonidan Alimov Komiljonni otuvga hukm qilish to‘g‘risidagi qarori qabul etilgan. Hukm o‘sha kuniyoq kech soat 12 dan 1 ga o‘tar kechasi Toshkentdagi maxsus qatlgohda ijro etilgan.

AVAZJONOV MUHAMMADJON

(1905–1938)

Rustambek Shamsutdinov, tarix fanlari doktori, professor

Bu qatag‘on qurboni haqidagi ma’lumotlar birinchi bor O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni huzuridagi arxivning 58-fondi, 65-ro‘yxat, 25-sonli ishning 123-124-sahifalaridagi hujjat va materiallar asosida yaratilgan “O‘zbekistonda sovetlarning qatag‘on siyosati va uning oqibatlari” nomli kitobimizning 187-188-sahifalarida keltirilgan edi. Uni aynan keltiramiz: **“Avazjonov Muhammad.** 1905-yil 2-mayda Buxoro shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan, tojik, 1929-yil 16-fevraldan partiya a’zosi, 1926-yildan to‘qimachilar kasaba uyushmasi a’zosi, 1925–1928-yillari 3 yil davomida Germaniyada tekstil industriyasi to‘qimachilik fakultetini bitirgan, undan oldin 1922-yilda ham Germaniyada bo‘lgan, o‘zbek, rus, tojik, nemis tillarini bilgan.

1934-yil 9-fevralda to‘lg‘izgan xodimlarni hisobga olish shaxsiy varaqasida uning mehnat faoliyati aks ettirilgan. 1929-yili Moskva shahridagi “Osvobojdenniy trud” fabrikasida praktikant, 1929-1930-yillarda Moskvadagi 1-davlat jun trestidagi markaziy laboratoriyada laborant, 1930-yili Moskvadagi “Qizil Sharq” (“Krasniy Vostok”) trestida to‘qimachilik bo‘yicha muhandis yordamchisi, 1930-1931-yillari Farg‘onadagi tekstil fabrikasida to‘qimachilik sexining mudiri o‘rinbosari, 1931-yili to‘qimachilik fabrikasi mudiri, 1931–1934-yillari fabrikaning texnik qismlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, 1934-yili to‘qimachilik ishlab chiqarish bo‘limi mudiri vazifalarida ishlab kelgan.

SSSR Oliy sudi Harbiy Kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 9-oktyabrdagi yig‘ilishida Avazjonov Muhammad otuvga hukm etilgan, jazo o‘sha kuni ijro etilgan. Hozirda reabilitatsiya qilingan”.

Oradan 14 yil o‘tib 2026-yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmatlari arxividan Muhammadjon Avazjonovni qatag‘on qilinishi bilan bog‘liq 15 sahifadan iborat noyob, hozirgacha ilmiy iste’molga kiritilmagan hujjatlar bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldik. Ulardan ayrimlarini keltiramiz.

Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi Oliy sudi Oliy kollegiyasining sayyor sessiyasida raislik qiluvchi harbiy yurist brigada a’zosi Alekseyev, a’zolar – harbiy yurist Zaysev va 1-darajali harbiy yurist Boldirev, kotib –1-darajali harbiy yurist Batner ishtirokida 1938-yil 9-oktyabr kuni Toshkent shahrida yopiq sud majlisida ayblanuvchi Avazjonov Muhammad 1905-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan, ijtimoiy kelib chiqishi savdogar oiladan, otasi 1912-yildan 1918-yilgacha Chorjoy bojxonosida mirza-kotib bo‘lib xizmat qilgan, oilasi tarkibi ayoli Mahbuba 1904-yili tug‘ilgan, uy bekasi, 1930-yili tug‘ilgan o‘g‘li Inoyat, 1933-yilda tug‘ilgan qizi Lyuba yashash joyi Farg‘ona shahri, Karl Marks ko‘chasi 20-uy, Farg‘ona to‘qimachilik fabrikasi sobiq bosh muhandisi, O‘zbekiston SSR Jinoyat Kodeksining 51-1, 64 va 67-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarda ayblangan.

Dastlabki tergov va sud natijasida Avazjonov Germaniyada o‘qib yurgan vaqtida, u yerga “Ko‘mak” nomli sovetlarga qarshi milliy tashkilot tomonidan yuborilgan bo‘lib, Germaniya razvedkasi tomonidan tuzilgan va O‘zbekiston SSR hududida faoliyat yuritgan sovetlarga qarshi milliy, terrorchilik va josuslik tashkilotiga jalb etilgani, shu yerning o‘zida Germaniya razvedkasi tomonidan josuslik, diversiyachilik va terrorchilik faoliyat olib borishi uchun yollangani aniqlandi.

M.Avazjonov mazkur tashkilotning rahbar ishtirokchilari – Idris Olimjonov va Naim Ahmad bilan tashkiliy aloqada bo‘lgan, hamda VKP(b) rahbarlari va sovet hukumatiga qarshi bu tashkilotning terrorchilik kurash usullarini to‘liq qo‘llab-quvvatlagan.

Germaniya razvedkasining topshirig‘i bilan O‘zbekistonga qaytib kelgach, M.Avazjonov bu razvedkaning rezidenti Sayfulmalikov bilan aloqa o‘rnatgan va undan josuslik faoliyati haqida ma’lumotga ega bo‘lgan.

Muhammadjon Avazjonovni O‘zbekiston SSR Jinoyat Kodeksining 62, 64 va 67-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor deb topib, SSSR Markaziy ijroiya qo‘mitasining 1934-yil 1-dekabrdagi qaroriga muvofiq SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 128 va 131-moddalariga asoslanib Avazjonov Muhammad oliy jazo chorasi – o‘lim jazosiga, shuningdek, unga tegishli barcha shaxsiy mol-mulkni musodara qilish darhol ijro etilishi haqidagi hukm ijro etilgan.

Avazjonov Muhammadjon 1917-yil 25-sentyabrda Toshkent shahrida O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 3-bo‘lim tezkor vakili Mixailyans tomonidan hibsga olingan. 585-sonli tergov materiallarida M.Avazjonov Buxoro shahrida tug‘ilgani, millati tojik, partiyasiz, 1922-yildan 1928-yilgacha Germaniyada o‘qishda bo‘lgan, shu yillarda “Ozod Turkiston” nomli millatchi, aksilinqilobchi josuslik tashkilotida bo‘lgan. 1928-yili “Ozod Turkiston” tashkilotining topshirig‘i bilan SSSRga kelgan, hibsga olingunga qadar Germaniya foydasi uchun aksilinqilobiy josuslik bilan mashg‘ul bo‘lganlikda ayblangan.

1937-yil 20-dekabrda O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 3-bo‘lim boshlig‘i Okchigitov tomonidan Muhammadjon Avazjonovning tergov ishi ko‘rib chiqiladi. Hibsga olingunga qadar M.Avazjonov Farg‘ona shahridagi to‘qimachilik fabrikasida bosh muhandis bo‘lib xizmat qilgan. Tergov jarayonida Muhammadjon Avazjonov “Ozod Turkiston” nomli aksilinqilobiy millatchi josuslik tashkilotining rahbariyati tomonidan josuslik ishlarini olib borish uchun SSSRga jo‘natilgan. Farg‘onadagi to‘qimachilik fabrikasida josuslik, sotqinlik ishlarini olib borganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 57-1 va 67-moddalari bilan javobgarlikka tortilgan.

Muhammadjon Avazjonovning 1937-yil 26-dekabrda 5294-sonli ayblov ishi bo‘yicha xulosada 1937-yil 6-sentyabrida qamoqqa olingani, O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi ichki qamoqxonasida saqlanayotgani qayd etilgan. Tergovda “Ozod Turkiston” nomli millatchilik, josuslik tashkiloti mavjudligi, uning rahbarlari Olimjon Idrisiy va Ahmad Naim bo‘lgani, ular topshirig‘i bilan aksilinqilobiy josuslik ishlarini olib borish uchun M.Avazjonov SSSRga qaytib kelgani va aksilinqilobiy, josuslik ishlarini olib borganligi qayd etilgan.

Muhammad Avazjonovning 1937-yil 9-sentyabrda tergovdagi ko‘rsatmasida: “1928-yilda, Germaniyadan SSSRga jo‘nab ketishimdan oldin, men va Oloutdinov, Olimjon Idrisiy va Ahmad Naimdan SSSRga kelganimizdan so‘ng SSSR haqida josuslik ma’lumotlarini to‘plash va ma’lumotlarni ularga Berlinga yuborib turish topshirig‘ini oldik”, deb yozilgan.

Josuslik tashkiloti rahbarlarining topshirig‘iga ko‘ra, M.Avazjonov SSSR hududida Germaniyadan josuslik faoliyati uchun kelgan german razvedkasi rezidenti, “Ozod Turkiston” tashkilotining rahbarlaridan biri Badri Sayfulmalikov bilan bog‘lanishi lozim bo‘lgan.

Avazjonov Muhammad unga qo‘yilgan aybni o‘z aybi sifatida tan olgan.

U Sulton Matkul va Olautdinov ko‘rsatmalari bilan fosh etilgan.

Bayon etilgan hujjatlarda Avazjonov Muhammad 1905-yili Buxoro shahrida tug‘ilgani, tojik, SSSR fuqarosi, partiyasiz, 1922-yildan 1928-yilgacha Germaniyada yashagani, hibsga olinguniga qadar Farg‘ona shahridagi to‘qimachilik fabrikasining bosh muhandisi bo‘lib xizmat qilgani, unga “Ozod Turkiston” milliy, josuslik tashkiloti mavjudligini bilgan va uning rahbarlari Olimjon Idrisiy va Ahmad Naim bilan aloqada bo‘lganlikda, “Ozod Turkiston” milliy, josuslik tashkiloti rahbarlari Olimjon Idrisiy va Ahmad Naim topshirig‘iga ko‘ra josuslik faoliyatini amalga oshirish uchun SSSR hududiga kelganlikda, SSSR hududida “Ozod Turkiston” milliy josuslik tashkilotining josuslik ishlari bo‘yicha maxsus vakili Badri Sayfulmalikov borligini bilganlikda, ya’ni O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 57-1, 64, 67-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bilan ayblangani qayd etilgan.

Avazjonov Muhammadga nisbatan 1934-yil 1-dekabrdagi qonun qo‘llanilib, SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sudiga O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi bolshqarmasi 3-bo‘lim

Председательствующий Бригвоенюрист АЛЕКСЕЕВ

Члены Бригвоенюрист ЗАЙЦЕВ и Военный юрист I ранга БОЛДЫРЕВ

Секретарь военный юрист I ранга БАТНЕР

Заседание открыто в I7 час. I0 мин.

Председательствующий объявил, что подлежит рассмотрению дело по обвинению ТУРСУНОВА Фаттах

в преступлениях, предусмотренных ст. ст. 57-I, 63, 64 и 67 УК Уз

Секретарь доложил, что подсудимый находится в зале суда и что свидетели в суд не вызывались.

Председательствующий удостоверяется в самоличности подсудимого и спрашивает вручена ли ему копия обвинительного заключения, на что подсудимый ответил положительно. Подсудимому разъяснены его права на суде и объявлен состав суда.

Подсудимый никаких ходатайств не имеет и отвода составу суда не заявляет.

По предложению председательствующего секретарем оглашено обвинительное заключение.

Председательствующий разъяснил подсудимому сущность предъявленных ему обвинений и спросил его, признает ли он себя виновным, на что подсудимый ответил, что виновным себя признает частично, отрицая свое участие в антисове-

ПРИГОВОР

м Союза Советских Социалистических Республик
выездная сессия
ой Коллегии Верховного Суда Союза ССР
в составе:

Председательствующего Бригвоенюристая Бригвоенишнпюриста АЛЕКСЕЕВА
Членов: Бригвоенюриста ЗАЙЦЕВА и Военного юриста I ранга БОЛДЫРЕВА
При секретаре военном юристе I ранга БАТНЕР
закрытом судебном заседании, в гор. Ташкенте
«22» декабря 193 7 года, рассмотрела дело по обвинению обвинению:
ПРОЛОВА Фаттах, 1907 г.р., бив начальнина уточного цека прадиль-
в пресупленнх, предумотнов Текстальвоибината – в прести плянках, пре-
умотренных ст.ст. 64-4, 63 и 67 УК Узб.ССР.

дварительным и судебным следствием установлено, что Турсунов явился
йственным участником Ф. Бурсуазно-национа-
ческой контрреволюционной и диверсионно-
рористической организации, действовавшей на
ритории Узбекской ССР, активно входил в
е контрреволюционную группу существовавшую на
шинском текстильном комбинате, занял о мер
вокняческой деятельности организации на
шинской прямые руководителей ВКП(б)
вьевского Правительства, а будучи начальн
ком одного из цехов комбината, проводил
ориентированную работу, нужен ушощенного
прорыв шелков производства.

–13–

Признавал Турсунова виновным в совершении преступлений предусмотренных ст. ст. 63, 64 и 67 У. К. Уз. ССР, Военная Коллегия Верховного Суда С.С.С.Р, руководствуясь ст. 128 и 131 УПК Уз. ССР

приговорила

Турсунова Фаттах к высшей мере условного наказания, расстрелу с конфискацией всего лично принадлежащего имущества.

Приговор на основании Постановления ЦИК С.С.С.Р от 1/XII-34г. подлежит немедленному исполнению

Председательствующий Алексеев

Члены Панов
Утолц

ПРОТОКОЛ № 48 У

ПОДГОТОВИТЕЛЬНОГО ЗАСЕДАНИЯ
визанной окссд
ВОЕННОЙ КОЛЛЕГИИ ВЕРХОВНОГО СУДА СОЮЗА ССР

в 26 составе: 193 8 г. гор. Моской

Председатель Бригвоенюрист АЛЕКСЕЕВ Алексеев
Члены Бригвоенюрист ЗАЙЦЕВ Зайцев
Военный юрист I ранга БОЛДЫРЕВ Болдыр
Секретарь Военный юрист I ранга БАТНЕР Батнер
Участвует Шульц Пом. прокурора ГВП – Военный ШУЛЬЦ-АНН
Тип. НКО 3210–38

СЛУШАЛИ:	ОПРЕДЕЛИЛИ:
-дело с утвержденным Пом-прокурора ГВП – Военным юристом I ранга ШУЛЬЦ-АНН обвинительным заключением НКВД Узб.ССР о предании суду Военной Коллегии Верхсуда СССР ТУРСУНОВА Фаттаха, 1907 г.р., по ст.ст.57-I, 63, и 67 УК Узб.ССР -На основании постановления ЦИК СССР от I.I2.34г.	I.С обвинительным заключением согласиться и дело принять к производству Военной Коллегии Верхсуда СССР. 2.Предать суду ТУРСУНОВА Фаттаха по ст.ст. 57-I,63, и 67 УК Узб.ССР 3.Дело заслушать в закрытом судебном заседании,без участия обвинения и защиты и без вызова свидетелей в порядке постановления ЦИК СССР от I.I2.34г. 4. Меру пресечения обвиняемому оставить без изменения, содержание под стражей.

Вх. № 34
Рег. № 428
Поступило 1938 г.
ЦВ. Турк

НАРОДНОМУ КОМИССАРУ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ СОЮЗА ССР
Тов. Б Е Р И Я

ПРОКУРОРУ СОЮЗА ССР Тов.ВЫШИНСКОМУ.–

Копия: НКВД УЗБЕКСКОЙ ССР Тов.САГДОВУ.

от гр-ки ТУРСУНОВОЙ Саузии
прожив. УЗ.ОСР, г.Ташкент, Сталинский
р-н. Нариинский ул. дом №73 /бав.Туднотан
мах. д.№29/.

З А В В Л Е Н И Е

Мой муж Турсунов Фаттах арестован оргавами НКВД I7-то
ктября I937 годи, причины ареста мне не изветни.
Мой муж ТУРСУНОВ Ф, по национальности узбек, 1937 год
рождения. Турсунов в 1922 года по I924 года находился в
интернете, о I7-ти тет, т.с. в 1924 года поехал учиться
в Ленинград и Моску, тде и окончил в 1982 году текстильный
институт, получив звание нжанера-прадильшика. После окол-
чания института, поехал работать в ферганокую прядильную
фабрику, где проработан до I034 года. О 1984 года был вы-
ревецен в Тамкентоний Текстильный Комбинат, в долиность
директора учебно-производственного комбината и с I936 года
по день ареста был начальником уточного цеха.
Во жех вышеуказанных производствах и точении своей
производственной дедтельнооти не имел никаких вавоканий
и занечаний, а наоборот ва хорошую и добрассовестную ра-
боту неоднократно с переводилов на проривной учвоток, где
о успохой выходи не прорива.
Турсунов побив в жопранкоме I2 месяцев, после чего
быш осойан на Сезер срокой на десить лет.
Я как жона, по сторони Турсунова в Период своей осъ-
местной жизши с ии не замечала никаких витжновотоких и
аражесных находок. Турсунов Ф. никотда по коему инению нз
был врагом народа и отит жертвой необ"активного знаторышь.
Я молодая женщина с 2-х дежным ресенком и со сторукой
70-ти летней матерью осталась в саних тяжелых материальных
условиях.
Посилая Вам это заяляние прочу Вас перезнитть это
дело. Еоли шой муж Турсунов Фаттах онажется врагой народа
пусть получет соответствующее наказание, и если на нет, то
но имя человеколибии и интересов государства облегчате его
учечть.
О принятых Вами мерах прошу сообщить.


I3.II.39г. Турсунова

лиц. скомпрометированных показаниями арестованных по следственному делу

№ 5294 Затд. УГБ НКВД Уз ССР

(наименешано срыша)

№№ п/п.	Фамилия, имя, отчество, скомпрометированных показаниями	Год и место рождения	Место работы и должность	Др. установочные данные (партия, нац. пр. професе, адрес и др.)	Кто дал показания	№№ томов и листов дела	Краткое содержание показаний	Отметка о результатах дела и приговоре
1	Мирза Рахметов Мирза карим		Ташкент. Зав. Фарк-ной произвд. состы		Турсунов	10.13.15. 16.19.	Руковод. национ.ист. группировки. Осужден к ВМН в 1938 году	
2	Казбеков Тимурбек		Текстилькомбинат, инженер		"	10.11.13.15 17.18.20.21	Член к/р национ.ист. группировки. Осужден к ВМН в 1938 г.	
3	Ялаутдинов		Текстилькомбинат инженер		"	10.11.15.16. 17.20.	Тоже	
4	Икрамов Акмаль		Ксекрет. ик кп(б)уз		"	10.16.19.	Руковод. к/р национ. организац. в Узбекис. Осужден к ВМН	
5.	Хафизов				"	11.19	Троцкист. Осужден	
6	Бурханов Насыр		Инженер Текстиль-комбината		Турсунов	12, 19	Член к/р национал. группировки. Осужден в 1938г. к ВМН	
7	Мирза-Умар Мирза Рахметов		Инженер Текстиль-комбината		"	12.	Привлекался к вербовке в к/р национал. группировку	
8	Далимов Усман		Инженер Текстиль-комбината		"	12.	Привлекался к вербовке в к/р нац. группировку	
9	Фридзон		Т.л. инженер Ситце-печатной ф-ки текстиль-комбинат		"	12.	Связь с к/р национа-листами и вредитель-ство. Осужден к 10 годам.	
10	Сурьяннов борис Матвеевич		Т.л. механик текстиль-комбината		"	13.	Связь с к/р нацио-налистами	
11	Абдуджабаров Хайдарбек		Нач. цеха основного Прядил. текстильк-та		"	13,19,20.	Связь с к/р нацио-налистами. В 1938г. Осужден к ВМН	



(наименование органа)


№№ п/п.	Фамилия, имя, отчество, скомпрометированных показаниями	Год и место рождения	Место работы и должность	Др. установочные данные (партии., нац. гр., професс., адрес и пр.)	Кто дал показания	№№ томов и листов дела	Краткое содержание показаний	Отметки о снятии с учет
12	Рамазанов		Зав. отд. кадров текстилькомбин.		Турсунов	13	Связь с к/р нацио-налистами	
13	Хасанов Джалв		Зав. жилищно-коммун. отделом текстиль-комбината		"	13	Связь с к/р нацио-налистами	
14	Фальдик		Инженер текстиль-комбината		"	19.21.	Германский шпион. Осужден.	
			Оперуполномоченный 3 отд 4 отд УКВД УССР Лейтенант					

Mazkur hujjat va materiallar R.T.Shamsutdinov, N.Q.Akbarovalar tomonidan Markaziy arxivlardan biridan olingan.

O‘ZBEK TARIXSHUNOSLIGIDAGI YANGI MONOGRAFIK TADQIQOT

Oybek Komilov, Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi professori, tarix fanlari doktori

Tarix fanlari doktori, professor A.Rasulov va tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori N.Rejabboyev tomonidan Turkistonda ocharchilikka qarshi kurash (1917–1924-yillar) nomli monografiya 2025-yilda “Javohir-ilm-nashr” nashriyotida 200 nusxada chop etildi. Tadqiqotda XX asrning dastlabki choragida Turkistonda vujudga kelgan oziq-ovqat taqchilligi hamda ocharchilikning o‘lka aholisi hayotiga ta’siri va bu boradagi ziddiyatli jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy holatlarning tobora murakkablashib borishi, joylardagi aholi ta’minoti masalasida amalga oshirilgan ishlar, shu bilan birga, ocharchilik va oziq-ovqat yetishmovchiligiga qarshi kurashda tashkil qilingan turli komissiyalarning faoliyati birlamchi manbalardagi materiallarga va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlarga tayangan holda batafsil yoritib berilgan.



Monografiya kirish, 4 ta bob, 11 ta paragraf, xulosa, shartli qisqartmalar izohi, ism va joy nomlari ko‘rsatkichidan iborat. Uning kirish qismida Turkistonda qahatchilik va ocharchilik tufayli vafot etgan yurtdoshlar xotirasi yodga olingan, insoniyat tarixida doimiy ravishda oziq-ovqat tanqisligi uchrab turganligi, dunyoning ko‘plab hududlarida bu kabi ijtimoiy muammolar ko‘zga tashlanganligi qayd qilingan. Mualliflar ocharchilikni bir qancha sabablar, xususan, qurg‘oqchilik va uning oqibatida vujudga kelgan hosilsizlik, qishning uzoq cho‘zilib ketishi, bahorning o‘ta yomg‘irli bo‘lishi, turli kasalliklarning ommaviy tarzda tarqalishi, ishlab chiqarish unumdorligining sustligi, turli urushlarning kelib chiqishi bilan bog‘lashga harakat qilganlar. Sovet hokimiyati hukmronligi yillarida Turkistondagi ocharchilik dahshati va uning oqibatlari to‘g‘risidagi ayni haqiqat xolisona tarzda yozilmagani, yozilgan taqdirda ham bu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish vujudga kelgan ocharchilikka qarshi kurashda, asosan Markaz ko‘rsatgan “beg‘araz yordamlar”ga qaratilgani, Sovet davrida nashr qilingan ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar Turkistondagi ocharchilik sabablariga ko‘p hollarda Rossiya imperiyasi olib borgan siyosatni tanqid qilish bilan cheklangani, ayni paytda barcha oziq-ovqat taqchilligiga doir muammolar yechimiga esa Markaz tomonidan ko‘rsatilgan yordamlarga hukmron mafkura manfaatlari asosida yondashilgani ochib berilgan.

Ishning birinchi bobi **“Turkistonda Sovet hokimiyatining o‘rnatilguniga qadar ijtimoiy--iqtisodiy ziddiyatlar”** deb nomlangan. Bobda Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat, Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli hamda o‘lkadagi oziq-ovqat muammolari tegishli ilmiy adabiyotlar va manbalar yordamida o‘rganilgan. Unda 1917-yil fevraliga qadar ocharchilikning oldini olishga qaratilgan non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga joriy qilingan kartochka tizimi kutilgan natija bermagani, aholiga oziq-ovqat mazkur yilning mayida dastlab 2 funtdan, keyinroq 1,5 funtdan qilib belgilangani, Farg‘ona oblastining ayrim uyezdlarida asta-sekin mutlaqo g‘alla berishning iloji bo‘lmay qolgani, yoz oylariga kelib Turkistonda oziq-ovqat muammosi yanada kuchaygani tahlil qilingan. Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, o‘lkada oziq-ovqat muammosi bolsheviklar hokimiyatni qo‘lga kiritishidan avvalroq vujudga kelgan bo‘lib, bu o‘sha Rossiya imperiyasi olib borgan mustamlakachilik siyosati bilan bog‘liq kechgan. Mazkur muammoni 1917-yilgi fevral inqilobidan keyin ham bartaraf etib bo‘lmagan. Bu holat qishloq xo‘jaligida Markaz hukumati yuritgan siyosat bilan bog‘liq og‘ir meros oqibati bo‘lib, boshqaruv tizimidagi boshboshdoqlik esa bevosita oziq-ovqat ta’minotidagi uzilishlarga olib kelgan. Ushbu boshboshdoqlik fevral inqilobi natijasida tashkil topgan Turkiston boshqaruv Muvaqqat komiteti faoliyati bilan uzviy bog’liqligi va aynan mazkur komitet oziq-ovqat taqchilligini yanada avj oldirib, ocharchilik va qahatchilikni yuzaga ketirib chiqarganligiga bobda alohida urg‘u berilgan.

“Turkistonda boshqaruv Muvaqqat hukumati va Sovet hokimiyatining ocharchilikka doir faoliyati” deb nomlangan tadqiqotning ikkinchi bobida hokimiyat almashuvi arafasida oziq-ovqat muammosi va ziddiyatli jarayonlar, bolsheviklarning oziq-ovqat taqchilligiga qarshi olib borgan dastlabki chora-tadbirlari, Ocharchilikka qarshi kurash markaziy komissiyasi (OQK MK) faoliyati tahlil qilingan. Bobda 1918-yil 28-noyabrda Turkiston MIK qoshidagi OQK MKning tashkil qilinganligi, uning tarkibida xalq komissarlari, tegishli organlar va respublikaning barcha oblastlari hamda Toshkent shahridan bir nafardan vakil kiritilganligi, komissiyaning o‘lkada vujudga kelgan oziq-ovqat tanqisligiga barham berish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash borasida muhim tadbirlar o‘tkazganligi qayd qilingan. Turkiston MIK qoshidagi OQK MKning 1918-yil dekabridan faoliyati boshlanib, Toshkentda alohida Eski va Yangi shahar OQK komissiyalari hamda uyezd-shaharlarda, oblastlarda OQK komissiyalari faoliyat olib borganligi, umuman olganda, o‘lka OQK MK tarkibida 25 ta oblast, uyezd-shahar OQK komissarliklari faoliyat ko‘rsatganligi ham bobda batafsil yoritilgan.

Uchinchi bob **“Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida ocharchilikka qarshi kurash”** deya nomlanib, unda Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida ocharchilikka qarshi kurash masalasi atroflicha bayon qilingan. Ushbu bobda 1918-yil yoz oylarida Marg‘ilonda ocharchilikning kuchayisi natijasida bir guruh yosh savdogarlar bozor maydonida “Jamiyati xayriya” tashkil qilib, shaharning to‘rt dahasiga qozon osib, ochlarni ovqat bilan ta’minlagani, 1922-yilning 16-aprelida Eski Marg‘ilonning Shariat mahkamasi tomonidan Marg‘ilonning och aholisi ta’minoti uchun badavlat aholi vakillaridan zakot olinishi to‘g‘risida qaror qabul qilingani, ayni shu kundan boshlab bu muammoni yechish maqsadida 9500000 rubl mablag‘ to‘plangani, Farg‘ona oblastidagi orchachilikka qarshi kurashga yordam uchun mazkur yilning iyun oyida “Qo‘shchi” ittifoqining jalb qilingani atroflicha o‘rganilgan. Bobda 1918-yil Samarqand oblast O‘ratepa rayon xalq sog‘liqni saqlash bo‘limi o‘zining majlisida rayonda 3000 nafar ochlar mavjudligini qayd qilgani, bu muammo e’tiborga olinib, O‘ratepada 2 ta “Ovqatlanish punkti”ni ochish zarurligi, uning jami 800 nafar erkak va ayollarga xizmat qilishi alohida qayd qilingan. Shuningdek, oblastda ocharchilik qamrovi kengayib borgani sari aholi o‘rtasida turli kasalliklarga chalinishlar soni ham ortib borgani, bu esa oxir-oqibatda ochlikdan vafot etayotganlar sonining ortib borishiga olib kelgani, yuqori tashkilot – Turkiston sog‘liqni saqlash xalq komissarligiga bir necha marotaba shifokorlar bilan ta’minlash bo‘yicha qilingan murojaatlar “quruq va’dalar” orqali ijro etilmaganligi ushbu bobda tanqid qilingan.

Monografiyaning to‘rtinchi bobi **“Turkistonda ochlarga yordam va ocharchilik oqibatlarini tu-**

gatish komissiyalari faoliyati” deb nomlangan. Bobda Turkistonda ochlarga yordam komissiyasining faoliyati, Farg‘ona va Samarqand viloyatlari Ocharchilik oqibatlarini tugatish komissiyasi faoliyati batafsil tadqiq qilingan. Bobda 1921-yil 7-sentabrda Turkiston MIK qoshidagi OYO MK o‘zining navbatdagi majlisini o‘tkazib, ocharchilik hududlaridan kelayotganlarni ro‘yxatdan o‘tkazish, joylashtirish, ota-onasi yo‘q qarovsiz holatda qolgan bolalarni internatlarga joylashtirish va zarur kiyim-kechaklar bilan ta’minlashga muhim e’tibor qaratganligi keltirilgan. Mazkur bobda 1922-yilning ikkinchi yarmidan Volgabo‘yi, Uraloldi hududlaridan evakuatsiya tariqasida kelgan ochlarning o‘z yurtlariga reevakuatsiya qilina boshlanganligi, mazkur yil 10-oktyabridan Turkistonda ocharchilik oqibatlarini tugatish markaziy komissiyasi (OOT MK) tuzilganligi, o‘z-o‘zidan ushbu komissiya o‘lka oblastlarida ham ocharchilik oqibatlarini tugatish komissiyasi (OO TK) sifatida tuzilganligi, Farg‘ona oblast OO TK 1923-yil 8-avgustdagi majlisida aholi orasidagi ocharchilik va ayniqsa uning ta’minoti juda og‘ir ahvolda ekanligiga alohida urg‘u berib, bolalar hamda aholining oziq-ovqat ta’minotidagi uzilishlar juda ko‘pligi, ayni paytda, ularga yordam berish amalda yo‘qligi qayd etilib, hamma joyda ochlar faryodi eshitilganligi haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Xulosa qismida Turkiston o‘lkasida oziq-ovqat va ocharchilikni kamaytirish uchun amalga oshirilgan u yoki bu sa’y-harakatlar zamirida asosan sinfiy yondashuv, milliy xususiyat va hududiy omillar yetakchi o‘rinda turganligiga alohida urg‘u berilgan. Shu bilan birga, Turkistonning turli shaharlarida, xususan, Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon va Namangan kabi hududlarda mahalliy boylar tomonidan tashkil qilingan turli xayriya tashkilotlari kundalik taomlar bilan ta’minlashga hissa qo‘shganligi, o‘lkada ocharchilikni qisqartirishga qarshi kurashish maqsadida tashkil qilingan turli tashkilotlar faoliyatining umumiy xususiyati bevosita ularning iqtisodiy va moliyaviy jihatdan mustaqil bo‘lmaganligi bilan bog‘liq bo‘lganligi qayd etilgan.


“O‘ZBEKISTON TARIXI” – QADIMDAN BUGUNGACHA BO‘LGAN BUYUK EPOS


Azamat Qorjovov, “Ijod-Press” nashriyoti muharriri

Ona Vatanimiz o‘z boshidan kechirgan necha ming yillik davrlarga nazar tashlasak, xalqimiz har doim mustaqillikka intilgan. O‘z davlatchiligi, o‘z madaniyati, ilm-fani va jahon tamadduniga qo‘shgan hissasi bilan jahon tarixidan munosib o‘rin olgan. Tarix g‘ildiragi bir zaylda aylanmaydi. Zaminimizda goh qudratli davlatlar tashkil topgan bo‘lsa, gohida xalqimiz bosqinchilar asoratiga tushib, qaramlik zamonlarida yashagan. Mag‘lubiyatlar vaqtincha bo‘lgani, kun kelib yurtimizda har qanday dushman, har qanday tushkunlik davri yengib o‘tilgani tarix kitoblaridan ma’lum. Ayniqsa, o‘tgan XX asrdagi sobiq sho‘ro davrida buzib ko‘rsatilgan tariximiz istiqloldan so‘ng qayta tiklanishi, tariximiz haqida xolis so‘z yuritilishi, siyosiy mafkurabozlikdan yiroq holda ilmiy asoslanib bayon etilishi yurtimiz o‘tmishi haqida xolis tarixiy manzarani shakllantirdi. Bu jarayonda ko‘plab tarixchi olimlarimiz ilmiy-ijodiy mehnat qilishdi, monografiyalar, qo‘llanmalar, darsliklar yaratildi. Bular orasida eng muvaffaqiyatli tarixiy asarlar, qo‘llanma va darsliklar muallifi, shubhasiz, Rustambek Shamsutdinovdir.

Tarix fanlari doktori, Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti professori Rustambek Shamsutdinovning “O‘zbekiston tarixi” nomli darslik-qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi Ko‘zi ojizlar jamiyati Markaziy Boshqaruv tizimidagi “Dizayn-Print” MChJning “Ijod-Press” nashriyotida nashr etilib, Mudofaa vazirligiga qarashli barcha bilim yurtlarida, akademiyalarda darslik sifatida o‘qitilishi uchun nashr etilishi, kutubxonalardan joy olishi katta voqea bo‘ldi. Albatta, ko‘pchilikka ma’lumki, tarix fanidan darslik-qo‘llanmalar bugungi kunda bitta yoki ikkita emas. Bir necha tarixchi olimlar, mutaxassislar tomonidan tayyorlangan “O‘zbekiston tarixi”, “Vatan tarixi” kabi kitoblar chop etilgan. Ular eng qadimgi davrlardan o‘rta asrlargacha yoki o‘rta asrlardan hozirgi kunlargacha kabi davrlarni qamrab oluvchi, shuningdek, eng qadimgi davrlardan bugungi kunlargacha – O‘zbekistonning butun tarixini o‘zida jamuljam etgan turlicha kitoblardir. Professor Rustambek Shamsutdinovning “Ijod-Press” nashriyotida nashr etilgan “O‘zbekiston tarixi” kitobi esa “Eng qadimgi davrlardan hozirgi kunlargacha” toifasidagi darslik-qo‘llanma bo‘lib, mazkur kitob aslida ikkinchi nashr hisoblanadi. O‘tgan yillarda bu kitob 512 sahifada nashr etilgan. Endilikda u qayta ishlandi, tahrir qilindi va, eng muhimi, yangi voqeliklar, faktlar va tadqiqotlar bilan to‘ldirildi. Bu o‘zgarishlar nafaqat Yangi O‘zbekiston davrida, balki muallifning keyingi ilmiy izlanishlari samarasi o‘laroq boshqa boblarda ham kuzatiladi. Masalan, Ikkinchi jahon urushi davridagi o‘zbek matbuoti haqidagi muallifning bir qator tadqiqotlari alohida kitob bo‘lib nashr etilgan. “O‘zbekiston tarixi” sahifalarida shu kitobdagi front gazetalari haqidagi ma’lumotlardan ham foydalanildi.

Eng muhim o‘zgarishlardan biri – Yangi O‘zbekistonga bag‘ishlangan boblardir. Birinchi galda O‘zbekiston Konstitutsiyasining qayta tahrirdagi yangi varianti qabul qilingani o‘z-o‘zidan darslik-qo‘llanmalarning o‘zgarishiga ham olib keladi. Ilgarigi nashrlardagi Konstitutsiya boblari, bandlari bugungi kunga to‘g‘ri kelmaydi, o‘quvchini chalg‘i-





tadi. Ayniqsa, u oliygohga tayyorlanayotgan abituriyent bo‘lsa, ertaga imtihon topshiriyotganda bob tartibini noto‘g‘ri belgilab qo‘yishi mumkin.

Qolaversa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning olib borayotgan islohotlari, mamlakatimizda va xalqaro maydonda amalga oshirayotgan ishlari tarix kitobining yangi sahifalarida izchil bayon etilmasa, bugungi o‘quvchiga Yangi O‘zbekiston haqida to‘liq bilim berib bo‘lmaydi. Tarix kitobini o‘qigan har bir kitobxon, har bir o‘quvchi yoki talaba o‘tmish davrlardagi yutuqlarimiz bugunda qanday takrorlanayotganidan boxabar bo‘lmoqlari lozim. So‘z erkinligi, internet dunyosi, qo‘shnilar bilan chegaralarning ochilishi, xalq qabulxonalari, yangi-yangi bunyod etilayotgan sanoat gigantlari, xalqaro hamjamiyat bilan munosabatlar, ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, boringki, barcha yangi jarayonlar tarix sahifalarida aks etishi lozim. Professor Rustambek Shamsutdinov buni mahoratli va iste’dodli tarixchi olim sifatida beqiyos uddalab, o‘zining “O‘zbekiston tarixi” kitobiga butun tariximizni bugungi kunlargacha muvaffaqiyatli jam eta oldi.

Umuman olganda, bugungi shiddatli zamonda tarix darsliklari ham tez eskirishiga yana ko‘plab sabablarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, Futbol bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasining Jahon chempionatiga chiqishi O‘zbekiston sporti sahifasida aks etmasa, avtomobilsozlik sanoati sahifasida yangi avtomashina rusumlari qayt etilmay, faktlar 2000-yillardagi “Damas”, “Neksiya”, “Tiko” bilan cheklanib qolsa, bu darslik va qo‘llanmalarni o‘qigan maktab o‘quvchilari, talabalar va kursantlarda bir qator savollar tug‘dirishi mumkin. Professor Rustambek Shamsutdinovning o‘z kitobida ehtimoliy barcha savollarga javob keltirib o‘tgani “O‘zbekiston tarixi” kitobining tenderda g‘olib bo‘lishiga va nashr etilib, barcha kutubxonalardan joy olishiga sabab bo‘ldi.

“O‘zbekiston tarixi” kitobiga muharrirlik qilar ekanman, mazkur kitob muallifi keksa donishmandlardek zakiylik bilan birga yosh tarixchilardek shiddatli tasvirlar bergani e’tiborimni tortdi. O‘zbekistonimiz boshidan o‘tkazgan barcha zamonlarni, barcha davlatlarni, barcha buyuk tarixiy shaxs-

larni, unutilmas voqealarni o‘zida jamlagan bu kitobni nafaqat maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilari-yu oliygoh talabalari hamda kursantlar, balki har bir yurtdoshimiz o‘qib chiqsa, tariximiz haqida katta va chuqur tasavvurga ega bo‘ladi. Ochig‘ini aytsam, men yozuvchi bo‘lganim uchun katta bir roman o‘qigandek bo‘ldim, doston o‘qigandek bo‘ldim. Toshkentdamanmi, Chirchiqdamanmi, Samarqand-u Sirdaryodamanmi, qayerda bo‘lsam, o‘sha yerlarda bo‘lgan voqealarni, u yerlarda mehnat qilgan, faoliyat ko‘rsatgan yoinki hukm surgan shaxslarni yodga oldim, tasavvur qildim, mutaassir bo‘ldim. Bundayin tuyg‘ular va tasavvurlar, shubhasiz, professor Rustambek Shamsutdinovning “O‘zbekiston tarixi” kitobi ta’siridadir, uning ilmiyligi bilan birga pafosi va epikligidadir.

Fursatdan foydalanib, professor Rustambek Shamsutdinovni ham, Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universitetini ham shundayin bir yangi kitob bilan, yangi yutuq bilan muborakbod etaman. Tarix oldidagi yangi bir xizmat, yana bir ne’mat barchangizga muborak bo‘lsin.

DAVR MANZARASI VA TAQDIRLAR
AKS ETTIRILGAN ASAR

Umid Bekmuhammad,
Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Muhammadyusuf Bayoniy (1859–1923) "Xorazm tarixi" nomli asarida: "Tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo'lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so'zlari hech bir odamga ma'qul bo'lmaydi", deya yozgandi.

Haqiqatan ham, tarixiy mavzuda tadqiqotlar olib borayotgan muarrix xolis bo'lsagina moziydagi jarayonlarni haqqoniy tahlil eta oladi. Tabiiyki, buning uchun tarixchi siyratida adolatparvarlik, e'tiqod va iymon mustahkam bo'lishi, tanlagan to'g'ri yo'lidan sobitqadamlik, qa'tiyat bilan yurishi zarur.



Bayoniy ta'kidlagan "voqealarni rostlik bilan bayon" etish tamoyili asosida, asosan arxiv hujjatlaridagi manbalarni bir-biriga taqqoslagan, qolaversa, o'sha davrga oid matbuot nashrlari, ilmiy adabiyotlardagi fikrlar, qarashlarni ham teran tahlil etib, xolislik, haqqoniylik bilan tadqiqotlar olib borayotgan professor Rustambek Shamsutdinov asarlari shu boisdan e'tirof qilinadi.

Aynan ana shu e'tirof, e'tiborning sarhisobi sifatida tarix fanlari doktori, professor Rustambek Shamsutdinovning 2024–2025-yillar davomida "Jadid" gazetasida nashr etilgan maqolalari "Millat fidoyilari" nomi bilan "Sahhof" nashriyotida chop etildi.

Tahririyat "Jadid" gazetasi kutubxonasi turkumida nashr etdirgan kitobning mustamlakachilik davrida qatag'on qurboni, jabrdiydasi bo'lgan millat fidoyilarining hayoti, faoliyatini o'rganishdagi ilmiy ahamiyati katta.

Kitobga kiritilgan 34 ta maqola, faqat o'ttiz to'rtta shaxsning hayotinigina emas, mustamlakachilik davrining qanday fojiali kechganligini aks etdiruvchi tarix ko'zgusidir. Ushbu maqolalarda davr jabr-u zulmini chekkan, ozodlik va hurriyatga intilgan, millatini dunyoning taraqqiy qilgan xalqlari darajasida yashashini istagan fidoyilarning, ularning zamondoshlari faoliyati tahlil etilgan.

Tabiiyki, arxiv manbalari, o'sha davrdagi matbuot nashrlari, memuarlar, ilmiy adabiyotlardagi fikrlar bir-biriga taqqoslangan, tarixchining adolatparvarlik tamoyili, xolislik, haqqoniylik mezonlaridan kelib chiqib, shaxslarning faoliyati ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Qolaversa, maqolalarga tanlangan sarlavhalar darhol o'quvchining e'tiborini tortadi, mutolaaga undaydi. Misol uchun, "Zavol va uvol", "Qog'oz-

larda qolgan oh-u faryodlar”, “Men ayol zotida bir jahon ko‘rdim”, “Ortga qaytish yo‘q”, “Aybing shuki, iste’dodlisan”, “Ro‘yxatlarda yo‘q edi nomi” va hokazo.

Shu bilan birga, maqolaning boshlanish qismi, yozilish uslubi o‘quvchining diqqatini jalb qiladi va mutolaa jarayonida shaxsning qiyofasi, intilishlari, taqdiri ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi.

Bu bejiz emas. Negaki, tarix fanlari doktori, professor Rustambek Shamsutdinov hayoti, ilmiy faoliyati, asosan, matbuot bilan bog‘liq. Faqat ilmiy nashrlargina emas, ijtimoiy, adabiy-ma’rifiy yo‘nalishdagi gazeta-jurnallarda ham olimning yuzlab maqolalari nashr etilgan va ular hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda.

Chunki tarixiy faktlarga asoslanilgan, teran mulohazalar, fikr-u mushohadalar ilgari surilgan maqolalar yillar o‘tsa-da matbuot tarixining yorqin sahifasi bo‘lib qolaveradi.

Shu jihatdan olganda “Jadid” gazetasi nashr etila boshlanganidan to hozirgacha ustozning maqolalari haftalikning deyarli har bir sonida chop etib kelinmoqda. Bu bejiz emas. Negaki, professor Rustambek Shamsutdinov asarlariga ehtiyoj bor va shu bois bu tamoyil “Jadid” gazetasi sahifalarida namoyon bo‘lmoqda.

Ikki yil davomida chop qilingan 34 maqolaning “Millat fidoyilari” nomi bilan sarhisob, kitob tarzida nashr etilishi esa o‘quvchilarning istaklari, qiziqishlari va maqolalarning ilmiy ahamiyati tufayli yuzaga kelgan deyish mumkin.

Shu ma’noda “Jadid” gazetasi bosh muharriri, O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning ushbu loyihaga rahbarlik, Ikrom Iskandarning mas’ul muharrirlik qilganini, Shukur Latifning maqolalarni to‘plaganini mamnuniyat bilan qayd etib, kelgusida ham ushbu turkum bilan Rustambek Shamsutdinov kitoblarini nashr etish rejasida ekanliklari ilm ahli uchun quvonarlidir.

Negaki, professor Rustambek Shamsutdinovning hayoti, ilmiy faoliyati asosan arxivlardagi hujjatlarni o‘rganish, tahlil etish bilan o‘tayotgani bois ustoz bisotida katta fundamental manba to‘plangan.

Shu sababdan ham ustozni ko‘p yillardan buyon yaxshi taniydigan O‘zbekiston Respublikasi prezidentining maslahatchisi, spichrayter Xayriddin Sultonov “Zahmatkash olim, qalbi daryo inson” nomli kitobga yozgan so‘zboshisida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratadi: “Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan qatag‘on siyosatini respublikamizda birinchilardan bo‘lib tadqiq etgan Rustambek Shamsutdinov Vatanimiz tarixiga oid maxfiy arxivlarda yopiq saqlab kelingan nodir hujjatlarni atroflicha o‘rganib, tarixiy haqiqatni tiklash yo‘lida sabr va matonat bilan ishlashi, nafaqat yurtimiz, balki qator xorijiy mamlakatlarning ilmiy fondlarida muntazam ravishda izlanishlar olib borishi, to‘plangan noyob materiallarni O‘zbekistonga olib kelib, keng jamoatchilik e’tiboriga havola etishi, ilmiy iste’molga kiritishi har jihatdan ibratlidir”.

Ha, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonov haqli ravishda ta’kidlaganidek, arxivlarda to‘plangan noyob materiallarni keng jamoatchilik e’tiboriga havola qilishda ustoz uchun “Jadid” gazetasi o‘ziga xos minbar vazifasini bajarmoqda.

Shu boisdan ikki yildan ortiq vaqt o‘tibdiki, qatag‘on davri qurbonlari, jabrdiydalari, jadid ma’rifatparvarlarining qismatlari aks ettirilgan yuzlab maqolalari gazetada doimiy ravishda nashr etilmoqda.

Ushbu bitiklar orqali, olaylik, ushbu kitobga kiritilgan 34 nafar shaxs hayoti aks ettirilgan maqolalarda chor imperiyasi mustamlakachiligi, sovetlar davrida taqdiri fojiali yakun topgan insonlarning hayoti bilangina emas, o‘sha davrdagi shiddatli jarayonlar, umuman, davr manzarasini yaqqol tasavvur qilish mumkin.

Fayzulla Sultonov, Nizomiddin Xo‘jayev, Abdurahmon Abdullaxonov, Abduqodir Qushbegiyev, Muhammadxon Xo‘jayev, Mahmudxon Ahmadxonov... Xullas, ushbu shaxslar, ularning tarixda tutgan o‘rni, jamiyatdagi jarayonlarga ta’siri har bir maqolada arxiv manbalariga asoslanilgan holda yoritib beriladi.

Maqolalarda taqdiri fojiali tugagan insonlarga oid sovet davridagi tergov materiallari, ularning savol-javoblari keltiriladi. Shu bilan birga shaxslar faoliyatini yoritishda o‘sha davrga oid matbuot nashrlaridagi maqolalar, ulardagi fikrlar ham manba sifatida qayd etiladi. Ya’ni tarixni xolis, haqqoniy tahlil etish uchun inson hayoti, faoliyati, taqdiriga doir manbalar bir biriga taqqoslanadi.

Ana shu tarzda shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, mustamlakachilik davridagi hayoti, faoliyati tahlil qilinadi.

Maqolalar shu boisdan ham keng jamoatchilikda qiziqish uyg‘otib kelmoqda va “Jadid” gazetasining nufuzi oshishida professor Rustambek Shamsutdinov bitiklarining ham alohida o‘rni bor.

Bu bejiz emas. Negaki professor Rustambek Shamsutdinov asarlari orqali Rossiya imperiyasi va sobiq sovet davri tarixshunosligiga, kollektivlashtirish, quloqlashtirish, surgun, “Katta terror” yo‘nalishi muammolarini tadqiq etuvchi o‘ziga xos “Andijon ilmiy maktabi”ga asos solingan.

Ustoz o‘z tadqiqotlarida ushbu mavzularni xolis, haqqoniy yoritish maqsadida respublikamizning turli arxivlari bilan kifoyalanib qolmay, Moskva, Kiyev, Odessa, Xerson, Golopristan, Ostona, Qarag‘anda, Kokchetov, Shortandin, Shimoliy Kavkazning Stavropol, Nikolo-Aleksandrovsk, Prikumsk, Levokumsk, Novo-Romanovka, Petropavlovka, Derbetovka, Arzgir, Bishkek kabi 30 dan ortiq davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlardan keng miqyosda foydalandi va shular asosida asarlar yaratib kelmoqda.

Aynan ana shu arxiv hujjatlari asosidagi maqolalar o‘tgan vaqt davomida “Jadid” gazetasidagi maqolalarga asos bo‘lmoqda. Ma’lumki, har bir inson taqdiriga oid hujjatlarni, ayniqsa qatag‘on, zulm va azob-uqubatda kechgan taqdir egasiga doir tergov materiallarini tadqiq qilish, tahlil etish tarixchiga ham oson emas.

Negaki, ular kechirgan fojialarni ham yurakdan o‘tkazish, ularni qiynagan muammolarni ko‘ngildan kechira bilish uchun olim shaxsiyati naqadar matonatli bo‘lishi kerak. Shu ma’noda Professor Rustambek Shamsutdinovning 87 yillik hayot yo‘li, ilmiy faoliyati ana shunday matonatni qamrab olgan.

Shu boisdan ham O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton kitobga yozgan so‘zboshida ta’kidlaganidek, “domla ulug‘ va tabarruk yoshda bo‘lishiga qaramasdan, qadrdon dorilfununida hamon kuch-g‘ayrat bilan mehnat qilayotgani, ko‘plab shogirdlar tayyorlash va yoshlarga ta’lim-tarbiya berish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatib kelayotgani, albatta, havas va ehtiromga sazovor... Ta’kidlash lozimki, Rustambek Shamsutdinov nafaqat yetuk olim, balki, ta’bir joiz bo‘lsa, davrimizning chinakam jadidi, qo‘li ochiq, saxovatli ilm-fan va ma’rifat homiysi – metsenatlaridan biridir...”

Ha, serg‘ayrat, qat’iyatli va fidoyi ustoz 87 yoshida ham yoshlarga ibrat ko‘rsatib, turli arxivlarda hujjatlarni o‘rganish, ular asosida yana yangi maqolalar, fundamental tadqiqotlar yozish bilan mashg‘ul.

“Jadid” gazetasi sahifalarida, shuningdek, respublikamizdagi boshqa matbuot nashrlari, ustozning o‘zi bosh muharrirlik qilayotgan “Vodiynoma” jurnalida ko‘plab tahliliy maqolalari muntazam nashr etib borilmoqda.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, tarix fanlari doktori, professor Rustambek Shamsutdinovdan yana yangi asarlar kutib, ustozga sog‘liq-salomatlik, kuch-quvvat, ijodiy barkamollik tilaymiz.


“Jadid” gazetasi tahririyatiga esa “Millat fidoyilari” kitobi uchun alohida minnatdorlik bildirish joiz. Negaki, ilmni, fidoyilikni qo‘llab-quvvatlagan, maqolalarni kitob tarzida nashr ettirgan tahririyat xuddi o‘tmishdagi jadid ajdodlarimiz singari bugungi jamiyatda ham ayni shu vazifani bajarmoqda.

“VODIYNOMA” –
TARIX VA INSON QALBI O‘RTASIDAGI MULOQOTDIR

Hoshimov Soibjon,
Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti
professori, tarix fanlari doktori

Tarix – bu faqat o‘tgan zamon voqealarining ketma-ketligi emas, balki millatning ruhiy tarjimayi holi, xalqning qalbida yashaydigan xotira, avlodlarni bir-biriga bog‘lab turuvchi ma’naviy ko‘prikdir. Inson o‘z o‘tmishini qanchalik teran anglasa, bugungi kunini shunchalik ongli ko‘radi, kelajakka esa shunchalik ishonch bilan qaraydi. Shuning uchun ham tarixni o‘rganish – bu oddiy bilim orttirish emas, balki o‘zlikka qaytish, qadriyatlarni anglash, millat taqdirini qalban his qilish demakdir. Ana shunday ulkan ma’naviy va ilmiy vazifani o‘z zimmasiga olgan loyihalardan biri “Vodiynoma” ijtimoiy-tarixiy, ilmiy-ommabop jurnalidir.

O‘zbek tarixshunosligida tarixiy voqea va hodisalarni ochib berishda muhim o‘rin egallab kelayotgan “Vodiynoma” ijtimoiy-tarixiy va ilmiy-ommabop jurnali Markaziy Osiyo fan, madaniyat va san’at akademiyasi akademigi, tarix fanlari doktori, professor, Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori Rustambek Temirovich Shamsutdinov Bosh muharrirligida 2016-yildan chop etila boshlagan. Shu kunga qadar jurnalning 42 ta soni o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi. Jurnal Farg‘ona vodiysining qadimgi davrlaridan bugungi kunga qadar bo‘lgan boy tarixi, manbashunosligi va tarixshunosligi masalalari,



tarixiy shaxslari hayot yo‘lini muntazam yoritib borishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

“Vodiynoma” o‘z nomi bilan ma’lum bir hududni emas, butun bir ma’naviy makonni ifoda etadi. Farg‘ona vodiysi azal-azaldan madaniyatlar tutashgan, tarixiy jarayonlar kesishgan, murakkab va mazmunli voqealar yuz bergan maskandir. Shu ma’noda “Vodiynoma” jurnali faqat vodiy haqidagi axborotnigina emas, balki vodiy tarixi orqali milliy xotiraning chuqur qatlamlarini ochgani holda, mahalliy tajribani umummilliy tafakkur bilan bog‘lab, o‘tmishga nisbatan hurmat va mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Jurnalning asosiy maqsadi ham mutaxassis va tarixchi olimlarning Farg‘ona vodiysi tarixiga oid ilmiy, uslubiy va ilmiy-ommabop maqolalari, shuningdek, yangi tadqiqotlar, manbalar va izlanishlarini xalqqa yetkazish orqali tarixni chuqur tadqiq etishga hissa qo‘shishdan iborat.

Mazkur jurnal “Meros” xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya jamoat fondi muassisligida tashkil etilgan bo‘lib, uning o‘zbek va rus tillarida nashr etilishi, ijtimoiy, tarixiy va gumanitar sohalarni yoritishga ixtisoslashgani uning ilmiy doirasi hamda jamoatchilikka qaratilgan vazifasini yanada oydinlashtiradi. Jurnalning Andijon shahrida joylashgan tahririyati bir qarashda oddiy tashkiliy manzildek ko‘rinsa-da, aslida bu manzil o‘z atrofiga tarixni sevuvchi, uni xolis talqin qiluvchi, milliy merosni himoya qila oladigan olimlar va ijodkorlarni birlashtiradigan ma’naviy markazga aylangan. Jurnalning bir yilda to‘rt marta nashr qilinishi va respublika bo‘ylab tarqalishi uning barqaror ilmiy-ma’rifiy faoliyat olib borayotganligini ko‘rsatadi.

Har qanday ilmiy nashrning qiymati uning rasmiy ma’lumotlari yoki tashqi ko‘rinishi bilan emas, balki atrofida shakllangan ishonch, ilmiy muhitda tutgan o‘rni va o‘quvchi ongida uyg‘ota olgan tafakkuri bilan belgilanadi. “Vodiynoma” shu ma’noda qisqa vaqt ichida o‘ziga xos maktabni shakllantirgan jurnal sifatida namoyon bo‘ldi. U tarixga nisbatan yangicha, chuqur va xolis nigoh zarur bo‘lgan bir sharoitda dunyoga keldi. Uning paydo bo‘lishi tasodif emas, albatta.

2017-yil 27-mart kuni O‘zbekiston Milliy kutubxonasida “Vodiynoma” ijtimoiy-tarixiy va ilmiy-ommabop jurnali taqdimotiga bag‘ishlangan “Tarixiy merosimizning yana bir ko‘zgusi” nomli anjuman bo‘lib o‘tganligi jurnal tarixida ramziy va amaliy ahamiyatga ega muhim voqeadir. Milliy kutubxona singari markaziy ilmiy-ma’rifiy makonda hududiy yo‘nalishdagi jurnalning taqdim etilishi uning tor doiradagi nashr emas, balki respublika miqyosidagi intellektual tashabbus sifatida qabul qilinganligini anglatadi. Tadbirda tarixchi olimlar, tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, talabalar va kutubxona foydalanuvchilari ishtirok etganligi “Vodiynoma” jurnalining boshidanoq jamoatchilikni fikrlashga chorlagan ma’rifiy jurnal sifatida e’tirof etilganini ko‘rsatadi.

Jurnal taqdimotida bildirilgan mulohazalar uning keyingi faoliyati uchun ham dasturiy ahamiyat kasb etgan. So‘zga chiqqanlar “Vodiynoma” jurnalini oddiy nashr emas, balki ilmiy muloqot va ma’naviy uyg‘onishi uchun zamin yaratuvchi nashrlardan biri sifatida baholaganlar. Ayniqsa, kitob va ommabop jurnallar mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish yoshlarni buyuk ajdodlarimiz hayoti va ilmiy merosini o‘rganishga jalb etish, tarix saboqlaridan to‘g‘ri xulosa chiqarish kabi vazifalar bilan hamohang ekanini alohida ta’kidlaganlar. Bu qarash jurnalni faqat o‘tmish haqida yozadigan maydon emas, balki bugungi ma’naviy tarbiyaga xizmat qiluvchi vosita sifatida anglashga imkon beradi.

Taqdimotda “Jahon adabiyoti” jurnali bosh muharriri Shuhrat Rizayev tomonidan aytilgan fikrlar “Vodiynoma”ning ichki konsepsiyasini aniq ifodalab berdi. Bu jurnal Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarining tarixi, tarixiy rivojlanishdagi taniqli siymolar, ziddiyatli va ayanchli voqealar, taraqqiyot yo‘lidagi to‘siqlar, tarixiy evrilishlardagi ijobiy natijalar, shuningdek, vodiyga tutash hududlardagi voqelik va uning vodiy hayotiga ta’sirini yoritishini ta’kidlagan. Bu sanab o‘tilgan yo‘nalishlarning o‘ziyoq jurnal mavzu tanlashda biryoqlama emasligini, u tarixni faqat tantanavor sahifalar orqali emas, murakkab, og‘riqli, ziddiyatli qirralari bilan birga ko‘rsata olganligidan dalolatdir.

Bosh muharrir R.T.Shamsutdinovning fikricha, “Vodiynoma”ning tarixiy mavzuda tadqiqot olib borishning zaruriy o‘lchamlari, o‘tmishni falsafiy bilishning metodi va metodologiyasiga e’tibor qaratadigan nashr sifatida ta’riflanishi ham juda mu-

himdir. Chunki har qanday jurnalning ilmiy ahamiyati u qaysi ma’lumotni berishi bilan emas, balki o‘quvchini qanday fikrlashga o‘rgatishi bilan o‘lchanadi. “Vodiynoma” tarixga shunchaki sanalar va voqealar yig‘indisi sifatida emas, saboq, ma’no va tafakkur maydoni sifatida yondashadi. U o‘quvchini tayyor xulosalar bilan emas, dalillar va mulohaza orqali ichki xulosaga olib boradi. Shu bois bu jurnalda ilmiylik bilan ommaboplik, manbashunoslik bilan ma’naviy ta’sir, tahlil bilan tarbiya bir nuqtada tutashadi.

“Vodiynoma”ning eng muhim ilmiy fazilatlaridan biri – uning mahalliy tarixni umummilliy tarixiy jarayon bilan qiyoslagan holda bog‘lay olish salohiyatidir. Farg‘ona vodiysi ko‘pincha bir butun makon sifatida tilga olinadi, ammo uning tarkibidagi Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlari alohida tarixiy tajriba, iqtisodiy rivojlanish, madaniy muhit va ijtimoiy jarayonlarga ega. Jurnal ayni shu ichki tafovut va yaxlitlikni bir vaqtning o‘zida ko‘rsata olgan. U mahalliy faktni umumiy tarixiy mantiq bilan bog‘lagan holda, umummilliy jarayonlarni esa aniq hududiy misollar orqali tushuntirib beradi. Bu esa jurnalni faqat hududiy nashr emas, balki tarix fanining muhim vositasiga aylantirgan.

Jurnal sahifalarida yoritilayotgan mavzularning kengligi uning ilmiy va ma’naviy salmog‘ini yanada oshiradi. Tarixdagi taniqli shaxslar, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, mustamlakachilik asoratlari, qo‘shni hududlar ta’siri, mahalliy taraqqiyot va inqiroz omillari, tarixda bo‘lib o‘tgan voqealar va unutilgan siymolar – bularning barchasi “Vodiynoma”da muayyan ichki mantiq asosida birlashgan. Bu yerda tarix bir-birini to‘ldiruvchi ma’naviy va ilmiy qatlamlarga aylanadi. Shu bois jurnalni mutolaa qilgan kishi bir maqola bilan cheklanib qolmaydi; u butun bir tarixiy muhitga kirib boradi.

Ayniqsa, jadidchilik harakati merosiga bag‘ishlangan materiallar “Vodiynoma”ning ma’naviy qiymatini yanada oshiradi. Jadidlar milliy uyg‘onishning eng fidoyi, eng yorug‘ va eng ma’rifatparvar qatlamlaridan biri bo‘lgan. Ular xalqning ertangi kunini maktab, ilm, matbuot, ma’rifat va milliy tafakkur bilan bog‘lab ko‘rganlar. Jadidlar uchun xalqning kamoli shaxsiy manfaatdan ustun turgan, ma’rifat esa ozodlikka yetaklovchi munavvar yo‘ldir. “Vodiynoma” jurnali ana shu merosni o‘quvchiga quruq madh sifatida emas, balki bugun uchun ham ahamiyatli ma’naviy mezon sifatida yetkazuvchi omildir.

Jadidlar haqidagi maqolalar o‘quvchida bir vaqtning o‘zida iftixor, iztirob va mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otadi. Iftixor – avlod millat uchun buyuk xizmat qilishi tabiiy. Iztiroblarning sababi – ularning ko‘pchiligi nohaq quvg‘in va qatag‘onga uchradi. Mas’uliyat esa shundan kelib chiqadiki, jadidlar hayotidan saboq olmagan jamiyat ma’rifat qadrini kech anglaydi. Shu nuqtayi nazardan “Vodiynoma”da jadidlarning hayoti va taqdirini yoritish bugungi avlodni o‘tmishga bog‘lash emas, balki undan ruhiy quvvat olishga, milliy g‘oya va tafakkurning ildizlarini anglashga chorlashdir.

Siyosiy qatag‘on mavzusi jurnalning eng ta’sirchan va eng vijdonli yo‘nalishlaridan birini tashkil qiladi. Qatag‘on – bu nafaqat muayyan bir davr siyosati, balki millatning zehniy salohiyatiga berilgan zarba, ilm, madaniyat va erkin fikr egalari taqdiridagi fojia, kechikkan adolatning og‘riqli xotirasidir. “Vodiynoma” sahifalarida qatag‘on qurbonlarining hayoti va taqdiri hujjatlar, dalillar va manbalar asosida yoritilishi jurnalning xolislikka bo‘lgan sodiqligini namoyon etgan. Bu maqolalar faqat tarixiy axborot beribgina qolmay, ular o‘quvchining ichki vijdoniga murojaat qiladi, uni tarixiy adolat haqida o‘ylashga majbur qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ular xotirasini abadiylashtirishga doir qarori ham “Vodiynoma”ning keyingi sonlariga yangi ruh baxsh etdi. Bu qaror tarixchilar va tadqiqotchilar uchun faqat huquqiy asos emas, balki ma’naviy dastur bo‘lib xizmat qildi. Jurnalning qator maqolalari aynan shu qarorning mazmun-mohiyati bilan uyg‘un holda tayyorlangan va ularda qatag‘on mavzusiga yanada chuqur, hujjatli va mas’uliyatli yondashilgan. Bu esa jurnalning zamon bilan hamnafas, davlat va jamiyatning ma’naviy ehtiyojlariga javob bera olganini ko‘rsatadi.

Qatag‘on qurbonlari haqidagi maqolalarda Munavvar qori, Turor Risqulov, Fayzulla Xo‘jayev, Nizomiddin Xo‘jayev, Inomjon Xidiraliyev, Abdura-

him Yusufzoda, Nosirxon to‘ra Kamolxonto‘rayev, Abduqodir Qushbegiyev, Sa’dulla Tursunxo‘jayev kabi shaxslarning hayoti va faoliyatiga murojaat qilinishi alohida ahamiyatga egadir. Bunday maqolalar shaxs taqdirini tarixiy jarayonning markaziga olib chiqadi. Natijada o‘quvchi siyosiy qatag‘onni umumiy ko‘rsatkich yoki quruq siyosiy voqea sifatida emas, balki inson taqdiri, millatning zehniy va ma’naviy salohiyatiga nisbatan zo‘ravonlik sifatida anglaydi. Bu anglash esa faqat tarixni bilish emas, balki haqiqatni himoya qilish, inson sha’ni va ilm erkinligining qadrini chuqur his qilish demakdir.

“Vodiynoma”ning yana bir muhim yo‘nalishi – Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarga bag‘ishlangan maqolalardir. Bu maqolalarda o‘zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi, frontdagi va front ortidagi mehnat, davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan insonlar, evakuatsiya jarayonlari, urushdan keyingi xalq xo‘jaligini tiklash kabi mavzular yoritilib kelinadi. Mazkur maqolalarning qiymati shundaki, ular urushni nafaqat g‘alaba, balki og‘ir mehnat, sabr, yo‘qotish va tiklanish maktabi sifatida ko‘rsata oladi. Bu esa o‘quvchida tinchlikning qadri, jasoratning mazmuni va xalq irodasining chinakam qudrati haqida chuqur tasavvur uyg‘otishi tabiiydir.

Urush haqidagi maqolalar orqali inson bir narsani anglaydi: millatning buyukligi faqat zafarli lahzalarda emas, eng og‘ir sinov paytlarida ham namoyon bo‘ladi. Frontdagi qahramonlik qanchalik ulug‘ bo‘lsa, front ortidagi mehnat, sabr va chidam ham shunchalik qadrlidir. Urushdan keyingi tiklanish haqidagi materiallar esa vayronalikdan yangi hayot qurishning ma’naviy mohiyatini ochib beradi. Bu maqolalar orqali o‘quvchi faqat o‘tmishni bilibgina qolmay, xalqning matonati va irodasidan ham ruhiy saboq oladi.

Jurnalning madaniyat, san’at va ma’naviyatga bag‘ishlangan sahifalari ham uning qamrovini kengaytiradi. Tarixni faqat siyosiy jarayonlar va harbiy voqealar bilan cheklab bo‘lmaydi, bu uning bosqichlarini qisqartirib qo‘yadi. Aslida millat xotirasiga rassom, olim, muallim, ijodkor va tadqiqotchilarning hayoti ham singib ketgan. Nizomiddin Xoliqov haqidagi maqola yoki professor Rustambek Shamsutdinovning ibratli faoliyatiga bag‘ishlangan materiallar ayni shu ma’noda juda qimmatlidir. Ular o‘quvchiga tarixning nafaqat kurashlar va iztiroblardan, balki yaratuvchanlik, go‘zallik, mehr va fidoyilikdan ham tashkil topganligini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda jurnalning bosh muharriri, tarix fanlari doktori, professor Rustambek Temirovich Shamsutdinovning o‘rni alohida e’tirofga loyiq. Har qanday nashrning ma’naviy qiyofasi, ilmiy saviyasi va g‘oyaviy yo‘nalishi ko‘p jihatdan uning muharrirlik maktabi bilan belgilanadi. “Vodiynoma” misolida ham aynan shu holatni ko‘rish mumkin. Jurnalda tariximizning dolzarb masalalariga keng o‘rin berilishi, maqolalarning hujjatlarga tayanib yoritilishi, xolisligi va ma’rifiy ta’sirchanligi uning ortida katta ilmiy tajriba, yuksak talab va ma’naviy mas’uliyat turganini anglatadi. Bu jihat jurnalning keng o‘quvchilar orasida qiziqish bilan qabul qilinayotganligidan dalolatdir.

“Vodiynoma” jurnalining muhim ustunliklaridan yana biri – ilmiylik va ommaboplik o‘rtasidagi muvozanatni saqlay olganligidadir. Ko‘p hollarda jiddiy ilmiy matn o‘quvchi uchun og‘ir tuyuladi, ommabop matn esa chuqurlikdan yiroqlashadi. “Vodiynoma” jurnali esa bu ikki qutb o‘rtasida muvozanat topa olgan. Undagi maqolalar manba va dalilga tayanadi, ammo uslubiy jihatdan o‘quvchi ongiga yaqin, tafakkurni charchatmaydigan, aksincha, uni boyitadigan tarzda berilgan. Shu bois jurnal faqat mutaxassislar emas, yoshlar, talabalar va keng kitobxonlar uchun ham manfaatlidir.

Jurnalning 2025-yilgi barcha sonlari mazmuniga nazar tashlanganda ham uning mavzuviy tizimi qanchalik puxta o‘ylangani ko‘rinadi. O‘rta asrlar tarixi, mustamlakachilikka qarshi ozodlik kurashlari, “Katta terror” davrida qatag‘on qilingan jadidlar, GULAG lagerlaridagi vatandoshlar qismati, ta’lim va ilm fidoyilari, tanqid va taqriz kabi bo‘limlar bir qarashda turli mavzularni qamrab olgandek tuyuladi. Aslida esa ularni birlashtirib turuvchi g‘oya mavjuddir, bu esa millat xotirasini parchalab emas, butun holda anglash g‘oyasidir. Bu yondashuv o‘quvchiga tarixni faqat bitta davr yoki bitta muammo orqali emas, balki ko‘p qatlamli milliy tajriba sifatida qabul qilish imkonini beradi. Masalan, Bahovuddin Naqshband merosi haqidagi suhbatlar, Qo‘qon qo‘zg‘oloniga oid rus manbalari tahlili, qatag‘on qurbonlari haqidagi hujjatli ma-

qolalar, evakuatsiya jarayonlari yoki yapon harbiy asirlari taqdiriga oid materiallar – bularning har biri turli tarixiy bosqichlarni yoritsa-da, barchasi bir savolga olib keladi: millat qanday sinovlardan o‘tdi va bu sinovlar uning ruhiyatida qanday iz qoldirdi? “Vodiynoma” jurnalida aynan shu savollar ilmiy va badiiy-tarbiyaviy uyg‘unlikga qo‘ya oladi. Shu jihatdan jurnal sahifalaridagi har bir maqola mustaqil matn bo‘lish bilan birga, umummilliy xotiraning bir bo‘lagi sifatida ham qadrlidir.

Ko‘p hollarda tarix yirik siyosiy voqealar atrofida yoziladi, mahalliy hayotning o‘ziga xos jihatlari esa keyingi o‘rinda qolib ketadi. “Vodiynoma” esa lokal tarixni umummilliy tajribaning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuv tarixshunoslik uchun ham, jamoatchilik tafakkuri uchun ham juda muhim. Chunki millat tarixi aynan uning shaharlari, qishloqlari, ziyolilari, mehnatkashlari va mahalliy xotirasi orqali tirik ma’no kasb etadi.

Ayniqsa yosh avlod tarbiyasi nuqtayi nazaridan “Vodiynoma” jurnalining ahamiyati beqiyos. Axborot oqimi kuchaygan, yuzaki tasavvurlar tez tarqalayotgan, tarixiy voqealar ko‘p hollarda qisqa va biryoqlama ma’lumotlar bilan cheklanib qolayotgan bir sharoitda xolis va chuqur manbaga ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Yoshlar o‘z tarixini uzuq-yuluq axborotlardan emas, ilmiy asoslangan, ma’naviy jihatdan puxta va usluban ta’sirchan matnlardan o‘rganishi kerak. “Vodiynoma” ana shunday jurnallardan biridir. Uni mutolaa qilgan yoshlar faqat dalillarni emas, tarixiy tafakkurni ham o‘ganadilar.

Jurnalni mutolaa qilgan yoshlar jadidlar harakati orqali ma’rifat va fidoyilikni, qatag‘on qurbonlarining ayanchli qismatlari orqali haqiqat va adolatning qimmatini, urush haqidagi sahifalar orqali sabr va matonatni, madaniyat va san’at haqidagi ma’lumotlar orqali go‘zallik va ijod qadrini anglaydilar. Bu esa “Vodiynoma” jurnalini shunchaki maqolalar to‘plami emas, balki ma’naviy tarbiyaning amaliy vositasiga aylantiradi. Jurnal tarixni o‘qishga emas, uni his qilishga, tahlil qilishga va u bilan muloqot qilishga chorlaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar, mahalliy xotira va tarixiy merosni asrash har qachongidan ham dolzarbdir. Chunki millat o‘z tarixidan uzilsa, uning ma’naviy immuniteti zaiflashadi. Shu nuqtayi nazardan “Vodiynoma” kabi nashrlar milliy tafakkur ravnaqiga xizmat qiladi. Mazkur nashrlar orqali jamiyat o‘z kechmishini qayta o‘qiydi, unutilgan nomlarni eslaydi, nohaq soyaga tushgan siymolarga adolatli baho beradi va shu bilan birga kelajakni ongli qurish uchun zarur ma’naviy poydevor yaratadi.

Xullas, Farg‘ona vodiysi tarixi orqali O‘zbekiston tarixini chuqurroq anglash mumkinligi “Vodiynoma”ning har bir sonida sezilib turadi. Bu jurnal mahalliylikka berilib qolmaydi, aksincha, mahalliy tajriba orqali umummilliy haqiqatlarni yoritadi.

“Vodiynoma” ijtimoiy-tarixiy, ilmiy-ommabop jurnali – Farg‘ona vodiysi, shuningdek, O‘zbekiston tarixini o‘rganish, targ‘ib etish va ma’naviy merosni xalqqa yetkazish yo‘lidagi muhim va sharafli jurnaldir. Uning sahifalarida tarix shunchaki yoritilmaydi – u tiriladi; xotira shunchaki tilga olinmaydi – u qalbga ko‘chadi; ma’rifat shunchaki targ‘ib qilinmaydi – u ongni uyg‘otadi. Bu jurnal xalqning kechagi iztirobi, bugungi tafakkuri va ertangi umidlarini bitta ma’naviy zanjirga aylantira oladigan kuchli nashrlardandir.

Shunday ekan, “Vodiynoma”ni o‘qish – bu faqat maqola mutolaasi emas. Bu – millatning tirik xotirasi bilan suhbatlashish, o‘zlik sari qaytish, ma’naviy ildizlardan kuch olish va kelajakka ishonch bilan qarash demakdir. Tarixni anglagan inson adashmaydi, xotirasini asragan millat esa hech qachon so‘nmaydi. “Vodiynoma” jurnali ana shu buyuk haqiqatni har bir soni, har bir maqolasi va har bir satri orqali eslatib turadigan, milliy ong va tafakkurni yuksaltirishga xizmat qilayotgan qudratli ma’naviy-ilmiy jurnaldir.

QIRG‘IZISTON, O‘ZBEKISTON VA TOJIKISTON OLIMLARINING

“GLOBALLASHUV SHAROITIDA FARG‘ONA VODIYSINING TARIXIY, FALSAFIY, TILSHUNOSLIK VA ETNOMADANIY XUSUSIYATLARINING DOLZARB MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

Soibjon Hoshimov,
Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti
professori, tarix fanlari doktori

2026-yil 3-aprel kuni Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universitetida “Farg‘ona – millatlararo birlik, hamjihatlik va do‘stlik vodiysi” shiori ostida Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Tojikiston olimlarining “Globallashuv sharoitida Farg‘ona vodiysining tarixiy, falsafiy, tilshunoslik va etnomadaniy xususiyatlarining dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi.

Mazkur xalqaro anjuman Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh davlat universiteti hamda O‘zbekiston Respublikasi “Turon” Akademiyasining So‘x tumani filiallari hamkorligida tashkil etildi. Ushbu xalqaro ilmiy anjumanda O‘zbekiston, Qirg‘iziston hamda Tojikiston respublikalari Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari ishtirok etdi. Anjumanning yalpi majlisida “Turon” Akademiyasi So‘x tumani filiali rahbari tarix fanlari doktori, professor M.F.Djurayev (O‘zbekiston), tarix fanlari doktori, professor M.M.Rahimzoda (Tojikiston), Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti professori, tarix fanlari doktori Sh.T. Qo‘ldoshev (O‘zbekiston), Xo‘jand davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori B.R.Tursunov (Tojikiston), Akademik B. G‘ofurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori Matluba Mirzoyunus (Tojikiston), Andijon davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori S.A. Hoshimov (O‘zbekiston), O‘sh davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori K.A. Isaqovlar (Qirg‘iziston) ma’ruza qildilar.





Xalqaro anjumanni Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh shahar hokimi (meri) Akayev Janarbek Kubanichovich o‘zining tabrik so‘zi bilan ochdi. Shundan so‘ng konferensiyada Farg‘ona vodiysining geografik joylashuvi, tabiati hamda O‘rta Osiyo mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlaridagi o‘rnini aks ettiruvchi videofilm namoyish etildi. Unda Farg‘ona vodiysi O‘rta Osiyoning shimoli-sharqida joylashgan tog‘lararo botiq bo‘lib, tevaragi Tangritog‘ va Pomir tizmalari bilan o‘ralganligi, dunyoning eng uzun daryolari qatorida turadigan Sirdaryoning Farg‘ona vodiysidagi yuzlab soy va kichik daryolardan tashkil topishi, vodiyning uzoq tarixi haqidagi ma’lumotlar berib o‘tildi.

Xalqaro anjuman davomida Farg‘ona vodiysining tarixi, falsafiy merosi, tilshunoslik va etnomadaniy xususiyatlarini tadqiq etishda o‘zlarining samarali ilmiy-ijodiy faoliyati bilan vodiyning tarixini tadqiq etishdagi yutuqlari uchun bir qator O‘zbekiston, Qirg‘iziston hamda Tojikiston olimlari taqdirlandilar. Biz uchun quvonarlisi shundaki, mukofotlanganlar orasida O‘zbekiston Respublikasidan Markaziy Osiyo Ilm-fan, madaniyat va san’at xalqaro akademiyasi akademigi, tarix fanlari doktori, professor, Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori Rustambek Temirovich Shamsutdinov ham bor edi. Ustoz Farg‘ona vodiysining qadimgi davrlardan to shu kunlarga qadar bo‘lgan tarixi, uning boy madaniy merosini o‘rganish hamda targ‘ib va tashviq qilishdagi ilmiy tadqiqotlari, boy tarixiy madaniy merosimizni asrab avaylashdagi xizmatlari uchun Turon Fanlar Akademiyasining ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi va guvohnomasi berildi.

Shundan so‘ng anjumanda avval-azaldan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy, diniy qarashlari, hayot tarzi, an’ana va qadriyatlari umumiylik va o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan, Farg‘ona vodiysi unda yashayotgan turli millat va elatlar, jumladan, o‘zbek, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq va boshqa millat va elatlar tarixi mushtarak ekanligi qayd etilib, bugunda bu xalqlarning o‘zaro qardoshlik aloqalari 2016–2017-yillardan tamomila yangi bos-





qichga ko‘tarilgani yana bir bor qayd etib o‘tildi. O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston davlatlarining bu mintaqada yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan aloqalari, davlatlar, xalqlar bilan ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli hamkorligi rivojlanib, tobora yangidan-yangi yo‘nalishlarni qamrab olayotgani mazkur anjumandagi ma’ruzalarda e’tirof etildi.

Shuningdek, xalqaro anjumanda Farg‘ona vodiysining tarixiy o‘tmishi, etnomadaniy jarayonlari, vodiyda shaharsozlik madaniyatining qaror topishi, Farg‘ona vodiysidan yetishib chiqqan buyuk allomalar, ularning jahon fani taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi masalalari, tarixiy shaxslar, davlat va jamoat arboblari, ularning jahon xaqlari tarixida





tutgan o‘rni va roli masalalari, Qo‘qon xonligi va uning davlatchilik taraqqiyotidagi o‘rniga oid ma’ruzalar tinglandi.

Anjumanda ma’ruzachilar tomonidan O‘rta Osiyo mintaqasida, jumladan, Farg‘ona vodiysida IX–XII asrlarda ulkan madaniy ko‘tarilish yuz bergani, ilm-fan, falsafa, adabiyot rivojlanib, ilg‘or insonparvarlik g‘oyalari jamiyat fikrini band etgani, aqliy va ijodiy faollik gurkiragani, bu davrda ro‘y bergan “Musulmon Renessansi”, “Sharq Uyg‘onishi” aynan shu zaminda yashagan allomalarning ilmiy merosining samarasi ekanligiga alohida urg‘u qaratildi.

Xalqaro konferensiyaning Farg‘ona vodiysida kechgan tarixiy voqealar sharhiga bag‘ishlangan sho‘ba yig‘ilishida O‘zbekiston, Qirg‘iziston hamda Tojikiston respublikalari tarixchi olimlarining Farg‘ona vodiysining qadimgi davr tarixiga oid arxeologik, antropologik topilmalari, o‘rta asrlar tarixi bilan bog‘liq yozma manbalari, Amir Temur va temuriylar, Qo‘qon xonligi davri, chor Rossiyasi hamda sovet totalitar tartiboti davrida Farg‘ona vodiysida kechgan ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy jarayonlar tarixiga oid ma’ruzalari tinglandi.

Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasining bir guruh yetakchi professor-o‘qituvchilari ham mazkur xalqaro anjumanning sho‘balarida Farg‘ona vodiysi tarixning dolzarb mavzulari yuzasidan o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar.

XORIJGA QILINGAN ILMIY SAFAR TAASSUROTLARIDAN

Mahkamov Azizbek, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD



Lund universiteti bosh kutubxonasi, Shvetsiya qirolligi.
2026-yil 4-mart


2026-yil yanvar oyidan buyon Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universitetining sa’y-harakatlari bilan Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan MOCCA dasturi doirasida universitet vakillarining bir oylik maxsus amaliyot dasturi tashkil etilgan bo‘lib, bu dastur ishtirokchilariga Yevropa oliy ta’lim tizimi, ta’limdagi zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, ilmiy-tadqiqot metodologiyalari hamda xalqaro akademik hamkorlik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish taqdim etilmoqda. Amaliyotning asosiy qismi Shvetsiya qirolligining Lund universitetida amalga oshirilib, unda universitet pedagog-xodimlari turli xil seminar-treninglar, ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlarda qatnashib, o‘z bilim va ko‘nikmalarini yanada boyitmoqdalar.

Men ham mart oyida ana shu dastur doirasida Shvetsiya qirolligida joylashgan Lund Universitetida ilmiy amaliyotda bo‘ldim. Mazkur amaliyot davomida nafaqat Yevropa Ittifoqining akademik muhiti bilan yaqindan tanishish, balki tadqiqot mavzuyim – “Katta terror yillarida O‘zbekiston SSR hududida qatag‘on qilingan xorijliklar va milliy ozchiliklar” mavzusida zamonaviy ilmiy tadqiqot metodologiyalarini amaliy jihatdan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldim.

Lund universitetining Tarix fakulteti professor-o‘qituvchilari hamda doktorantlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar jarayonini bevosita kuzatish orqali tadqiqotlarni rejalashtirish, ma’lumotlar bilan ishlash, ilmiy natijalarni tahlil qilish va ularni xalqaro ilmiy hamjamiyatga



Shvetsiyaning Lund universitetidagi seminar jarayonidan lavhalar.
2026-yil 11-mart



taqdim etishning ilg‘or tajribalari bilan tanishdim. Bu tajriba mening ilmiy faoliyatimda nazariy bilimlarimni mustahkamlash bilan birga, ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini ham sezilarli darajada rivojlantirdi.

Shuningdek, jami 2 milliondan ortiq kitoblar jamlangan **Lund Universiteti kutubxonasi** fondlaridan Markaziy Osiyo hududi, xususan, O‘zbekiston tarixining ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanishiga oid muhim ilmiy manbalarni saralab oldim. Bu adabiyotlarni elektron shaklda Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti kutubxona fondini boyitish maqsadida olib kelishga muvaffaq bo‘ldim. Bu esa, o‘z navbatida, mahalliy talabalar va tadqiqotchilar uchun xalqaro ilmiy manbalarga kengroq kirish imkoniyatini yaratish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish hamda O‘zbekiston tarixini global ilmiy kontekstda yanada chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.

Germaniya Federativ Respublikasi


Sovet hokimiyatining 1937–1938-yillardagi qatag‘on siyosati hamda Turkistonlik muhojirlar tarixi kabi masalalarni chuqur o‘rganishda xorijiy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, Germaniyada amalga oshirilgan ilmiy safarim avval ilmiy iste’molga kiritilmagan manbalarni aniqlash, ularni ilmiy tahlil qilish hamda zamonaviy metodologik yondashuvlarni o‘zlashtirish imkonini berdi. Ilmiy safarim davomida Germaniya Federativ Respublikasidagi **Berlin davlat kutubxonasi (Staatsbibliothek zu Berlin)** va **Germaniya Federal Arxivi (Bundesarchiv)** kabi yirik ilmiy muassasalarda tadqiqot ishlari olib bordim. Turkistonlik muhojirlar faoliyati hamda sovet davrida qatag‘onga uchragan yevropaliklarning taqdiri haqidagi muhim ma’lumotlarni o‘rgandim.



Germaniya Federal arxivi – “Bundesarchiv” binosi. 2026-yil 13-mart

Germaniya Federal arxividagi hujjatlar va materiallar yuqori darajada tizimlashtirilgan bo‘lib, tadqiqotchi sifatida aniq metodologik yondashuv asosida ishlash imkonidan foydalandim. Hujjatlarning kontekstual va komparativ tahlili orqali tarixiy voqealarni yanada chuqurroq yoritish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Mazkur arxiv fondlarida olib borilgan tadqiqotlar O‘zbekiston SSR hududida qatag‘on qilingan yevropaliklarning taqdirini o‘rganishda muhim manbaviy asos yaratdi. Bu hujjatlar orqali qatag‘on jarayonlarining transmilliy xarakterga ega ekanligi, ya’ni ularning faqat ichki siyosat emas, balki xalqaro omillar bilan ham bog‘liqligi aniqlandi. Ayniqsa, “nemis operatsiyasi” doirasida amalga oshirilgan qatag‘onlar yevropalik shaxslarning ommaviy ravishda ta’qib qilinishiga olib kelgan bo‘lib, bu jarayon Sovet davlatining xavfsizlik siyosati va tashqi tahdidlar haqidagi tasavvurlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Men uchun Berlin davlat kutubxonasi fondlarida saqlanayotgan “Milliy Adabiyot” va “Milliy Turkiston” kabi jurnallar turkistonlik muhojirlar tarixini o‘rganishda eng muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Bu jurnallar nafaqat adabiy nashr sifatida, balki siyosiy va mafkuraviy platforma sifatida ham faoliyat yuritgan. Ular orqali Turkiston muhojirlari milliy o‘zligini saqlab qolish, xalqaro jamoatchilikka murojaat qilish va Sovet tuzumiga nisbatan o‘z nuqtayi nazarini bildirishga harakat qilganlar. Bu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turkistonlik muhojirlar Yevropa hududida, ayniqsa Germaniyada, o‘z milliy manfaatlarini himoya qilish, mustaqillik g‘oyalarini ilgari surish



Germaniyadagi Turkistonlik muhojirlar tomonidan 1943–1944-yillarda chop etilgan “Milliy adabiyot” jurnali. Hozirda Berlin kutubxonasida saqlanmoqda.

va xalqaro jamoatchilik e’tiborini Turkiston masalasiga qaratish maqsadida bir qator tashkilotlar tuzganlar. Ayniqsa, muhojirlar tashkilotlari faoliyatida matbuot muhim o‘rin tutgan. Bu jurnallar sahifalarida muhojirlarning siyosiy qarashlari, milliy ozodlikka oid konsepsiyalari, shuningdek, Sovet tuzumiga nisbatan tanqidiy munosabatlari o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari, aniqlangan manbalar muhojirlar tashkilotlarining faoliyati faqat ichki muhit bilan cheklanib qolmaganini, balki ular xalqaro siyosiy va ilmiy doiralar bilan ham aloqalar o‘rnatishga intilganini ko‘rsatadi.



Germaniya Federal arxivi o‘quv zali, 2026-yil 14-mart

Shu nuqtayi nazardan, Turkistonlik muhojirlar tomonidan tuzilgan tashkilotlar nafaqat tarixiy hodisa sifatida, balki milliy ong va siyosiy tafakkur rivojida muhim bosqich sifatida baholanishi mumkin.

Xususan, kutubxona va arxivdagi tadqiqotlarim davomida Turkiston Milliy Birligi qo‘mitasi faoliyatiga oid materiallarni tahlil qildim. Ushbu tashkilot Turkiston mustaqilligi g‘oyasini ilgari surish, muhojirlar kuchini birlashtirish va xalqaro siyosiy doiralarda Turkiston masalasini ko‘tarish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, u muhojirlik muhitida markaziy siyosiy platformalardan biri sifatida faoliyat yuritgan. Shuningdek, “Prometey harakati” doirasida turkistonlik muhojirlarning ham ishtiroki aniqlangani manbalar orqali o‘z tasdig‘ini topdi. Mazkur xalqaro harakat Sovet Ittifoqi tarkibidagi millatlarning mustaqillik uchun intilishlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, unda Turkiston vakillari ham faol qatnashgan. Bu esa Turkiston muhojirlarining faoliyati faqat milliy doirada emas, balki kengroq xalqaro siyosiy kontekstda olib borilganini ko‘rsatadi. Muhojirlar muhitida shakllangan Turkiston legioni bilan bog‘liq materiallar ham muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, ular muhojirlarning Ikkinchi jahon urushi davridagi siyosiy va harbiy strategiyalarini o‘rganishda qo‘shimcha manba sifatida xizmat qiladi. Mazkur tuzilma murakkab tarixiy sharoitda shakllangan bo‘lib, uning faoliyati turli siyosiy va ideologik omillar bilan bog‘liq holda tahlil qilinishi zarurligi aniqlandi.

FRANSIYA

Fransiyaning poytaxti Parij shahrida ham bo‘lib, bu yerdagi **Fransiya milliy kutubxonasi (Bibliothèque nationale de France)**da tadqiqot ishlarini olib borish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Ushbu nufuzli ilmiy maskan boy va kamyob qo‘lyozmalar, arxiv hujjatlari hamda noyob nashrlar fondi bilan ajralib turadi.

Kutubxonada O‘zbekiston va umuman Markaziy Osiyo tarixiga oid xorijiy manbalar, ilmiy tadqiqotlar, Sovet hokimiyati tomonidan O‘zbekiston SSRda amalga oshirilgan qatag‘on siyosati va amaliyotiga doir xorijlik mualliflarning nashrlari bilan yaqindan tanishdim va ularning bir qismi-



Parijdagi Fransiya milliy kutubxonasi,
2026-yil 20-mart



Parijdagi Fransiya milliy kutubxonasi,
2026-yil 20-mart

ni O‘zbekistonga olib kelishga muvaffaq bo‘ldim. Ayniqsa, G‘arb tarixshunosligida yurtimiz tarixiga berilgan baho, talqin va metodologik yondashuvlarni o‘rganish orqali mavjud ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, milliy tarixshunosligimizni xalqaro ilmiy maydon bilan uyg‘un holda rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, Fransiya milliy kutubxonasida olib borilgan ilmiy izlanishlar tadqiqotlarimning manbashunoslik asosini mustahkamlab, tarixiy jarayonlarga kengroq – global va qiyosiy nuqtayi nazardan yondashish imkonini berdi. Bu tajriba kelgusida olib boriladigan ilmiy ishlarimda yangi g‘oyalar, metodologik yondashuvlar va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

(Davomi kelgusi sonda)

O‘ZBEK-QIRG‘IZ DO‘STLIGI SAHNADA: O‘SHDA “NODIRA” SPEKTAKLI PREMYERASI BO‘LIB O‘TDI

Bahodir Rahmonov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi,
Andijon davlat universiteti filologiya fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor

Qo‘shningning uyida chiroq yonsa, shu’lasi senikiga tushadi.
O‘tkir HOSHIMOV

Bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovlarning barcha xalqlar, ayniqsa, qo‘shni qardoshlarimiz bilan olib borayotgan oqilona siyosatlari natijasida keyingi paytlarda do‘stlik rishtalari kun sayin yanada mustahkamlanib bor-



“Nodira” spektaklidan bir ko‘rinish



Chapdan o‘ngga Shahodat Isaxonova, Nurali Qobul, Rustambek Shamsutdinov

moqda. Bu ezgu jarayon ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida o‘zining samarali natijalarini bermoqda.

Kuni kecha Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh shahrida joylashgan Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi akademik O‘zbek musiqali drama teatrida muhim madaniy voqea yuz berdi. Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik musiqali teatri hamda Bobur nomidagi teatr o‘rtasida imzolangan hamkorlik memorandumi doirasida ilk yirik ijodiy loyiha – “Nodira” musiqali dramasining premyerasi katta tantana bilan tomoshabinlarga taqdim etildi. Mazkur spektakl nafaqat teatr san’atidagi yangi bosqich, balki o‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik, madaniy yaqinlik va hamkorlikning yorqin namunasi sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Zalni to‘ldirib o‘tirgan tomoshabinlar spektaklni katta qiziqish va samimiy ehtirom bilan qarshi oldilar. Asar muallifi – taniqli yozuvchi Shahodat Isaxonova mustaqillik yillarida tarixiy roman janrida samarali ijod qilib, “Turon malikalari” turkumi doirasida bir qator mashhur asarlarni yaratgan. Ushbu turkumda Turkon xotun, Bibixonim, Gavharshodbegim, Zebuniso kabi tarixiy ayollar siymosi badiiy talqin etilgan bo‘lib, “Nodirai Davron” asari ham ana shu ma’naviy merosning davomi hisoblanadi. “Nodira” dramasida Andijon farzandi, Qo‘qon malikasi va mumtoz adabiyotimizning yorqin namoyandasi Nodirabegim hayoti va ijodi chuqur badiiy talqin qilingan. Asarda Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi murakkab siyosiy munosabatlar, ichki ziddiyatlar, adolat va haqiqat uchun kurash, inson taqdiri va ma’naviy iztiroblar obrazlar orqali ta’sirchan yoritilgan. Spektakl Muqimiy teatri rejissyori Doston Haqberdiyev tomonidan sahnalashtirilgan bo‘lib, u o‘zining kuchli rejissyorlik yechimi, ramziy ma’nolarga boy sahna ko‘rinishlari va ta’sirchan dramaturgik uslubi bilan ajralib turdi. Musiqiy bezak, milliy raqs elementlari va jonli ijro sahna asarining ta’sir kuchini yanada oshirgan. Spektakl davo-

mida jonli musiqa ijrosi va milliy kuy-qo‘shiqlardan unumli foydalanilgani tomoshabinlarda o‘zgacha estetik zavq uyg‘otdi, sahna asarining umumiy ruhini yanada boyitdi. Sahnadagi voqealar zanjiri tomoshabinni XIX asr muhitiga olib kirib, o‘sha davr ruhini his qilish imkonini berdi. Ayniqsa, saroy hayoti, ichki ziddiyatlar va Nodirabegimning ruhiy kechinmalari aks etgan sahnalar katta taassurot qoldirdi. Ayrim sahnalarda qo‘llanilgan ramziy yechimlar va obrazli ifoda tomoshabinni chuqur mushohadaga chorladi, asar g‘oyasini yanada teran anglash imkonini berdi.

Spektaklda teatrning 30 dan ortiq iste’dodli aktyorlari ishtirok etdi. Asosiy rollarni quyidagi ijodkorlar mahorat bilan ijro etdilar:

Nodirabegim – Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan artist Samidaxon Xolmatova (yoshlik obrazini Odinaxon Abbasova ijro etgan);

Umarxon – Tohir Madrahimov;

Uvaysiy – Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan artist Diloromxon Soipova;

Nasrulloxon – Dilshodbek Kurchiyev.

Aktyorlar tomonidan obrazlarning chuqur his etilgani, sahnadagi tabiiylik va samimiylik tomoshabinlar qalbidan chuqur joy oldi. Premyera tadbirida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining teatr va sirk san’atini rivojlantirish boshqarmasi rahbari Farhod Elmurodov, Muqimiy teatri direktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Azim Mullaxonov hamda taniqli san’atkor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Turg‘un Beknazarov, asar muallifi, mashhur adiba Shahodat Isaxonova, el suygan taniqli adib Nurali Qobul, chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan hozirjavob jurnalistlar va olimlar, respublika “Nuroniy” jamg‘armasi raisining birinchi o‘rinbosari Sharof Ubaydullayev, taniqli jurnalist Sarvar Usmon, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a’zosi, shoir Botirjon Ergashev, nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda ham taniqli bo‘lgan tarixchi olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Andijon davlat universiteti professori Rustam Shamsutdinov, mazkur satrlar muallifi, Andijon davlat universiteti professori Baho-



O‘zbekiston Respublikasi “Nuroniy” jamg‘armasi raisi o‘rinbosari Sharof Ubaydullayev “Nodira” spektaklida rol o‘ynagan aktyor va aktrisalarni tabriklash jarayoni



dir Rahmonov, Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti

Ma’rifatxon Qosimova va boshqalar ishtirok etib, ijodiy jamoani samimiy tabrikladilar. Ular spektakl ijodkorlarini tabriklab, ushbu loyihaning madaniy ahamiyatini alohida ta’kidladilar. Tadbir davomida ijodiy jamoaning mehnati munosib rag‘batlantirildi. O‘sh shahar vitse-meri Masuda Aydarbekovaning iliq so‘zlari ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlik va birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. O‘zbekistonlik ijodkorlar – Shahodat Isaxonova, Doston Haqberdiyev va Feruza Sarimsoqovalar madaniy hamkorlikka qo‘shgan hissalari uchun tashakkurnomalar bilan taqdirlandilar. Shuningdek, aktrisa Samidaxon Xolmatova “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan mukofotlandi. Qayd etish joizki, bunday qo‘shma loyihalar nafaqat madaniy aloqalarni mustahkamlaydi, balki ikki xalq san’atkorlari o‘rtasida yangi ijodiy g‘oyalar va loyihalarning yuzaga kelishiga ham turtki bo‘ladi. Tomoshabinlar tomonidan bildirilgan iliq fikrlar va uzoq davom etgan olqishlar spektaklning yuqori saviyada tayyorlanganini yana bir bor tasdiqladi.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, “Nodira” spektakli kelgusida nafaqat O‘sh shahrida, balki O‘zbekistonning turli hududlarida ham namoyish etilishi kutilmoqda. Bu esa ushbu asarning yanada keng ommaga yetib borishi va tarixiy merosimizni targ‘ib qilishga xizmat qiladi. Qo‘shni qardoshlarimiz Qirg‘izistondagi Bobur nomidagi akademik O‘zbek musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan “Nodira” spektakli nafaqat san’at bayrami, balki o‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘rtasidagi chin do‘stlik, mehr-muhabbat va madaniy uyg‘unlik ramzi bo‘ldi. Tomoshabinlar sahnadagi tarixiy obrazlar orqali bir yurak bo‘lib, bir davr ruhi va insoniy kechinmalarni his qildilar. Ushbu ruhiy uyg‘unlik farg‘onalik iste’dodli shoir, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Siddiq Mo‘minning quyidagi satrlarida ham o‘z ifodasini topganini anglash mumkin:

Qo‘shni qushlar bir daraxtga qo‘nadi,
Chug‘urlashib, yuraklari jo‘sh urar.
Qo‘shnim tafti bilan mehrim qonadi,
Chirog‘ingiz yoniq bo‘lsin, qo‘shnilar!

Qo‘shnisizning totli emas shavlasi,
Inoqlarning quvnoq soz, ashulasi.

Hech bo‘lmasa tushadi-ku shu’lasi,
Chirog‘ingiz yoniq bo‘lsin, qo‘shnilar!

Chin do‘stlikning bahosi yo‘q, narxi yo‘q,
Turkman, qozoq, qirg‘iz tilin sharhi yo‘q.
Afg‘onmisiz, tojikmisiz – farqi yo‘q,
Chirog‘ingiz yoniq bo‘lsin, qo‘shnilar!

Qancha quvonch, tashvish o‘tdi bu boshdan,
Aytaversam, tugamaydi bir boshdan.
Siz yaqinsiz olisdagi qondoshdan,
Chirog‘ingiz yoniq bo‘lsin, qo‘shnilar!

Azal-azal oh-zorimiz bir bo‘lgan,
Savdo-sotiq – bozorimiz bir bo‘lgan,
Oxir borar mozorimiz bir bo‘lgan,
Chirog‘ingiz yoniq bo‘lsin, qo‘shnilar!

Quloq solmang olisdagi olchoqqa,
O‘z yurtidan tonib ketgan qochoqqa.
Chaqalog‘-u gul yarashar quchoqqa,
Chirog‘ingiz yoniq bo‘lsin, qo‘shnilar!

O‘rtamizga hech kim rahna solmasin,
Do‘stlik madhin kuylashdan til tolmasin.
Siddiq Mo‘min so‘zi yerda qolmasin,
Chirog‘ingiz yoniq bo‘lsin, qo‘shnilar.

Shoirning ushbu she’ri do‘stlik o‘rtasidagi iliqlik, samimiyat va bir-birini tushunish ruhiyatini yoritadi. Aynan shu ruhni spektaklda ham ko‘rish mumkin. Qo‘shni xalqlar bir-birining tarixini, madaniyatini hurmat qilgan holda birlashdi, bir yurak bo‘ldi, bir-birining mehrini his qildi. Spektakl orqali madaniy hamkorlik va ijodiy loyihalar nafaqat san’atni yuksaltirib, balki ikki xalq o‘rtasidagi chin do‘stlikni mustahkamlaydi, qalblarda iliqlik va mehr uyg‘otadi. Shoirning she’ri kabi bu mehr-muhabbat va hamjihatlik nurli bo‘lsin, chiroqlari so‘nmasin, qalblarda abadiy yonib tursin. Shunday qilib, “Nodira” premyerasi nafaqat sahnadagi voqea, balki ikki xalqning ruhiy uyg‘unligi va madaniy yaqinligining yorqin timsoli bo‘lib tarixda qoldi.

AKADEMIK NE’MATJON MAMASOLIYEVNING ILMIY FAOLIYATIDAN KICHIK BIR LAVHA

Qalandarov Dilmurod Madaminovich,
Andijon davlat tibbiyot instituti vrachlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti ichki kasalliklar, kardiologiya va shoshilinch tibbiy yordam kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Professor Ne’matjon Mamasoliyev O‘zbekiston tibbiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, profilaktik tibbiyot sohasini ilmiy asosda shakllantirgan va uni amaliyotga tatbiq etgan yirik olimlardan biri hisoblanadi. Ne’matjon Mamasoliyev 1950-yil 8-may kuni Andijon viloyati Andijon tumanining Zavroq qishlog‘ida tavallud topgan. Andijon davlat tibbiyot institutini muvaffaqiyatli tamomlab, o‘z mehnat faoliyatini shu muassasada boshlagan va klinik ordinatorlikdan tortib kafedra mudiri lavozimigacha bo‘lgan bosqichlarni bosib o‘tgan. Uning umumiy mehnat staji yarim asrdan ortiqni tashkil etadi, ko‘p yillar davomida kafedraga samarali rahbarlik qilib kelmoqda.



Ne’matjon Mamasoliyev,
O‘zbekiston tabobat akademiyasi akademigi, tibbiyot fanlari doktori, professor

Professor Mamasoliyevning ilmiy faoliyati tibbiyotning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan profilaktik tibbiyotni rivojlantirishga qaratilgan. Olim tomonidan “Profilaktik tibbiyot” mustaqil fan sifatida asoslab berilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishning nazariy va amaliy asoslari yaratildi. Shuningdek, “Xalq tabobati” fanining shakllanishida ham uning ilmiy ishlari muhim o‘rin tutadi. Olimning ko‘p yillik tadqiqotlari natijasida yuqumli bo‘lmagan surunkali kasalliklar profilaktikasiga oid ilmiy qarashlar tubdan qayta ko‘rib chiqildi va zamonaviy yondashuvlar shakllantirildi.

Olib borilgan epidemiologik, kliniko-patogenetik, ekologik va farmako-epidemiologik tadqiqotlar natijasida surunkali noinfeksion kasalliklarning yangi xatar omillari aniqlanib, ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan algoritmlari ishlab chiqildi. Jumladan, pestitsidemiya, giperurikemiya, dizioniya va fermentlar gomeostazining buzilishi kabi omillar ilmiy jihatdan asoslab berildi. Mazkur tadqiqotlar profilaktik tibbiyotning mazmun-mohiyatini chuqurlashtirishga va uning amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

Professor Mamasoliyev rahbarligida Farg‘ona vodiysi aholisi misolida milliy profilaktika modeli, konsepsiyasi va algoritmlari ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etildi.

Keng ko‘lamli skrining tekshiruvlari asosida aholi orasida kasalliklarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish ishlari samarali tashkil etildi. Ayniqsa, tug‘ish yoshidagi ayollar orasida ekstragenital kasalliklarni erta aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha olib borilgan ishlar muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Olib borilgan tadbirlar natijasida ayrim yillarda surunkali kasalliklardan o‘lim ko‘rsatkichi sezilarli darajada kamayib, davolash samaradorligi oshgani qayd etildi.

Noyob tadqiqotchining amaliy tibbiyotga qo‘shgan hissasi ham nihoyatda kattadir. Uning tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan kardiologiya va terapiya sohalarida tez tibbiy yordam tizimi takomillashtirildi, zamonaviy diagnostik va davolash standartlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. O‘tkir miokard infarktida “oltin soat” tamoyilini qo‘llash orqali o‘lim ko‘rsatkichini kamaytirishga erishildi. Shuningdek, farmakoepidemiologik monitoring tizimi yaratildi va tibbiyot muassasalari faoliyatiga tatbiq etildi. Iqlimiy va geofizik omillarning inson organizmiga ta’sirini hisobga olgan holda profilaktik va davolash texnologiyalarining ishlab chiqilishi ham olimning muhim ilmiy yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Professor Mamasoliyev ilmiy-pedagogik faoliyati bilan ham ajralib turadi. Zabardast tadqiqotchi 5000 dan ortiq ilmiy ishlar, jumladan, darsliklar, monografiyalar va o‘quv qo‘llanmalar yaratdi. Uning ilmiy asarlari talabalar, magistrantlar va amaliyotchi shifokorlar tomonidan keng qo‘llanilmoqda. Ustozning rahbarligida ko‘plab ilmiy xodimlar tayyorlangan, ularning salmoqli qismi fan doktori va PhD darajalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Bu esa milliy tibbiyot fanining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ne’matjon Mamasoliyev tomonidan yaratilgan ilmiy maktab bugungi kunda mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, u nafaqat respublika, balki xalqaro miqyosda ham e’tirof etilmoqda. Olim turli ilmiy kengashlar, attestatsiya komissiyalari va jamoat tashkilotlarida faol ishtirok etib, tibbiyot fanini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Shu bilan birga, xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va xalqaro dasturlarda ishtirok etish orqali milliy tibbiyot yutuqlarini jahon miqyosida namoyon etmoqda.

Uning ko‘p yillik samarali mehnati davlat va jamoatchilik tomonidan munosib baholangan bo‘lib, u qator nufuzli mukofotlar va faxriy unvonlarga sazovor bo‘lgan. Professor Ne’matjon Mamasoliyev yuqori darajadagi ishchanligi, ilmiy salohiyati va pedagogik mahorati bilan nafaqat olim, balki murabbiy va jamoat arbobi sifatida ham katta hurmatga ega.

Shunday qilib, professor Ne’matjon Mamasoliyevning ilmiy va amaliy faoliyati profilaktik tibbiyotni rivojlantirish, surunkali kasalliklarning oldini olish va aholi salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning yaratgan ilmiy maktabi va ishlab chiqqan texnologiyalari milliy tibbiyot taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘ylaymiz va ishonamizki, akademik Ne’matjon Mamasoliyev o‘zining ibratli faoliyati, namunali murabbiyligi hamda tibbiyot sohasida ko‘plab shogirdlarni tarbiyalashi orqali yurtimizda tibbiyot ilmini yanada yuksaltirishga bor kuch va salohiyatini safarbar etmoqda. Uning Vatanimiz ravnaqi va taraqqiyotiga qo‘shayotgan munosib hissasi xalqimiz tomonidan hamisha yuksak qadrlanadi.

JANNAT TO‘RI-YU JAHANNAM TUBI YOXUD REYGANDAN RASHIDOV-U NIKSONDAN NAZARBOYEV-U KLINTONDAN KUNAYEVGACHA

Nurali Qobul



Nurali Qobul. Andijon, 2026-yil 31-aprel

1. Shaytonning erkak va urg‘ochisi bo‘ladimi? Insoni soz, jahonda oz yoxud to‘qni to‘ydirib bo‘lmas! O‘lja poylar mushuklardan, sher, qoplonlar yasalur yoxud mansab otiga minish uchun millatni o‘zgartirgan malik-u Kreml ko‘pkarisi! Zako va zehniyatning zanglagan zanjiri!

Mehr-muhabbat degan yelkasida dunyoni tashir, mehr-muhabbatsizlar tana va jasad tashir.

Rumiy

Jahannam qayerda ekanligini bilasizmi? Jahannam – inson yuragida mehr-muhabbat barham topgan manzildadir.

F. Dostoyevskiy

Qadim zamonda qullar xo‘jalarini ko‘tarib yurgan. Bugun esa qullar xo‘jalarining g‘oyasini ko‘tarib yurishadi.

Fozil Husni Dog‘larja

Siyosatchilar ko‘p jihatdan tagliklarga o‘xshaydi: ularni tez-tez almashtirib turish kerak, sabab esa odatda bir xil bo‘ladi.

Benjamin Franklin

Ulug‘ insonlar qolmasa, mavqeyi past odamlar ulug‘lar qatoriga o‘tadi.

Shekspir

Kechagidek eslayman. Sochsiz va ikki qoziq tishining Kreml taxtidan uloqtirilib, Lenin-u Stalin, Malenkov-u, Xrushevdan qolgan kursiga serqosh-u sersoch, artistsifat Leonid Brejnevning o‘tirishi mamlakatda qandaydir bahor havosini esdirgan, odamlar yelkasidagi og‘ir yuk yengillashgandek edi.

Hafta – o‘n kun chamasi o‘tmay Sovxoz deya ataladigan qasabamizning raflari quruq do‘konida bug‘doy uni paydo bo‘ldi. Xaloyiq o‘zlariga makka unidan non yedirgan Xrushevning go‘riga g‘isht qalagancha Brejnevni alqab, ro‘yxat bilan berilgan bir qopdan unni eshag-u mototsikllarga ortgancha tarqalishar, u paytda avtomashina degani anqoning urug‘i edi.

– Bir xaltadan beraman. Tepadan shunday ko‘rsatma bor! – baland ovozda takrorlardi magazinchi Allamurod avo.

– Brijnup Xruchchoʻp chet elga joʻnatayotgan don-dunni toʻxtatib, xalqqa berasan debdi, – deya oʻzicha siyosat soʻqardi bir xalta unni eshagidan tushirib etikdoʻzlik kursisiga ogʻir choʻkkan usta Hamza bobo moʻkki tikdirish uchun ortidan ergashib kelgan A’zam podachiga.

– Oʻsha chet elliklar Xruchchoʻpga pora-mora bergan boʻlsa kerak-da, – aqllilik qilardi A’zam amaki.

– Yegani ortida, yemagani ketida boʻlsa, poshsholar ham pora oladimi? – hangamani olardi Hamza bobo.

– Odam boʻladi-yu, nafsi boʻlmaydimi? Toʻqni toʻydirib boʻlmaydi Hamza aka. Esimni tanibmanki, olmaydigan odamni koʻrmadim. – Biroq toʻyib-toʻyib, soʻngida toyadi Azzamboy.

– Kim oʻylagandi Xruchchoʻpday dev odamni shunaqa qilib koʻchaga haydashlarini.

– Oʻrisdi avliyosiga ham ishonib boʻmaydi. Koʻrgan oʻrisim borki, aroq ichishdan boshqa ishi yoʻq. Ayallari qilpanglagan. – Toʻgʻri, Rossiyaning qahratonida ichib turmasa odam oʻlib qoladi ogʻayni. Ularda shoh-u gadoy, erkag-u ayol birdek ichki ichishadi. Ichida yaxshisiyam bor. Ammo asirga tushganimda koʻrdim. Nemis degani oʻrisdan insofliroq ekan. Lelingacha oʻris davlatini nemis malikalari boshqargan deyishadi. Oq poshsholar oʻzlarining Marusa-yu Natashalarini Freylina degan kanizak qilar ekan-u, biroq uylanishmas ekan. Ehtiyot boʻlib, ogʻzingga qarab gapir Azzamboy. Tagʻin seni ham Sibirga qaragʻay kesishga joʻnatib yuborishmasin. Istaysanmi-yoʻqmi hozir Tangri taolo oʻshalarni boshimizga qoʻyib qoʻygan. Chekkangga tushsa chekrayma deydilar. Murosa-yu madora qilmasak boʻlmaydi, – ipni labi bilan hoʻllab maxsi tikardi etikdoʻz.

– Tezakka belanib poda boqqandan qaragʻay kesgan ma’qul emasmi? Siz u tomonlarni koʻrgansiz-ku oqsoqol.

– Ishlab turib, tarashadek qotib, qaragʻaydek qulab tushganlarni koʻrganman. Millionlab odamlar oʻlib ketdi u oʻlkalarda. Ogʻzingdan shamol uchirsin. Farishtalar omin deb yuborsa katta xolangni Qalim degan qamoqda koʻrasan! Oʻrismi, chulchutmi, nemis-u juhudmi, bu dunyoda bagʻri butun-u soz insonni koʻrmadim. Insoni soz, jahonda oz ekan birodar.

– Men ham oʻrisning ichmaydiganini koʻrmadim, – gap qoʻshdi A’zam podachi.

– Bitta-yarimta yahudiy yoki boshqa millat aralashgan aqllisi ichmaydi. Ichsa-da, me’yorini biladi, – donolik qilardi etikdoʻz.

Katta-yu kichik, siyosatni tushungan-u tushunmagan barchaning ogʻzida Kremldan haydalgan Xrushev-u, uning taxtini egallagan Brejnev edi. Gazetalarning birinchi sahifasini kelishgan va salobatli Leonid Brejnev bilan Ministrlar Sovetining raisi etib saylangan Aleksey Kosiginning bujmaygangina portreti toʻldirib turardi.

Leonid Brejnev KPSS Markaziy Komitetining birinchi sekretari, Aleksey Kosigin Ministrlar Sovetining raisi, Nikolay Podgorniy SSSR Oliy Soveti prezidiumining raisi etib saylangandilar.

Xrushev davrida Frol Kozlov partiyadagi ikkinchi kishi edi. Biroq u ogʻir xasta boʻlib, ishlay olmasdi. Mikoyan va Shvernik yoshi ulugʻligidan bu lavozimga da’vogarlik qilolmasdilar. Shvernik hatto Xrushevdan ham ulugʻ yoshda boʻlib, RSFSR Ministrlar Soveti raisi Dmitriy Polyanskiy juda yosh edi. Kirilenko esa Ukrainadan endi Moskvaga kelgani uchun Kreml koʻpkarisida ot choptirishdan uzoqroqda turardi.

Podgorniy, Suslov va Kosiginlar ham bor edi. Brejnev bilan Podgorniy teng huquqli Markazqoʻm sekretarlari boʻlib, navbat bilan Prezidium va Sekretariat majlislarini boshqarishardi.

Birinchi sekretarlik masalasi Prezidiumda muhokamaga qoʻyilar ekan, Brejnev Podgorniy nomzodini tilga oldi.

– Yoʻq, Lyonya! Bu vazifani sen oʻz zimmangga ol, – dedi Nikolay Podgorniy tepakal boshini ma’noli sollab.

Moskva siyosati va Kreml karomatining ob-havosini olgan, anchadan beri boshkentda muhim lavozimlarni egallab tanilib qolgan Brejnev shunchaki oliyjanoblik qilib Podgorniy nomini soʻylagan va uning bu taklifini rad etishini yaxshi bilardi.

Ukrainaning sobiq birinchi rahbari bu vazifani orzulasa-da Moskvaga endi kelgan, tajribasi kam edi. Suslov esa ideolog boʻlib, gʻoyaviy arboblardan birinchi rahbar saylanmas, sanoat va qishloq xoʻjaligidan chiqqanlar roʻyxat boshida turishardi.

Fabrika direktorligidan hukumat raisining birinchi oʻrinbosarligigacha yetib kelgan, iqtisod va

xo‘jalik ishini yaxshi bilgan Kosiginni barcha hurmat qilar va ishonardi. Biroq mavjud tartib bo‘yicha partiya tepasida professional partiya xodimi turishi kerak bo‘lib, eng munosib nomzod Leonid Brejnev edi. Kosigin esa ikkinchi vazifa hukumat raisligiga munosib ko‘rildi.

Qoraqosh-u sertabassum, samimiyligidan gohida ko‘zi jiqqa yoshga to‘ladigan Brejnev har tomonlama bu lavozimga munosibdek edi. Uning tarjimayi holi bu rutbaga to‘g‘ri kelardi. Front qatnashchisi, qator katta shahar va viloyatlarning birinchi sekretari, Moldaviya va Qozog‘istonning birinchi rahbari, SSSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi, komsomol, og‘ir va mudofaa sanoatiga mas’ul markazqo‘m sekretari...

Insoniylik sifatlari nuqtayi nazaridan ham u atrofidagi hamkasblaridan har tomonlama ustun ko‘rinardi. Moskva, Kremlda shunday iqlim hokim edi. Bu Oktyabr to‘ntarishidan qolgan dahshatli meros bo‘lib, buni Stalin qonunlashtirgan va endilikda hech kim bu zako va zehniyatning zanglagan zanjirini uzib keta olmasdi.

Bu siyosat poygasida sening aqllilig-u donoliging, iste’dod-u qobiliyating hisobga olinmas va muhim emasdi. Sen bu ko‘pkarida yonma-yon chopayotganlardan oldin marra-yu manzilga yetib kela olsanggina muroding hosil bo‘lar, dunyo ko‘zini tikib turgan Kreml saroyi solinlarida savlat to‘kkancha millionlar taqdirini hal qilib, “Кремлевское” deya atalgan poyandozlar solingan yo‘lag-u dahlizlarda odamlar soyangga salom berar va sen SSSR degan dunyodagi eng katta davlat va mamlakatning dohiylaridan biriga aylanarding.

...Barcha Prezidium a’zolari va a’zolikka nomzodlarning qutlovlarini qabul qilgan Leonid Brejnev yo‘l-yo‘lakay yozilib, g‘olibona jilmaygancha duch kelgan mulozimga tabassum qilib Kremldagi kabineti tomon borar, qiltiriq Mixail Suslov papkasini qo‘ltig‘iga qisgancha ortidan kelardi.

– Matbuot sohasidagi qodirlar masalasini hal etdingizmi? – so‘radi Brejnev kursiga og‘ir cho‘karkan sigareta tutatib.

– Buyruq loyihalari tayyor. Ko‘zdan kechirib bersangiz bo‘ldi. Radio va televideniyega rahbar etib tayinlashni mo‘ljallaganimiz Mesyas uch kundirki kecha-yu kunduz teleradio binosida o‘tiribdi. “Xrushevning press-gruppasi”dan tezroq qutulish kerak, – javob qildi Mixail Suslov. – Mesyas shu paytgacha Markazqo‘mning sotsialistik mamlakatlar kommunistik va ishchi partiyalari bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i Yuriy Andropovning o‘rinbosari edi.

– Yaxshi, yaxshi, – dedi Brejnev xirillagan ovozda Suslov uzatgan qog‘ozni ko‘zdan kechirar ekan. – Demak “Izvestiya”ning bosh redaktori, Xrushevning kuyovi Adjubeyning o‘rniga razvedkadan chiqqan Vladimir Stepakovni qo‘yamiz. “Pravda”ning bosh redaktori Satyukovning vazifasini hozircha Markazqo‘m sekretari Ilichev bajarib turadi. U “Pravda”ga Stalin paytida ham muharrirlik qilgan. Xrushevning yordamchilaridan Shuyskiy bilan Troyanoskiy qolsin. Ular bizga ko‘mak etishdi. Lebedevning javobini bering. U so‘nggi damgacha xo‘jayiniga sodiq qoldi. Bular orasida bizga eng sadoqatlisi Shuyskiy chiqdi. Unga yaxshi vazifa beramiz. Xrushevdan norozi bo‘lib yurgan Markazqo‘mning sobiq sekretarlari Ignatov, Furseva va Aristov ham bizdan katta amal kutib o‘tirishibdi. Biroq ular bizni tan olishni istamaydilar. Telefonlari tinglanib, doimiy nazoratda saqlashni tashkil eting. Xrushev kabi sotsializmda ham siyosiy kurash bo‘lishini unutib qo‘ymasligimiz kerak. Unutgan dam-u daqiqamizda Xrushevning kuni boshimizga tushadi. Do‘stmi, dushmanmi, xayrixoh-u noxayrixohmi, odam bolasiga ishonib bo‘lmaydi Mixail Andreyevich. Butun ideologiya, madaniyat va ma’rifatni o‘z qo‘lingizga oling, – haqiqiy yo‘lboshchi kabi qo‘nishardi Brejnev. – Ishdan bo‘shatilganlarning oilasi va bola-chaqasi och qolmasin.

...Oktyabr davlat to‘ntarishidan bir oylar chamasi o‘tgandi. Brejnevning ish stolida KGBning “Mutlaqo maxfiy” grifi bilan yetkazgan hisoboti turardi.

“Gruziya Kompartiyasi Markazqo‘mining ikkinchi sekretari Pyotr Radionov Moskvaga kelganida RSFSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Nikolay Ignatovga qo‘ng‘iroq qildi. Ular orasida quyidagi mazmunda telefon qo‘nishmasi bo‘ldi:

– Ha kaptarim, tumshug‘ing ko‘tarilib qoldimi? Moskvaga kelasan-u xonamga kirish nari tursin, qo‘ng‘iroq ham qilmaysan? –dedi Ignatov.

– Qimmatli vaqtingizni olmayin deyman-da, – javob qildi Radionov.

– Oldimga kel, albatta, gaplashishimiz kerak, – huzuriga chorladi Ignatov.

Radionov Delegatskaya ko‘chasidagi RSFSR Oliy Soveti va hukumati joylashgan binoga keldi.

– Biz ahmoq ekanmiz Petr! Bu ilonning yog‘ini yalagan Lisa Patrikeyevani hokimiyat tepasiga keltirib xato qilibmiz. Uning darajasini bilasan. Uzog‘i bilan oblispolkom raisligi. Atrofiga o‘zidan ham savodsiz, chalasavod va pachaqlarni to‘plamoqda. Ishonasanmi, u rus tilida insho nari tursin, diktantni ham tuzuk-quruq yoza olmaydi.

– Urush paytida Novorossiyskda uning she’rlarini qo‘shiq qilib aytishar edik-u, – hayron bo‘ldi Radionov. – Yoki birov yozib berganmi?

– Shunga o‘xshagan. U qoralama qilgan, qo‘l ostidagi qalami bor ofitserlar og‘zi-burnini to‘g‘rilab, ashulaga aylantirishgan. U barcha iqtidorli va aqllilarni Kremldan uzoqlashtirmoqda. Hademay bizning ham tagimizga suv quysa kerak.

– Suv quysa “Personalniy pensioner SSSR” bo‘lib yuraveramizda. U faqat o‘zi bilgan va ishongan kishilarni yoniga oladi. Kallang Lenindan ham yaxshi ishlasa-da uning uchun bir tiyin. Aqli idroking, bilim-u tajribang emas, ko‘ppak kabi sadoqating kerak unga. Tirik ekan, Stalin kabi taxtini hech kimga bermaydi. Nikita Sergeyevich uning oldida avliyo bo‘lib qoladi. Ko‘rasan hali.

– Qanday yo‘l bilan bo‘lmasin, undan qutulish chorasini topish kerak. Aks holda birin-ketin barchamiz Molotovga o‘xshab, oziq-ovqat magazinlarida navbatga turib, yarim kilo pishlog‘-u kolbasa olib, itning keyingi oyog‘i bo‘lib qolamiz, – Brejnevga bo‘lgan nafratini yashirmasdi Ignatov.

– Menimcha poyezd o‘tib ketdi. Endi u hech kimni ayamaydi va o‘ziga juda yaqin, ishonchli bo‘lmaganlarning barchasining dumini tugadi. Unga oqil-u dono, ishning ko‘zini bilganlar emas, sadoqatli, yetovga yurib tinimsiz dumini likillatib, atrofida o‘ralashadigan laychalar kerak. Sen bilan men bu ishni uddalay olmaymiz. Biroq u haqiqatan ham aqlli va adolatli inson va rahbar bo‘lganida so‘ziga quloq solib, aytgan yo‘liga yurar edik. Pastlarga xizmat qilmoq uchun ulardan-da past bo‘lishing kerak. Bu ish bizning qo‘limizdan kelmaydi. Sen-u mendagi tuyg‘u va kayfiyat o‘zini bilgan va o‘z qadriga yetgan, shaxs sifatida shakllangan barcha kishilarda bo‘ladi. O‘zini bilgan odam o‘zidan past, past bo‘lganda ham har qanday tubanlikka boradigan kimsaga bo‘yin eggisi kelmaydi – deya suhbatdoshining fikrini davom ettirdi tik turgancha burqsitib sigareta tortayotgan Radionov.

– Bir nozik masala bor. Men so‘ylayin, sen eshit do‘stim. Buni menga KGBdagi shogirdlarim aytgan edi. U paytda e’tibor bermagandim. Endi o‘ylab qarasam bu ma’lumotni xorijiy matbuotga sezdirib, uning rasvosini chiqarib bo‘ladimi yo‘qmi? Sen ham ayni damda Gruziyada KGBni nazorat qilasan va fikringni ayt, – ish kursisidan turib kelib shivirlagan ovozda qoshini chimirib atrofga alangladi Ignatov.

– So‘yla-chi, – javob qildi Radionov yozuv apparati qay bir burchakka qo‘yilgan ekan degan o‘yda xona shiftiga boqarkan.

– Yaxshi bilasan. Stalin o‘limidan so‘ng Malenkov, Molotov va Beriya uni Markazqo‘m sekretarligi va prezidium a’zoligidan haydab, mudofaa vazirligi Siyosiy boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari qilib jo‘natishgandi. U bir yil chamasi, Nikita Sergeyevich Xrushev Markazqo‘mga chaqirib olguniga qadar tezak bosib, ofitserlar orasida tentirab yurdi. Boshlig‘i general Jeltov ham uni bir chaqaga olmasdi. Ministr Georgiy Konstantinovich Jukov esa Jeltovni haydab, Armiya siyosiy boshqarmasini tarqatib yuborish niyatida edi. Shunday qilinsa, Brejnev ham ko‘chada ishsiz qolardi. Brejnev Xrushevning yonida turib Jukovni balchiqqa belab sazoyi qilish kompaniyasiga bosh-qosh bo‘lishining asosiy sababi ham shunda. Nikita Xrushev odamgarchilik qilmaganida bugungi kunlarni tushida ham ko‘rmasdi. Bu muttaham esa o‘zini axlat qutisidan olib chiqib odam qilgan, SSSRdek katta mamlakatning ikkinchi shaxsiyati va rahbariga aylantirgan ustozidan eshak o‘g‘risi yasadi. Sazoyi qilib, ko‘chaga haydadi. Senga aytajak gapim bu emas. Uni Armiya siyosiy boshqarmasidan Markaziy Komitetga o‘tkazish jarayonida Jeltov o‘rniga Xrushev general Yepishevni keltirdi. Shu jarayonda Yepishev mening kabinetimga kirib, qahva icharkan, uning shaxsiy delosini oldimga surib qo‘ydi. Bu voqea 1954-yil 27-fevral, KPSS Markaziy Komitetining “O‘rtoq L.I.Brejnevni Qozog‘iston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi sekretari qilib saylash va Mudofaa ministrligidagi vazifasidan ozod etish haqida”gi qaroridan bir kun burun yuz bermoqda. General-leytenant Leonid Brejnevning shaxsiy delosini varaqlab turib hayratdan yoqa ushladim.

Sigaretasini qayta yoqqan Ignatov atrofga alanglagancha suhbatdoshini oromkursiga o‘tirishga da’vat qilib, so‘zida davom etdi.

– Hujjatlar ilk to‘ldirilganda “millati” degan joy bo‘sh. Urush paytida esa bu chiziq ustiga “millati ukrain” deb yozilgan. 1947-yili unga berilgan pasportda ham millati ukrain deya qayd etilgan. Moskvaga ishga kelishi bilan hujjatlarga millati rus deya yoziladi.

– Qoyil! – dedi hayron bo‘lib Radionov. – Millatini ukrain yozmaganida Ukrainada obkom sekretari bo‘la olmasdi. Asosiy maqsadiga erishish uchun bir yumalab rus bo‘lib qolgan ekan-da bu juhudforma qoraqosh do‘stimiz.

– Sen bekorga juhudforma demading. Bu nayranglarning barchasi ana shu – yahudiyligini yashirish uchun qilingan o‘yinlardir. So‘ylaganing kabi qoyil qolmay ilojing yo‘q. Odamlar, xalq biladimi, bilmaydimi, Amerika va SSSR degan dunyoning ikki katta davlat-u mamlakati ana shularning qo‘lida. Bizlar esa ammamning buzog‘i bo‘lib, og‘zimizga ip o‘lchaganlar ortidan ergashib yuraveramiz. Yepishevning aytishicha u yahudiy ismi familiyasini yashirish uchun Brejnevo degan qishloqning nomini olgan.

– Stalin tirikligida hukumat raisi vazifasiga tayinlagan, bu haqdagi hujjatga Siyosiy byuro a’zolari imzo chekib, e’lon qilinishiga bir kun qolganida Stalin vafot etdi. Fikrlashda Panteleymon Kondratevich Ponomarenkoning tizzasiga ham kelmaydigan Xrushev uni itdan behurmat qildi va o‘zi ham itdan hurmatsiz bo‘lib olamdan o‘tdi.

– Tezakchining tengi bor, o‘roqchining o‘rni bor degandek, makkachi dohiy ham atrofiga aravakash-u cho‘chqaboqarlarni to‘pladi. Hech bir rahbar o‘zidan aqllilarni yoniga yo‘latmaydi. Yo‘latsada ko‘p o‘tmay kavushini to‘g‘rilaydi.

– To‘g‘ri aytasan. Tentak to‘rini, telba to‘nini bermaganidek, qoraqosh hamkasbimiz endi bizni Kremldan uzoqlashtiradi. Ponomarenko haqiqiy demokrat edi. Xrushev undan qutulish uchun madaniyat ministri qilib jo‘natdi. U besh yil Belorusiyani boshqarib, mamlakatni yuksaltirgandi.

– Bu gapni menga Stalin davrida qishloq xo‘jaligi ministri bo‘lgan Ivan Benediktov aytgandi. Shunday gap bo‘lgan. Brejnev uchun Qozog‘istonga ikkinchi sekretar bo‘lib ketmoq Tangrining inoyati edi. Bu orada Xrushevning “Qozog‘iston va G‘arbiy Sibir yerlarida don maydonlarini kengaytirish” haqidagi Markazqo‘m Prezidiumiga yozgan maktubi e’lon qilindi. Bu tashabbusga Qozog‘istonning birinchi rahbari Jumaboy Shoyaxmatov qarshi chiqib, ming yillardan beri chorvador mahalliy xalqqa yaylov vazifasini o‘tab kelayotgan yerlarni o‘zlashtirish – milliy manfaatlarga zid debdi. Albatta bu o‘pka makkajo‘xorikorga ma’qul kelmadi va uni ishdan haydadi. Qozog‘istonga Belorusiyadan Ponomarenkoni birinchi sekretar qilib jo‘natishdi.

– Qozoqlar O‘rta Osiyo xalqlari orasida eng jasur, bo‘ysunmas qavm sanaladi. Ularning Kichik juz degan urug‘i 1602-yili yalinib-yolvorib, Rossiya imperiyasi grajdanligiga kirgan bo‘lsalar-da, haq-huquqlari toptalishi bilan bosh ko‘taradilar, – Ignatovning so‘zini davom ettirdi Radionov.

Shundan so‘ng u tomonlarda o‘ris bo‘lmoqchi esang, avval qozoq bo‘l degan ota so‘zi paydo bo‘lgan. Boshqa turkiy va forsiy elatlar qozoqlarni Rossiyaning bosib olishi uchun Turkistonning darvozasini ochib berishda ayblashadi.

– Bu paytda Xrushev tek xo‘jayinga aylanmagani uchun Prezidium a’zolarining fikriga quloq solar edi. Aks holda jini suymagan Ponomarenkoni Qozog‘istonga birinchi qilib yubormasdi.

– Rus, qolaversa slavyanlardan milliy respublikalarga birinchi va ikkinchi sekretarlarni tayinlash siyosatining o‘zi noto‘g‘ri. Ikkinchi sekretar aslida jilovni tutib turgani yetmaganidek, yana bir rusni birinchi rahbar qilib yuborishning o‘zi xato. Qozoqlar birinchi va ikkinchi rahbarimiz ham rus bo‘ladimi deya norozilik bildirishgan. Brejnev Qozog‘iston fanlar akademiyasi prezidenti Dinmuhammad Kunayevni “Kelajakda sen birinchi bo‘lasan” deb ishontirgan shekilli u o‘z millatdoshlarini tinchitgan.

– Xrushev Ukrainada, Ponomarenko Belorusiyada birinchi bo‘lishganda oralaridan olamushuk o‘tgan. Qolaversa, Ponomarenko Malenkovning qodiri. U Malenkovning qo‘lida instruktor edi. O‘ttiz olti yoshida Belorusiyaga birinchi bo‘ldi. Xulosa qilib aytganda millatini o‘zgartirishi masalasini oshkor etishdan ham bir ish chiqmaydigan ko‘rinadi nazarimda. Qaytaga boshimizni baloga suqamiz, – dedi hafsalasi pir bo‘lib Radionov xona bo‘ylab yurib kelib oromkursiga og‘ir cho‘karkan.

– To‘g‘ri, u shaytonning erkagi. Senga shayton xavf solsa qo‘rqma, sabab u bir kishi, biroq ayol zoti xavf solsa qo‘rq, boisi ular ikki kishi, ortida shayton turadi deydilar. Bu ustoz shayton atrofiga yosh-u qari shaytonvachchalarini to‘playotir. Bir olkishlasa bu kuchukvachchalar bizni tiriklayin go‘rga tiqadilar. Och qornim, tinch qulog‘im deb o‘tirishga to‘g‘ri keladi. Qolaversa, tilab olingan izzat o‘limdan qattiq. Biz xush ko‘ramizmi, xush ko‘rmaymizmi Brejnevning Stalin va Xrushevdan o‘lsa o‘ligi ortiq. Beriya qatag‘onlarini qoralab, Sibirdagilarni ozod qilgan Xrushev davrida ham millatchi aybi taqalib milliy respublikalarda yuzlab kishilar jazolandi. Brejnev bu kabi ma’naviy va jismoniy qatag‘onlarga yo‘l qo‘ymasa kerak. U ko‘ngilchan, ta’sirlansa ko‘z yoshini tiya olmaydigan kishi. Bundaylardan ashaddiy diktator chiqmasa kerak deb o‘ylayman, – deya hamfikrini kuzatmoq uchun o‘rnidan turdi Ignatov. – Hozircha bu xususda ikkimiz gaplashdik. Tuya ko‘rdingmi yo‘q, do‘stim. Malikangga mendan salom so‘yla.

Ignatov bilan xayr-xo‘shlashib chiqqan Radionov xayol surgancha Moskva daryosi bo‘ylab piyoda ketib borardi.

Stalin vafotidan so‘ng odamlar yig‘lashib-siqtashsa-da erkin bir nafas olgan, oilasidan kimdir otilgan yoki qamalgan kishi kelajakka umid ko‘zi bilan boqib, qariyb qirq yildan beri intiqlik bilan kommunizmni kutishardi...

Qirq yil mobaynida tinimsiz va ashaddiy ravishda olib borilgan targ‘ibot va tashviqotdan boshi aylanib garang bo‘lib qolgan xaloyiq bu g‘oyalar va havoyi gap-so‘zlarning xayoliy ekanligini o‘ylab ham ko‘rmas, ko‘r-ko‘rona ishonardi.

Xrushevning taxtidan ag‘darilib, o‘rniga Brejnevning kelishi non do‘konlarida navbatda turganlar safini kamaytirgan, barcha zamon-u davronlarda bo‘lganidek, odamlar yangi rahbardan qandaydir yangiliklar, hayotlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berishini beklashardi.

Yo‘l bo‘yidagi gazeta do‘konidan “Qardosh xalqlar she’riyati” kitobini xarid qilgan Radionov o‘zbekistonlik shoirning bitigini o‘qigancha yo‘lida davom etdi.

Davri davron tersa do‘nsa,
Bir xoqonlar yasalur.
Asli tamiz oqillardan,
Xor insonlar yasalur.
G‘ofil-u osiy, nokasdan,
Pir, rahmonlar yasalur.
Yaloqi, maddoh qavmdan,
Zo‘r shaytonlar yasalur.
Munofiq-u muttahamdan,
Ko‘rsultonlar yasalur.
Ena emchagin qirqardan,
Ibn Usmonlar yasalur.
Shohlar gado, gadolar shoh,
Har imkonlar yasalur.
It-u to‘ng‘iz terisidan,
Zar ultonlar yasalur.
El-u yurtin sotarlardan,
Or, vijdonlar yasalur.
Siyosatning siltovidan,
G‘ar otinlar yasalur.
O‘g‘rilarga o‘rtoqlardan,
Nor imomlar yasalur.
Qurbaqa-yu itbaliqdan,
Ko‘rilonlar yasalur.
O‘lja poylar mushuklardan,
Sher, qoplonlar yasalur.
Ulus, ummat xarob – dilda,
To‘r, gumonlar yasalur.
Charx do‘nar, davron do‘nar,
Hur zamonlar yasalur

2. Och bachchag‘ardan qoch bachchag‘ar! Haddini bilmas halok o‘lur! Mansabdan tushganning do‘sti bo‘lmas, ishonmasang tushib ko‘r! Bir kishi taxtga chiqsa, qirq kishi otga minadi yoxud balchiqqa belangan Belyayev.

Xorazmda eramizdan 3309 yil burun turklar yashab, davlat qurgan. Bu Makedonskiydan 980 yil burundir. Buxoro vohasi turklar bilan to‘la edi. Buxoro shahriga turk hoqonining o‘g‘li Qora Churin (Shiri Kishvar) asos solgan.

Beruniy

Biz Turkiston turklari tamom bir-birimiz ila shaxsiy adovat, manfaatparastlik ila mashg‘ulmiz. Bir otaning bolasi bo‘lgan turklar bir-birimizga sart, totor va qozoq ismini taqub, bir-birimiz ila doimo urushmoqda va talashmoqdamiz, dushmanlar esa turklik daraxtini yiqmoqdalar.

Akmal Ikromovning “Turk yoshlariga murojaat”idan.

Inson o‘ta aqlsizdir, u burgani ham yarata olmaydi, lekin qo‘yib bersangiz, o‘nlab xudolar yaratib oladi**.**

Monten

Men tirik ekanman, nonning narxi oshmaydi.

L.Brejnev

Men prezident ekanman, nonning narxi oshmaydi**.**

I.Karimov

O‘n uchinchi yanvar 1954-yili KPSS Markaziy Komitetining Qozog‘istonda kadrlarni prinsipial almashtirish haqidagi qarori qabul qilindi.

Beshinchi fevral kuni Moskva ta’limoti bo‘yicha qishloqqa qoniqarsiz rahbarlik qilganligi uchun birinchi sekretar Jumaboy Shayaxmetov va ikkinchi sekretar Ivan Afonovlar vazifalaridan ozod etildi.

Bo‘shatilganlar o‘rniga Markaziy komitet a’zolari Ponomarenko va Brejnevga ovoz berishdi. Fozil Karibjonov Markazqo‘mning qishloq xo‘jaligi bo‘yicha sekretari etib saylandi.

1954-yil 23-fevralda KPSS MK plenumi qo‘riq yerlarda don ishlab chiqarishni ko‘paytirish haqida qaror qabul qildi va Qozog‘iston qo‘riqlari bu muammoni hal etish uchun asosiy maydon ekanligi ta’kidlandi.

– Biz Qozog‘istonning yangi rahbariyatiga 1954–1955-yillar davomida olti yarim million gektar yangi yerlarni o‘zlashtirish vazifasini yuklaymiz! – dedi Nikita Xrushev plenum minbaridan turib.

– Sovet xalqini eng hayotiy zarur ashyo – don bilan ta’minlash masalasi partiya va davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, hayot-mamot masalasiga aylanar ekan, qozoq tuproqshunos mutaxassislari internatsionalizm pozitsiyalaridan chekinib, milliy mahdudlikka yo‘l qo‘yib, bu olamshumul muhim ishga qarshilik ko‘rsatmoqdalar! – deya qozoq mutaxassislarini millatchilikda aybladi yangi birinchi rahbar Ponomarenko qovun tushiraroq uxlab yotgan ilonning boshini qo‘zg‘ab.

Zotan, qozoq tuproqshunoslari haq bo‘lib chiqdilar. Dahshatli chang-u to‘zonli bo‘ron ekin va shudgor maydonlarini qoplab, cho‘lquvarlar mehnatini barbod etdi.

Qozoq dashtlariga aql bovar qilmas hujum boshlandi. Ikki yil ichida o‘ttiz olti ming mexanizator, quruvchi va agronomlar yetib keldi. 1954-yili respublika chorak milliard pud g‘alla yetishtirdi. Bu raqam 1951-yildagiga nisbatan ikki yarim barobar ko‘p bo‘lib, o‘sha davrga ko‘ra rekord hosil yetishtirilgandi.

Artist-u ashulachi, shoir-u san’atchilarga yaqin va ularni xush ko‘radigan Leonid Brejnev xalqning ko‘nglini olish uchun respublika fanlar akademiyasining prezidenti Dinmuhammad Kunayev bilan osh-qatiq edi. Ularni umumiy xastaliklari – ovchilikdek noxush tirikchilik ham yaqinlashtirgan va topishtirgandi.

To‘la-to‘kis oshlog‘-u go‘zallar bezagan davralarni gullatadigan qoraqosh va kelishgan Leonid Brejnev ko‘zga yaqin birorta malaksiymoni ko‘zdan qochirmas, ko‘z tikkani hurliqoni nafaqat tun bilan, hatto kunduz bilan ham yolg‘iz qoldirmasdi.

Brejnev Kunayevga Dimash deya murojaat etar, Kunayev esa uni Lyona derdi. Lyonya ovchi do‘stini SSSR Oliy Soveti deputati etib saylatdirdi va qo‘yni qo‘njilarini to‘ldirishib, Moskva marosimlariga birga qatnaydigan bo‘lishdi.

Xonimsevar Leonid uchoqda ham styuardessalar bilan og‘iz-burun o‘pishib, sevishib ketaverar, turqi tarovati, kelishgan kelbati bilan har qanday mashhur artistni ortda qoldiradigan bu xushchaqchaq odamni barcha xonimlar-u erkaklar yaxshi ko‘rar va so‘ziga kirardi. U ilk uchrashuvdayoq har qanday kishida o‘ziga nisbatan simpatiya, xayrixohlik uyg‘otar, kimsa u haqda salbiy fikrga bormasdi.

1955-yilning marti. Qozog‘iston fanlar akademiyasining prezidenti Dinmuhammad Kunayev Moskva, Qozog‘istonning SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi vakolatxonasidagi bir kabinetda bo‘lajak SSSR Oliy Soveti sessiyasida so‘zlash uchun matn yozardi. Kutilmaganda uni doimiy vakil o‘z xonasiga chorladi. Vakil kabinetida Ponomarenko bilan Brejnev o‘tirishardi.

– Nima qilyapsiz? – so‘radi birinchi sekretar Ponomarenko.

– So‘zga chiqishga matn yozyapman, – javob qildi Kunayev.

Brejnev bilan Ponomarenko bir-biriga ma’noli qarab kulishdi.

– Boshingizni qotirmang. So‘zga chiqishga hojat qolmadi. Sizga bir taklifimiz bor. Markazqo‘m byurosida hozirgina biz sizni respublika Ministrlar

Sovetining raisi etib tasdiqladik, – dedi Ponomarenko tantanavor ohangda.

– Markazqo‘m direktivasini bajaraman, – javob qildi Kunayev mamnun jilmayib.

– Biz ham shunday fikrda edik, – gap qo‘shdi Brejnev sigaretasini kuldonga bosib o‘chirar ekan.

– Hozir Markazqo‘mga boramiz. Sizni o‘rtoq Nikita Sergeyevichga tavsiya etamiz. Tayyorlaning, o‘n daqiqadan so‘ng jo‘naymiz, – ogohlantirdi Ponomarenko. Xrushev Brejnev, Ponomarenko va Dinmuhammad Kunayevni Kremldagi kabinetida qabul qildi.

– Sizni bu lavozimga o‘rtoq Brejnev tavsiya etarkan, chin yurakdan qo‘llab-quvvatlaymiz, – dedi Xrushev Ponomarenko va Brejnevning Qozog‘iston bo‘yicha hisobotlarini tinglagach, Brejnev va Kunayevga qarab.

Hushyor Kunayev bosh sekretarning Ponomarenko so‘zlaganida qo‘lidagi bir siqim qalamni o‘ynab, yelkasi tirishganidan uni yotirmasligini, Qozog‘istonga markazdan uzoqlashtirib, so‘ngra o‘yindan chiqarish uchun jo‘natilganini sezdi. Do‘sti Lyonya va’da bergan birinchilik maqomiga bir qadam qolgandi.

– Sizga yangi vazifada basharlar tilayman, o‘rtoq Kunayev, – deya qo‘lini siqib xayrlashdi Xrushev yarim soatlik suhbatga yakun yasar ekan.

Uch arbob Xrushev huzuridan chiqqanda birinchi rahbarning Ponomarenkoni jini suymasligini yaxshi bilgan Brejnev Kunayevni chetga tortdi.

– Ponomarenko bilan apoq-chapoq bo‘lma. Katta uni yoqtirmaydi. Kechqurun o‘zing dachaga o‘t. Kabobchi yigitimiz hozirlik ko‘rib, arman konyagidan olsin! – buyurdi Brejnev. – Kun keladi, sen Siyosiy byuro a’zosi ham bo‘lasan Dimash, – dedi ishonch bilan.

Qozoq dashtlarini o‘zlashtirish davlat miqyosidagi muhim vazifaga aylantirilgan, bu kompaniyani shaxsan Xrushevning o‘zi nazorat qilardi va tez-tez tashrif buyurar, uzundan-uzoq yig‘ilishlar o‘tkazib, soatlarcha nutq so‘zlardi.

Xrushevning o‘ng tomonida Brejnev, so‘l tarafida Ponomarenko o‘tirar, Xrushev birinchi sekretarga qayrilib ham qaramas, shu bois u g‘amgin va mungli qiyofada alanglardi.

Aksincha, Brejnevning kayfi chog‘, bosh rahbarning har bir so‘zini ma’qullab bosh sollar, Xrushevning yuziga yaltoqlangancha tirjayib termilar, zo‘rma-zo‘raki kulardi.

Ponomarenko Qozog‘iston hayoti va xalqini o‘rganish uchun milliy adabiyotni o‘qir, qozoq ijodkorlari bilan do‘stlik aloqalari o‘rnatgandi.

– Bizni ulug‘ yozuvchimiz Muxtor Avezov xonadoniga taklif etmoqda. Birga borsak juda xursand bo‘lardi, – dedi Ponomarenkoning kabinetiga kirib kelgan Kunayev.

Shu payt bexosdan hukumatning maxsus VCH telefoni jiringladi. – Eshitaman Nikita Sergeyevich! – dedi trubkani olib Ponomarenko.

Kunayev birinchining ish stolidan uzoqlashib, oromkursiga borib o‘tirdi. Ponomarenko deyarli gapirmadi. Xrushev baland ovozda o‘n daqiqacha so‘zladi. Ponomarenkoning yuz qiyofasi tundlashib, qosh-qovog‘i uyilganidan turumni anglasa bo‘lardi.

– Xrushev qo‘ng‘iroq qildi. U bilan ishlab bo‘lmay qoldi. Og‘ziga kelganini gapirib, oniy qarorlar qabul qilishga o‘rganib qolgan bu odamni tizginlab, yo‘lga solib bo‘lmaydi. U borgan sari haddidan oshmoqda. Bilmaydiki, haddini bilmas halok bo‘lar. U siyosatdagi tom Ivan. Hech qachon Rossiyaning boshiga odam kabi odam kelmadi-da Dinmuhamed Ahmedovich. Uning darajasi rayijroqo‘m raisligi. Bizda yalangoyoq proletarlar va savodsiz mujik-u batraklardan siyosiy arboblar, davlat va hukumat rahbarlari yasab, avval boshdan xato qilingan. Yalangoyoqlar hokimiyat tepasiga keldimi, barchani o‘zi kabi yalangoyoq qilmaguncha qo‘ymaydilar. Bejizga xalq och bachchag‘ardan qoch bachchag‘ar demaydi. Telegraf orqali ariza beraman.

Oradan uch kun o‘tdi. Brejnev bilan Kunayev Ponomarenkoning kabinetida kunlik ishlarni muhokama qilishardi. Yana VCH zalvorla jiringladi. Bu gal tashqi ishlar ministri Vyacheslav Molotov qo‘ng‘iroq qilgandi.

– Xrushev niyatiga yetdi, – dedi Ponomarenko hafsalasizlik bilan telefon go‘shagini joyiga qo‘yarkan. – Molotov qo‘ng‘iroq qildi. Polshaga elchi bo‘lib borasan demoqda, – deya ichki telefon go‘shagini oldi. – Aeroport boshlig‘iga ayting samolyotni hozirlashsin Moskvaga uchamiz, – buyurdi yordamchisiga. – Byuro a’zolarini kabinetimga chorlang.

– Samolyot uch soat so‘ngra tayyor bo‘lar ekan, – dedi bir muddat so‘ngra yordamchi.

– Meni zudlik bilan Moskvaga chaqirishmoqda. Har holda diplomatik vazifaga o‘tkazishsa kerak. Balki qaytib ko‘rishmasmiz. Oz muddat bo‘lsa-da ahil va inoq ishladik. Birda yarim past-baland gapirgan bo‘lsam, uzr so‘rayman. Men sizlardan roziman. Sizlar ham mendan rozi bo‘lingiz, – deya byuro a’zolari bilan xayrlashdi birinchi sekretar ko‘zi yoshovlab.

Ponomarenkoni yo‘lchi etish uchun qo‘nalg‘aga Kunayevdan boshqa hech kim chiqmadi. Kunayev bilan xayrlashar ekan Ponomarenkoning ko‘zi jiqqa yoshga to‘ldi. Yarim yig‘i va yarim tabassum-la Kunayev bilan quchoqlashib xayrlashdi.

Uchoq uchgandan so‘ng Kunayev qo‘nalg‘a binosidan chiqib mashinasiga o‘tirdi. – Amaldan tushgan rahbarni o‘sha zahotiyoq unutadilar va o‘zlarini olib qochadilar. Aslida amal degani amallab tur, erta kunda birovga topshirasan degani. Biroq kamdan-kam odamlar bu haqda o‘ylaydilar. Bu vazifa o‘ziga abadul abad berilgandek mansab hoyu havasida havolarda uchib yuradilar, o‘zicha mushohada etib borar edi Dinmuhammad Kunayev. Hayot, amal-u mansabning usul-u uslubi shunday. Bir kishi taxtga chiqsa, qirq kishi otga minadi.

Olma-Otada yangi birinchi sekretar saylashga hozirlik ko‘rilardi.

– Ponomarenkoni Moskvaga chaqirishdimi, endi ishlashimiz qiyin bo‘ladi Leonid Ilich, – dedi ikkinchi sekretarning xonasiga kirgan markazqo‘mning qishloq xo‘jaligi bo‘limi mudiri Mixail Jixarev.

– U bilan birga ishlash men uchun oson kechmagan, – Ponomarenkoga bo‘lgan nafratini yashirmadi Brejnev.

Ponomarenkoni Polshadan so‘ng Niderlandiyaga jo‘natishdi. Bu yerda ham tinchlik berishmadi. Markazqo‘mning ijtimoiy fanlar institutiga kafedra mudirligiga keltirishdi. U bu dargohda uchinchi dunyo mamlakatlaridan kelgan talabalarga partizanlik urushini qanday olib borish haqida dars berardi.

Xrushevning taxtiga o‘tirgan qasoskor Brejnev eski raqibiga shu – kamtarona vazifani ham ko‘p ko‘rdi. Ponomarenkoni pensiyaga chiqarib yuborishni buyurdi.

Molotovga o‘xshab ko‘chada qolgan Ponomarenko hamkasbi Brejnevning motam marosimiga qatnashdi...

...1955-yilning avgustida bo‘lib o‘tgan plenumda Leonid Brejnev Qozog‘iston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari, Novosibirsk obkomining sekretari bo‘lib ishlayotgan Ivan Yakovlev ikkinchi sekretar etib saylandilar.

Nikita Xrushevning ishonchini qozonish va Kremlga qaytib borish uchun Brejnev jonini jabborga berib ishladi. U yarim kechagacha kabinetida o‘tirardi. Uzluksiz safarlardan toliqib, Semipalatinskda hushidan ketib yiqildi. Samolyotda uni Olma-Otaga, shifoxonaga jo‘natishdi.

– O‘shanda uch kecha uxlamagan edim, – dedi ishga qaytgach mulozimlariga.

Ikkinchi marotaba Selinogradda o‘zidan ketib qoldi. Tabiblarning tashuvchi zambilida ko‘zini ochdi. Uni ko‘pchilik oliy darajadagi madaniyatli kishi deb bilar, hatto norasmiy vaziyatda ham kimsaga sasini yuksaltirib, qo‘pol so‘zlamas, g‘oyat did bilan ozoda kiyinib, latifalarning uyini kuydirar, odamlar bilan birga qo‘shiq aytib, raqsga ham tushib ketaverar, tengma-teng yeb-ichardi. Biroq ellik beshinchi yil unga kulib boqmadi. Yoz mobaynida qo‘riqqa bir tomchi ham yomg‘ir yog‘madi. Cheksiz bug‘doyzorlar qurib qoldi. Shunda ham Xrushev o‘z shogirdiga og‘iz ochib bir nima demadi. Xrushev hamon uni qadrlar, Kremlga, yoniga keltirishni mo‘ljallab yurardi.

Partiyaning yigirmanchi syezdida u Qozog‘iston rahbari sifatida nutq so‘zladi. Syezddan so‘ng esa Olma-Otaga qaytmadi. Tashkiliy plenumda uni Prezidium a’zoligiga nomzod va Markazqo‘m sekretari etib saylashdi va Siyosiy byurodagi Xrushevning eng ishonchli odamiga aylandi.

U to‘rt yil burun haydalgan Kremlga qaytgan, mamlakat oliy rahbariyatining qudratli a’zosi edi.

Brejnev Staraya ploshaddagi kabinetiga kirar ekan, ortidan qurolli kuchlarni nazorat etuvchi Markazko‘m sekretari Averkiy Aristov kirdi.

– Mana Leonid Ilich! Tegishli organlarimizning siz haqingizda to‘plagan maxfiy ma’lumotlari. Qarshi bo‘lmasangiz, bu qog‘ozlarni birgalikda yoqib yuboramiz, – dedi Aristov cho‘ntagidan gugurt chiqarar ekan istirohat xonasi tomon yurib.

Bu qog‘ozlar orasida Leonid Brejnevning millatini o‘zgartirganligi haqidagi hujjatlar ham bor edi. Brejnev Xrushevning og‘zidan chiqqan har qanday fikrni ma’qullar, oniy qarorlar qabul qi-

luvchi Nikita Sergeyevich bilan hech bir xususda bahslashmasdi.

1958-yilning dekabrida Moskvada bo‘lib o‘tgan Markazqo‘m Plenumida Xrushev hech kim bilan maslahatlashmay qarorini e’lon qildi.

– Qozog‘istonga yangi rahbarlar tayinlaymiz o‘rtoqlar! – dedi u terlagan bo‘yin va peshonasini artib hansiragancha. – Belyayevni birinchi sekretar etib tayinlaymiz. Shu paytgacha birinchi sekretar bo‘lib ishlagan o‘rtoq Yakovlev ikkinchi sekretar bo‘ladi.

– Men ikkinchi bo‘lib ishlamayman. Iltimos, meni Qozog‘istondan olishingizni so‘rayman! – dedi solindan turib Yakovlev. Belyayevning ham Qozog‘istonda oti chopmadi. 1959-yil hosilini to‘kis yig‘ishtirib ololmadilar. Hosil erta yoqqan qor ostida qolib ketdi. Mo‘ljallangan to‘qqiz yuz million pud o‘rniga davlatga yuz million pud g‘alla topshirildi.

Bundan ham ayanchli holat butun SSSRni larzaga keltirdi. Temir Tauda Qarag‘anda metallurgiya kombinati quruvchilari maishiy sharoitning yomonligidan ishga chiqishdan bosh tortishdi. Moskva ilk koksli ko‘mir ishlab chiqaruvchi bu sanoat korxonasiga alohida e’tibor bergan, shaharga butun ittifoqdan yoshlar oqib kelayotgandi. Zarbdor qurilishga komsomol yo‘llanmasi bilan ishga kelgan o‘n besh ming nafar yoshlarni armiya palatkalariga joylashtirishgan, yemak-ichmakning tayini yo‘q, hatto ichimlik suvi ham tanqis edi.

Och va suvsagan yoshlar oziq-ovqat do‘konlarini talab, kvas solingan sisternani ichib bo‘shatishdi. Oshxonaga bostirib kirishdi. Militsiyaning paydo bo‘lishi bilan tinchib, tarqalishdi. Militsiya bu norozilikni bezorilik deya rasmiylashtirib, ikki yoshni hibsga oldi va bu bilan haqiqiy isyon boshlanishiga sababchi bo‘ldi. Qolgan yoshlar “O‘rtoqlarimizni ozod etamiz!” shiori bilan butun shahar bo‘ylab namoyishga chiqishdi. To‘s-to‘polon boshlandi.

Spirtli ichimliklar ichgan namoyishchilar magazinlarni talab duch kelgan binoga o‘t qo‘yishardi. Rayon ichki ishlar bo‘limini egallab, soldat va militsionerlarga hujum qilishdi.

Xrushev ko‘rsatmasi bilan Temir-Tauga Leonid Brejnev keldi. U to‘g‘ri isyonchilar orasiga kirib borib, ularni tinchitdi. Biroq namoyishchilarga o‘t ochishni o‘zi buyurgan, buning oqibatida o‘n bir kishi halok bo‘lib, so‘ngra besh yarador vafot etgandi. Yuzdan ortiq soldat va ofitserlar yaralanib, qirq ikki kishi jinoiy javobgarlikka tortildi.

Mojaro Markazqo‘m Prezidiumida ko‘rildi. Birinchi kotib Belyayev o‘z aybini tan olmadi.

– Masalani ikkinchi oktyabrda so‘nggi bor ko‘rib chiqamiz. Ayni damdagi tashkiliy xulosa va choralarimiz quyidagicha, – deya Prezidium qarorini ma’lum qildi Xrushev. – Qurilish boshlig‘i Vishnevskiy ishdan olinib, partiyadan o‘chiriladi va ishi sudga o‘tadi. Qarag‘anda obkomining birinchi sekretari Isayev vazifasidan ozod etilib, bir yil muddatga partiyadan o‘chirilib, Verx-Iseysk metallurgiya kombinatining issiqlik sexiga smena boshlig‘i etib tayinlanadi. (Isayev asabiylashuvdan ko‘rmay qolib, ko‘p o‘tmay hayotdan ko‘z yumadi). Qarag‘anda sovnarxozining raisi Anik partiyadan o‘chirilib, ishdan olinadi. Qozog‘iston ichki ishlar ministri Shiroqbek Kabilbayev ham vazifasidan ozod etiladi. (Bir necha yil so‘ngra Brejnev uni vazifasiga qaytaradi.)

Prezidium qarorini g‘oya bo‘yicha asosiy qassob Mixail Suslovga uzatgan Xrushev shaxt bilan telefon trubkasini oldi.

– Salom Misha! – dedi u sasini yuksaltirib Chelyabinsk sovnarxozining rahbari Mixail Sergeyevich Solomensevga. – Hoziroq Qarag‘andaga uchasan. Seni obkomning birinchi sekretarligiga tavsiya etamiz! Boshni qotirma! Vaziyatni o‘sha yerga borib o‘rganasan! Partiyaning soldati bo‘lsang, chest berib topshiriqni bajarasan! Quloq solmasang ana u juda aqlli Ponomarenkodek dono boshingni sovutib kelish uchun xorijga jo‘nataman! Albatta, elchilik lavozimiga lozim topilsang! – dami baland edi BMTning minbarini botinkasi bilan urgan Xrushevning.

Qayta muhokamada Belyayev Brejnev xulosalarini tan olib, aybiga iqror bo‘ldi. Qozog‘iston rahbarlari ham bosh aybdor sifatida Belyayevni tanqid qilishdi.

Qozog‘istonga yana yangi rahbar topish va tayinlash vazifasi turardi. Belyayev o‘rniga eng munosib, Qozog‘istonni besh qo‘ldek biladigan rahbar Leonid Brejnev edi...

...Biroq Brejnev ikki dunyo bu sahrolarga qaytib bormaslikka qasam ichgan va o‘z vaqtida choratadbirini ko‘rib qo‘ygandi. Qolaversa, Xrushev bu qadar sadoqatli shogirdini o‘zidan uzoqlashtirmasa kerak...

...1957-yil.

– Men yo‘lini qilib, seni Nikita Sergeyevich bilan tanishtirib yaqinlashtiraman. Bir necha qadahni uning sog‘ligi uchun astoydil bo‘shatasan Dimash, – dedi kabinetiga shotland viskisi va shokolad qutisini ko‘tarib kirgan Kunayevga.

– Juda yaxshi bo‘lardi, Lyonya. Bilasan-ku, men sening sadoqatli do‘stingman. Hayot ekanman, qayerda bo‘lmasin, sen uchun turib beraman, – bu gapdan yayrab ketdi Kunayev.

– Oktyabr inqilobi bayrami munosabati bilan Katta Kreml saroyida Kommunistik va ishchi partiyalari rahbarlari yig‘ilishi qatnashchilari sharafiga tushlik beriladi. Butun jahon xalqaro kommunistik harakatning yo‘lboshchilari jam bo‘lishadi. Sen xotining bilan bizning stolga o‘tirasizlar. Nikita Sergeyevich bilan muloqotda dadil bo‘l, – ta’lim berdi do‘stiga Brejnev.

Brejnev so‘ylagani kabi bu tadbir Kunayev hayotidagi hal qiluvchi voqea bo‘ldi. Qo‘noqlar yig‘ilishgach, Granovitiy palataning eshiklari keng ochilib, terlagan boshi yaltirab, orasi ochiq tishlarini ko‘rsatgancha sertabassum Nikita Xrushev chiqib keldi.

Brejnev va Kunayevlar oshlog‘ining hamtovoqlari Albaniya rahbarlari Anvar Xo‘ja va Mehmet Shaxular edi.

Brejnev shu tariqa sadoqatli do‘stini Qozog‘iston taxtiga hozirlagandi. Qadahi bilan aylanib, musofirlarga mulozamat ko‘rsatgan Xrushev Brejnevlar o‘tirgan oshloqqa yetib keldi. Kunayev bilan oyoq usti suhbatlashib, qadah urishtirdi...

...1960-yilning o‘n to‘qqizinchi yanvarida Olma-Otaga kelgan Leonid Brejnev plenumda Belyayevni balchiqqa belab, Dinmuhammad Ahmedovich Kunayevni Qozog‘iston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretarligi taxtiga o‘tqazdi va Kunayev bir umrga uning sadoqatli do‘sti hamda himoyachisi bo‘lib qoldi. Olma-Otaga ikkinchi sekretarlikka shu paytgacha Leningrad shahar partiyaqo‘mining birinchi sekretari bo‘lib ishlagan Nikolay Radionovni yo‘llashdi. Radionov haqini bermas qozoq mahalliy rahbarlari bilan til topisha olmadi. Telefonda o‘zi bilan gaplashgani ma’qul kelmagani uchun Xrushev uning ham pattasini qo‘liga tutqazdi. (Brejnev iqtidorga kelgach, uni Chelyabinsk obkomiga birinchi sekretar, so‘ngra Yugoslaviyaga elchi qilib yubordi.)

– Hurmatli Leonid Ilich! – deya telefonda murojaat qildi Kunayev Xrushevning qozoqlarga ma’qul kelmagan qaroriga e’tiroz bildirib. – Bizning bir necha rayonimizning O‘zbekiston va Turkmanistonga berilishidan xalq norozi bo‘lmoqda. Nega endi kelishilgan chegaralar buzilib, xalqlar o‘rtasida nizoli muammolar yaratish kerak? Men shu xalqning rahbari sifatida bunga rozi bo‘la olmayman va el meni kechirmaydi.

– Seni tushunib turibman, Dimash. Biroq shefning fe’l-atvorini bilasan. Bir masalaga kirishdimi, oxiriga yetkazmasa qo‘ymaydi. Fikringni yetkazaman, biroq seni qo‘llab-quvvatlay olmayman, – javob qildi Brejnev.

– Men Nikita Sergeyevichga ham bu haqda so‘yladim, e’tiroz bildirdim!

– Bekor qilibsan! Endi u seni kechirmaydi!

– Rozi bo‘lsam, meni xalq kechirmaydi, Leonid Ilich!

– Ikki otash o‘rtasida qolibsan, Dimash. Masalaga biroz ehtiyotkorlik bilan diplomatik yondosh!

– Yurting tuprog‘ini tortib olishayotganiga diplomatik yondoshib bo‘lmaydi, Leonid Ilich!

– Senga hech qanday va’da bera olmayman. Modomiki chekinmas ekansan, zarbaga hozir tur. Seni bu g‘avg‘odan eson-omon olib chiqishga harakat qilaman! – boshi qotgan edi Brejnevning.

– Sening Dimashmi-Simashmi degan ovchi og‘ayning ashaddiy millatchi ekan-ku? Biz bir Sovet davlati va mamlakati bo‘lsak, ming gektar maydonning bir respublikadan ikkinchisiga o‘tishining nima ahamiyati bor? – ensasi qotgandi Xrushevning. – Bu qozoq deganing o‘lgudek millatchi bo‘lar ekan. Demak, u respublikada internatsional tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Kunayevni vazifasidan olamiz. Oliy Sovet raisi Jumabek Tashenovni ham. Biroq Belyayev yoki Ponomarenkodek jazolamaymiz. Eski vazifasi Sovmin raisligiga qaytadi, – fikrini bayon etdi Xrushev.

– O‘rniga kimni tavsiya etasiz Nikita Sergeyevich? – Ismoil Yusupovni. U bu masalaga qarshi emas.

– Bilasiz, qozoqlar anchadan beri tepalariga o‘z millatdoshlari kelishini istaydilar. Ismoil Yusupov uyg‘ur millatiga mansub, – fikr bildirdi Brejnev.

– Nima, do‘stingga o‘xshab sen ham qozoq millatchisiga aylandingmi? Qayerda qoldi bizning buyuk internatsional e’tiqodlarimiz? SSSRda yo‘q

millatning o‘zi yo‘q bo‘lsa. Kim biladi sen bilan mening tanamda ham qay bir qavmlarning qoni oqmoqda.

– Har holda uni eski vazifasiga qaytarganingiz adolatli bo‘libdi Nikita Sergeyevich! Siz hech qachon va hech kimning burnini qonatmagansiz. Tashakkur sizga, – do‘stini saqlab qolganidan mamnun edi Brejnev.

– Ikkinchilikka Qarag‘andadan Solomensevni olib qo‘yamiz. Ma’qulmi? Brejnev tasdiqlab bosh irg‘adi.

...Brejnev kabinetiga Mixail Suslovni taklif etdi.

– Sizga ma’lum, o‘rtoq Suslov. Xrushev Ukrainaning ovozini o‘chirish uchun Kirichenkoni partiyaning ikkinchi shaxsiyati maqomiga keltirgan edi. Yaxshi bilasizlarkim, u bu vazifaning aravasini torta olmayotir. Buning ustiga o‘lgudek qo‘pol, yo‘nilmagan tayoq. Unga ikki ish variantini taklif qilamiz. Birinchisi Chexoslavakiyaga elchi qilib jo‘natish. Ikkinchisi Rostov obkomi birinchiligi. Siz u bilan gaplashdingizmi? – so‘radi Brejnev.

– Qo‘nishdim. U Rostovga bormoqchi, – javob qildi Suslov.

– Rostovda olti oy ishlasin, so‘ngra yo‘llanmasini qo‘liga tutqazing! – buyurdi Brejnev.

Siyosatning sirli o‘yinlari ichida qovrilib, bu ahmoqona va bema’ni yugur-yugurlardan bezgan, chalg‘ish uchun o‘zini xonimlar-u ichki sufralariga uradigan Brejnev eng muhim raqibi, partiyadagi ikkinchi katta shaxs – Kirichenkoning tagiga suv quyib, undan xalos bo‘lgandi.

– Sizga ruxsat, Mixail Andreyevich! Tushlik solinida ko‘rishamiz, – deya yuz gramm konyak otish uchun orqa tomondagi istirohat xonasi tomon yurdi Brejnev.

Istirohat xonasida xo‘jasining xizmatiga hozir ekonomka Natasha ikki qadahga konyakni to‘ldirib, uzum va banandan maza hozirlab turardi.

Zotan...
Saro-yu qasrlarga,
Toj deb suqilar boshlar.
Toj-u taxt havosida,
Kerilar quyuq qoshlar.
Maddohlar maqtoviga,
Jo‘rovoz bo‘lar qushlar.
Kim zar-u zo‘rdan sarmast,
Kimning ko‘zida yoshlar.
Parcha non deb chopar kim,
Kimdir oshaydi oshlar.
O‘sar bo‘lsang osarlar,
Ko‘kkada yetsa boshlar.
O‘sal bo‘lsang bosarlar,
Og‘izda qolar oshlar.
O‘rtada yursang pusib,
Bosarsan manzil, toshlar.
Tulporda qo‘shar birov,
Kimda omoch-u qo‘shlar.
Suv turar qattiq yerda,
Xor bo‘lar ko‘ngli bo‘shlar.
Ulusning holi ma’lum,
To‘rt bir yon xeli-xeshlar.
Qahri qo‘zigan qattol,
Shotirlarini kishlar.
Ko‘ppak ham kazzob qolib,
To‘ni yirtiqni tishlar.
Yurt yurtsizga qolganda,
Yig‘lar Samarqand, Keshlar.
Vatansiz Vatan sotar,
Ko‘ksini tig‘lar O‘shlar.
Telba tepaga chiqib,
O‘zini Temur peshlar.
Oqillar dami chiqmas,
Nodonlar uloq tashlar.
Azaldan kelgan kalom,
O‘lim – qolim-la eshlar.
Sulton zoti tanigan,
Itiga suyak tashlar.
Sulton tanimas otlar,
Depinib suvliq tishlar.

3. Siyosat – sixni ham, kabobni ham kuydirmaslik san’ati. Oniy qarorlar qiroli yoxud baytal qamchilagan shogirdning uch haftada yigirma bir marotaba nutq so‘zlab ustozidan o‘zgani. Xonimsevar Salomensev-u qodirlarni qulatgan Qo‘nayev-u Bag‘dodda botinkaga qo‘yilgan yodgorlik!

Sazoyi qilingan itni jazolash oson bo‘ladi**.**

Otaso‘zi

Inson Tangri darajasiga ko‘tarilishga intilayotgan maxluqdir. Bizning ko‘pgina kulfatlarimiz ana shunga qaratilgan sa’yi-harakatlarimizning ayanchli natijasidir**.**

V.Shekspir

Revolyutsionerlarni yo‘q qilish uchun revolyutsiya qilinadi**.**

M.Gorkiy

Afandilar! Dinsiz bir millat odimlay olmaydi. Islom shunday bir dinki, “Ilm Chinda bo‘lsa ham borib o‘rganing degan” payg‘ambarning ummatimiz. Bizning qoloqligimizga musulmonligimiz sababchi bo‘lmadi. Qachonki buyuk dinimizga bid’at va xurofotlar kiritildi, o‘sha payt asil Islomdan uzoqlashtirildik. Shu tufayli mana shu ahvolga tushdik.

Otaturk

Qozog‘istonni o‘ttiz yil mobaynida yetti yillik ayil maktabini bitirgan kishi (N.Nazarboyev) boshqardi. Va u Respublika Fanlar akademiyasini yo‘q qildi. (O‘zbekistonda ham ana shunday g‘ayri milliy va g‘ayri ilmiy ishga qo‘l urildi.)

Oljas Sulaymonov

Leonid Brejnev Nikita Xrushevni maqtash, ko‘klarga ko‘tarib paxta qo‘yish, har qanday nomaqbul va oxirigacha puxta o‘ylanmagan xomxatala gap-so‘z-u fikrlarini ham dohiyona deya talqin qilish borasida kimsaga birinchilikni bermas, yanglish so‘zlaganda ham hech taraddud etmasdan, o‘ylab-netib o‘tirmay ma’qullar, bunday fikrni faqat Nikita Sergeyevich ayta olishi mumkinligini uqtirardi va so‘nggi manzilga yetmoqning tek yo‘li ham shu ekanligini allaqachon anglagandi.

1960-yil 1-fevral. N.S.Xrushchevning Fransiyaga tashrifi Markazqo‘m Prezidiumida muhokoma etilmoqda.

– Menga ko‘ra Nikita Sergeyevich tasrifning o‘rtalarida, qulay bir fursatda xalqqa murojaat etib, albatta, nutq so‘zlashlari kerak, – dedi Brejnev jiddiy ohangda baroq qoshlarini chimirib.

– Men ham bunga ehtiyoj bor deb o‘ylayman, – gap qo‘shdi Xrushev.

– Bu juda ajoyib va kuchli bir chiqish bo‘lar edi, – Xrushevning daldasidan ruhlanib ketdi Brejnev. – Bu nutq dunyodagi butun ishchilar sinfi va Fransiya jamoatchiligining ko‘nglini ko‘tarib, hayratga soladi.

– O‘rtoq Leonid Ilich to‘g‘ri so‘ylamoqda. Bu nutq forma, mazmun va maqsad nuqtayi nazaridan juda katta odim bo‘ladi, – Brejnevni quvvatladi tashqi ishlar ministiri Andrey Gromiko.

(Davomi kelgusi sonlarda)

QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI MUZEYI: TARIX, IBRAT VA MA’NAVIY UYG‘ONISH

Ergashboy Jumaboyev, Andijon davlat universiteti matbuot kotibi

2026-yil 24-mart kuni Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti rektori texnika fanlari doktori, professor B.B.Akbaraliyev boshchiligida bir guruh faol talabalar “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish” maqsadida universitet tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyiga tashrif buyurdilar.

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, muzey katta ilmiy xodimi Baxtiyor Alimov ajdodlarimizning yurtimiz ozodligi va mustaqilligi yo‘lida olib borgan ko‘p yillik mashaqqatli kurashlari, Andijon tarixida yuz bergan muhim voqealar hamda uning ozodligi yo‘lida jonini fido qilgan insonlar hayoti haqida batafsil ma’lumot berdi. Muzey direktori, tarix fanlari doktori, professor Rustambek Shamsutdinov hamda universitet rektori Baxtiyorjon Akbaraliyevlar yoshlar bilan muloqot jarayonida muzey ekspozitsiyalari va qatag‘on davri voqealari haqida atroflicha so‘z yuritib, mustaqillik xalqimizning eng buyuk ne’mati ekanini alohida ta’kidladilar. Shuningdek, bugungi tinch va farovon hayot uchun shukronalik tuyg‘usida yashash hamda tarixdan saboq chiqarish yoshlar uchun nihoyatda muhim ekaniga urg‘u berdilar.







Mahbuslarni tergov qilish xonasi



Muzey katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Baxtiyorjon Alimov ekskursiya o‘tkazmoqda.